The problem of teaching English to pupils especially the problem of oral communication has such kind of difficulties among teachers and pupils. However, pupils understand commands and simple instructions of activities. Additionally, they can read and translate basic texts. Furthermore, pupils have difficulties with their speaking production, because they look apathetic in activities which involve oral skills. Many pupils feel afraid of criticizing and humiliated in front of their partners.As aresult, they avoid to participating this kind of speaking activities. For this reason, teachers should try to concentrate of the pupils' weak points.

In the English lessons the first and second grades study according to the communicative approach method, emphasizing the acquisition of new vocabulary related to the context in which pupils find themselves. In third, fourth and fifth grades are thought with the same method, by teachers, but a special emphasis on the reading and writing processes related to short narrative texts. In other grades English is studied based on the four skills reading, writing, listening and speaking. In tenth and eleventh grades teacher teach pupils strategies to help them get good results in the entrance exam to a university.

Keeping in mind that pupils feel afraid of speaking during the classes teacher should consider games as the best motivation to help them speak in an appropriate atmosphere. Games also provide students with opportunities for free expression. According to the idea mentioned above Mora and Lopera (2001) stated that " Games and fun activities have always been one of everybody's favorite things to do in a class both for teachers and students."

Teachers know that motivation plays an important role when they apply a game not only to get students concentration but also to produce better learning conditions. So, every lessons have some aims which are raise students knowledge by the best teaching learning process It is possible to choose the classification of games provided by Wright, Betteridge and Buckby (1984).There are such kind of games for developing teaching learning processes. For instance,

Caring and sharing games: This games pretend to encourage students to trust and get interested in others. They have the participants share personal feelings and experiences with other class member.

Guessing and speculating games: In these games someone knows something and the others must find out what it is. There are many and variations based on this simple idea.

Story games: These games provide a framework for learners to speech as well as write stories and share them with classmates.

Teachers use these games for developing speaking skills of pupils during the lessons and also they are useful in order to encourage the pupils participation.Some foreign teachers who were Columbia researcher teachers, used these games as ESL learners and got achievements developing speaking skills of students.

In conclude, developing oral communication help students for raising self confident and knowledge get better results. Finally, researcher teachers recommended the use of different visual aids (pictures, flash

cards, etc.) in order to develop even more the ability to speak in a free, comfortable and motivating way.

References

1. Mora, R . A & Lopera , M. C. Games in the classroom 2001
2. Wright, A , Betteridge ,D , & Buckby , M 1984. Games for language learning. Cambridge University Press
3. www.englishstudy

O'QUVCHILARNI MATN TUZISHGA O'RGATISH USULLARI

Norqulova Umida Qo'ldoshevna,
Navoiy viloyat Navbahor tuman 22-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola ona tili darslarida o'quvchilarni matn tuzishga o'rgatish usullari haqida yozilgan. Matnlarda g'oya va ifoda uyg'unligi hamda til va adabiyotning o'zaro uzviy bog'liqligi, ularning bir-birini taqozo etuvchi tushunchalar ekanligi haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: fikr, matn, komil inson, ta'lim standarti, matn.

"Odamlar o'zbek tilini kambag'al demasinlar, o'zbek tilini kambag'al deganlarning o'zi kambag'al."
Abdulla Qodiriy

Har bir millat o'z kelajak avlodida komillikni ko'rishni orzu qiladi. Shu sababdan o'zlari yaratgan doston-u ertaklarda, afsonalarda, badiiy asarlarda komillik darajasiga yetgan, har tomonlama ideal timsollarni shakllantiradilar va o'z zurriyotlarini ana shu timsollarga xos xislatlar ruhida tarbiyalashga harakat qiladilar. Davlatimiz tomonidan bu borada qator dastur va loyihalar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Jumladan, barkamol avlodni tarbiyalashning eng muhim o'chog'i hisoblangan ta'lim jahon standartlari darajasiga olib chiqilmoqda. Ana shunday keng imkoniyat yaratib berilgan maskanlarda barkamol avlodni tarbiyalashda o'ta katta mas'uliyat bilan yondashish kerak. Barkamol avlodni "Komil inson" g'oyasi asosida tarbiyalash lozimdir. Yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashda bobolarimizdan qolgan buyuk ma'naviy merosdan unumli foydalanmoq kerak.

Insoniyat jamiyatning vatanda yuz beradigan jami o'zgarishlar markazida turuvchi asosiy figura sifatida o'z hayoti va faoliyati bilan bog'liq tushunchalarni nomlashda tilda mavjud bo'lgan turli vositalardan foydalanadi, hayotiy tajriba va ko'nikmalariga asoslangan holda narsalar va hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi, ularga tayanib umumiylik va xususiylik, tur va jinsga oid bilimlarini umumlashtiradi. Shu tariqa kishilarning asrlar davomida shakllangan ijtimoiy-tarixiy tajribasi tobora mukammallashib muomala jarayonida qo'llaniluvchi til birliklari mazmunida o'z ifodasiga ega bo'ladi. Til kishilarning tarixiy hayotiy tajribalarini o'zida aks ettiradi va lisoniy zaxiralarni ajdoddan avlodga yetkazish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqot odamlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va o'zaro tushunishning murakkab ijtimoiy-psixologik jarayoni sifatida turli xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Jumladan, Verbal muloqot (belgili tizimlardan nutqda foydalanish) va noverbal muloqot (turli xil nutqiy belgili tizimlardan foydalanish)ni farqlash qabul qilingan.

Ona tili inson tafakkurining qay darajada ekanligini ko'rsatuvchi va o'zi xizmat qiluvchi millat yoki elat tarixidan guvohlik beruvchi qimmatli manba bo'lib, o'zida xalqning minglab yillar davomida to'plagan bilish tajribasini, uning urf - odatlari va etnik ideallarini, milliy xarakteri vataraqqiyot yo'lini aks ettiradi. Tilda mavjud bo'lgan va o'zaro aloqalarda faol qo'llaniluvchi lug'aviy birliklarning funksional xususiyati insonning voqelikni, voqelik faktlarini, hodisalarni atash uchun xoslanganligi bilan belgilanadi. Jamiyat hayotining muntazam ravishda taraqqiy etib borishi bevosita insonning tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga munosabati, o'z ijtimoiy layoqati va tavsifi, jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, hayot tarzi kabilarga chambarchas bog'liq. Bu aloqadorlik til taraqqiyotini, uning lug'aviy sathi yangi birliklar hisobiga tobora boyib, yangi tushunchalarni anglatuvchi so'zlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Nutqning u yoki bu ko'rinishi uchun xoslangan bunday birliklarning til tizimida tutgan o'rnini aniqlash, ularning so'zlovchi kommunikativ maqsadiga bog'liq holda qo'llanish imkoniyatlarini ochib berish til va jamiyat, til vatafakkur, til va nutq munosabatlarining mazkur masala bilan aloqador muhim tushunchalar ekanligidan dalolat beradi.

Keyingi yillarda badiiy matn, badiiy matn tahlili va talqini, matn turlari, badiiy matn va unda til birliklarining qo'llanish, umuman, matn bilan ishlash imkoniyatlarini adabiyotshunoslik hamda tilshunoslikning turli sathlari doirasida tadqiq etishga qiziqish sezilarli darajada kuchaydi va bu muammolar bugungi kunda ham kun tartibidan tushgan emas. Insonning eng nozik his-tuyg'ulari asosida yuzaga kelgan badiiy matnlarda o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsatish xususiyati kuchli tarzda namoyon bo'ladi. Badiiy matn shu ma'noda xalqimizning o'ziga xos mentaliteti, xarakteri, ijtimoiy turmush tarziga xos urf-odatlari, milliy-ma'naviy qadriyatlari va asrlar osha davom etib kelayotgan an'analarini o'zida yaqqol ifodalaydi. Ijodkor tomonidan hayotni teran va sinchkovlik bilan kuzatish natijasida yuzaga kelgan har bir ijod namunasida ma'lum ma'noda ijodkorning o'z davriga xos hayot tarzi aks etadi, unda keng qamrovli masalalar qatori badiiy adabiyotimiz muammolari ham bo'rtib turadi. Badiiy matnlar millat ma'naviy dunyoqarashi, orzu-istaklarini

tildagi mavjud usul va vositalar, lisoniy birliklar orqali yorqin ranglarda ifodalab beradiki, bu xususiyat uni san'atning boshqa turlaridan bir pog'ona yuqori ko'taradi. Shu o'rinda har bir badiiy ijod namunasining mukammal bo'lishi bevosita unda g'oya va ifoda uyg'unligidan iborat ekanligi, til va adabiyotning o'zaro uzviy bog'liqligi, ularning bir-birini taqozo etuvchi tushunchalar ekanligi ayon bo'ladi. Til va badiiy ijod orasidagi chambarchas aloqadorlik, shakl va mazmun yaxlitligi o'zbek xalqining shakllanishi va taraqqiy qilishidan guvohlik beruvchi shonli o'tmishi, turmush tarzi, dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy hayotida sodir bo'lgan tarixiy evrilishlar, ichki va tashqi ta'sirlar tufayli tilimiz lug'at tarkibining kundalik boyib borishidagi yangiliklar bilan hamohangdir. Yuqorida qayd etilganidek, bu holatlarning, avvalo, tilimiz lug'aviy sathida o'z aksini topishi sababi ham shunda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.-T, 2001.
2. Yo'ldoshev. J. Usmonov.S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.- T.:O'qituvchi, 2004.
3. Bozorov E., Musurmonova O.A. O'qituvchi ijodkorligi davr talabi. - T.:O'qituvchi.1991.
4. Jo'rayev R., Zunnunov A. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalashtirish omillari. O'qituvchilar uchun o'quv qo'llanma. -T.: Sharq, 2005.

IMPROVING COMMUNICATION SKILLS THROUGH GAMES

Nozimova Saidaxon Muxammadjanovna,
an English teacher of Andijan region,
Balikchi district, school № 14
s.nozimova@bk.ru/tel: 99 900 61 56

Annotation

This article is about how to improve communication skills in the English lesson. Interesting activities with their instructions are given.

Key words: communication, games, improve, skills, activity, students, create

The use of games contributes to the communicative-active nature of learning, psychological orientation lessons on the development of speech-thinking activity of students by means of the target language, optimization of intellectual activity of pupils in educational process, complexity of learning, intensification and development of group forms of work. Communication games are a type of cooperative games, because competitive elements or games that emphasize speed of execution violate the correct use of language. Communication games are based on various technologies, such as filling in gaps, guessing, searching, matching, exchanging, accumulating or collecting, combinations and card games, problems and riddles, role-playing games and playback. The use of communication games in English lessons helps to bring the learning process closer to real life.They help improve the relationship between students and the teacher, as the teacher acts as a communication partner in the game; create conditions for creating a creative environment; try to go beyond the limited communication in the classroom; create a situation where the student can play himself or a role that he likes; increase the time for speech practice. In addition, each participant of the game has the opportunity to show individual qualities.Younger students are happy to participate in game situations in the English lesson.For this age, storytelling role-playing games with fairy-tale content are especially suitable. Children play masks and costumes with great interest, and change their gait, gestures, and voice timbre depending on the role. According to psychologists, the behavior of children of primary school age is characterized by high activity and mobility. It is these age characteristics of students that allow the most successful and intensive use of role-playing games and tasks in the lower grades.

In upper grades, business games are successfully held in English classes, since in upper grades the importance of game situations increases, expanding the students ' understanding of the world around them, preparing the participants of the game for their future social role.The success of speaking development at this stage also depends on the ability of older students to use oral communication strategies, rely on previous speech experience, and possess a set of speech-organizing formulas. Unlike younger and older students, secondary school students often lack the desire to participate in communication in aforeign language in the classroom. The reason for this is the lack of motives that would encourage them to implement speech utterances. Also, some students do not have a stock of words with which to build a speech utterance. Another difficulty is the fact that at this age the motivation to learn a foreign language usually decreases. Encourage a student to make a speech at this stage can be using a story role-playing game of everyday content, since such games reflect different aspects of the student's life (study, leisure, work), reproduce fragments of his real life experience. Examples of role-playing games for students.

Activity 1.Party Invitation game. Duration: 10-15 minutes. Students of the entire group (8-10 people) are given cards in English with the reason for refusing to participate in the party (cold, mother's birthday, preparing for independent work, attending a concert, etc.). two cards are marked "Invitation accepted with gratitude". One student plays the role of a man who throws a party and is invited by his friends.

During this game, the following speech intentions are realized: accept and reject invitations, Express gratitude and regret, etc.

Activity 2.Family vacation game. Duration: 15-20 minutes. For this game, you need to divide the class into subgroups of 4 people. Everyone gets a card with the role: mother, father, brother and sister. Each participant offers their own version of the two-weeksummer vacation with an explanation of the reasons why the rest of the group should choose this option.The rest of the participants give their arguments and at the end choose one option that suits the whole family.

Activity 3. "Going to the Movies". This game is played in pairs.

Card of the first student: Invite your friend to go to the cinema and watch a James Bond film. Explain where the film is being shown and when it starts. If you do not understand anything your friend says ask

him/her to repeat what he/she said. Agree on where you will meet.

Card of the second student: Agree to go to the cinema with your friend, asks him / her what film is being shown, where you will meet and suggest the place where you will meet.

Thus, during the role-playing game, students are clearly convinced that the language can be used as a means of communication. The game activates the desire of children to contact each other and the teacher, creates conditions for equality in speech partnership, and destroys the traditional barrier between teacher and student. In addition, the game allows timid, insecure students to speak and thus overcome the barrier of uncertainty. In a role-playing game, everyone gets a role and must be an active partner in speech communication.

References:

1.Lynch, Tony. (1996). Communication in the Language Classroom. New York

2.Cameron, L. (2001). Teaching language to young learners. United Kingdom

3.Richards J.C and Theodore S. Rodgers. Approaches and Methods in Language Teaching Cambridge University Press, Cambridge, 2001

CHET TILLARINI O'RGANISHDA AXBOROT TEXNALOGIYALARINING AHAMIYATI.

Buxoro shahar 35-maktabning Ingliz tili fani o'qituvchisi: Nuriddinova Dilorom Sultanovna.
Buxoro shahar 35- maktabning Ingliz tili fani o'qituvchisi: Sirojova Shoxida Niyozovna.
Telefon:+998941215225
sardorkenjayev2020@mail.ru

Anotatsiya: Chet tillarini o'qitishda axbaraot texnalogiyalarining o'rni benihoya kattadir.Bugungi globallashayotgan zamonda axbarot kamunikatsiya tizimisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zamonaviy ta'limning samaradorligini oshirish maqsadida yurtimizdagi ta'lim muassasalari AKT ning eng so'ngi rusumdagi qurilmalar va jixozlar bilan davlatimiz tomonidan taminlanmoqda.

Kalit so'z: AKT,Ingliz tili, Vidio, Magtafon, Internet, Globallashuv, Madernizatsiya, Fan, Ilm.

Zamon va davr xukmiga qarab ilm-fan, madaniyat va texnologiya ham o'zgarib boradi. Shuningdek bugungi kunda, texnologiyalar asrida yashar ekanmiz har qanday sohada Axborot Kommunikatsion Texnologiyalaridan foydalanishga ehtiyoj tug'uladi. AKT vositalari zamonamizda shiddat bilan rivojlanib kundan-kunga takomillashib kelmoqda. Bu texnologiyalar rivojlangani sari chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ham tobora ortib bormoqda. Chet tillarini o'rganishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan tarzda yuqori darajada imkoniyatga ega bo'lish mumkin. Zamonaviy ta'limning samaradorligini oshirish maqsadida yurtimizdagi ta'lim muassasalari AKT ning eng so'ngi rusumdagi qurilmalar va jixozlar bilan davlatimiz tomonidan taminlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012 yil 13 dekabrdagi PQ 1875 -sonli qarori qabul qilingandan keyin yurtimizda chet tillarini o'rganishga, o'rgatishga bo'lgan yondashuv yanada ortdi. Chet tili darslarida AKTga ijodiy yondoshish nafaqat o'quvchilarda o'qishga qiziqish, balki fanni o'rganishga motivatsiyasini oshirish uchun ham yordam beradi. Bunda o'quvchilarning kommunikativ qobiliyati shakllanadi, fikr almashinuv jarayoni takomillashadi. Shu boisdan ham darslarda kompyuterdan foydalanishning bir qancha afzallik tomonlari mavjud. Har qanday inson AKT lardan foydalanar ekan, chet tilini o'rganishga ehtiyoj sezadi.Til o'rganishning samarali yo'llaridan asosiylarining deyarli barchasi AKT texnologiyalari orqali amalga oshiriladi masalan:

- Internet orqali; - Magnitafon orqali; - Video uskunalar orqali.

Biz chet tilidagi kino yoki video lavhalarni ko'rib til o'rganish uchun o'zimizga mos muhitni yaratib olishimizga imkoniyat yaratadi. Muxtasar qilib aytganda AKT sohasida chet tilining o'rni beqiyosdir. Globallashuv jarayonida hayotimizni AKT va internetsiz tasavvur qilish qiyin. Chet tilini o'rganish va o'qitish jarayonida ulardan unumli foydalanish mutaxasislarning ko'p yillik tajribalari asosida eng samarali usullardan deb tan olingan. AKT dan unumli foydalanish orqali dars mobaynida ortiqcha vaqtimiz tejaladi. Qisqa vaqtda ko'proq bilimga va sifatli samarador ta'lim tizimiga ega bo'lar ekanmiz, zamonaviy texnologiyalarni yanada ko'proq ta'limga qarata olishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Пармонов А.А. Молодой учёный. - М., №4(138), январь 2017 г.
2. Донцов Д. Анлийский на компьютере. Изучаем, переводим, говорим. - М., 2007.
3.Aripov H., Axborot Texnologiyalari.- Toshkent, 2008.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1875 sonli "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarin to'g'risidagi" qarori, Xalq So'zi. 2012.
5. http://refarat.uz sayti va boshqa qo'shimcha manbalar.

ONA TILI TA'LIMIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Obidova Kimyoxon Orifjanovna,
Namangan viloyati, Uychi tumani,
26-maktabning 1-toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
tel:+998 93 9449049

Annotatsiya

Ushbu maqolada ona tili ta'limida interfaol metodlardan foydalanish, o'quvchilarning idrok etish darajasini yuqori bo'lishga xizmat qilishi hamda dars samaradorligini oshishiga va natijaviyligiga erishish imkoniyatlarini berishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: interfaol, ona tili, metod, ta'lim-tarbiya, maktab, faol, dars

Hozirgi kunda yurtimizda barcha sohalarda shiddat bilan rivojlanish avj olmoqda. Jumladan, ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'lim-tarbiya yurtimiz kelajagi uchun qanchalik muhim ekanligini teran anglagan holda: "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ko'proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Darhaqiqat, bunday tarbiyaning tamal toshi umumta'lim maktablarida qo'yiladi.Maktablarda aniq va tabiiy fanlarga qaraganda ijtimoiy fanlarni, jumladan, ona tili va adabiyot fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarga "qanday ulug' zotlarning avlodi ekanligi", "o'zligiga sodiq qolish" tushunchalari chuqurroq singdiriladi. Buning uchun esa ta'lim beruvchi o'qituvchi har bir dars jarayoniga puxta tayyorlanib, mas'uliyat bilan yondashishi zarur.

Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Har bir inson har kuni qiladigan ishini xuddi birinchi marta qilayotgandek qilishi kerak. Shundagina ishda rivojlanish bo'ladi". Shunday ekan har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash uzluksiz ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, kasbiy tayyorgarligiga, uning yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. O'qituvchi davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini bajaradi, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda pedagog muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim.

Til va adabiyot fani o'qituvchisining mahorati o'z o'quvchilarini ta'lim jarayoniga faol ravishda jalb qila olish darajasi va ularning mustaqil aqliy va amaliy darslarini to'g'ri tashkil qilishi bilan belgilanadi. O'qitish jarayonlarida noan'anaviy ta'lim usullaridan: "Improvizasiya", "Aqliy hujum", "Debat", "Tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul", "Klaster usuli", "Muammoli vaziyat", "Idrok xaritasi, "Multimedia vositalaridan foydalanish" va boshqalarni qo'llash muhimdir. Bunda o'quv materiallarini bayon qilish emas, balki o'quvchilarning faol ijodiy ishlashini tashkil qila olish muhimdir. Shuni alohida takidlash joizki, bolalar ko'proq eshitganidan ko'ra ko'rganiga ishonishadi. Demak, bizning vazifamiz faqat aytib o'tish yoki ta'kidlash emas, balki aytganlarimizni ko'rsatib ham berishimiz lozim.

Bu interfaol metodlardan "Idrok xaritasi" metodi ona tilining har bir bo'limini o'tayotgan vaqtimizda katta samara beradi. Bundan tashqari takrorlash darslarida bu metoddan to'liq foydalanish lozim, ayniqsa, slayd ko'rinishidagi rangli tasvirda har bir yozuvning o'z o'rnida "jonlanib" turishi o'quvchini darsga bo'lgan e'tiborini tortadi. Bunda, avvalo, o'quvchilarni idrok etayotgan bilimlarini tekshirish mumkin. Shu nuqtai nazardan olinganda bilimni tekshirish ham qulay va ularni erkin fikrlashga undaydi. Har bir o'quvchiga iloji boricha mustaqil holatda idrok xaritalarini tuzishlarini vazifa qilib berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Biror bo'lim yoki bob yuzasidan qilinayotgan takrorlash darslarida idrok xaritasini tuzish lozim. Ular tuzgan idrok xaritalarini o'qituvchi, albatta, izohlab baholashi kerak. Shunda o'quvchilar o'zlari yo'l qo'ygan kamchiliklarni bilib olishadi. Dars jarayonida idrok xaritalarni o'qituvchi ham, o'quvchi ham birdek qo'llashi mumkin. Bunda bolalar o'zlari tuzayotgan idrok xaritalarini o'zlari izohlashi talab etiladi. Shunda o'quvchini nutqiy qobilyati ham o'sadi, ham baholanadi. Bu metod agar komyuterda slaydlar ko'rinishini aks etib, darsga to'liq jalb etilsa, quyidagicha samara beradi:bolalarni darsga qiziqishlari ortadi; shovqin bo'lib ketishini oldini oladi; o'quvchilar egallagan bilimlarini kengroq qamrovda idrok qiladi, fikrlash qobilyati o'sadi; bilimlari takrorlanadi va bu bilan mustahkamlashga erishiladi; tushunishi oson bo'ladi va mustaqil tahlil qila olish ko'nikmasi shakllanadi; ko'proq o'quvchilar faol bo'ladi va o'qituvchi izohlar berib turadi; o'qituvchi maqsadlariga oson erishadi va o'quvchilarni og'zaki nutqlarini tekshirib ko'rishga ham vaqti yetarli bo'ladi; kompyuter texnologiyasini ona tili darsiga tadbiq etadi va samarali natijaga erishiladi.

"Improvizasiya" metodi: Bu metod tayyorgarliksiz bayon etish usuli bo'lib, o'qituvchi o'quvchilarga savol yoki topshiriq beradi va darhol uning javobini tayyorgarlisiz tushuntirib berishlarini so'raydi. Bu usulning afzalligi shundaki, o'quvchilar o'z shaxsiy fikrlariga, dunyoqarashiga ega bo'ladilar, ularning og'zaki nutqi rivojlanadi, har bir savol-topshiriqlarni xotirada tez-tez tahlil qila olish ko'nikmalari shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, bu kabi interfaol o'yinlardan unumli foydalanish dars samaradorligini oshiribgina qolmasdan, balki o'quvchilarni intelektual salohiyatini oshirsh omili,o'qituvchini ijodkorligini rivojlantiruvchi vositadir.Shu bois, bunday didaktik o'yinlardan har bir darsimizda, sinfdan tashqari tadbirlarimizda unumli foydalansak nur ustiga a'lo nur bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ona tili o`qitish metoikasi - G. Ernazarov,2013 yil ,Toshkent.

2.Ergasheva SH., Ona tili va adabiyot fanini o'qitish metodikasi: o'quv- uslubiy majuma .- Toshkent.TVXTXQTMOHM, 2017.

3.N. Erkaboyeva. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. - Toshkent, 2015.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT KODEKSIDAGI "ZARAR" VA "ZIYON" SO'ZLARINING USLUBIY JIHATLARI

Ochilxo'jayeva A'loxon A'zamjon qizi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti talabasi
Telefon:+998999056398
aloxonochilxojayeva@gmail.com

Annotatsiya: Maqolamizda "zarar" va "ziyon" so'zlarining uslubiy jihatlariga to'xtalib o'tamiz . Jinoyat kodeksidagi ayrim moddalardan misollar keltirib, yurist nutqi haqida ham ma'lumotlar keltiramiz.

Kalit so'zlar: nutq uslublar, jinoyat kodeksi, zarar, ziyon.

Tilimiz biz uchun bamisoli nurdir. Nurning qanday maqsadlarda xizmat qilishi, undan qanday foydalanish esa o'zimizga bog'liq. Hozirgi kunda Respublikamizda tilimiz taraqqiyoti uchun turli xil ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga ham 30 yil bo'ldi. Shu yillar oralig'ida tilimiz rivoji, uning xalq orasida qadr-qimmatini oshirish yuzasidan anchagina sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Shuningdek, davlat boshqaruv organlari, sud va huquqni muhofaza qilish sohasida ham huquqiy hujjatlar, qonun hujjatlarini davlat tilida ishlab chiqarish chora tadbirlari amalga oshirib borilmoqda. Chet tillaridan o'zlashtirilgan so'zlarning ham iloji boricha muqobillarini topib foydalanishga harakat qilmoqdamiz.

Tilimiz naqadar boy. O'zbek tilidagi bu boylik nutqimizga o'zgacha ko'rinish beradi. Bizga ma'lumki, qonunlar, kodekslar, farmon va farmoishlar hamda shu kabi rasmiy hujjatlar rasmiy uslubda olib boriladi. Har bir uslubning keng qamrovli hamda boy ekanligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 205-moddasi ("Mansabga sovuqqonlik bilan qarash")da "□davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lsa"[1] degan jumlalarda sinonim so'zlardan foydalanilgan. Unda "zarar" va "ziyon" so'zlari o'zaro sinonim so'zlardir. Sinonimlar ma'nodosh so'zlar bo'lib, o'zlari ifoda qilayotgan narsa va hodisalarning har xil belgilarini ifodalaydi. Natijada, ularda qo'shimcha ma'nolar mavjud bo'ladi, ana shu ma'nolar evaziga ular bir-biridan farq qiladi. Ularni birlashtirib turadigan narsa esa sinonim so'zlardagi yetakchi ma'nodir. Ma'nodosh so'zlarning yig'indisi sinonimik qatorni tashkil etadi. [4] Masalan: zarar - ziyon - talafot. "Zarar" va "ziyon" so'zlariga biri moddiy jihatlarni, biri ma'naviy jihatlarni ko'zda tutib qo'llanilgan deyish to'g'ri emas. Chunki, "O'zbek tilining sinonimlar lug'ati"da zarar, ziyon, putur, talafot - moddiy, jismoniy jihatdan yo'qotish, foydaning aksi[2], deb yozib o'tilgan.

Demak, ushbu o'rinda "davlat yoki jamoat manfaatalariga ko'p miqdorda yoki jiddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa" jumlalaridan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Hujjatlar yuritiladigan rasmiy til emotsionallikka uncha boy bo'lmaydi. Unda hukm, qarorlar, buyruqlar tayyorlanadi. Shuning uchun so'zlardagi qat'iylik ham muhim ahamiyatga ega. Rasmiy uslub tilning boshqa uslublaridan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi vavazifasi jihatdan yuridik, diplomatik vama'muriy faoliyatigaxizmat qiladigan nutq ko'rinishidir. Rasmiy uslub dialektalizmlardan, jargonlardan, kichraytirish-erkalash qo'shimchalarini olgan so'zlardan, jonli so'zlashuv nutqi elementlaridan xoli bo'ladi. Tasviriy vositalar, obrazli so'zlar bu uslubda qo'llanilmaydi. His-hayajon, undov, modal ma'nosini ifodalovchi so'zlar nihoyatda kam qo'llaniladi.[3] Badiiy uslub va so'zlashuv uslubida badiiy obrazli so'zlar, tasviriy vositalar, frazeologik birliklar keng qo'llanilsa-da, biroq biroq yuridik til rasmiy xususiyatga ega bo'lganligi uchun unda bunday til vositalarini qo'llashga ehtiyoj tug'ilmaydi. Chunki yuridik tilning birlamchi belgisi uning rasmiy bo'yoqqa egaligidir. Qat'iylik, mantiqiylik, qisqalik, aniqlik kabi xususiyatlar yuridik tilning nufuzini belgilovchi me'yorlardir. Yuridik til har xil beo'rin qaytariqlar, so'z takrorlari, tushunilishi qiyin ifodalar hamda ortiqcha sifatlashlar, ko'chma ma'noli so'zlardan xoli bo'lishi lozim. Ayniqsa, yuridik tilning tarkibiy qismi bo'lgan qonun tili gap qurilishi jihatdan tushunilishi yengil bo'lishi va oddiy fuqarolar ham tez tushunib oladigan talablarga javob beradigan bo'lishi shart. Ma'lumki, qonun - jamiyatni tartibga solib turuvchi vosita, u inson manfaatlari va ehtiyojlariga xizmat qiladi. Qonunning mazmuni, mohiyati, sifati, nufuzi til qoidalariga nechog'liq rioya etilishiga ham bog'liqdir.[3] "Zarar" va "ziyon" so'zlarini fonetik jihatdan tahlil qilganda barcha undoshlar jarangli,lablangan (o) va lablanmagan (i,a) unlilar qatnashgan, bo'g'inlar soni ham teng.[5] Lekin, "zarar" so'zining nutqda o'zgarishga uchrashi kuzatiladi. Ya'ni, dissimilatsiya hodisasi kuzatiladi. Dissimilatsiya so'zi "lotincha" "o'xshamaslik" ma'nosini anglatadi. Talaffuz jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan tovushlardan biri o'zining fiziologik yoki akustik xususiyatlarini o'zgartirib yuborsa,(zarar -zaral) bunday hodisa dissimilatsiya deb ataladi.[4] Dissimilatsiya hodisasi yo'nalishiga qarab ikki xil bo'ladi:[5]

a) Progressiv dissimilatsiya. Bunda keyingi tovush o'zgaradi: zarar -zaral, zarur -zaril

b) Regressiv dissimilatsiya. Bunda oldingi tovush o'zgaradi: maqtanmoq -maxtanmoq.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rib bilishimiz mumkinki, zarar va ziyon so'zlari jumlalarda bir xil harakterlanadi. U yoki bu so'zdan foydalanish noto'g 'ri deb bo'lmaydi. Har ikkala so'zdan ham foydalanishimiz mumkin. Lekin jarangdorligi hamda talaffuzdagi holatlarni ham hisobga olib foydalansak, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Rasmiy uslubda, ayniqsa, yuridik tilda so'zlarning noto'g'ri tallafuzi nutqdagi katta xatolik hisoblanadi. Qonun hamda boshqa huquqiy hujjatlardan qat'iylik saqlanib qolishi uchun ham so'zlardan, jumlalardan to'g'ri foydalanish lozim. Biz maqolamizda birgina zarar va ziyon sinonimlarini misol qilib keltirdik. Zero, bunday sinonimlarni huquqiy hujjatlarimizda ko'plab uchratishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi". 2019-yilgi tahrir.
2. "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati". "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent -1974.
3. Sobir Usmonov "Yuristning nutq madaniyati". Toshkent -2005.
4. M.Irisqulov "Tilshunoslikka kirish". Toshkent. "O'qituvchi" 1992.

TILSHUNOSLIKDAGI BUYRUQ-ISTAK MAYLINING O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SOLISHTIRMA TASNIFI

Ohunova Nozima
Farg'ona davlat universiteti
Lingvistika: ingliz tili magistrant talabasi
Telefon:+998904089052
Akhunovanozima@gmail.com

Annotatsiya: Quyidagi maqolada jahon tilshunosligida buyruq-istak maylining ifodalash yo'llari va turli muammolari,o'zbek tiliga qiyoslash orqali muhokama qilinadi.Xususan maqolada buyurish va istash ma'nosini bildiruvchi gaplarning ikkala tilda semantik tasniflashda turlicha yondashuvlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Mayl kategoriyasi, aniqlik mayli, buyruq mayli, istak-xohish mayli, analitik shakl, xohishlar uslubi, istak mayl, buyruq-istak mayli, shart mayli, maqsad mayli, shartli mayl, ijro mayl.

Ingliz va o'zbek tillarida modallik tizimini va uning o'ziga xos uslubiy jihatlarini o'rganish va ularni og'zaki va yozma nutqda qo'llashning samarali yo'llarini tadqiq qilish va ingliz tilshunosligidagi modallik munosabatlar nazariyasini tahlil qilishdagi muammolar bilan ko'plab xorij olimlari shug'ullangan. Xususan, Vinogradov V.V, Serebrennikov B.A, Yarseva V.N, Barxudarov L.S, ishlarida til oilalarini o'rganishgan va ularga qiyosiy jihatdan yondashishgan.Ularning izlanishlaridan tushunish mumkinki, ikki til oilalarining bir biridan ulkan farq qilishiga qaramay, ularda ko'p o'xshash va o'xshash bo'lmagan tomonlarining mavjudligi anglanadi.Shuningdek,boshqa qator olimlar (Eun-Ju Noh, M.Ippolito, P.Egre, J.Perner, va E.Rafetseder ingliz tilida shart munosabat gaplarni ikki turga ajratadi: 1) indikativ va 2) subyunktiv.

Mayl kategoriyasi (The category of mood) harakat bilan subyekt orasidagi aloqaning voqelikka munosabatini ko'rsatadi. Bu aloqa va munosabatning turlicha bo'lishidan maylning ham bir necha turi bo'ladi va har bir turga xos ma'nolar maxsus shakllar orqali ifodalanadi. Mayl shakllari fe'llar orqali beriladigan modal ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu modal ma'nolar reallik, faraz, ikkilanish, istak-xohish kabima'nolarni o'z ichiga oladi.

Ingliz tilida quyidagi mayl kategoriyalari mavjud: aniqlik mayli (the indicative mood), buyruq mayli (the imperative mood), istak-xohish mayli(Subjunctive mood). Aniqlik mayli real borliqqa mos keladigan harakat va holatni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu mayl fe'llarning barcha zamon turlarini o'z ichiga oladi. Bu zamon turlari sodir bo'layotgan, sodir bo'lgan va sodir bo'ladigan harakat yoki holatdan iborat.

Buyruq mayli ikkala tilda ham biror-bir harakatni bajarishga undash ma'nosini ifodalaydi. Ma'lum bir harakatni amalga oshirishga undash ma'nosi buyirish, ta'qiqlash, iltimos kabilardan iborat bo'lishi mumkin.

Hozirgi zamon ingliz tilida fe'llarning buyruq mayli shakli fe'llarning
infinitiv shakli bilan o'xshash bo'ladi. Faqat infinitiv shakldagi to yuklamasi
buyruq maylida tushib qoladi. Masalan, to put a pen - Put a pen!

O'zbek tilida ham buyruq maylida gap tuzib solishtirsak: Qo'y ruchkani! deyish mumkin hamda Ruchkani qo'y ! desak bo'ladi.Bunda nutq vaziyatiga qarab ikkalasidan birini aytish mumkin.Ammo ingliz tilida bunday usuldan foydalanish semantik va Grammatik jihatdan noto'g'ri bo'ladi.

Istak-xohish mayli faraz qilinadigan, mumkin bo'ladigan,
xohlanadigan harakatni, ya'ni real borliqdagi haraktlarga zid keladigan harakatni ifodalash uchun xizmat qiladi. Istak mayli--Subjunctive Mood:S+SUGGEST+(THAT)+S+SHOULD+V1 formulasi yordamida yasalib,o'zbek tiliga u taklif ma'nosida tarjima qilinishi mumkin.Masalan: I suggest that we all go to the concert. - Menimcha, biz hammamiz konsertga borishimiz mumkin, deb taklif bildiriladi.Subjunctive moodni murakkab (analitik) shakllari ; yordamchi fe'llarning birikmasi bor.Bular: should / would / might / could va asosiy fe'l keladi.

Endi O'zbek tilidagi mayllarni ba'zilarini ko'rib chiqamiz. O'zbek tilida maylning 5 turi mavjud: buyruq - istak mayli, shart mayli, maqsad mayli, shartli mayl, ijro mayli. Aniqlik mayli aniq harakatni ifodalab, har qanday zamon va nisbatda ishlatilishi mumkin. Masalan: Men hozir bir qiziqarli kitobni o'qiyapman.

Buyruq mayli buyruq va talabni ifodalaydi. Masalan: Iltimos o'qing. Shart mayli (The Subjunctive mood) noreal harakatni ifodalab, so'zlovchining voqea-xodisaga bo'lgan his-hayajonli munosabatini ifodalashda ishlatiladi. Masalan: U (taklif bildirdiki)savol muhokamasi kechiktirilishini aytdi. He suggested that the discussion of the quistion be postponed. If he were here, he would help us.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosa va tavsiyalarni shakllantirish mumkin:

a) chet tili grammatikasidan buyruq-istak maylini o'tganishda birinchi tilning sintaksis hamda modal fe'llari o'zaro qiyoslanib o'rganiladi;

b) chet tilining mayl kategoriyasi mavzusini o'zlashtirishda uning turli ma'nolarini hisobga olgan holda o'zlashtirish va uni amalda to'gri qo'llash;

c) Chet tilidagi modal fe'lning birlikni ko'plikdan ajratishda konteksga e'tibor berish muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Turunen Virpi. The use of if conditionals in English: A comparative study Finnish upper secondary school textbook series. University of Tampere,2007-69-p.
2. Inglizcha - O'zbekcha, O'zbekcha - Inglizcha lug'at / Sh. Bo'tayev va M. Irisqulov. -Toshkent: Fan, 2008. 847-bet.
3. Inamjon Madiyarov, ADU tayanch doktoranti maqolasi til va adabiyot.uz. 2019-yil, 11-sonlaridan, 57-58-betlar.
4. Internet:Wikipediama'lumotlaridan.

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI ZAMONAVIY INTERFAOL USULLAR YORDAMIDA TASHKIL ETISH.

Ostonova Sabina Farxodovna Buxoro viloyati G'ijduvon tuman
45- maktab ona tili va adabiyot o'qituvchisi. Tel:+998912414491

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarida qo'llaniladigan interfaol usullarning mohiyati izohlab berilgan.

Kalit so'zlar: bilim, ko'nikma, malaka, bog'lovchi, ko'makchi, yuklama, izohli test, zukkolar bahsi.

Ma'lumki, ona tili va adabiyot fani ta'lim tizimining poydevori bo'lib, o'quvchilarni boshqa fanlarni o'zlashtirishi unga bog'liq bo'ladi va ona tili o'qituvchisi zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Bugungi kunda o'quvchi - yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish ustivor vazifaga aylandi. Chunki, til va adabiyot o'qituvchisining eng asosiy va dolzarb vazifalaridan biri ham shu. O'quvchilarda bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishda qiziqishi katta. Boshqa xorijiy tilni o'rganmoqchi bo'lgan kishi avvalo o'z ona tilini mukammal bilishi, e'zozlashi , sevishi , qadrlashi kerak. Shunday ekan , o'z onatilini mukammal bilgan kishi, boshqa tillarni o'rganishga kirishishi tabiiy hol. Buning uchun til va adabiyot o'qituvchilari o'z darslarida zamonaviy interfaol metodlarda foydalanib, o'quvchilarning fanga va bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirishlari lozim.

Dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish dars samaradorligini oshirishi,o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini yanada mustahkamlashi hech kimga sir emas. Shuni inobatga olgan holda o'z tajribamdan kelib chiqib ona tili va adabiyot darslarida quyidagi interfaol usullardan foydalanishni tavsiya etaman.

"Mazmun va mohiyat"usuli. Bu usulni ona tili va adabiyot fanlarida o'tilgan mavzuni nazorat qilishda yoki yangi mavzuni mustahkamlashda qo'llash mumkin. Bu usulni amalga oshirishning afzalligi shundaki, guruhlardagi har bir o'quvchining ishtiroki ta'minlanadi. Mazmun, ya'ni tayanch tushuncha o'qituvchi tomonidan beriladi. Bunda ko'rgazmadan yoki monitordan foydalanish mumkin. Mohiyat esa guruh o'quvchilari tomonidanochib beriladi. Masalan, 7-sinfda ona tili darsida "Yordamchi so'zlar"mavzusini o'tishda bu usul qo'l keladi. Dastlab mazmun beriladi. 1-guruh.Bog'lovchilar.

2-guruh.Ko'makchilar.

3-guruh.Yuklamalar.

So'ngra mohiyat izohlanadi, har bir guruh o'z rejasiga doir ma'lumot beradi,bergan ma'lumotlarini misollar orqali izohlaydi. Guruhlardagi har bir o'quvchi aniq, lo'nda ma'lumot aytadi, bunda tezkorlik bilan ish ko'rish talab etiladi.

Adabiyot darslarida ham bu usulni qo'llash yaxshi samara beradi. Masalan, 7-sinf darsligida berilgan "Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi"mavzusini o'tishda bu usuldan foydalanish mumkin .Mazmun beriladi:
1-guruh.Abdulla Qodiriyning yoshlik yillari.

2-guruh.Ijodkorning faoliyati.

3-guruh.Abdulla Qodiriyning ijodi.

Mohiyat bosqichida har bir guruh o'z rejasini izohlab beradi. Bu usulni qo'llash uchun oldindan o'quvchilarga yangi mavzu yuzasidan tayyorlanib kelishtopshirig'i beriladi. Bu usul orqali o'quvchilarda izlanuvchanlik, mavzuni o'rganish uchun qiziquvchanlik sifatlari shakllantiriladi. "Mazmun va mohiyat" usulini qo'llashdan kutiladigan natija:

- o'quvchilarning tashabbuskorligi ortadi;
- o'quvchilar mavzu yuzasidan keng ko'lamli tushuncha va ma'lumotlarga ega bo'ladi;
- darsda har bir o'quvchining ishtiroki ta'minlanadi;
- yangi mavzuga o'quvchilar oldindan tayyorlanib, ma'lumotlar yig'ishga intiladi;

"Izohli test" usuli. Bu usuldan ona tili va adabiyot fanlarining har ikkisida,qolaversa, boshqa fanlarda ham o'tgan mavzuni so'rash va yangi mavzuni mustahkamlash uchun foydalanish mumkin. Bu usulni qo'llaganda darsdagi har bir o'quvchining darsda faol ishtirok etishiga erishiladi. Bunda beshtadan o'ntagacha bo'lgan test savolini qo'llash maqsadga muvofiq. O'qituvchi testda ikkita bir - biriga yaqin javoblardan foydalanadi. Javoblarning biri xato, biri to'g'ri. O'quvchilar A javob uchun sariq rangli, B javob uchun yashil rangli tarqatmalar ko'rsatishadi va tanlangan javobini izohlashadi. Har bir test savoliga berilgan javoblar o'sha paytning o'zida umumlashtirilib, to'g'ri javob bergan o'quvchilar rag'batlantirib boriladi.

"Izohli test" usulini qo'llashdan kutiladigan natija:

- o'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma, malakalari darsning o'zidayoq aniqlanadi;

- har bir o'quvchining bilimini aniqlash imkoniyati tug'iladi;
-o'quvchilar o'z fikrini mustaqil izohlashga o'rganadi.

"Zukkolar bahsi"usuli.

Bu usulni ona tili fanida qo'llash mumkin. O'qituvchi guruhlarga so'zlar zanjirini beradi. O'quvchilar ulardan foydalanib eng mantiqli, mukammal, xatosiz, mazmundor gap tuza olishi kerak. 1-guruhga bahor, gulzor, Navro'z, lolaqizg'aldoq, yalpiz so'zlari;

2- guruhga ona, mo'tabar, ulug', mehridaryo, beshik, alla, mehr, sehr, inson so'zlari; 3-guruhga bola, sog'lom, mukammal, baquvvat, qudratli, barkamol, kelajak, vatan ravnaqi, oila, el - yurt kuch - qudrat so'zlari beriladi.

Bu usulni qo'llashda mavzuga oid atamalardan foydalanish ham mumkin. Eng mazmundor va xatosiz yozilgan gaplar mualliflari aniqlanadi.

"Zukkolar bahsi"usulini qo'llashdan kutiladigan natija:

- o'quvchilarni mantiqan va mazmunan boy gaplar tuzishga o'rgatadi;
- o'quvchilar uslubiy xatolarga yo'l qo'ymaslikka harakat qila boshlaydi;
- o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stiradi.

Xulosa qilib aytganda, bunday interfaol usullar o'quvchilarning savodxon bo'lishiga, DTS talablariga qo'yilgan bilim va ko'nikmalarni oson va qiziqarli egallashlarida muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mengliyev B., Xoliyorov O'. O'zbek tilidan universal qo'llanma. T-2013 yil.
2. Ro'ziyeva D.I. Usmonboyeva M.H. Xoliqova Z. Interfaol metodlarning qo'llanilishi va mohiyati. Metodik qo'llanma. T-2013 yil.

ADABIYOT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA "AQLIY HUJUM" VA "RUCHKA STOL USTIDA " METODLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Otaxanova Xadicha G'ofurjanovna,
Namangan viloyati, Chortoq tumani,
45-maktabning oliy toifali
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
tel:945080109

Annotasiya

Ushbu maqolada o'quvchilarni faol o'ylash jarayoniga kiritish, muammoli vaziyatni yechish, mantiqiy jarayonlarni oqilona hal etishga o'rgatishda pedagogik texnologiyaga suyanib bilim olish samaradorligini oshirish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: jarayon, adabiyot, texnologiya, o'yin, metod, pedagogic, dars

Adabiyot dars jarayonlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mohiyati shundaki, o'quv jarayonida barcha o'quvchilar bilim olish jarayoniga jalb qilinadi. Qisqa vaqt ichida ular ro'y berayotgan hamma narsani tushunib olishlari, tegishli qaror qabul qilishlari, murakkab muammolarni yechish, muqobil fikrlarni solishtirish, o'ylagan qarorlarini qabul qilish hamda ularning muloqot madaniyatlari shakllanadi. Noan'anaviy darslar va ta'limning interfaol metodlarni qo'llashning muhim tarbiyaviy ahamiyati shundaki, o'quvchida yashirinib turgan qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqaradi, hamda ularda o'z imkoniyatlariga ishonch bilan yondoshishni tarbiyalaydi. Bu metodlar bilan o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakasi oshib boradi.Dars jarayonida o`quvchilarning hamkorlikda faoliyat ko`rsatishi muhimdir. Mavzuni turli xil yangi pedagogik texnologiyalar yordamdia tushuntirish, o`quvchilarni dars jarayonida faol bo`lishga undaydi. O'qitishning interfaol metodi bir qancha interfaol usullardan iboratdir.Interfaol usullarni qo'llash orqali o'qitish samaradorligin oshirishga, o'quvchilar fikrlash qobiliyatini oshirishga katta imkoniyat yaratadi.Ana shunday usullardan "Aqliy hujum" hamda "Ruchka stol ustida"metodlarini darsga tadbiq etish mumkin Adabiyot darslarida mashhur o'zbek adibi Said Ahmad asarlarini o'rganish jarayonlarini mustahkamlash maqsadida "Aqliy hujum" hamda "Ruchka stol ustida"metodlaridan foydalanamiz.

Savol!: Said Ahmad qaysi asarlari bilan shuhrat qozongan va ularni sanab berib, ular haqida qisqacha ma'lumot bering.

Yuqoridagi savol auditoriyaga tashlangandan so'ng, o'quvchilar dastlab berilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, o'z xotiralariga tayangan xolda ma'lumotlar keltirishadi. So'ngra bildirilgan fikrlar jamlanib xulosalanadi. Bu metod orqali bolalarni mustaqil fikrlashga undaydi. Bu metodda o'quvchilar tomonidan aytilgan fikrlar xato yoki to'g'ri fikr ekanligi muhokama qilinmay, javoblar rad etilmaganligi uchun ham javob beruvchi o'quvchilar soni odatdagidan ancha ko'proq bo'lishi kutiladi.

Ruchka stol ustida metodi: O`quvchilar 4-5 kishidan iborat kichik guruhlarga bo'linadi. Har bir guruhga bittadan bir xil savollar tarqatiladi.

Savol!: Said Ahmad qaysi asarlari bilan shuhrat qozongan va ularni sanab berib, ular haqida qisqacha ma'lumot bering.

Savollarga javob yozish uchun guruh ishtirokchilari soni va savol murakkabligiga qarab 10-15 daqiqa vaqajratiladi. Savolga o'zining ismi sharifi va javob variantini yozgan kichik guruhdagi o`quvchi ruchkasini stol ustiga qo'yib, varaqni yonidagi sherigiga uzatadi. Savolga javob yoza olmagan o`quvchi ruchkasini stolga qo'ymaydi. Bir nechta kichik guruhlardagi o`quvchilarning qo'yilgan bir xil savolga javoblari yig'ishtirib olinib, birgalikda muhokama qilinadi. O'qituvchi mashg'ulotga kim tayyor yoki kim tayyor emasligini ko'rib turadi; mashg'ulotga tayyorlanmagan o`quvchi og'zaki muhokama paytida ko'rib chiqilayotgan mavzu yuzasidan anchagina foydali bilimlar oladi. Bu metod kichik guruhda olib borilib, o`quvchilar imtizomini mustahkamlaydi va ularni jipslashtiradi, chunki o'zining javob varianti ustidauzoq o'ylab o'tiradigan o`quvchi butun guruhgaajratilgan vaqtni sarflab yuboradi. Shuningdek, o`quvchi mashg'ulotga tayyor bo'lmasa, bunda ham guruhga pand beradi; o`quvchilar o'z javoblarini ikki marta, ya'ni yozma ish paytida va og'zaki muhokama vaqtida tahlil qilib chiqishadi. Bu metod tegishli mavzularga doir topshiriqlar bilan ishlash uchun ham juda qulaydir. Bunda o'qituvchi o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlaydi va o`qituvchi har bir qatordagi o`quvchilarni bittadan guruh deb ajratib olib, guruhlarga bir hil turdagi topshiriqlar beriladi. Har bir o`quvchiga vaqt reglamenti belgilanadi. Qaysi o`quvchi belgilangan vaqt ichida berilgan topshiriqqa javob topa olsa, javobni yozib, ruchkani stol ustiga qo`yadi. Agar ishlay olmasa, ruchka o`quvchining qo`lida qoladi. O`qituvchi ruchka qo`lida

qolgan o`quvchilarga qarab o'quvchilarni darsga tayyorgarlik darajasini aniqlashi mumkin. Bu usul bilan ishlaganda vaqt tejaladi. Hamma o`quvchilarni baholash imkoni bo'ladi. O`quvchilarni guruhlarga bo`lib ishlashda ularning o`ziga bo`lgan ishonchi ortadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dars jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilar bilim saviyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi.Har bir metod o'zining talab va funksiyasi bilan boshqalaridan farq qilsada,maqsadi va samarasi bir xil.Har bir metodni ta'lim jarayonida qo'llash orqali o'quvchilarda erkin firklash, dunyoqarashini kengaytirish,xotirasini kuchaytirishga va o'z fikrini erkin ifodalashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ishmuhammedov R.J "Innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari". Toshkent: 2000 y

2. Q. Yo'ldoshev va boshqalar Adabiyot (6-sinf). -T.: "O'qituvchi", 2000.

3. Ufq, T., 1976; Saylanma [3 j.li], 1982; Tanlangan asarlar [3 j.li], T., 2000; Qorako'z majnun, T., 2001; Kiprikdaqolgan tong, T., 2003.

ONA TILI VA ADABIYOT FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Namangan viloyati Norin tumani
15-maktab ona tili adabiyot fani o'qituvchisi
Qirg'izova Feruza
Telefon: +998932681412
siunboyevnanilu@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili fanini o'qitishda pedagogic texnologiyalardan foydalanish va innovatsoin texnologiya asosida turli yangi metodlar yaratish va ulardan ona tili darslarida qo'llash masalalari xususida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: metodika, immovatsiya, ta'lim, interfaol metodlar,

So'ngi yillarda maktab ta'lim zimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar ,innavotsiyalar ,yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar ,interfaol metodlarni ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanib borilishi ,ta'lim tizimini tubdan o'zgartirib yuboradi. Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay ,qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi.Dars mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish ,unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish ,ma'naviy sifatlarni shakllantirish ,o'quvchi bilimini nazorat qilish hamda nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak mahorat talab etadi.Bu borada o'qituvchi darslarda foydalanishi mumkin bo'lgan ayrim pedagogik vositalar : ta'kidlovchi savollar bunda o'quvchining bergan savoliga qarab ,uning fikrlash darajasini aniqlash mumkin.O'qituvchi alternativ ,o'quvchini faollikka chorlovchi savollar orqali sinfda ijodkorlik ,izlanuvchanlik ,qiyoslash,o'xshashlik va farqini topish singari xususiyatlarni rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Savollar berish bilan birgalikda o'quvchilarga fikrlashga majbur qiluvchi savollar tuzish qobiliyatini ham shakllantirib boradi.

Bu usullar asosan bosqichlarga ajratilgan dars jarayonida qo'llaniladi, va har birida o'qituvchi o'quvchilarga tegishli topshiriqlar beradi .Bu usullar va metodlar o'quvchida kommunikativ qobiliyatini o'sishiga ,o'quvchilar orasida hissiy aloqa o'rnatilishiga ,muammoli vaziyatlar yechimiga ,guruhda ishlashni ,o'zgalarning fikrini tinglay olishni va o'z fikrini mustaqil bayon etishni o'rgatatibgina qolmasdan ,uning o'ziga ishonch ,bilimiga tayana olish ,qiziqishlarning kuchayishiga ,keng fikrlashga olib keladi.O'quvchilarni ma'naviy barkamol ,aqliy salohiyati yuqori ,mustaqil va erkin fikrlovchi ,ijodkor bo'lib shakllanishida pedagogik innovatsiyalarni qo'llash ,integrativ jarayonga asoslanish , interfaol metodlardan foydalanish kamlik qiladi. O'quvchi shaxsini ichki olamini nazarga olish kerak .Ya'ni uning shaxsiy fikri bilan hisoblashish ,undagi qobiliyatlarni payqash ,so'z boyligini oshib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsata olish zarur .

Xozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:

1. Interfaol metodlar: "Keys-stadi", "Blits so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va b.
2. Interfaol ta'lim strategiyalari. "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumolaqlangan qor" va h.k. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslanadi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib ularning orasida boshqa farqlar yo'q.
3. Interfaol grafik organayzerlar. "Baliq skeleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun" va boshqalar.

Dars jarayonida yuqoridagi metodlarni qo'llab darslarni qiziqarli va mazmunli o'tishimiz xozirgi kun davr talabidir. Innovatsiya deganda avvalo, yangilik kiritish degan ma'noni tushunamiz. Shunday ekan darslarga yangilik kiritib o'tishimiz bugungi kun talabidir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi.

"Antivuris metodi" o'quvchilarga savollar beriladi ikkita javob variant beriladi. Javoblarning to'g'ri javobiga antivuris, noto'g'ri javobiga virus deb baholanadi.

"Mant tuzing" so'zlar aralashtirib beriladi va o'quvchilar shu so'zlar asosida mant tuzadilar.

O'quvchilar fanni o'zlashtirib qiziqishlarini yanada oshirib borish uchun videotestlar, videotopishmoqlar tuzib darslarda foydalanib borishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

5. Azizxo'jayeva N.N. pedagogic texnologiya va pedagogik mahorat
T.: TDPU
2. Ochilov M. Yangi pedagogic texnologiyalar. Qarshi "Nasaf" 2000 y
3. Roziqov O va boshqalar Ona tili didaktikasi. 2005 y

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA YORDAMCHI SO`ZLARNING QO'LLANISHI

Qoraboyeva Nozima Zokirjonovna
Namangan viloyati Chortoq tumanidagi
46-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi
E-mail: Nozima46@mail.ru.
Tel: +99893 267 02 77.

Annotatsiya. Til-to`xtovsiz taraqqiy etadigan hodisa. Mazkur maqolada mumtoz adabiy asarlar tilida uchraydigan yordamchi so`z turkumlarining tarixiy shakllari haqida so`z yuritilgan bo`lib, muallif mazkur shakllarning qo`llanishini Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Sab`ayi sayyor", "Hayrat ul-abror" asarlari misolida tahlil etgan.

Kalit so`zlar: yordamchi so`zlar, bog`lovchi, ko`makchi, yuklama, zidlov bog`lovchilari, ergashtiruvchi bog`lovchilar, vazifadosh ko`makchi.

Yordamchi so`zlar-atash ma`nosiga ega bo`lmagan, ma`lum so`roqlarga javob bo`lmaydigan va gapda ma`lum gap bo`lagi vazifasida kelmaydigan so`zlar. Yordamchi so`zlar mustaqil so`zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog`lash , ularning ma`nolariga qo`shimcha ma`no yuklash vazifalarini bajaradi. Yordamchi so`zlarga ko`makchi , bog`lovchi va yuklama kiradi. Bugungi kungacha yetib kelgan yozma manbalar tilida qo`llanilgan yordamchi so`zlarning shakllarini lisoniy jihatdan o`rganish til tadqiqotida muhim vazifalardan hisoblanadi. Chunki tarixiy manbalarda uchraydigan shakllar orqali tilimizning rivojlanish bosqichlari xususiyatlari haqida ko`proq ma`lumotga ega bo`lamiz.

Alisher Navoiy ning "Mahbub ul -qulub" asari nasriy shaklda, saj usulida yozilgan bo`lib, unda biriktiruv, zidlov, shart bog`lovchilari faol qo`llangan. Va bog`lovchisi hozirgi tilimizda bo`lgani kabi uyushiq bo`laklarni, qo`shma gap qismlarini, ba`zi o`rinlarda esa ham uyushiq bo`laklarni, ham qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog`lab kelgan. Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridan berilgan quyidagi parchalarda va bog`lovchisi uyushiq bo`laklarni bog`lab kelganligini ko`rishimiz mumkin:

Xaloyiqdin kishiga mujibi ta`zim va e`zoz va akobirdin asog`irg`a boisi iltifot va imtiyoz.

Necha ulug` kishi tamasxur va tiybat qilsa, aning qoshida beshukuh va viqor.

Saxovatsiz kishi - yig`insiz abru bahor va royihasiz mushki totor.

Yana mazkur asarda va bog`lovchisining qo`shma gap qismlarini bog`lab kelishini kuzatamiz:

Arslon ishi sayd urub sibo`ni to`g`ormoq va sichqon varzishi diram o`g`irlab, tugunni axtarmoq.

Hunarlarni topmoq-yedurmakdur va ayblarni yopmoq-kiydurmakdur.

Buyuk allomaning "Mehr va Suhayl"hikoyatida va biriktiruv bog`lovchisi o`rnida -u, -yu vazifadosh bog`lovchisi ishlatilgan."Sab`ai sayyor " dostonining "Mehr va Suhayl" hikoyatidagi 44- baytda shunday berilgan:

Anda bir shoh hokim-u voliy,
Mulki ma`mur-u himmati oliy.

Yoki "Hayrat ul - abror" dostonining "Rostlik ta`rifida" nomli maqolatida ham va bog`lovchisi vazifasini -u, -yu yuklamalari bajarib, uyushiq bo`laklarni bog`lab kelgan:

Egri-yu tuz vasfi muhaqqaq durur,
Botil erur egri-yu tuz haq durur.
Vahmni qo`y, hamdam-u hamrozim o`l,
Aysh-u tarab vaqti navosozim o`l.

Alisher Navoiyning "Sab`ai sayyor" asarida bilan yordamchisi ila, bila, birla shakllarida kelib, uyushiq bo`laklar orasida biriktiruv bog`lovchi vazifasini bajargan.

Toki berdi taom ila sharbat,
Za`fliq zor jismig`a quvvat.
Evrulub kom birladavri sipehr,
Vasl topdi Suhayl birlan Mehr.

"Hayrat ul-abror" dostonida:

"Mahbub ul-qulub" asarida ham yuqoridagi holatning guvohi bo`lamiz:

Saxovatsiz kishi birla gavharsiz sadafning bir hukmi bor,

Dursiz sadaf bila o`lub qurug`on kashafg`a ne e`tibor.

"Mahbub ul-qulub" asarida ammo zidlov bog`lovchisi faol qo`llangan. Ba`zi o`rinlarda bu bog`lovchi agar shart bog`lovchisi bilan birga kelgan. Bunda agar bog`lovchisi ham yuklamasi vazifasini bajargan.

O`t agarchi tog` etagin kuydurgay, ammo quyosh axdarg`a nechuk yeta olg`ay?

Ammo yel agar ko`kka yetsun, sabukbordur.

Kishi mashaqqatni o`z jism-u jonig`a tajviz etar.

Ammo ani yorig`a taxayyul qila olmas.

Yel agarchi lola tojin uchurgay, ammo qiyo kamarig`a neta olgay.

Alisher Navoiy asarlarida lekin zidlov bog`lovchisi lek, valek shakllarida faol

Kemasi lek ul taraf ketti,

Ki, burun o`g`li kemasi yetti.

Lek bir nukta bordur yashurun,

Ki, seni mundoq asrasoq necha kun.

Mehr yodi bila ichib sog`ar,

Sola olmay vale yuziga nazar.

"Hayrat ul -abror" asarida:

Har kishi yolg`onni desa, lek kam,

Bo`lg`ay erdi kosh bu davronda ham.

Navoiy asarlarida agar ergashtiruvchi bog`lovchisi garchi,gar, ba`zi o`rinlarda esa -ar shaklida kelganining guvohi bo`lamiz:

"Sab`ai sayyor" asarida: Sen agar zohir etting itlikni,

Man sanga ko`rguzay yigitlikni.

Garchi Nu`monga ko`p yetishti nahib,

Lek to`fondin o`lmadi osiyb.

Jobir ar zarb urur edi behad,

Barcha zarbin Suhayl etar rad.

Yana mazkur asarda na....na inkor bog`lovchisi ne....ne shaklida qo`llangan. Chunki ergashtiruvchi bog`lovchisi nisbatan kam qo`llangan.

Qoldi Navdarg`a chunki bir manzil,

Besha ichra murur edi mushkul.

Shavkatidin ne yor anga, ne rafiq,

Yolg`izin aylar erdi qat`i tariq.

Navoiy asarlarida bog`lovchilardan tashqari ko`makchilarning qo`llanishi bilan tanishib chiqilganda bilan ko`makchisi -ila, bila, birla, birlan shakllarida faol qo`llangan.

Odame til bila soyir hayvondin mumtoz bo`lur va ham aning bila soyir insonga sarafroz bo`lur. ("Mahbub ul-qulub"dan)

"Sab`ai sayyor"da:

Shohni derlar sipoh birlan shoh,

Shoh emasdur yo`q esaandasipoh.

"Hayrat ul-abror" asarida: Sher ko`p afsun bila chun qildi jahd,

Sidq ila durroj dog`i qildi ahd.

O`xshatish ma`nosini bildiruvchi kabi, yanglig` ko`makchilari Navoiy asarlarida, xususan," Sab`ayi sayyor" asarida keng qo`llangan. Bu ko`makchilar badiiy asarlarda tashbeh san`atidagi o`xshatish vositasi bo`lib kelgan:

Ul ulus jondin ayru el yanglig`,

Sayr etib suv yuzida yel yanglig`.

Bir necha zavraq asrabon tayyor,

Yangi oy zavraqi kibi sayyor.

Yo`nalish ma`nosini bildiruvchi sari ko`makchisi "Mehr va Suhayl" asarida sori shaklida ishlatilgan:

O`ylakim, Mehrning xarobi Suhayl,

Mehrga ham Suhayl sori mayl.

Uzra ko`makchisi Navoiyning she`riy asarlarida uzra, uza shakllarida qo`llangan. Uza shakli ko`pincha hozirgi tilimizdagi ustida vazifadosh ko`makchi ma`nosida ishlatilgan. Shuningdek, ko`makchilar ba`zan radif bo`lib kelib, baytdagi fikrni ta`kidlashga xizmat qiluvchi badiiy vosita vazifasini bajargan.

Doyim anga bu g`am aro g`am edi,

G`am neki, motam uza motam edi. ("Hayrat ul -abror")

Yordamchi so`z turkumlaridan biri bo`lgan yuklamalar ham Navoiy asarlarida o`ziga xos tarzda qo`llangan.

Alisher Navoiyning she`riy asarlaridan "Sab`ai sayyor" dostonida eng faol qo`llangan yuklamalardan biri ham so`zidir.

Oni ham bildi shohi ozoda ,
Kim, musofir chu bo`ldi shahzoda.

Go`yo o`xshatish yuklamasi "Mehr va Suhayl" hikoyatida go`yiyo shaklida qo`llangan. Tashbeh san`atida o`xshatish vositasi bo`lib kelgan:

Mehr zulfig`a ko`ngli bog`lig` edi,
Bu anga go`yiyo atog`lig` edi.

-ki yuklamasi eski o`zbek tilida, xususan, Alisher Navoiyning barcha asarlarida -ki, -kim shaklida ifodalangan.

Shohkim, bag`rig`a tegib edi tish,
Ayladi Mehr holini taftish.
Har pari chehraiki mahvash erur,
Moviy o`lsa, libosi dilkash erur. ("Sab`ai sayyor" asaridan)

Demak, yuqoridagi misollarni umumlashtirib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: eski o`zbek tilida, xususan, Alisher Navoiy asarlarida biriktiruv bog`lovchilaridan va, bilan (bila, birla, ila shakllarida), -u, yu, ham...ham faol qo`llangan. Hamda bog`lovchisi deyarli ishlatilmagan. Zidlov bog`lovchilaridan ammo, lekin (lek, vale, valek shakllarida) ishlatilgan. Na...na inkor bog`lovchisi ne....ne shaklida ishlatilgan. Ergashtiruvchi bog`lovchilardan, asosan, chunki, agar (gar, garchi, -ar shaklida) so`zlari qo`llangan;

Bilan ko`makchisi she`riy asarlarda ila, bila, birla, birlan shakllarida qo`llangan. Kabi ko`makchisi kibi shaklida she`riy va nasriy asarlarda ishlatilgan. Sari ko`makchisi sori shaklida, uzra ko`makchisi uza shaklida she`riy asarlarda she`riy shaklda qo`llangan. Navoiyning she`riy asarlarida bila, kabi, uzra, yanglig` ko`makchilari radif so`z bo`lib kelib, baytda asosiy fikrni ta`kidlab ifodalovchi badiiy vosita vazifasini ham bajargan;

Yuqorida o`rgangan asarlarimizda yuklamalar boshqa yordamchi so`zlarga nisbatan kam qo`llangan. She`riy asarlarda, asosan, ham, go`yo ( go`yiyo shaklida), -ki, kim, axir yuklamalari qo`llangan. Tashbeh san`atida go`yiyo so`zi o`xshatish vositasi bo`lib kelgan. Yuklamalarning boshqa, ya`ni, so`roq-taajjub, inkor, gumon kabi turlari deyarli ishlatilmagan.

Ko`rinadiki, bugungi kunda mumtoz adabiy asarlar tilida qo`llangan yordamchi so`zlar shakllarining etimologik tahlilini o`rganish va davrlar asosida solishtirish zarurdir. Bu esa bugungi kun o`quvchisiga qadimdan qo`llangan yordamchi so`z shakllari haqidagi nazariy va ilmiy qarashlarining shakllanishiga, mumtoz asarlar tilini tushunishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Sab'ayi sayyor. Toshkent:G`afur G`ulom,2018.247-272- bet.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. -Toshkent:G`afur Gulom , 2018. 225-bet.
3. Alisher Navoiy.Mahbub ul-qulub.-Toshkent:Yoshlar nashriyot uyi,2018.9-43-bet.
4. N.Erkaboyeva. O`zbek tilidan ma'ruzalar to`plami. Toshkent: Navro`z, 2016.270-bet.

,,OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ROMANIDA MAQOLLARDAN FOYDALANISH USLUBIYATI

Qurbonova Diyora Rasuljon qizi
Zahriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti
I bosqich talabasi
Telefon: + 99894566 45 76
diyoraqurbonova 123 @ g.mail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada xalqimizning sevimli adibi Tog'ay Murodning ,, Otamdan qolgan dalalar " romanida maqollardan mohirona foydalanganligi keltirib o'tilgan hamda ular misollarda aks etgan. Bundan tashqari yozuvchi fikrni xalqona uslubda ifodalaganini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: maqol, tendensioz, asarning umumiy ruhi, paremiografiya , san'at.

Maqol deb xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy- maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'zlarga aytiladi [Madayev,2010:69]. Badiiy asarda qo'llangan maqollar so'zga jilo bag'shlaydi, uning ta'sir kuchini oshiradi.Ushbu maqolada el suygan adib Tog'ay Murodning ,, Otamdan qolgan dalalar" romanida xalq og'zaki ijodining eng qadimiy janri hisoblanmish maqollardan foydalanish uslubiyatini tahlil etishga harakat qilamiz.

Maqollar mahsus ijod qilinmaydi, balki ma'lum bir sharoit taqozosi tufayli sinalgan hayotiy tajribadan tug'iladigan xulosaning axloqiy bahosi sifatidagi hukm bo'lib yuzaga keladi.[Safarov,2010: 291]. Tog'ay Murod ijodida maqollar ifoda etilayotgan fikrga mazmunan qiyoslash uchun keltirilgan.Masalan,

Bo'laman degich el bir-birini botirin deydi,
Bo'lmayman degich el bir-birini etini yeydi. [T.Murod, 2019:54] maqolida rus bosqini tufayli aziyat chekib,xalqni birlikka chorlagan Jamoliddin ketmonning ruhiy iztirobi tasvirlangan.

Tili boshqa also el bo'lmaydi.[T.Murod,2019:78].

Ushbu maqol bosqinchilarning uyatli qiliqlaridan orlanib, ular bilan birga yashashdan ko'ra tug'ilib o'sgan yerini tashlab ketishni afzal bilgan Jamoliddin ketmonning Vatanni tark etar chog'idagi fikrini emotsional-ekspressiv tasvirlash uchun qo'llangan.

Qadimdan ro'zg'or og'zi teshik g'orga o'xshatilgan. ,,Ro'zg'or - bu g'or" maqoli bejiz aytilmagan. Ushbu maqol Tog'ay Murod ijodida quyidagi shaklda o'z ifodasini topgan:

Ro'zg'orchilik - yo'qchilik.[T.Murod, 2019: 120].

Tog'ay Murod romanda maqollardan mohirona foydalanar ekan, fikrning xalqona uslubda ifoda etilishiga erishadi, so'zning ta'sir kuchini oshiradi, badiiyatning yuksak bo'lishini ta'minlaydi. Quyidagi maqolda yozuvchi ajdodlar merosi avlodlar uchun xronologik tartibda qoldirilishi, undan qutila olmaslikni o'quvchining ruhiyatiga tez singadigan darajada ifodalagan :

Otangga so'yilgan kal uloq -
Senga - da bo'ladi shul uloq. [T.Murod, 2019:135] maqolda yana kishi qanchalar urinmasin , o'zligidan kechib ketolmaydi , degan fikr ham ilgari surilgan.

Ma'lumki, maqollar o'zbek xalq paremik ijodiyoti tarkibiga kiradi.Xalq paremik ijodiyoti na'munalarini to'plash hamda kitobat qilish bilan esa paremiografiya shug'ullanadi.[Safarov,2010:282]. Tog'ay Murod romanda xalq maqollaridan unumli foydalanib , paremiografiya rivoji uchun salmoqli hissa qo'shgan . Qolaversa, asarning umumiy ruhini, ,,xiyla keskin-tendensioz" ruhini belgilagan yovuzlik lagerining o'ta shartlilligi-yu ezgulik lagerining hayotiy tasvirlanish ildizi ham, aslida,xalq og'zaki ijodidan oziqlanadi. [Quronov ,2018:7].

Xulosa qilib aytganda, Tog'ay Murod ijodi folklor an'analariga boyligi bilan ajralib turadi. Undagi ma'nolarning tub mohiyatini anglash , ularning badiiy jilo va tovlanishlarini ko'rsatib berish adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardandir .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Tog'ay Murod .Otamdan qolgan dalalar . /Saylanma.Birinchi jild.-T.: Ziyo Nashr , 2019.
2. Omonulla Madayev.O'zbek xalq og'zaki ijodi.-T.:MIMTO, 2010.
3. Oxunjon Safarov. O'zbek xalq og'zaki ijodi .- T.: Musiqa, 2010.
4.Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi .-T.: Navoiy universiteti, 2018.

PHONETIC GAMES IN ENGLISH LESSONS

Qo'chqarova Hakima Ahmadjanovna,
an English teacher of Namangan region,
Uychi district, school № 25
english25school@gmail.com

Annotation

Phonetic games are designed to correct pronunciation at the stage of formation of speech skills and abilities, as well as to obtain listening skills. Phonetic games with their instructions are also given.

Key words: phonetic games, process, attention, pronunciation, kind

Phonetic games play an important role in the process of learning English. They are a kind of assistant to the teacher, on the one hand, games give children a rest, raise their mood, liberate closed children, and create the necessary atmosphere of trust in the lesson. On the other hand, students continue learning "disguised" by the game. They do not notice that knowledge continues. During the game, students connect their imagination and imagination, remember new things, activate past material. During the game, students overcome the constraint in speaking a foreign language, which is necessary when learning phonetics. There are many games that can be used in English lessons for each aspect of the language, but the following will only show some examples of using game activity in teaching phonetics to primary school students. These games are used for the development of children's auditory attention and memory, the ability to hear and differentiate sounds by longitude and brevity, to hear interdental sounds, training students in pronouncing foreign sounds, learning poems in order to reproduce them by roles. So, when the students do not know enough words yet, you can make a story in your native language, but in which there will be words for a certain sound in English. When a word for sound occurs in a story, it is shown to children on a card, and they call it a chorus. Here is an example of a story on sound training [w]:"In one big and dark (Wood), lived a big and gray (Wolf). Even though (Wolf) was big, he was very kind. For Breakfast, he ate (Waffles), and for dinner (Walnuts) and drank a lot (Water). And every new day for (Wolf) was (Wonderful) because everyone at (Wood) loved and respected him."

Let's consider another variant of phonetic play in the case when students are required to repeat the sounds after the teacher. This type of game also develops students' attention: students are supposed to follow the commands given by the teacher only if they hear a polite request: "please".

Teacher: Please, say [n].

Students:[n].

Teacher: Say [p].

The students are silent because they did not hear the polite request "please

Activity 1.The teacher hands out picture cards to the children (they may all have different pictures). Given the same task for all: "Connect the line images, items that start with the same sound." (Game option. Color the same color of the image, the subject on which begins with this sound).

Activity 2. "Find out what words hide the sounds that I will utter." The teacher shows the children pictures and clearly pronounces the names of the objects depicted on them. The guys must show the picture in which the specified sound is hidden. (Or clap your hands. The sounds are practiced with the children before the start of the game).

Activity 3.Bees.Equipment: apicture of two bees.Play.The teacher tells the children that one bee is English (and this is evident from its costume), the other is Uzbek. The English bee buzzes [o], and the Uzbek [z]. Bees meet on a flower and talk to each other, sharing news. (Alternate between [o] and [z].

Activity 4.Wide and narrow vowels.

Goal: to develop phonemic hearing skills.

Course of the game: the teacher calls the words. Students raise their hand if the sound is pronounced broadly. If the vowel is pronounced narrowly. You can't raise your hand. The team that made fewer mistakes wins.

Activity 5.Who will read correctly?. Goal: to develop the pronunciation skill of a coherent utterance or text. The game: on the Board is written a little poem or an excerpt from it (rhymes of a tongue Twister). The teacher reads and explains the meaning of words, sentences, and pays attention to the difficulties of pronunciation of individual sounds. The text is read several times by students. After that, you are given 2 to 3 minutes to learn by heart. The text on the blackboard is closed, and students must recite it by heart. Two

or three readers are allocated from each team. For an error-free reading, points are awarded, and one point is deducted for each error. The team with the most points wins.

Activity 6.Watch, listen, and talk

The teacher shows students a card with a consonant sound and names the vowel. Students say the syllable in chorus. You can complicate the task by asking students to remember words with this syllable.

For the best result, you can show an image with an image of asound transcription or with an image of a new word, for example, when learning the word elephant, we will show an image with an elephant. When the child has mastered the sounds enough, you can switch roles with him, for example, show a picture with a drawing, and he will call the depicted object. To achieve perfect pronunciation, you need to train. Daily practice in working out every sound, word and whole phrases-this is the way to perfect English speech.

References:

1.Dalton, C. & Seidlhofer, B. (1994). Proninciation. Oxford: Oxford University Press.
2.Kenworthy, J. (1988). Teaching English Pronunciation. London: Longman.
3.Laroy, C. (1995). Pronunciation. Oxford: Oxford University Press.

NAVOIYDAN MEROS QOLGAN TILIMSAN ….

Rajabova Barnogul Baxtiyorovn
Xorazm viloyati Hazorasp tumani
2-sonli maktabning ona tili
va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon: +998937423431
Nurullayeva Nilufar Nuriddin qizi
Urganch davlat universiteti
filologiya fakultetining
2-bosqich talabasi.
Telefon : +998993170443

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda muammoga aylanib kelayotgan til bilan bog'liq kamchilik va ularning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarga alohida to'xtalib o'tilgan.Maqolada tilga bo'lgan e'tibor, uning hayotimizda tutgan o'rni haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Til, o'zbek tili, yodnoma,turkiy,fors-tojik tili,davlat tili.

Til-millatning boyligi va bebaho mulki.Til-xalqning ulug' karvon yo'li.Bu yo'ldan xalqning tarixi o'tadi.Bu yo'l-xalqning tafakkur yo'li.Aslan noyob ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lgan til insonga tabiatning bebaho ehsonidir. Til-ma'naviyat olamini tutib turuvchi ustun, xalq hayotining oynasi, tiniq ko'zgusidir. Har bir inson ana shu ko'zguga qarab, o'zligini tanib oladi, adolatdan chekinsa, to'g'ri yo'lga tusha oladi.

Darhaqiqat, o'zbek tili bugungi kungacha ko'p ming yillik tarixiy taraqqiyot yo'lini mardonavor bosib o'tgan. Xalq og'zaki ijodining nodir namunalaridan boshlab, qadimiy bitiktoshlardagi yodnomalar, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy kabi ijodkorlar merosi bu boradagi salmoqli manbalar sirasiga kiradi.Ayniqsa, bu borada hazrat Alisher Navoiy ulkan ishlar qildi.U tilning ijtimoiy hodisa ekanligiga alohida urg'u qaratadi. O'zbek tilidagi ifoda imkoniyatlarining boyligini namoyish qiladi. Har bir so'zdagi ma'no nozikliklarini juda ishonchli tarzda, mantiqiy dalillar bilan ko'rsatib beradi."Muhokamat ul-lug'atayn" asarida qiyoslash usulidan foydalangan holda turkiy va fors-tojik tilini taqqoslab , o'zbek tilining naqadar boy til ekanligini isbotlagan.Bobomiz Alisher Navoiy eski o'zbek adabiy tilini xazina deb bildi. Bu xazinani "ilonlar"va "tikonlar" o'rab turganini ta'kidladi.Tilimizni ana shu "ilonlar"va "tikonlar" dan tozalab berdi. Eski o'zbek adabiy tili esa hozirgi o'zbek adabiy tilining vujudga kelishida muhim bosqich sanaladi.

Tarixiy ildizlari qadimiyat buloqlaridan suv ichgan, dunyo tamaddunining bosh toji hisoblangan ,insoniyatning ilm-u urfon beshigini tebratgan ona xalqimiz qismatida og'ir sinovlar ham bo'ldi. Millatning istibdod iskanjasiga tushishi ,taraqqiyot o'rnini tanazzul egallashi ona tilimiz rivojiga ham aks ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Biz bir necha yillar mobaynida tariximizdan mosuvo etildik. Ma'naviy ildizimizga bolta urilish arafasida mustaqillikka erishish uchun bosh ko'tardik. Mustaqillikka ilk qo'yilgan tamal toshi esa o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi bo'ldi.

1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida shunday deyilgan: ,,O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi".

Prezidentimiz o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida shuni alohida ta'kidladilarki , o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning ijtimoiy hayotdagi va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirishda, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. 2020-yil 10-aprel kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ,,O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida "gi Qonunni imzoladilar. Unga ko'ra 21-oktabr-o'zbek tili bayrami kuni etib belgilandi.El boshiga ish tushgan,butun bashariyat ko'rinmas vabo bilan kurashayotgan,odamlar tinchlik va xotirjamlik qanchalar ulug' ne'mat ekanligini har qachongidan ham chuqurroq his etib turgan tahlikali vaziyatda muhtaram Prezidentimizning tarixiy ahamiyatga molik qonunni imzolashlari millatimiz uchun hayot-mamot masalasi hisoblangan ona tilimizga bo'lgan yuksak ehtiromning yana bir namunasidir. Ushbu qonun har birimizning oldimizga davlat tili sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirishda mustahkam poydevor bo'ladi. O'zbek tili axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan,

internet jahon axborot tarmog'ida munosib o'rin egallaydi.Shu sababli chet ellarda ham o'zbek tiliga qiziquvchilar, uni o'rganuvchilar soni ortib boraveradi.

Bugun millat bilan birga yaralib, shonli tarixning barcha sokin va suronli davrlarini millat bilan hamnafas bosib o'tib,millat dard-u quvonchiga sherik bo'lib kelayotgan, Vatan yanglig' bepoyon va muqaddas, jon kabi aziz o'zbek tilining maqomi yana bir karra yuksaldi, e'zoz topdi. Umid qilamizki,bu qonun ona tilimiz taraqqiyoti yo'lidagi mavjud muammolarni hal etishda mustahkam huquqiy zamin vazifasini o'taydi. Nurli kelajak yo'lida barchamizni birlashtiradi.Zero, milliy til millatning ruhidir, uning tiriklik shartidir.

Til har bir millatning madaniyatini, ma'naviyatini, millatlararo mavqeyini belgilab beruvchi muhim omillardan biridir.Ammo biz tilning ahamiyatini doim ham yodda saqlab yuribmizmi? Bugun unga bo'lgan e'tibor, umuman, til madaniyati qay darajada?

Bugungi kunda kishilarning ijtimoiy hayotida matbuot vositalarining o'rni beqiyos ekani hammaga ma'lum.Xususan,xalqning tilini shakllantirishda ularning ta'siri katta, albatta.Shuning uchun matbuot vositalarida berilayotgan ko'rsatuv, eshittirish va maqolalarning ham o'zbek adabiy tili qoidalariga, so'zlash madaniyatiga muvofiq bo'lishiga alohida e'tibor qaratish lozim.Bu-muammoning bir tomoni. Ikkinchi tomoni- so'zlarni chet tillarida yozishga mukkasidan ketish. Qayoqqa qaramang, "Open", "Restaurant", "Welcome", "Fast food" kabi yozuvlar.Imkon bo'lsa, bunday yozuvlarning ikki tilda berilishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Buyuk adib Alisher Navoiy ham ,,bu xalq orasida paydo bo'lg'on tab' ahli salohiyat va tab'larini o'z tillari turg'och o'zga til bila zohir qilmasa erdi "degan istakni bildirganlar .Yana qo'shib qo'yadiki, ,, agar ikala til bila aytur qobiliyatlari bo'lsa, o'z tillari bila ko'prak aytsalar erdi agar mubolag'a qilsalar , ikala til bila teng aytsalar erdi" . Demak, eng muhimi, o'zbek tili davlat tili ekanligini unutmaslik darkor!

Ona tilim! Sen mening g'ururi osmonim,moziy dovonlaridan shon-sharaf bilan oshgan karvonimsan. Sen millatning mulkisan, chiroyisan, ko'rkisan. Iftixorim, nomus va orim timsolisan. Xalqning fe'l-atvori, ruhini aks ettirgan ko'zgusan. Sen ming bir eldan bizga nasib bo'lding, ming yillardan omon o'tib kelding. Bobolarim so'zlagan, Navoiydan meros qolgan tilimsan. Onamning oq suti-yu allasidek tengsizsan, kunduzi quyoshimsan, tunda yo'lchi yulduzimsan!

Ma'naviy boyligimiz bo'lgan o'zbek tilini asrab-avaylaylik. Chunki biz Vatanning farzandlari va egalarimiz.Uning zafar-u quvonchlari bizning ham zafar-u quvonchimizdir.Uning mushkullari bizning ham mushkulimizdir.Uning sevinchlari bizning ham ko'zimizda, qayg'ulari bizning ham ki prigimizdadir.

Biz mana shunday farovon kunlarning qadriga yeta oluvchi,yana ham yorqinroq kunlar uchun kurasha oluvchi bo'laylik!

Dunyoni ilm bilan qutqaramiz! Ushbu da'vat doimo qalbimizda.Zero, ona tilini va ona xalqini asragan inson o'zini asraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Adabiyot 10-sinf 1-qism. B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. -T.: 2017. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 78-bet.

2.Hozirgi o'zbek adabiy tili.1-kitob.A.Nurmonov,A .Sobirov, N.Qosimova.-T.:,,Ilm ziyo "nashriyot uyi ,2015.37-bet.

HELPING CHILDREN LEARN MATHEMATICS WITH UNDERSTANDING

Dildora Rakhimova
Toshkent shahar, DJTU 2-kurs Magistratura talabasi
Telefon: +998(93)3945677
rakhimova.dildora90@gmail.com

Annotation : Teaching mathematics in a changing world means that the curriculum and instruction must change to reflect the needs of the subject, the child, and society. In this chapter you have been challenged to consider your view of mathematics as a subject. Resources have been identified to support your study throughout the rest of this book and, more important, as you teach. The challenge is to keep an open mind and continue your own learning about teaching children mathematics. Prepare to help your students make sense of mathematics.

Key words: educational psychology, mathematical arguments, mathophobia, metacognition, snapshot

"IT IS A WISE MAN WHO SAID THAT THERE IS NO GREATER INEQUALITY THAN THE EQUAL TREATMENT OF UNEQUALS." -Justice Felix Frankfurter, American Jurist, 1882-1965

How do children learn mathematics? This important question has no simple answer. Each elementary classroom is filled with children who have different backgrounds, interests, strengths, and needs. It is important for teachers not only to know the children in their classroom well but also to answer the question, "How will my students best learn mathematics?" Teachers provide their answers through classroom practices. In fact, every instructional activity within the classroom expresses the teacher's view of learning. The way in which you plan lessons, present topics, and handle questions reflects how you perceive learning and influences what happens in the classroom. Because teachers' beliefs about the learning process make such a difference in the classroom, a thoughtful study and understanding of how mathematics is learned should have high priority for every elementary teacher. The purpose of this chapter is to build on your previous knowledge from educational psychology and stimulate your thinking about how to help all children learn mathematics.

How can we support the diverse learners in our classrooms? When starting a school year, teachers look forward to meeting their new class of students. Each year brings a new mix of children with varying personalities, strengths, and needs. Elementary classrooms are becoming increasingly more diverse. Nationwide, the last decade has seen large increases in the number of students who are members of ethnic minorities, are English-language learners, and receive services for disabilities

The students in our classrooms are diverse in many additional ways. They vary in their cognitive, physical, and social development and abilities. They come from different cultures and family structures. They have different background experiences, interests, levels of motivation, and styles of learning. In the end, every child in every class is unique. As teachers, we are charged with helping each and every one of these children learn mathematics and develop to their maximum potential. In the following sections, we describe three of these strategies. Creating a positive learning environment. Creating a positive learning environment means being concerned both with the physical setting and with other factors: "If we want students to learn to make conjectures, experiment with alternative approaches to solving problems, and construct and respond to others' mathematical arguments, then creating an environment that fosters these kinds of activities is essential" (NCTM, 1991, p. 56). The teacher is largely responsible for creating an appropriate environment. Here are some of the things you should do.? Make sure the classroom arrangement is safe and comfortable and that it supports the lesson's learning activities. When you do a demonstration, be sure all students can see you, the board, or the screen. Consider a room arrangement that lets both you and the students move around the room easily. ? Make sure the classroom atmosphere is intellectually stimulating for learning mathematics. Encourage intellectual risk-taking, and help children feel safe about taking risks. Help children understand that confusion, partial understanding, incorrect answers, conceptual errors, and some frustration are natural as they construct their mathematical knowledge. Avoiding negative experiences that increase anxiety

Many children experience some degree of mathematics anxiety, or "mathophobia"-a fear of mathematics or other negative attitudes toward mathematics. Mathematics anxiety can be expressed as poor performance, more than the usual number of misunderstandings, lack of confidence about doing mathematics, and so on. Students who experience mathematics anxiety tend to take less mathematics during secondary school, thereby blocking their access to many careers.

ear expectations

Clear expectations for student behavior and achievement are necessary in a well-run elementary classroom. Students tend to do what they think the teacher means rather than what the teacher says. To make their expectations clear, "teachers must think through what they really expect from their students and then ensure that their own behavior is consistent with those expectations" (Good and Brophy, 2003, p. 127). Ways to establish clear expectations include the following:

- Make it clear that you respect and value student ideas and ways of thinking; also make it clear that you expect your students to respect and value each other.
- Establish a mathematics class motto for your students: "Do only what makes sense to you." This motto encourages students to question, reflect, and seek explanations that make sense to them. Another class motto might be: "Maybe one answer-certainly many paths." Ask students to explain their thinking so you can see what path they took to get to their answers.

REFERENCE

Amos, S. F. "Talking mathematics." Teaching Children Mathematics, 14(2) (September 2007), pp. 68-73.

Payne, J. N., Towsley, A. N., and Huinker, D. M. "Fractions and decimals." In Mathematics for the Young Child (ed. J. N. Payne). Reston, VA: NCTM, 1990, pp. 175-200.

Fleming Amos, S. M. "Talking mathematics." Teaching Children Mathematics, 14(2) (September 2007), pp. 68-73.

Bishop, A. J. "What values do you teach when you teach mathematics?" Teaching Children Mathematics, 7(6) (February 2001), pp. 346-370

Alixanov S. "Matematika o'qitish metodikasi" T. "O'qituvchi" 1992-yil

http://ziyonet.uz/ru

https://www.natlib.uz/

http://www.iptd-uzbekistan.uz/

INTERDEPENDENCE OF A LANGUAGE AND THE LITERATURE

Rakhimova Marjona Saydulloyevna
English teacher of the secondary school №2
Fergana region, Margilon

Ушбу мақолада тил ва адабиётнинг ўзаро алоқадорлиги, хорижий тилни мукаммал ўзлаштиришда ўша тил адабиётини ўрганиб боришнинг аҳамияти, тилнинг адабиётга таъсири, адабиётнинг инсон маънавияти ва шахс сифатидаги камолоти, дунёқарашининг шаклланишида тутган ўрни масалалари ёритилган.

В данной статье освещаются взаимосвязь языка и литературы, значение изучения зарубежной литературы в процессе освоения иностранного языка, влияние языка на литературу, влияние литературы на духовность человека, на усовершенствование его как личность, а также место литературы на формирование мировоззрения личности.

Everybody knows about our President's resolution №1875 on "About measures of further development of foreign language learning system" which was made in 2012, December 10. We can say that a lot of things have been done in order to achieve our goal standing before us since that time.

We know that every society has its own way of progress, its history and its future. Whether the country will become a strong democratic state and its people will be able to become a nation it belongs to the youth of this country. In addition, teachers construct the mind of the youth.

What about foreign language teachers? What is their role in this process? Is it enough for them to know the language well? Alternatively, is there any more else for them to contribute in upbringing reliable, strong youth with common sense? What do they rely on while teaching a foreign language? The literature can be a source in teaching it? Must foreign language teachers know the literature of the language, which they are teaching, and the world literature? What is the use of literature?

Literature is a Word Art. Besides introducing customs, traditions, history, lifestyle, secrets of success and failures of a society of a certain age it gives the chance of noticing a delicate tune and gleam in the heart, in the spirit of a human being and depicting it through words. "There is no such thing as a moral or immoral book. Books are well written, or badly written. That is all". There are two kinds of literature: science fiction and belles-lettres fiction. We cannot imagine our life without literature. However, to my mind in the past few years we have been ignoring invaluable effect of literature in the task of upbringing perfect generation. It has not been regarded as an effective way into a foreign language. The most important thing about literature is that it helps us be introduced not only with the inner sense; inner world of the author but it gives a lesson from life. A person who reads much knows much. A person who knows much can do much. A person who can do much will not be dependent on others and he will be able to do great things. He cannot have any time to think or to do harmful things.

The great scholar, Yusuf Khos Hojib says that the language is the interpreter of wisdom and knowledge. Moreover, I think literature gives a person knowledge and wisdom. Depiction in literature relies on words. A word attracts attention with wonder. That is why a baby is attracted to lullaby, young children are interested in fairy tales, grown - ups are interested in various genres of literature. Literature consists of world of words. Speech of a person who has read a lot of books is always fluent as his vocabulary is rich. He knows how to express his ideas, opinions.

"Literature represents valuable authentic material. Reading literature, as well as talking and writing about it, is both an affective and a cognitive process. Meeting a literary text in the right way will give the reader an emotional and personal experience, give room for reflection; the reader can discover important things about him/herself via the text. This emotional appeal will involve the learners in a learning process".

The best way about a country's culture is to stay in that country. The second best way to find out how other people live and think is through literature. In addition, we learn a foreign language to know other people, to meet them, to learn their better sides. A foreign language teacher should be able to interest his/her learners and inspire them to read much. First, they should be serious in finding the right literary work suitable to the age of their learners. They have to be creative in using this or that literary material while introducing it.

Literature can be chosen for Class Reading and for Home reading. It would be very interesting for 8-13 year-old schoolchildren to read any kind of stories, fairy tales with the help of the teacher using the

pictures of heroes of them.

The most important duty of teachers concerning to interest their learners to reading is that they should find the ways of making the reading process interesting and making it a means of mastering the language.

We can say that literature is the mirror of life. It reflects the most important points of social life. Students of higher education of foreign language learning institutions are required to approach the literature more seriously as it will help them to improve their grammar, enrich their word stock, broaden their outlook, give them a good idea of the country, its past and the people of the country whose language they are learning. "Most of us read literature just to enjoy a good story. This is true pleasure reading. If we create opportunities for students to read fast and much, they will be able to absorb new vocabulary and idioms, and new grammatical structures will more or less unconsciously become part of their linguistic competence. Extensive reading promotes better language and provides experience and pleasure" .

There is an opinion "Great literature is like life". It is advisable for parents, teachers, and educators to begin reading literary works to their children and learners at an early age. It can be done both in the family and at any educational institutions: at kinder-gardens, nursery schools, secondary schools.

Through literature children learns life. It helps them become spiritually strong to overcome difficulties that they may have in their life, to be able to distinguish good from bad.

Here in this article, I tried to express my opinions about necessity and importance of literature and interdependence of a language and its literature as well as I could. Albert Einstein said: "I never teach my pupils. I only attempt to provide the conditions in which they can learn". We teachers should be able to burn a desire in our learners while being burnt.

Used literature:

1. Oscar Wild. The picture of Dorian Grey. From the preface
2.Elisabeth B. Ibsen. The double role of fiction in foreign - language learning: towards a creative methodology. University of Oslo. Norway
3. Elisabeth B. Ibsen. The double role of fiction in foreign - language learning: towards a creative methodology. University of Oslo. Norway

O'QUVCHILARNI ASARNI BADIIY TAHLIL QILISHGA O'RGATISH

Ravshanova Sohiba Raximovna,
Navoiy viloyat Navoiy shahar 11-AFCHO'IM
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola badiiy asar tahlilni o'quvchilarga o'rgatish, asarni shunchaki o'qish emas, undan zavq ola bilishi, his-tuyg'ularida o'zgarishlar sezishi, ruhiyati boyib borishi lozimligi haqida ma'lumotlar qayd etilgan. O'quvchi tahlil qilinayotgan asardagi har bir qahramon ruhiyatini his eta bilishi juda muhimligi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot, badiiy asar, ruhiyat, adabiyot, fan, muallif.

"Odamlar o'zbek tilini kambag'al demasinlar, o'zbek tilini kambag'al deganlarning o'zi kambag'al."
Abdulla Qodiriy

Ta'lim sohasiga kirib kelayotgan tub islohotlar yoshlarimizning ilm olishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Har bir fan yo'nalishida o'ziga xos bo'lgan usullar paydo bo'lmoqda. Ayniqsa, adabiyot fanining o'qitilishida yangi davr keldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi kunga kelib, adabiyotning barcha yo'nalishlariga yangicha uslub bilan yondashilmoqda va bu jarayon adabiyotning o'quvchi ongiga ta'sir etishida muhim rol o'ynamoqda. Adabiyot fani deganda avvalo, ko'z oldimizda badiiy asar gavdalanadi, adabiyotni badiiy asarlarsiz tasavvur etish qiyin. Badiiy asarlarni tushunish, uni maromiga yetkazib tahlil qila olish zarur.

Badiiy matnni chuqur tahlil qilishni o'rgatish maktab darslari jarayonida shakllantiriladi. Badiiy adabiyotni faqat hayotiy savollarga javob beradigan, o'quvchilarni yashashga o'rgatadigan amaliy vosita tarzida tushunish va izohlash noto'g'ri va hatto zararlidir. Chunki bunday izoh badiiy adabiyotning mohiyatini buzib ko'rsatadi va jo'nlashtiradi. Adabiyot hayotdagi muammoli vaziyatdan chiqib ketishning yo'li yoxud voqelikdagi mushkul savollarga javob topib beradigan vosita emas, balki o'qirmanda o'zi, o'zgalar, olam va odamiyat to'g'risida muayyan tarzdagi ma'naviy-fikriy munosabatlarni uyg'otadigan estetik hodisadir.

Adabiyot fanini o'qitishdan maqsad ham o'quvchiga axloqiy tarbiya berish bilan birgalikda ma'naviy ozuqasini oshirib borishdir. Bunda badiiy asarlarning qay darajada ta'siri borligi hammamizga ma'lum hodisa. Biz asarni oddiygina o'qishimiz mumkin. Asar qahramonlari bilan, maqsadi bilan tanishishimiz mumkin. Ammo asarni maromiga yetkazib tahlil etmasak, muallifning g'oyasi, uning nima demoqchi ekanini hech qachon anglay olmaymiz.

Badiiy asar o'quvchini izlanishga, o'ylanishga, fikrlashga o'rgatadi. "Ayrimlar badiiy asarni tirik organizmga qiyos etishadi-da, uni qismlarga ajratish, jonsiz tanaga ajratishdan boshqa narsa emas" degan qarashga tayanib, tahlilga qarshi chiqadilar. Biroq, bu xil qarashlar asossizdir. Ya'ni asarni qismlarga ajratish maqsad emas, bir vosita - asarning badiiyat hodisasi sifatidagi mavjudligini, undagi o'quvchi ongi va ruhiyatiga ta'sir qilayotgan, uning u yoki bu tarzda tushunishiga asos bo'layotgan omillarni o'rganish vositasidir".

Demak, badiiy asarni anglab yetish uchun badiiy tahlil muhim vosita ekanini anglashimiz mumkin. O'quvchiga badiiy tahlilni mukammal o'rgatish shuning uchun kerakki, asarni shunchaki o'qish emas, undan zavq ola bilishi, his-tuyg'ularida o'zgarishlar sezishi, ruhiyati boyib borishi lozim. Adabiyot fanida qaysidir yozuvchi, shoirning tarjimai holi o'quvchining qalbini larzaga keltirmaydi. Ammo har qanday badiiy asardan ma'naviy ozuqa olishimiz, ko'nglimizga taskin topa olishimiz mumkin.

Badiiy tahlilning ahamiyati shu qadar muhimki, asarni o'qish jarayonida o'quvchi ko'zi bilan qarash asarni o'quvchi qalbiga yaqinlashtiradi. Har bir qahramon ruhiyatini his etadi, voqealar silsilasida ishtirok etadi. O'qutuvchi tahlilni, avvalo, o'zi yaxshi bilishi, o'quvchiga ham mukammal o'rgatishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

5. Imomnazarov M., Eshmuhammedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. T.: 2012-yil
6. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: 1996.
7. Komilov N. Tasavvuf va badiiy ijod. "Yoshlik" jurnali
8. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti, 2012. - 5-son, 3-16-betlar.
9. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. -T., O'qituvchi, 1995.

MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH

Raxmanova Sayyora Muxitdinovna,
an English teacher of Namangan region,
Naryn district, school № 4
tel: 998 99 4305282

Annotation
This article is about modern methods of teaching English. A lot of interactive activities are also given.
Key words: method, teaching, modern, foreign, attention, creative, educational

One of the urgent problems of modern methods of teaching foreign languages is the organization of teaching children of different ages through games. I believe that with the help of the game, interest in foreign languages develops and the first encounter with the foreign world of another country occurs. It's no secret that the game makes it even easier to focus students ' attention and engage them in active work. All this is due to the psychological characteristics of the child's body. The game makes it possible to make the process of repeating the vocabulary and grammatical structures fun for students. The use of educational games makes it possible to think actively, developing creative abilities while completing tasks, to develop the abilities inherent in the child's nature. There are a huge number of games that will help any English teacher diversify their lesson and make it more interesting. I want to present some of them that I have been using in my lessons for years.

Activity 1. "Throwing a ball". Throwing the ball, students one by one call the letters of the alphabet from A to Z. If the child is lost, he is eliminated from the game. By naming letters of the alphabet from A to Z, students add a phrase with a word to their letter: "A is for Apple", "B is for Ball".

Activity 2. "Find the difference". Students are asked to find words in sentences where the same letter is read differently. The one who completes the task faster and more correctly gets a point.

One of the best moments in the game is when the child gets a surprise. What if it's a surprise assignment? Recently, I quite often began to use in my practice kinder - surprises, or rather eggs from kinder. Inside the eggs, you can hide any word or sentence that needs to be translated. You can also hide grammar tasks. Any child will be happy to take a surprise and look at what is in it, trying to cope with the task.

Activity 3. "Fly - flappers." In another interesting game, I involve children in the process of learning words using a game with fly - flappers. In advance on the Board, I write the words in a different order from the required topic. I call two students to the blackboard and give them flyswatters. The point of the game is that when the teacher calls a word, students must quickly find it on the Board and slap it. The winner is the one who slapped the most words (if the words on the Board are written in Uzbek, the teacher pronounces them in English and Vice versa).

Hozirgacha o'zbek shevalarini lingvoareal usulda o'rganish bo'yicha ayrim ishlarni keltirish mumkin. O'zbek dialektologiyasida "O'zbek xalq shevalari atlasi" yaratilmagan. Bugungi kunda tadqiq etilayotgan ilmiy ishlardan xulosa qiladigan bo'lsak, o'zbek xalq shevalarida adabiy tilda ishlatilmaydigan leksemalar ko'plab saqlanib kelayotganining guvohi bo'lamiz. Shevalarning bunday o'ziga xos lisoniy xususiyatlarini chuqurroq o'rganish, ularning atlasini yaratish zarur deb o'ylaymiz. O'zbek xalqining uzoq tarixiy taraqqiyotiga ega bo'lgan turmush tarzi, urf-odatlari,marosimlari bilan bog'liq bo'lgan shevalarni o'rganish, tadqiq qilish, xaritalashtirish o'zbek dialektologiyasining muhim muammolaridan biridir.

Shevalarni hududiy o'rganish bo'yicha jahon tilshunosligida ham katta ishlar amalga oshirildi. Bu soha bo'yicha XXasrda juda katta ilmiy tadqiqot ishlari qilindi.Areal lingvistika sohasidagi tadqiqotlar hind-yevropa tillari (E.A.Makayev), slavyan tillari (R.I.Avanesov, N.I.Tolstoy, G.A.Sixun), german tillari (V.M.Jirmunskiy), roman tillari (M.A.Borodina), fin-ugor tillari (B.A.Seredrennikov), turkiy tillar (N.Z.Gadjiyeva) materiallari asosida davom ettirilib, salmoqli yutuqlar qo'lga kiritildi. O'zbek xalq shevalari bo'yicha tuzilgan lisoniy xaritalar tadqiq etilayotgan shevalar lug'aviy birliklarining funksional belgilari tarqalish areallarini belgilashga , shevalararo hududiy farqlarni belgilashga , shuningdek, hudud tilining boshqa o'zbek shevalari bilan munosabatini aniqlashga ichki tasnifini berishga xizmat qiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda o'zbek shevalarining lisoniy atlasini yaratish nafaqat o'zbek tilshunosligining, balki umumturkiyshunoslikning dolzarb vazifalaridandir. Chunki dialektologik atlas til hodisalarining turkiy tillararo hududiy tarqalishi va til taraqqiyotining ba'zi chigal masalalarini hal etishga yordam beradi. Lisoniy hodisalarni areal yo'nalishda tadqiq etish o'zbek shevashunosligida yangi yo'nalish bo'lib, muayyan lisoniy hodisani o'zbekzabon mintaqada hududiy tarqalishini to'la o'rganibgina qolmasdan , hodisaning diaxron (tarixiy) yoki sinxron (hozirgi) markazini belgilash, xaritalashtirish kabi jarayonlarni ham o'z ichiga oladi.

Buni birgina isiriq so'zining turli xil dioalektal ko'rinishlari misolida ko'ramiz. Bu so'z o'zbek shevalarida ispant, isvant, hazorispant, hazorsuvon, adrasmon, isiriq shakllarida ishlatiladi.

Chunonchi, o'g'uz lahjasiga kiruvchi Xorazm, Qorako'l-Olot shevalarida isvant shaklida; qarluq lahjasiga kiruvchi Buxoro, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo shevalarida hazorispant tarzida; qarluq lahjasiga kiruvchi Toshkent, Farg'ona, Andijon, Namangan shevalaridaisiriq tarzida; qipchoq lahjasigakiruvchi ko'pginashevalardaadrasmon, isvant shakllarida uchraydi. Bu hodisani xaritada quyidagicha tasvirlash mumkin.

Xaritadan ko'rinadiki, nisbatan kattaroq hududlarda isvant , hazorispand, isiriq so'zlari ishlatiladi. Adabiy tilda esa adabiy me'yor sifatida isiriq so'zi olingan.

Ispand so'zi fors-tojikcha bo'lib, hazorispand, isvand kabi so'zlar (fonetik variantlari bilan) shu so'z asosida paydo bo'lgan. Ispand so'zining shevalarda ishlatilishi ham qadimiy bo'lib, bu so'z Navoiy asarlarida ham uchraydi:

Ul oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin deb ko'z,
Muhabbat tuxmidin o'zgaul o't uzrasipand etmas .

Arealogik tadqiqotlarga ko'ra, har bir hodisaning sinxron (hozirgi) markazi sifatida shu hodisa (so'z) eng ko'p tarqalgan hudud olinadi. Bunga ko'ra isiriq tushunchasini ifodalovchi so'zlarning areal markazi quyidagicha :

Shevaga xos so'z	**Areal markazi**
Isiriq	Toshkent va uning atroflari
Isvant	Xorazm hududi
Hazorispant	Buxoro hududi
Adrasmon	Samarqand hududi
Ispant	Samarqand hududi

Bunday ilmiy izlanishlarning yana bir muhim tomoni ham borki, ular o'zbek adabiy tilining lug'aviy me'yorlarini belgilash, turli sohalarning ilmiy terminologiyasini tartibga solish, tilning imloviy va talaffuz qoidalarini takomillashtirish kabi masalalarni hal etishda yordam beradi.Shuningdek, o'rganilayotgan hudud etnografiyasini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В 5 КЛАССЕ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ ОБУЧЕНИЯ

Назокат Салиева Абдусаматовна,
преподаватель высшей категории
русского языка и литературы средней школы № 5
Учкурганского района, Наманганской области
nazojanim@gmail.com/тел: 94620217

Аннотатция

Статья посвящена актуальному вопросу активизации интереса школьников к изучению русского языка. Игровые технологии, их элементы на уроках русского языка позволяют привлечь внимание учащихся к предмету, сделать процесс обучения более интересным для них.

Ключевые слова: повышения, мотивация, метод, игры, технология

Без игры нет, и не может быть полноценного умственного развития. Игра - это огромное светлое окно, через которое в духовный мир ребенка вливается живительный поток представлений, понятий. Игра - это искра, зажигающая огонек пытливости и любознательности.

В.А.Сухомлинский

Как элемент любого урока, метод обучения русскому языку, как прием активизации учебного процесса и воспитании интереса к изучению русского языка на уроках - я использую игры. Поэтому необходимо постоянно развивать у учащихся интерес к этому предмету, делать уроки как можно более увлекательными. В этом и могут помочь дидактические игры, их периодическое использование на уроках. У учителя есть возможность выбрать методы и технологии обучения, которые, по его мнению, наиболее оптимальны для построения и конструирования учебного процесса. Любая технология обладает средствами, активизирующими деятельность учащихся, в некоторых технологиях эти средства составляют главную идею и основу эффективности результатов. К таким технологиям можно отнести игровые технологии. Их задача сделать процесс обучения занимательным, создать у детей бодрое, рабочее настроение, облегчить преодоление трудностей в усвоении нового материала. Игровые технологии я использую в основном в 5-ых классах. Это связано с тем, что пятый класс - переходный этап в жизни детей: из начальной школы - в среднюю, в мир новых учителей, новой программы, новых предметов. Задача учителей в это время - сделать так, чтобы встреча с незнакомым не испугала, не разочаровала, а, наоборот, способствовала возникновению интереса к учению. Мне как учителю русского языка и литературы приходится решать такую задачу почти каждый день. Я убедилась, что на таких уроках ученики работают более активно. Особенно радует, что те ученики, которые учатся неохотно, на таких уроках работают с большим увлечением. Если же урок построен в форме соревнования, то, естественно, у каждого учащегося возникает желание победить, а для этого они должны иметь хорошие знания. После каждого подобного урока я слышу от детей фразу: "Давайте ещё поиграем", что свидетельствует об успешности урока. Использовать игровые технологии можно не только в 5 классах, но и на любой ступени обучения. Конечно же, в старших классах подготовка такого урока потребует от учителя больших затрат времени. Но это оправдается, когда учитель увидит, с каким азартом работают дети. Уроки, проводимые в игровой форме или с элементами игры, дают возможность учителю вовлечь в работу одновременно всех учеников, создать благоприятную атмосферу на уроке, а использование. При изучении раздела "Фонетика" в 5 классе использую элементы игры, что очень нравится ребятам и способствует лучшему запоминанию изучаемого материала, т.к. количество часов ограничено. Вот пример фонетической игры.

Игра "Салат". В огороде выросли следующие овощи: морковь, капуста, репа, редька, укроп, картофель, огурцы, помидоры, свекла, лук, петрушка, салат, горох, перец, чеснок. Хозяйка для приготовления салата взяла следующие овощи: 1 - в слове 2 слога, 7букв, 6звуков (морковь); 2 - в слове 2 слога, ударение падает на первый слог, 2 согласных звука мягких (перец); 3 - в слове 1слог, все согласные звуки твердые (лук); 4 - в слове 4 слога (помидоры).

В результате дети получают предложение. Для приготовления салата хозяйка взяла помидоры, морковь, перец, лук.

Игра "Новоселье". Звери и птицы построили многоэтажный дом. Когда же стали заселяться, то начались споры, кому, где жить. И тогда решили: те животные, чьи названия состоят из одного

слога, пусть живут на первом этаже, чьи названия из двух слогов - на втором этаже и т. д .

Учитель называет животное, дети отвечают, на каком этаже будет жить то или иное животное. Примеры животных: ласка, еж, барсук, енот, куница, лось, лиса, заяц, хорь, бобр, косуля, волк, росомаха, рысь, медведь, горностай.

Игра "Чей букет лучше?" Соберите в букет цветы, в которых есть хотя бы один мягкий звук. (Цикорий, гладиолус, гвоздика, роза, ромашка, сирень, ландыш, астра, нарцисс, настурция, шиповник, колокольчик, лютик, георгин, фиалка, петуния, календула, бархатцы, василёк, жасмин).

Слова на листочках напечатаны заранее, "букет" нужно собрать в тетрадь. Этот игровой момент помогает ребятам лучше запомнить твёрдые и мягкие звуки.

В 5-ом классе при закреплении темы "Фонетический разбор слова" провожу игру "Найди лишнее". Ребятам нужно отгадать слова и выбрать лишнее слово.

Например: Аалтрек, лажок, раукжк, зоонкв.

(тарелка, ложка, кружка, звонок)

Рекомендую использовать и другие игровые формы на уроках русского языка:

игровые задания, направленные на отработку орфографических и пунктуационных норм: "Третий лишний"; "Я работаю волшебником"; "По щучьему велению"; "Справочное бюро"; "Словарный диктант"; "Диктант-шутка"; "Диктант-молчанка"; "Цифровой диктант"; "Найди пару"; "Умный редактор"; "Отними букву"; "Вставь букву": "Замени букву"; "Возвратная форма"; "Поставь ударение"; "Двойное ударение"; "Добавь мягкий знак".

Анализируя результаты уроков, на которых проводились игровые технологии, можно сделать вывод о том, что игровые технологии положительно влияют на повышение знаний русского языка. Игровые технологии на уроках русского языка создают ситуацию успеха для слабых учеников, они позволяют раскрыться таким ученикам. Игры создают условия для развития творческого мышления, смекалки, находчивости, сообразительности.

Таким образом, используя игровые технологии на уроках русского языка, я убедилась, что познавательная и творческая активность учеников повышается, появляется интерес к русскому языку, желание узнать новое, победить. И как следствие этой работы - успехи в конкурсах и олимпиадах.

Используемая литература:

1.Бройде М. Русский язык в упражнениях и играх. / М. Бройде. - М., 200
2.Г.Г. Граник и другие "Секреты орфографии", "Просвешение", Москва, 1991г.
3.Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. М., 2001

O`QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ONA TILI VA ADABIYOT FANI O`QITUVCHILARINING ROLI

Sattorova Nodiraxon Yusufjonovna
Namangan viloyati To`raqo`rg`on tumani
Xalq ta'limi bo`limiga qarashli 51-sonli
umumiy o`rta ta'lim maktabi ona tili va
adabiyot fani o`qituvchisi
Tel:998(97) 591 08 11

Anotatsiya

Ushbu ,,O`quvchilar nutqini rivojlantirishda Ona tili va adabiyot fani o`qituvchilarining roli"mavzusidagi maqolada ijtimoiy fanlar,jumladan,Ona tili va adabiyot fani o`qituvchilarining ta'lim jarayonida ayrim muammo va kamchiliklarini bartaraf etish bilan birga uning yechimi haqida fikrlar bayon etilgan.

Bugungi kunda Ona tili va adabiyot fani o`qituvchisining jamiyat taraqqiyoti rivojidagi o`rni va ta'siri haqida ham fikrlar mujassamdir.

Kalit so`zlar.Nutq,nutq sharoiti,mazmundorlik,mantiqiy fikrlash,ohangdorlik,taqqoslash.

Inson butun umri davomida o`z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali nutqning go`zal,ravon,ifodali,ta'sirchan bo`lishiga intiladi.Bu jarayon ,ayniqsa,bolalik davrida samarali kechadi.Kichik bolalik davridan boshlab u aloqa-aralashuvga ehtiyoj sezadi;o`zgalarning fikrini tinglash va o`z fikrini bayon qilishga tobora ko`proq zarurat seza boshlaydi.

Avvalo,shuni qayd etish lozimki,maktabda o`qitiladigan barcha o`quv fanlari o`quvchi nutqi ustida ishlashga yo`l ochadi.Ona tili fani o`qituvchisi esa ana shu imkoniyatlarni birlashtirib,o`quvchining fikr ifodalash malakalarini yanada rivojlantiradi. O`quvchini tilimizning go`zal olamiga olib kiradi,nutqni yaxshilash,boyitish ,unga badiiy bo`yoq bergan holda foydalana bilishda ona tili va adabiyot fani o`qituvchisining roli katta.

O`quvchilar nutqini rivojlantirishda quyidagi jihatlarga e'tiborli bo`lishi lozim.Birinchidan,o`quvchi nutqida fikrning mantiqan to`g`ri,aniq va izchil bo`lishidir.Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo`lsagina,uning ta'sirchanligi ortadi.Bu har bir o`quvchidan narsa,voqea-hodisaga sinchkovlik bilan qarash,ularning har biriga to`g`ri baho bera olish,shu yo`l bilan nutqni muntazam va izchil qurish,uni isbotlay bilishni talab etadi.O`quvchi fikrini bayon etayotganda,bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to`g`ri bog`lay olishi,mavzuga aloqador bo`lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi kerak.Nutqning mantiqan to`g`riligi fikrlarning aniq va bir-biriga izchil bog`langanligi,mavzudan chetga chiqmaslik,hukm va xulosalar asosli bo`lishi lozim.

Ikkinchidan,o`quvchi nutqining mazmundorligi.Shuni unutmaslik lozimki,nutq nutq sharoitiga mos tushsa,u mazmunli bo`ladi.O`quvchi faqat bilgan narsalarini,o`zi xabardor bo`lgan voqea-hodisalarni og`zaki va yozma shakllarda to`g`ri bayon qilishi mumkin.Aniq dalillar, o`quvchining shaxsiy kuzatish yoki taassurotlari,his-tuyg`ulari asosida yuritilgan fikrigina o`zgalar diqqatini o`ziga tortadi.Mazmunsiz fikr na o`ziga,na o`zgalarga yoqadi.O`quvchiga o`zi o`qigan,kuzatgan,bilgan narsalar yoki voqea-hodisalar xususida gapirib berish va yozish ancha oson kechadi.

Uchinchidan,nutqning ohangdorligi.Ohang o`quvchi nutqining ta'sirchanligini oshirish vositasi hisoblanadi.Shuning uchun she'riy asarlar,nasriy parchalarni ohangdorlikka amal qilgan holda o`qiy olish ham o`quvchi nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi.U ohang yordamida nutqni sintagmalarga bo`ladi,mantiqiy urg`uni ham o`rinli qo`llaydi.Shu sababli ifodali o`qish faqat adabiyot darslaridagina emas,balki, ona tili darslarining ham tarkibiy qismiga aylanmog`i lozim.

To`rtinchidan,nutqning soddaligi va sofligi.Sodda nutq ,avvalo,tushunarli bo`ladi.Nutqning tushunarli bo`lishi bir tomondan ,fikrni lo`nda,aniq bayon qilish,tushunarli bo`lmagan g`aliz jumlalardan saqlanishda namoyon bo`lsa,ikkinchi tomondan,tinglovchining tayyorgarlik darajasiga ham bog`liq.Demak,o`quvchi fikrni ham sodda,ravon bayon qilishi,ham o`zgalar fikri mohiyatini anglab,uni tushunish imkoniyatiga ega bo`lishi kerak.

Nutqning sofligi ,avvalo,uning tozaligi demakdir.Ma'lumki,o`quvchilar nutqida har xil qaytariqlar,(chet tillaridagi so`zlarni qo`shib,aralashtirib so`zlash) ortiqcha jumlalar,o`zbek adabiy tiliga xos bo`lmagan so`zlar ko`p uchraydi.Nutqni bunday so`zlardan tozalab borish,fikrni sof adabiy tilda ,uning boy imkoniyatlaridan foydalanib bayon qilish ona tili fani o`qituvchisining asosiy vazifasi bo`lmog`i lozim.

Yuqorida sanab o`tilgan talablar bir-biri bilan o`zaro chambarchas bog`langan bo`lib,o`quvchi yaxshi va

rivojlangan nutqqa faqat shularning hammasiga amal qilish orqali erishadi.Shuning uchun ona tili darslarida nutqqa qo`yilgan talabni hisobga olib,yuqorida sanab o`tilgan nutqning muhim jihatlarini e'tibordan qoldirish mumkin emas.Bu talablarga doimiy va qat'iy amal qilinsagina nutqni o`stirish,rivojlantirish samarali kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1.Muhiddinov A.F.O`quv jarayonida nutq faoliyati.Toshkent. ,,O`qituvchi"
2.Mahmudov N.O`qituvchi nutqi madaniyati.Toshkent-2009.

YAPON TILIGA INGLIZ TILIDAN O'ZLASHGAN SO'ZLARNING YOZMA MANBALARDA NAMOYON BO'LISHI

Dildora Mamurjonovna Saxipova
Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti
Yaponshunoslik fakulteti
Yapon filologiyasi kafedrasi
Yapon tili lingvistikasi yo'nalishi
2- bosqich magistratura talabasi
Toshkent, O'zbekiston
Telefon:+99897 7596300
E-mail:said.sahipov@hotmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolamiz yapon tilidagi ingliz tilidan o'zlashgan o'zlashma so'zlarning asosiy o'ziga xos xususiyatlarini misollar yordamida yoritib berishga qaratilgan bo'lib, yapon tilidagi o'zlashma so'zlar sferasidagi izlanishlarga hissa qo'shish va yapon tilini o'rganuvchilar uchun o'zlashma so'zlarining asoslarini tuzish uchun zamin yaratish maqsad etib olingan. Ushbu misolda hozirgi zamon yozma yapon tilining katakana alifbosi yordamida ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarni transkripsiya masalalari, tarjimonlik faoliyatida duch kelinishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarga to'xtalinib, mashxur yapon yozuvchisi Yoko Ogawaning “ことり” - "Kotori" asaridan olingan misollari tahlil ostida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Katakana, gairaigo, ekvivalent, transkripsiya, yaponchalashtirish.

Barcha yaponshunoslar uchun xorijiy so'zlarini katakana an'analari va qoidalari bo'yicha yozishni bilish zarurdir. Hozirgi kunda yaponlar nutqida chet el so'zlari har javhada uchrab turadi..Shuning uchun , yapon tilidan o'z ona tiliga tarjima qilayotgan yaponshunos ba'zan chet el so'zlarini ularning yaponlashtirilgan shaklida tanib olish va o'z ona tillarida to'g'ri ekvivalentdan foydalanib yetkazish kabi qiyin vazifani bajarishiga to'g'ri keladi.

Misol tariqasida ピカソ (Pikaso) gairaigo so’zini oladigan bo’lsak, bu Pikasso bo’lib tushunish va tarjima qilish muammo tug’dirmaydi. Yoki “ことり” nomli yapon asarida uchraydigan プリント (Purinto) so’zini qaraydigan bo’lsak ham, bu gairaigo Inglizcha “print” so’zidan kelib chiqqanligini anglash va tarjima qilish mushkul emas. Ammo ゴッホ（Gohho） bu (Van) Gog ekanini yoki “ことり” asaridagi シャツ (shatsu) gairaigosi Inglizcha “shirt” so’zidan o’zlashganligini hamma ham darhol taxmin qila olmaydi. Yapon tilida uchraydigan bu kabi muammoli vaziyatlar gairaigo qoidalarni , aniqrog’i, ularning tub ma’nosini bilish, shu bilan bir qatorda, adabiyotlar va ma’lumotnomalardan foydalanish ko’nikmalariga ega bo’lish kabi vazifalarni tarjimondan talab qiladi.

Yapon tili o'rganuvchilari sferasida anchadan beri ushbu masalaga bag'ishlangan bir qator izlanishlar mavjud. Biroq, ba'zi masalalar o'z yechimini to'liq topmagan. Ko'p izlanishlar asosan ingliz tilidan olingan so'zlar asosida o'tkazilgan bo'lib, boshqa tillardan so'zlar kamdan-kam hollarda jalb qilingan. Buni tabiiy hol deb tushunish maqsadga muvofiqdir, Chunki gairaigo so'zlar aksariyatining etnik kelib chiqishi ingliz tiliga borib taqaladi. Ammo yapon ommaviy axborot vositalarida ishlatiladigan yuzlab chet el nomlarining barchasi ham faqatgina ingliz tilidan o'zlashgan so'zlardan tashkil topgan, deya olmaymiz. Balki turli mamlakatlar tillaridan ya'ni, rus, nemis, fransuz kabi tillardan kirib kelganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Biroq bu so'zlar tarkibini ozchilik tashkil etadi. Shu boisdan maqolamiz o'zagini ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarga qaratishni joiz deb bildik.

Yana bir qiziq holat shundaki, ilgari yaponlar chet el so'zlarini inglizcha talaffuzlariga muvofiq katakanaga o'tkazishga moyil bo'lishgan bo'lsa, oxirgi paytlarda ular asl tilga iloji boricha qat'iy rioya qilishga harakat qilmoqdalar va ingliz so'zlarini "yaponchalashtirish" yanada keng tus olmoqda, Yaponiya Ta'lim vazirligining xorijiy geografik nomlarning imlosi bo'yicha ko'rsatgan yo'riqnomasiga ko'ra (1958).

(4.42), ilgar Praga shaxar nomini プラーグ(Puragu) ya'ni inglizcha "Purague" so'ziga yaqin talaffuz qilishgan bo'lsa, hozirgi kunda プラハ (Puraha) deb yuritishmoqda. Yoki yana "ことり" asariga yuzlanadigan bo'lsak, asarda "バケツ" (baketsu) o'zlashma so'zi keltirilgan bo'lib , ingliz tilidagi "bucket" so'zidan o'zlashib, semantik jihatdan hech qanday o'zgarishga uchramagan "chelak" ma'nosida keladi. Aslida adib asarida shu ma'noni beruvchi yapon tilidagi "桶" (oke) so'zini qo'llasa ham bo'lar edi.

Buni adib ingliz tiliga bo'lgan qiziqishi va taqlidining yorqin ifodasi deya olamiz. Bunday holatlarda tarjimon manbalarga tayanib ishlashi qatorida adibning ruhiy holatini ham his qila olishi va gairaigolarning o'z ona tilidagi muqobil variantida keltira olishi tarjimonlik faoliyatining sifatini yanada oshiradi.

Bulardan shunday xulosaga kelish mumkinki, tarjimon bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish faoliyatida faqatgina ikki til doirasida ishlabgina qolmay, balki boshqa tillarga ham murojaat qilishiga to'g'ri keladi. Buni biz yuqorida keltirilgan yapon asarida uchraydigan gairaigolar ya'ni ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar misolida ko'rib o'tdik. Bundan tashqari? yapon tilidagi gairaigo qoidalarni, tub semantik mohiyatini bilish, shu bilan bir qatorda, adabiyotlar va ma'lumotnomalardan to'g'ri foydalana olish kabi muxim vazifalarni amalga oshirgan holatda, eng muqobil ekvivalentlarni saralay olish tarjimonlik faoliyatini yanada samarali qiladi degan to'xtamga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Е.В.Маевский, Н.Г.Рысина "Гаираиго-Японская транскрипция иностранных слов" Москва-2000
2. 小川洋子 「ことり」Japan - 2016
3. Toshinobu Mogi "Towards the lexicographic description of the grammatical behavior of japanese loanwords" Japan-2016
4. https://www.google.com/amp/s/thesaurus.weblio.jp/content

LEXICAL GAMES IN ENGLISH LESSONS

Saydaliyeva Gulnoza Abdumutalovna,
an English teacher of Namangan region,
Uychi district, school № 2
Email:. saydaliev-1977@mail.ru/93 775 57 25

Annotation

This article is about teaching lexical games in English lessons. In learning a foreign language, vocabulary plays an important role. It is one element that links the four skills of speaking, listening, reading and writing altogether. To communicate well in a foreign language, students should acquire an adequate number of words and should know how to use them accurately.

Keywords: lexical games, lesson, interesting, communication, vocabulary

Nowadays the main goal of teaching any foreign language is to teach pupils to communicate in the target language. Communication is impossible without knowledge of vocabulary, grammar and phonetics. Teachers should pay much attention to form different components of communication competence. The most common difficulty while forming linguistic competence is learning new vocabulary. The students have not enough practice in using English words. Often the vocabulary is not related to the students' interests. That's why the modern method of teaching foreign languages describes a huge number of lexical games. Lexical games help to remember lexical units, train students in the use of vocabulary in situations close to the natural environment, develop students ' speech response, introduce them to the combination of words, that is, contribute to the formation of strong lexical skills. Lexical games are intended for the fixation and assimilation of lexical units, their active consumption of a particular subject. They help students expand their vocabulary. From lexical games, I actively use games on cards, games-competitions, riddles, crosswords, tests, quizzes, etc. Before choosing a game-based learning method, I had to ask myself some questions:

How do I keep students interested in the subject from the first to the last lesson? How to create an atmosphere of search and creativity in the classroom? How do I make learning interesting? What should I teach in foreign language lessons?

Therefore, I decided on the game method of teaching, as quite interesting and effective in the organization of educational activities of students. This method can be used at any stage of training with a certain adaptation for each age. It is known that for preschool age, the early form of leading activity is played. In primary school age - 7-11 years (grades 2-5) - the leading activity becomes teaching. In adolescents-at 11-15 years (grades 6-8) - the leading activity is associated with communication in the process of educational and labour activity. The content of the leading activities of high school students in 15-18 years (grades 9-11) - become educational and professional activities, the formation of a worldview. Games should be used sequentially, from simple to complex and touch on a single theme. Tasks for students should correspond to the level of their speech and psychological capabilities. Children should have the right to choose. I never forget that playing is the most important motivating factor that contributes to the strength of memorization of material and skill formation. With this in mind, I try to use as many games as possible in my practice. In this article, I describe some of them that I have repeatedly used in English lessons, and that is effective and interesting for children. I will give examples of some of them. Lexical games.

Activity 1.Bingo Game.

Children draw a square of nine squares in their notebooks. In one minute, children must fill in a square with vocabulary on a given topic. Then the teacher calls the word in Russian. Those children who find the word correctly, know its translation, cross it out. The winner is the child who crossed out all the words the fastest. He becomes a driver.

Activity 2. Auction Game.

At the command of the teacher, students write down words on a given topic. The winner is the student who wrote down more words in a certain period.

Activity 3.Game Captains.

The class is divided into teams. Each team chooses its captain. They approach the teacher and choose a piece of paper on which topics are written (fruits, animals, school supplies, and others) The captains return to their team and report the topic. On command, the captains go to the Board and write the first word on their topic suggested by the team, then return for the next word, etc. This game can be complicated: make a sentence with a word, name the quality of the subject.

Activity 4.Game Detectives.

Children are divided into pairs, look at each other for one minute, then turn away and describe their friend (what is dressed, appearance.)

Activity 5. "Guess the word"

Game progress: the teacher gives adescription of the stadium, pool, Playground, sports game.Students must guess what he is talking about and name the word. The game can be played using visualization.

These game techniques do not exhaust the entire variety of lexical games that allow you to introduce and activate a large number of lexical units, open the emotional and personal reserves of the child, make the learning process in high school not only close to the natural, but also emotionally positive.

References:

1.Annisa, A., (2013) Techniques in presenting vocabulary to young EFL learners. Journal of English and Education, 1(1), 11-20

2.Nation, I. S. P. (1990).Teaching and learning vocabulary.

2.Thornbury, S.2002.How to Teach Vocabulary, Pearson ESL

INNOVATIVE ACTIVITIES DURING ENGLISH LESSONS FOR ELT, EFL,ESP LEARNERS.

Buxoro viloyati Kogon shahar 6-maktabning
Ingliz tili fani o'qituvchisi SHABANOVA ZARNIGOR BAXODIROVNA.
ZariZarnigor@mail.ru.

Anotatsiya: The work is designed to help foreign language teaching professionals to see the concept of intelligence in a new light in order to broaden its traditionally narrow definition and develop awareness of learner differences, with the goal of introducing classroom approaches and techniques that will better meet the needs of individuals within the learning collective.

Keys words: teacher, special, almost, language, speaking.

Nowadays the role of teaching English for Specific Purposes (ESP) or Specialized Training of English (STE) in modern teaching and didactics is especially underlined. The given methodology had already come not only into the system of higher education, but also to the specialized secondary education and promotes increase of knowing activity of learners. On the basis of this it is possible to assume that the purpose of studying and training of English language in Hydromelioration faculty is - teaching English for learners` professional/special growth, specialized training of English on students` specialty and direction, interests and activities, developing their abilities to show and demonstrate writing, reading, listening and speaking skills in English and explore learners` abilities, also strongly motivate and inspire them to find their own life styles and goals, use them for the personal and professional growth and development.

In connection with new actions in the Republic of Uzbekistan last 2010-2013 years on organization of qualitative teaching of English language and retraining and refreshing of foreign languages teachers there have been conducted original researches on performance of the given problem. Carrying out of "The Practical course of English language" for the students of IV course under the program of actions confirmed by vise-minister Aripov A.N.on December, 1st, 2010 became an important event and this event obliged ELT, EFL and ESL teachers to create the full program of the given course and to modify its maintenance with the professional work and activity and practical skills of the students, to study and apply new methods of teaching English, and also to think up the best techniques of English for the short time.

We see almost daily in our classroom a learner with high quantitative and analytical intelligence that is not guaranteed success in language learning. Further, many of our brightest and fastest language learners may even show relatively low levels of ability in quantitative and analytical types of reasoning. The work is designed to help foreign language teaching professionals to see the concept of intelligence in a new light in order to broaden its traditionally narrow definition and develop awareness of learner differences, with the goal of introducing classroom approaches and techniques that will better meet the needs of individuals within the learning collective. Experienced language teachers know that individual learners have distinct sets of personality characteristics which determine their talents, abilities, and preferences in language learning: some learners are "quick", some are thoughtful, some love to work independently, others requires explanations, guidance, and constant attention from the teacher. That's why we must use the most effective teaching methods and aids at our disposal. Role-plays, language skills, projects, video situations, games, activities can greatly widen our horizons of creativity within the suggested methods. Nowadays the whole English Language Teaching community is entering a new stage of interactive learning by means of new technologies.

USED LITERATURE:

1. Ismailov A.A. Interaktiv multimediali electron darslik. Ilk bosqich. T.2009
2. Bakiyeva G.and others. Scale up. Course1-3.T.,1015
3. http://www.wikihow.com/Improve-Your-Language-Skills-Through-Reading,- Writing,-Listening-and-Speaking
4. Enkwist Nils Erik Linguistic Stylistics. The Hague-Paris, 1973, § 6.
5. Galperin I.R. Stylistics. - M., 1977.

YURTIMIZDA CHET TILLARINI O'RGANISH UCHUN OLIB BORILAYOTGAN ISLIHOTLAR

Sharobidinova Sevara Ihtiyor qizi
O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti talabasi
+99893 783 79 74
sevarasharobidinova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi davrda ta'lim sohasidagi o'zgarishlar va rivojlanishlar va ayniqsa, chet tillarini o'rganish uchun biz yoshlarga yaratilayotgan qator imkoniyat va islohotlar, yangicha yondashuvlar borasidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ingiliz tili, ta'lim, interaktiv usul, texnologiya, jarayon.

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Dunyoda har bir sohada xususan, yurtimizda ham taraqqiyot sari ilgari qadam tashlamoqda. Ilm-fanda ham kata o'zgarishlarga, yutuqlarga erishilmoqda.Davlatimiz ta'lim yo'nalishiga ayniqsa, chet tillarini o'rganish uchun alohida e'tibor qaratmoqda. Bu esa biz yoshlarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqish va intilishlarimizni yanada orttirmoqda. Binobarin,O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2012-yil 13-dekabrdagi PQ 1875-sonli qarori qabul qilingandan so'ng mamlakatimizda chet tillarini o'qitishga, o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi,va natijada har bir fanni yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanib talaba-o'quvchilarga yetkazib berish ta'limning asosiy talablaridan biriga aylandi. Ya'ni chet tili darslarining o'tish jaroyonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, interfaol innavatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab etilmoqda. Bu esa chet tillarini o'rganish sifatini yanada yaxshilamoqda. Bu islohotlarda nazarda tutilayotgan maqsad ham shu-ta'lim jaroyoniga zamonaviy, innovatsion texnologiyalarni olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish.

Bu orqali albatta,innovatsion texnologiyalardan foydalanishga imkoniyat tug'iladi va talab ortadi. Bizga ma'lumki,chet tillarini o'rganishda ularning to'rtta aspektiga (o'qish,yozish,tinglab tushunish,gapirish) alihida e'tibor qaratamiz. Biz chet tillarini shu to'rt aspektini to'liq anglab tushunib yetishimiz uchun qo'l keladi.

Masalan,tinglab tushunish aspekti uchun albatta,kompyuter,player,CD disklarsiz bu jarayonlarni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Bunda o'quvchi bir vaqtning o'zida so'zlovchining talaffuzi,grammatik qoidalarga rioya qilganligi,so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Shu birgina misol orqali ko'rinib turibdiki,til o'rganish va o'qitishda zamonaviy, ilg'or texnologiyalarning roli naqadar ahamiyatliligi.

Bundan tashqari respublikamizda chet tilining o'qitilishi,chet tili o'qituvchi va o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning yangicha mezoni,ya'ni butun dunyo bo'ylab keng yoyilgan IELTS,CEFR,TOEFL kabi yangi usul va talablar ishlab chiqildi. Bu kabi islohotlar orqali,chet tillarini o'rganayotgan har bir o'quvchi uchun qulay imkoniyat yaratilib,ulkan marralar sari keng yo'l ochib berildi. Hozirda ko'plab yoshlarimiz bu sharoitlardan foydalangan holda bilim-malakasini oshirib,yetuk shaxs bo'lib yetishmoqda. Yurtboshimizning bu sohaga berayotgan e'tiborlari o'z samarasini bermoqda. Bu esa O'zbekistonimizning yuksak cho'qqilar sari olg'a qadam bosayotganidan darakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Otaboyeva.M.P. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi-2017.
2.//www.lex.uz

XORIJIY TILNI O'QITISHDA ONA TILINING INTERFERENSIYASI

Shonnonova Nilufar Erkinovna,
Navoiy viloyat Qiziltepa tuman 27-umumta'lim maktab,
Ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada xorijiy tilni o'qitishda ona tilining interferensiyasi haqida so'z yuritilgan.
Kalit so'z: interferensiya, fonetika, leksika, grammatika

Mustaqillik yillari mamlakatimizda amalga oshirilgan olamshumul muvaffaqiyatlar va rejalashtirilgan ulug'vor tadbirlar tilshunoslar, metodistlar va xorijiy til o'qituvchilariga ulkan vazifalarni yuklaydi.

O'zbek metodistlari, mamlakat ziyolilari oldida turgan bu ulkan vazifalarni bajarish uchun hormay-tolmay mehnat qilib o'z monografiyalari, darsliklari va ilmiy maqolalari bilan chiqmoqdalar va o'zbek tilshunosligini jahon maydoniga chiqishiga katta hissa qo'shmoqdalar. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda hormay-tolmay mehnat qilayotgan bir qancha metodistlarning mehnati tahsinga loyiqdir.

Hozirgi kunda xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'rganish mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida alohida kasb etishi bilan izohlanadi. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek, hozirgi kunda jahon hamjamiyati integrallashuvi jarayonida xorijiy tillarning ahamiyati beqiyosdir. Til boyligi va soddaligi fikrni aniqlik sari yo'naltirgani uchun ham tilshunoslikda muhim daraja kasb etadi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyasi Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallashga yo'naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil O'zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxasis qilib tarbiyalashga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi (1997-yil 29-avgust)da qabul qilingan hamda bugungi kunda g'oyalari amaliyotga keng ko'lamda muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012- yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi PQ-1875-sonli qarori mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim.

Hozirda ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab, davr siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunki dunyoning deyarli barcha xalqlari ingliz tilida so'zlashadi. O'zbekiston xalqining har bir vakili qaysi sohada ishlamasin, ingliz tilini o'rganishga harakat qilyapti, chunonchi bog'cha yoshidan to oliygohlarga qadar bu tilni o'rganish davlat dasturiga kiritildi.

Shu o'rinda "Chet tilini o'rganishda ona tili biz uchun eng katta dushman, lekin biz ana shu dushmandan do'st sifatida foydalanishni bilishimiz kerak" degan fikrni izohlashimiz shart. Biz o'zga tilni o'rganish davomida, so'zlarni o'z tilimiz ohangida talaffuz qilamiz, mana bu jarayon "dushman"lik holatidek tuyuladi, lekin shu "dushman"lik holatidan "do'stlik" darajasiga o'tishni bilishimiz kerak.

Xorijiy tilni o'rganish jarayonida ona tilining ijobiy va salbiy ta'sirlarini o'quvchiga tushuntirmay chet tilini mukammal o'rgatib bo'lmaydi. Ma'lumki, bola yoshligidan ona tilida gapirishga odatlanadi, uning chet tilini o'rganish jarayonida o'z ona tilidagi ko'nikmalari, albatta, o'rganilayotgan tilga ijobiy va salbiy ta'sir etadi.

Interferensiya tilning turli yaruslarining aloqasiga ko'ra fonetik, leksik va grammatik bo'lishi mumkin. Interferensiyaning ijobiy tomoni shundaki, o'quvchi-talaba ona tilining fonetikasi, grammatikasi va leksikasini nazariy va amaliy jihatdan mukammal bilsa, chet tilidagi mazkur yaruslarga tegishli til hodisalarini anglab, bilib,t ushungan holda o'rganadi va o'zlashtirish jarayoni tez va oson kechadi.

Shu bilan birga, ona tilimiz bilan ingliz tilini o'xshash va qiyosiy jihatlarini - fonetika, leksikologiya yoki morfologiya bo'limlari orqali chog'ishtirib, bilimlarimizni kengaytirishimiz mumkun.

Ona tilidagi tayyor ko'nikmalarning salbiy ta'sirlaridan ba'zilarini tasvirlaymiz.

1. O'zbek va ingliz tillari fonetikasini qiyoslaydigan bo'lsak, ingliz tili fonetikasini murakkab jarayon ekanligini ko'ramiz, chunonchi 6 ta unli 24 ta tovushni ifodalaydi, har bir tovushni o'ziga xos holatlari va ko'rinishlari bor.
2. O'zbek tili gramatikasida bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning gap tartibi bizga ayon. Ona tilida gap boshida ega, oxirida kesim, o'rtada ikkinchi darajali bo'laklar ishtirok etadi, ingliz tilida gap tartibi rus tili gramatikasiga o'xshaydi, ega, kesim so'ngra ikkinchi darajali bo'laklar.
3. Sifatlardagi oddiy, qiyosiy va orttirma daraja shakllari ingiliz tiliga ham xos.
4. Oddiygina sanoq sonlarning yasalish holatlarida ham o'xshashlik jihatlari bor.
5. Artiklning ingliz va nemis tillarida mavjud bo'lib, o'zbek tillarida yo'qligi.

Bunday interferensiyali hollarni ko'plab misol keltirish mumkin. Shuning uchun ham xorijiy til sistemasini onglilik prinsipi asosida o'rgatish lozim. Onglilik prinsiplaridan biri xorijiy tilni onatili bilan taqqoslab, ular orasidagi o'xshash va farqli til hodisalarini ko'rsata olish hamda ona tilida mavjud bo'lgan interferensiyali hollarni bartaraf etish usullarini tavsiya etish lozimdir.

Xullas, biz o'z ona tilimizni puxta bilsakkina, o'zga tilni o'rganishga chuqurroq yondashamiz. Har bir tilni o'rganish davomida, o'z tilimiz imkoniyatlarini hisobga olib, o'zbek tilini unutmagan holda o'rganishni joiz deb bilaman, chunki chet tili ona tiliga lisoniy devor bo'lib qolmasligi kerak.

ДЕЙКСИС ҲОДИСАСИ ТУШУНЧАСИ ҲАМДА ШАХС ДЕЙКСИСИНИНГ АЙРИМ ПРАГМАТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Содиқова Юлдуз Фуркатовна
Самарқанд Давлат Чет Тиллар институти магистранти
Телефон: +998902519030
Juliya_star5@mail.ru

Аннотация: Прагматика - тилшуносликнинг энг муҳим соҳаси бўлиб, тилни қай тарзда ва қай вақтда қўлланилишини ўрганади. Дейксис ҳодисаси тўғридан-тўғри прагматикага тегишли бўлиб, у тилнинг тузилиши ва контекст ўртасидаги боғлиқликни бевосита ўз ичига олади. Шунинг учун дейксис прагматиканинг асосий элементидир. Ушбу макола прагматикада дейксисларнинг ўрни ҳамда, шаҳс дейксисларнинг матндаги функцияларни таҳлил килиш нуктаи назаридан урганишга багишланган.

Калит сўзлар: прагматика, семантика, дейксис, шахс дейксиси, контекстуал маълумотлар, анафора.

Замонавий тилшунослик бўйича асосий муҳим тадқиқотлар ХХ асрга тўғри келади. Бунда асосан рецептив грамматикадан тортиб, кишиларнинг ёзиш ва гаплашиш кўникмалари ижобий томонга силжишини назарда тутган ҳолда, тилни муайян вақтда жойлашган ўзига хос тизим сифатида қараш мумкинлиги ғоясига эътибор қаратилган. Прагматика - тилшуносликнинг энг муҳим соҳаси бўлиб, тилни қай тарзда ва қай вақтда қўлланилишини ўрганади. Дейксис ҳодисаси тўғридан-тўғри прагматикага тегишли бўлиб, у тилнинг тузилиши ва контекст ўртасидаги боғлиқликни бевосита ўз ичига олади [1, 55]. Семантика ва прагматика тилшунослик соҳалари ҳисобланиб, иккаласи ҳам маънони ўрганиш билан боғлиқ. Семантика сўз маънолари ўртасидаги муносабатни ўрганади. Бошқа томондан, прагматика контекстнинг маъносини шакллантириш усулини ўрганади. Прагматика ўзида шуни хулоса қиладики, гапларнинг талқини нафақат тилшунослик билан боғлиқ билимларга боғлиқ, балки нутқнинг мазмуни тўғрисидаги маълумотга, тегишли шахсларнинг ҳолати тўғрисидаги маълумотга, масалан, нисбатан ижтимоий мавқега оид турли хил иборалар билан кодланган ижтимоий маълумотларга боғлиқ. Масалан: суҳбат жараёнида ўзаро танишиш, гапирувчининг мақсади, маъруза айтиладиган жой ва вақти. Прагматик хабардорлик тилшунослик соҳасини ўрганишнинг энг қийин жиҳатларидан бири сифатида қабул қилинади ва бу кўпинча илмий таҳлиллар орқали юзага келади.

Дейктик иборалар замон ва макон муносабатлари ҳамда жараёнда иштирок этувчи кишилар ўртасидаги асосий алоқани англатади. Дейксис прагматика, семантика ва тилшуносликда ўрганилган муҳим соҳадир. Дейксис сўз қатламида маълум сўзлар ва ибораларнинг маъносини тушуниш контекстуал маълумотни талаб қиладиган ҳодисани англатади. Маъноларни етказиш учун контекстуал маълумотни талаб қиладиган сўзлар ёки иборалар дейктик иборадир. Левинсон қайд этган нутқнинг контекстуал маълумотлари адресант, адресат, замон ва макон ҳақидаги маълумотлардан иборат. Илмий адабиётда учта аниқланган дейктик категориялар мавжуд: шахс дейксиси (мен, сиз, биз), макон дейксиси (бу ерда, у ерда) ва замон дейксиси (ҳозир, бугун, кеча). Шахс, макон ва замон дейксисларидан ташқари, Левонсон, Лайонз ва Филлмор яна иккита дейктик категорияни қўшган. Булар: иштирокчи ролига боғлиқ бўлган ижтимоий тафовутларни кодлаш, хусусан адресант ва адресатлар, референтлар ўртасидаги ижтимоий муносабатларнинг аспектларини қамраб олувчи социал дейксис ва ҳаволаларни кодлашни ўз ичига олувчи дискурс дейксиси.

Левинсондан фарқли ўлароқ, Юл [5, 9] дейксисни "тил орқали ишора қилиш" усули сифатида тавсифлайди ва шунингдек, дейксисни юнон тилидан келиб чиққан техник сўз деб таърифлайди. Юл шунингдек, дейктик иборалар юзма-юз гапириш жараёнида энг кўп қўлланилишини тадқиқ қилган. Тилшунос олим Лайонз эса дейксисни қуйидагича изоҳлайди: "дейксис деганда, макон-замон контекстларига алоқадор бўлган жараёндаги шахслар, объектлар, ҳодисалар, фаолиятларнинг жойлашуви ва идентификацияси тушунилади" [1, 377].

Левинсон учун дейксис атамаси эгоцентрик тарзда ташкил этилган бўлиб, унда дейктик марказга нисбатан дейктик ифодани талқин қилиш керак бўлган тизим инобатга олинади [4, 64]. Дейктик марказ атамаси вазиятни ҳисобга олиб ишора қилинган ёки матн ёзилган жойда, бошқача қилиб айтганда, дейктик атамалар тушунилган позицияга тааллуқли бўлиши кераклиги эътиборга олинади. Тилшунос олим Ш.Сафаров эса ўз монографиясида қуйидаги фикрларни таъкидлаб ўтган: "тил тизими ва унинг нутқий фаоллашуви ўртасидаги "воситачилик", "ҳакамлик" ролини тилшунослар бекорга дейксис ҳодисасига бағишлаётганлари йўқ. Тил тизимининг ўзи нутқий фаолият натижасида

мавжуддир, унинг табиати ва моҳияти нутқий мулоқот жараёнида намоён бўлади. Шундай экан, тил бирликларининг маъно хусусиятлари нутқда воқеланади, аниқ тус олади. Ҳар бир нутқ ижодкори (матн муаллифи) воқеликда кечаётган ҳодисани ўзича идрок этади, уни маълум макон, замон ҳудудида тасаввур қилиб, ҳосил бўлган мантиқий тасаввурга лисоний либос беради. Лисоний воқеланиш ва мазмун шаклланиши нутқ муаллифи танлаган "саноқ боши", яъни кечаётган ҳодисани замон-макон майдонига жойлаштириш билан боғлиқдир. Демак, нутқий фаолиятда доимо лисоний шаклни воқелик билан боғлаш ҳамда унга нисбатан шахсий муносабат билдириш эҳтиёжи туғилади. Худди шу вазифалар ижроси дейктик воситалар зиммасидадир" [2, 168]. Ушбу ҳолатда тилшунос олимнинг фикрларига қўшилган ҳолда, дарҳақиқат, дейксис тизими ҳар қандай матнда мавжуд ва шу билан бирга матнни фаоллашувида муҳим роль бажаради.

Дейктик ибора деганда ҳар хил вазиятларда бўлган ҳолатларнинг турли маъноларига ишора қилувчи сўз ёки ибора тушунилади. Прагматик ёндошувда дейктик иборалар жуда муҳим ҳисобланади ва бу тилларнинг тузилиши ва улар ишлатиладиган контекстлар ўртасидаги муносабатни ўз ичига олади. Дейктик кўрсаткичларга боғлиқ бўлган сўз дейктик сўз деб аталади ва контекст билан боғланади.

Шахс дейксиси гапирувчи ва тингловчининг ҳолати билан боғлиқ бўлган ҳодисада кўзга ташланади. Биринчи ва иккинчи шахс олмошлари одатда гапирувчи ва эшитувчи нутқ иштирокчиларига, учинчи шахс олмошлари эса нутққа оид бўлмаган иштирокчиларга ишора қилади. Лайонзга кўра, фаол иштирокчилар адресант ва адресатдир, учинчи шахс эса нутқ актида фаол иштирок этмайди [1, 46-47].

Масалан:

I was late. Мен кечикдим.

You arrived early. Сиз эрта етиб келдингиз.

I saw them. Мен уларни кўрдим.

Учинчи шахс олмошлари дейктик ёки анафорик қўлланилиши мумкин. Дейктик иборанинг анафорик қўлланилиши референциянинг матн ёки нутқда аввалдан эслатиб ўтилган бошқа объектга ҳавола қилинганда юзага келади.

Мисоллар:

John believes she is beautiful.

Жон уни гўзал деб ҳисоблайди. (дейктик қўлланилиш)

John thinks I heard him.

Жон мен уни эшитган деб ўйлайди. (анафорик қўлланилиш)

Инглиз тилида олмошлар бирлик ва кўплик шаклида келади, баъзилари келишиклар учун белгиланади, учинчи шахс бирлик шакллари жинсни ифодалайди:

Хулоса қилиб айтганда, шахс дейксиси тизими инглиз тилида (фақат учинчи шахсда) ва сонда (биринчи ва учинчи шахсларда) фарқларни белгилайди; иккинчи шахс ҳолати иккала бирлик ва кўплик шаклларни назарда тутади, бошқа айтганда нейтраллаштирилган. Шу билан биргаликда, шахс дейксиси бир-бирига ўхшаш бўлган бир қатор фарқларни белгилаши мумкин: шахс, жинс, сон ва ижтимоий ҳолат.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Лайонз Дж. Введение в теоретическую лингвистику. - М.: Прогресс, 1978. - 543 с.
2. Сафаров.Ш.С. Прагмалингвистика. -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.- 286 б.
3. Fillmore Ch. Deixis I // Lectures on Deixis. - Center for the Study of Language and Information Leland Stanford Junoir University.: CSLI Publications, 1997. - P.59-75.
4. Levinson, S. C. Pragmatics. -Cambridge: Cambridge University Press, 1983. - P.55
5. Yule G. Pragmatics. -Oxford:Oxford University Press, 1996. - P.9

ABSURDIZM ALBERT KAMYU TALQINIDA

Nozima Sulaymonova
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O'zbek tili va adabiyoti universiteti
Adabiyotshunoslik yo'nalishi II kurs magistranti
snn.1995.16.06@gmail.com, +998906310686

Annotatsiya. Ushbu maqolada Albert Kamyuning "absurd" haqidagi qarashlari, "Sizif haqida afsona" essesi tahlilga tortilgan. Va shu asar misolida "absurd" va "isyon" tushunchalari, odamning olam va hayotda tutgan o'z o'rnini anglashi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: modernizm, ekzistensializm, yolg'izlik, absurd obraz, ma'nisizlik, mavjudlik.

Abstract. This article analyzes Albert Camus's views on the "absurd" and the essay "The Legend of Sisyphus". And in this work, the concepts of "absurdity" and "rebellion" are discussed, as well as the understanding of man's place in the world and in life.

Key words: modernism, existentialism, ugliness, absurd image, meaninglessness, existence.

Fransuz yozuvchisi va faylasufi Albert Kamyu (1913-1960) o'tgan asrning 50-yillarida jahon intelligensiyasi tafakkuri va dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatgan ijodkorlardan sanaladi. Zamondoshlari unga "G'arb vijdoni" degan sharafli nom bergandilar. Albert Kamyu 1913- yilning 7- noyabrida Jazoirda yashovchi fransuz oilasida dunyoga keldi. Yosh Albert shu yerdagi boshlang'ich maktabda savodini chiqardi. A'lo o'qigani uchun u maktab ma'muriyati yo'llanmasi bilan litseyga o'qishga qabul qilindi. Biroq, sil kasaliga chalinib, bir muddat kasalxonada yotib davolandi. Baxtga qarshi bu kasallik umrining oxiriga qadar undan arimadi, adibning ruhiy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, hayoti va ijodida salbiy holatlar tug'dirdi. 1932-1937 yillar Kamyu Jazoir universitetining falsafa fakultetida tahsil oldi. Bu yillarda u Andre Jid, F. M. Dostoevskiy, F. Nitsshe asarlarini katta qiziqish bilan mutolaa qiladi. 1936- yil Kamyu "Neoplatonizm va xristianlik ta'limoti" mavzusida magistrlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Dissertatsiya mazmunida Platon falsafasining Avrelie Avgustin teologik falsafasi va diniy ta'limotiga ta'siri xususida fikr yuritilgan edi. Shundan so'ng, u S. Kerkegor, L. Shestov, M. Xaydegger va K.Yaspersning ekzistensializm falsafasini qunt bilan o'rganishga kirishadi. Ayni paytda davrining mashhur yozuvchisi Andre Malro prozasining tub mohiyatini ifodalovchi "hayotning absurdligi" g'oyasini o'rganish bilan mashg'ul bo'lib, o'zi ham shu mavzuga yaqin "Baxtli o'lim" nomli ilk qissasini yozadi.

1942 yili adibning "absurd haqida essesi" - "Sizif haqida afsona" asari nashr etildi. Bu asarida Kamyu o'lim haqidagi fikr-mulohazalarini, ya'ni o'z-o'zidan begonalashib ketish, voqelikni bilib bo'lmaslik, yashash ma'nosini anglashning mumkin emasligi, erkinlikning yagona manbai sifatida absurdni ko'rsatish xususidagi mushohadalarini bir joyga to'plarkan, absurd dunyoning bosh qahramoni roliga afsonaviy Sizifni tanlaydi. Sizifning ter to'kib bajarayotgan ishi bema'ni, bemaqsad, ma'budlar amri bilan u xarsang toshni cho'qqiga ko'tarib chiqqanida tosh yana pastga qarab qulaydi va hammasini yangidan boshlashini u yaxshi biladi. Yana shuni biladiki - u cho'qqiga chiqqudek bo'lsa ma'budlardan ham yuqorilaydi, taqdir ustidan g'alaba qiladi, demak, toshni ko'tarish uning azaliy ishi va maqsadiga aylanadi. Shuni bilishning o'zi kifoya, buni anglash erkinlikni kafolatlaydi. San'at asari ham absurd dunyoga mansubdir, biroq ijod jarayoni xaos qoplagan dunyoda es-hush, eng muhimi tafakkurni saqlab qolishga, aqlni yo'qotmaslikka imkon beradi. Shu asnoda Kamyu ijodida romantik ruhdagi optimizmning yana bir manbai - san'at paydo bo'ladi. U tomonidan yuksak qadrlangan, munosib baholangan fransuz romani taqdirni yengish, taqdir zarbalariga bardosh beruvchi qudratli kuch sifatida namoyon bo'ladi. Muallif romanning badiiy makoni va zamonida taqdirni "shakl"ga soladi, uni "san'at qoida"lari asosida quradi. Bu xususiyat shak-shubhaga o'rin qoldirmaydi, shuning uchun ham u badiiy adabiyotda azaldan mavjuddir. Kamyuning o'zi ham klassik an'analarga sodiq qolish, ularga rioya qilishdek yuksak xislatlarni saqlashga harakat qilgan. Qahr-g'azabga to'lgan ma'budlar Sizifni bema'ni va maqsadsiz ishni bajarishga mahkum etdilar. Bu bilan ularda bema'ni, foydasiz va umidsiz mehnatdan dahshatliroq, shafqatsizroq jazo yo'q, degan tushuncha paydo bo'ldi. Kamyu esa ushbu afsonaning qahramonini absurd odam deb hisoblarkan: "U o'zining olijanob va qabih his-tuyg'ularida ham, azob-uqubatida ham o'zgarmaydi, absurdligicha qoladi", deb yozadi. Sizif yerdagi hayoti, jilovlanmagan ehtiroslari, xudolarga bo'ysunmagani va dunyoni chindan sevgani uchun jazoga mahkum etilgan. Qahramonning qisqa vaqt to'xtab, tin olish payti, ya'ni poyoni yo'q azob-uqubatlardan bir daqiqa bo'lsa-da, kutilgan holati qiziqarlidir. Aynan shu dam Sizif hushiga keladi, unga his-tuyg'ulari yana qaytadi. Yoki tosh qaytadan pastga yumalayotganda, mehnatdan bir zum forig' bo'lgan Sizif bema'ni mehnatidan qutilganini his etib, o'zini erkin va ozod sezadi, hatto baxtli odamdek quvonadi ham. Afsonaning fojiaviyligi Sizifning ongli ravishda bema'ni ishni bajarayotganida,

abadul-abad toshni ko'tarishga mahkum etilganligini anglashida asoslangan, desak to'g'riroq bo'ladi. Kamyu zamonaviy odam hayotini ushbu afsona bilan taqqoslarkan, hayot fojiali va ko'p jihatdan bema'ni deb hisoblaydi. Odamlarning xatti-harakati, yashash uchun kurash olib borishlari charxpalak aylanishiga o'xshaydi, bir zaylda kechadi va hech qanday foyda keltirmaydi. Qahramonning aqli rasoligi, es-hushi joyidaligi, ongi aniq-ravshanligi taqdir ustidan g'alaba qozonadi va azob-uqubatlarni xursandchilikka, shod-xurramlikka aylantiradi. Bu baxt Sizif chin qalbdan sevgan go'zal dunyo va shirin hayot haqidagi xotirada mujassam bo'larkan, uning yuragi "cho'qqiga chiqish uchun kurash" bilan to'lib-toshgan. Kamyu fikricha, Sizifni baxtli odamdek tasavvur qilish lozim. Shubhasiz, Kamyu qadim yunon mifologiyasidan olingan mashhur afsonaga yangi hayot bag'ishlaydi. Sizifning ishi zamonaviy insonlar mehnati bilan bir xil ekanligi xususidagi fikrni rad etib bo'lmaydi. Ko'p odamlar yangilik yaratmaydilar, kashfiyot va ixtiro qilmaydilar, faqat bir zayldagi xarakatlardan iborat yumushini kundan kunga bajaraveradilar. Sizifning baxti shundaki, u bir qarashda bema'ni va befoyda bo'lib ko'ringan ishida o'zicha ma'noni ko'radi. Albert Kamyu asarlari va falsafasi xususida aniq bir tasavvur hosil qilish oson emas, chunki uning adabiy va falsafiy asarlarida bayon etilgan qarashlarni har xil alpozda, turlicha talqin qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ayni paytda ushbu falsafaning o'ziga xos xususiyati, yo'nalishi va muammolar majmui tarixchi va faylasuflarga uni ekzistensializmning bir ko'rinishi sifatida baholashga zamin yaratdi. Haqiqatdan ham, Kamyu dunyoqarashi va ijodida G'arb falsafasi asrlar osha bosib o'tgan yo'lning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ldi.

Kamyu dunyo, umuman ob'ektiv voqelikning realligidan shubhalanmagan, uning tadrijiy rivojlanishi, to'xtovsiz harakatlanishi muhimligini anglab yetgan. Uning fikricha, dunyo aql-idrokka asoslanib qurilmagan, u xaotik. Dunyo insonga nisbatan shafqatsiz. Adovat ruhi bilan sug'orilgan dunyo insonga doimo tahdid solib turadi. Bu adovatli, shafqatsiz, tajovuzkor dunyo ming asrlar oshib bizgacha yetib keldi. Bu dunyo haqida biz bilganimizni ishonarli deb bo'lmaydi; to'plagan bilimimiz yetarlicha asosga ega emas, tajribada isbotlanmagan. Dunyo har doim ko'z o'ngimizdan g'oyib bo'ladi, tutqich bermaydi, o'zgarib turadi. Hayot, ob'ektiv borliq xususidagi tasavvurida Kamyu "borliq o'zini faqat shakllanishida namoyon qilishi mumkin, shakllanish esa mavjudliksiz, real tarzda borliqsiz hech narsa, yo'q narsa", degan aqidaga asoslanadi. Yozuvchi fikricha, borliq ongda aks etadi, lekin "inson aql-idroki, orzu-umidlar olamida harakatlanmaguncha o'zining to'liq ifodasini topmaydi. Agarda u uyg'onsa, hamma narsa o'zaro uyg'unlashib ketib, yaxlit holga keladi, muayyan tartibga tushadi. Agarda tashqaridan biron bir tahdid kelsa, xavf-xatar tug'ilsa, ushbu dunyo parchalanib, xuddi oyna kabi sinib, minglab bo'laklarga bo'linib ketishi mumkin. Undan keyin insonning dunyoni bilish qobiliyati, aqli-zakovati uchun behisob yaltirab turuvchi siniq oyna parchalari qoladi. Uni terib olish esa inson aqliga bog'liq". Kamyu shu tariqa dunyoni o'zgartirishning yagona manbai deb bilishni ko'rsatadi, ayni paytda, bilimdan o'ylamasdan, bema'no foydalanmaslikka undaydi. Kamyu ilm-fan dunyo va inson xususidagi bilimlarimizni chuqurlashtiradi va kengaytiradi deguvchi purma'no fikrga qo'shiladi, lekin bu bilimlar hali yetarlicha mukammal emasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ilm-fan bugungi kungacha ham eng muhim, eng dolzarb, ya'ni hayot ma'nosi, dunyo mavjudligining maqsadi, butun borliq, ya'ni o'simlik va hayvonot, umuman tirik organizmning yashash ma'nosi haqidagi savolga javob berolmaydi. Odamlar bu dunyoga, bu tarixga tasodifan tushib qolishgan. Ular o'limga mahkum etilgan va hayot ko'z o'ngimizda go'yo absurd dunyodagi bema'ni harakat, yashash uchun kurashdek namoyon bo'ladi. Ushbu adovatli, tajovuzkor, sovuq va issiq, zulmat va yorug', mashriq va mag'rib, shams va qamar, hayot va o'limdan iborat dunyoda Inson nima qilmog'i lozim? Kamyu bizni bu savolga kechiktirmay javob topishga chorlaydi. Avvalambor, inson "hayot nima, u yashab o'tishga arziydimi, umuman yashash, hayot kechirishda ma'no bormi, yo'qmi?", deguvchi murakkab bir savolga javob berishi lozim. Falsafaning ushbu bama'ni savoliga javob topish - o'ta murakkab falsafiy muammoni yechish demakdir. Kamyu fikricha, "qolgan barcha narsa□ ikkinchi darajalidir. Yashashga intilish, to'laqonli hayot kechirish uchun tirishish, insonning dunyoga bo'lgan mehr-muhabbati bilan o'lchanadi, "ushbu muhabbatda dunyodagi jamiki azob-uqubat, jabr-u jafo, qiynoq va sitamlardan kuchliroq narsa mujassam"dir". Dunyoviy muhabbat insonga hayotni sevish va hayot o'rtasidagi tafovutni, kelishmovchilikni yengib o'tishga imkon beradi. Garchi ushbu tafovut ustunlik qilgudek bo'lsa, dunyoda absurd hukmronlik qiladi. Insonga benazir aql-u zakovat, zehn, tafakkur, eng muhimi, ong va til berilganki, u dunyoni muayyan tartibga solishi, ezgulik va yovuzlik xususidagi tushuncha va tasavvuriga mos ravishda uni o'zgartirishi lozim. Albert Kamyu yashash bu - absurdni chuqur va keng tadqiq qilish, unga qarshi isyon ko'tarish, deb hisoblaydi. Aqlimni ishga solib, o'limga itoatkorona bo'ysunish qoidasini yashash qoidasiga aylantiraman va o'z jonimga qasd qilishni rad etaman".Yozuvchi fikricha, inson tanlash huquqiga ega: yo o'z davriga moslashib yashash yo uni o'jarona rad etgan holda qarshi kurashish, lekin davr bilan bitim tuzishi ham mumkin. Keyingisida "o'z davrida yashab abadiyatga ishonish" tamoyili ustun turadi. Qiziq holat, abadiyatga ishonish Kamyuga unchalik ham xush kelmaydi. Uning fikricha, dunyodagi absurddan, ya'ni dunyo bema'niligidan azaliy va abadiy qadriyatlarga e'tiqod qilish, kundalik hayot illyuziyasiga sho'ng'ib ketish yoxud birorta g'oyaga ergashib yashirinish, boshqacha aytganda, absurd bosimini tafakkur yordamida pasaytirish mumkin.

Kamyu esselari va asarlarida xuddi Kafka kabi hayotning, dunyoning absurd va ma'nosiz ekanligini ta'kidlaydi, ana shu ma'nosizlik va absurdni tahlil qilishga kirishadi. Adib uchun hayotning ma'nosizligi, dunyoning absurdligi bor haqiqat. Har qanday odam bu haqiqatni tan olishi, anglashi kerak. Bu falsafaning birinchi masalasidir. Uni hal qilmay turib, deydi adib, falsafaning boshqa masalalarini hal qilib bo'lmaydi. Dunyo boshidanoq absurd bo'lgan va absurdligicha davom etayapti. Absurd sharoitida insonning mavjudligi tan olinmaydi, u mavjud deb hisoblanmaydi. Qismatning eng katta adolaltsizligi ham ana shunda. Hayot azaldan shunday qurilgan va bundan keyin ham shunday davom etadi. Sizif tepalikka toshni dumalatib chiqishga mahkum etilgan. Bu yerda u mavjud emas, aksincha uning peshonasiga bitilgan taqdir bitigi mavjud, xolos. Tosh yana pastga dumalab tushaveradi. Sizif yana toshni tepaga dumalatib chiqaveradi. Uning toshni dumalatib chiqishida hech qanday ma'no yo'q. Ma'budlar uning qismatiga ana shu azaliy taqdirni abadiyat qadar bitib qo'yishgan. Bu dumalatishdan ma'no izlashning o'zi ma'nosizlikdir.

Ammo Kamyuning fikricha, absurdni ana shu xulosa bilan to'xtatib qo'yilsa, bu absurd falsafasining, dunyoni anglashning notugalligini, absurdga va taqdirga qul bo'lganlikni bildiradi. Absurdga bo'ysunish, unga bosh egish - insonning eng katta fojiasidir. Absurdni yengish uchun unga isyon qilish, ya'ni uning mohiyatini anglash, inson o'zining kimligini anglashi kerak bo'ladi. Kamyu Sizif tepalikka tosh dumalatib chiqishi taqdiri ekanini bilgach va uni anglagach, absurdning eng muhim bosqichi boshlanadi, Sizifning tepalikka tosh dumalatib chiqishga mahkumligini anglashi esa uning absurddagi birinchi isyonidir, bu holat o'zining mavjud ekanini isbotlashga hozirlanishdir deydi. Bu isyon odamning olam va hayotda tutgan o'z o'rnini anglashidir. Ana shu anglashdan so'nggina endi toshni dumalatib chiqishdan zavq olish, uni ijodiy shavqqa va hayotiy quvvatga to'ldirish, ya'ni qismat ma'nisizligini ma'noga, mavjudsizlikni mavjudlikka aylantirish davri boshlanadi. Sizif o'zining mahkumligini o'zgartirolmaydi, uning uchun boshqa yo'l yo'q, ammo unda taqdirining peshonasiga bitilganiga qasdma-qasd o'z hayol va tasavvurlari, orzu-umidlari, zavq-shavqlari, mavjudligini bildirishga urinishlari bilan to'ldirish imkoniyati bor. Sizif toshni tepaga dumalatib chiqar ekan, endi unda shu dumalatishdan o'zini, menini anglash va bu dumalatishni o'zining foydasiga hal qilish, Kamyu tili bilan aytganda, mahkumlikni ijodga aylantirish, ya'ni toshni tepalikka o'zi xohlaganday, o'zining mavjudligini bildirib, o'zi tanlagan usul va uslubda dumalatib chiqish imkoni bor.

Yashash uchun kurash - bu o'zi uchun yaratilgan hayotni va dunyoni aqli, tafakkuri bilan tartibga solish, o'zining mavjudligini isbotlash degani, mavjudligini isbotlash esa azaliy hayot tartiblariga isyonni anglatadi. "Men mavjudligimni isbotlash uchun isyon qilaman! " - deydi Kamyu. Chunki bu harakat bilan inson qarshisidagi abadiy ma'nisizlikni o'ziga bo'ysundirishga kirishadi, boshqacha aytganda, unga ma'no va mavjudlik bag'ishlashga o'tadi. Absurdni anglab, uni o'zgartirish, unga o'zgacha tartiblar berish uchun qilingan har bir harakat isyondir, isyon esa ijoddir deydi adib. Bu erda adib isyon ma'nosini keskin ajratib tahlil qilishga kirishadi. Adib nazarida shu paytgacha odam odamga, eziluvchi ezuvchiga qarshi qilgan isyoni, bu haqiqiy isyon emas, absurd isyon odamga qarshi qaratilmaydi, bu isyonda odam o'ldirishga dav'at qilinmaydi. Shu sababli insoniyat boshidan kechirgan isyonlar, bugun inqilob deb atalayotgan harakatlarning absurd isyoniga aloqasi yo'q, bular shunchaki qo'zg'olon yoki to'ntarishlardir. Haqiqiy isyon insonning o'z mohiyatini o'zgartirish sari, o'zgartirish yo'lida qilgan botiniy isyonidir. Shu isyon haqiqiy inqilobdir. Isyon deb atashayotganlarining qolgan jami xunrezlikdan boshqa narsa emas. Inson o'z mohiyatini o'zgartirishga, o'z "meni"ni izlab topishga, "men"ini isbotlashga, uni kamol toptirishga kirishar ekan, o'z hayotiga va taqdiriga ma'no kirita boshlagan bo'ladi, bu esa mavjudligini isbotlashga urinish hamda absurd mohiyatiga isyondir. Kamyu esselarida yashash bu absurdni tadqiq va tahlil qilish, unga qarshi kurashish deganidir deya adabiy va falsafiy kredosini qat'iylashtiradi. "Men absurdni uchta holatga - erkimga, isyonimga va zavqimga aylantiraman", - deydi Kamyu. Absurdning bosimini odam o'z tafakkuri, harakati va ishonchi bilan yengishi mumkin. O'zining absurd hayotidan ustun kelib, absurdni yengganlarni adib "g'oliblar" (muzaffarlar) deb ataydi. O'z absurdidan ustun kelganlar va uni yengganlar - g'oliblar Kamyu uchun inson degan nomga har tomonlama munosibdir. "G'oliblar" shunisi bilan tahsinga sazovorki, ular hayotlarining ma'nosizlikka mahkum ekanini bilishadi va buni yashirib o'tirishmaydi, ammo shu ma'nosizlikni erkinlik va ijodiy shavq manbaiga aylantira oladi. Bunday odamlar absurd hayotdan baland ko'tarilolgan alohida shaxslardir. "O'zining isyonga bo'lgan botiniy ehtiyojini qondirish uchun u talab qilayotgan birdan-bir narsa - barcha zaruriy narsalar bilan birga pirovardida go'zallikka va tenglikka olib boradigan turmush asoslarini bunyod qilishdir. Har qanday tarixni inkor qilish mumkin, biroq, baribir, o'sha inkor qilingan joyda o'zimiz yashashimizga to'g'ri keladi", - deydi Kamyu. Adib bu xil qarashlari bilan Sharq tasavvuf falsafasiga juda yaqin keladi va xulosalaridan talay umumiyliklar kelib chiqadi. Kamyuning o'z taqdiri va qismatidan g'olib kelgan odam tushunchasi tasavvufdagi komil inson tushunchasiga ancha yaqin. To'g'ri, tasavvufdagi komillik ilohiy e'tiqod bilan bog'liq. Kamyu esa absurdni insonning mohiyati bilan bog'laydi, ammo xulosada bu ikki qarash bir-biriga uyg'un keladi.

Kamyuning nazarida absurdni yengishning, inson mavjudligini isbotlashning eng maqbul yo'li ijoddir. Faqat ijodgina absurdning - ma'nosizlikning qiyofasini va mohiyatini o'zgartiradi, unga ma'no bag'ishlay oladi.

Ijodda odam mavjud absurd dunyoga qasdma-qasd tarzda o'zining dunyosini yaratadi, unga o'zi istaganday qonunlar kiritadi, bu dunyodagi tartiblarni o'zi bitadi, tanlash imkoniga ega bo'ladi, hayotiga go'zallik va nafosat bag'ishlay oladi. Shu sababli ham absurd ijod isyonlar ichidagi eng katta va mukammal isyondir. Ijod qilish bu dunyoni o'zi istaganday ko'rish va uni o'zi istaganday bekami-ko'st yaratishga, o'zining mavjudligini isbotlashga urinishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Албер Камю. "Миф о Сизифе". 1942 г.
2. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2010 -yil, 1-son.
3. Nazar Eshonqul. "Mendan "Men" gacha". Akademnashr, 2014-yil.
4. U. Jo'raqulov. "Mif va ijodiy jarayon"maqola. Hududsiz jilva. -T.: "Yangi asr avlodi", 2006.
5. "Sharq yulduzi" jurnali, 2016-yil, 1-son

"BAXT" KONSEPTINING O'ZBEK TILIDA ANTONIMLAR ORQALI LINGVOMADANIY VERBALLASHUVI

Sultonona O'g'ilshod
TerDU 2-bosqich magistranti
Telefon: +998912392922
sultonova@mail.ru

Anotatsiya

Ushbu maqolada "baxt" konseptining o'zbek tilida turli frazeologik birliklar,premiologiyalar hamda iboralar bilan misollar orqali lingvomadaniy verballashuvi yoritilib, izohlangan. Bundan tashqari, "konsept" ning paydo bo'lishi va unnig qachondan boshlab fanda o'rganila boshlanganligi shuningdek, lingvistikada tushunchadan farqli va o'xshash jihatlari turli olimlarning fikrlari hamda nazariyalari yordamida ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: "baxt", konsept,tushuncha, kognitiv tilshunoslik, antonimlilik

Baxt - ma?naviy-axloqiy tushuncha. Kishi o'z faoliyati natijalaridan, hayotda qo'lga kiritgan yutuqlaridan to'la qoniqish, yashash tarzidan mamnunlik, muayyan maqsadga yetganlik, orzu-umidning ushalishi, bearmonlik holati sifatida namoyon bo'ladi.

Baxt qadimgi davrda evdemonizm falsafasining asosiy tushunchasi bo'lgan. Uning vakillari Baxtga hayotning asosiy maqsadi, kishilar institutiladigan masrurlikka erishilgan holatning, shod xurram bo'lishning eng oliy ko'rinishi sifatida qaraganlar. Aristotel, Epikur,Diogenlar ham shunday tushunganlar. Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Sa?diy, Navoiy kabi olim va mutafakkirlar ijodida bu mavzu muhim o'rin egallagan. Zamonaviy o'zbek adabiyotida ham bu mavzuga katta e?tibor berilmoqda.

"Baxt" tushunchasini nafaqat ma`naviy yoki axloqiy tavsif bilan cheklanib qolmasdan balki, ilmiy - leksikologik, morfologik, frazeologik birliklar hamda boshqa xalqaro til bilan qiyosiy-chog'ishtirish orqali ham tadqiq etish mumkin.

"Baxt" konsepti haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo "konsept" tushunchasini izohlash lozim.

Kognitiv tilshunoslik - dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqeliklari bilan bog'liqligini o'rganuvchi fandir. Konsept esa kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, madaniyat va inson o'rtasidagi aloqa o'rnatuvchi elementdir. "Konsept" termini 90 yillardan buyon lingvistikada qo'llanilib kelinmoqda.Konsept tushunchasi hali hamon bitta umumiy izoh yoki talqinga ega emas.

Konseptlarni o'rganishga birinchilardan bo'lib murojaat qilgan S.A. Askoldov, "aqliy faoliyatda juda ko'p obyektlarni almashtiradigan ruhiy shaxs" tushunchasini ko'rib chiqdi. Uning so'zlariga ko'ra, "albatta, konsept har doim haqiqiy obyektlarni almashtirish deb o'ylamaslik kerak, bu har xil turlarni almashtirish mumkinligi hamdir." [1: 267 - 279 4.]

G.G. Shishkin va V. I. Karasik tushunchani "dominant qiymat elementiga ega bo'lgan ko'p o'lchovli aqliy birlik" sifatida tushunishadi. [2: 75 - 80] Ba'zi bir "kuchli" ongning atrofida konsept guruhlari, shundan assotsiativ vektorlar ajralib chiqadi. Ona tilida so'zlashuvchilar uchun eng muhim assotsiatsiyalar konseptning yadrosi, kamroq ahamiyatlisi - atrof-muhit.

Tushuncha konsept kabi ong birligidir.Ammo u biror predmet yoki voqeaning boshqa predmet yoki voqeadan farqini ko'rsatuvchi eng asosiy belgilarini ongdagi aks etishidir.Tushuncha konseptning bir bo'lagi bo'lib, tilda so'z va so'z birikmasi orqali yuzaga chiqadi. A.V. Bondarko fikriga ko'ra, Ma'no tushunchaning tildagi muqobilidir. Tushuncha tilda so'z ma'nosida aks etadi va u til hisobiga boyishi mumkin.

Malumki, ko'pgina badiiy adabiyot matnlarida "baxt" tushunchasi ichki tuyg'ularidan biri sifatida muhabbat, sevgi konseptiga bog'lanib keladi. Bunda baxt tushunchasi his-tug'ularning o'zaro mos kelishini anglatadi. Bunday baxtga erishmaslik xususiyatlari ham mavjud bo'lib, baxt-baxtsizlik diada konseptini yuzaga chiqaradi. Inson tuyg'usida baxt va baxtsizlik dualligi nisbiy tushuncha sifatida qaraladi.

O'zbek tilining Antonimlar Lug'atida "baxt" konseptining zidlanishi orqali verballashuv yo'llari ko'rsatilgan.

BAXT

Hayotdan o'ta mamnunlik holati, o'ta xursandlik bilan, bearmon yashash hissi.

BAXTSIZLIK

Hayotdan o'ta norozilik holati, o'ta xafalik bilan, armon bilan yashash hissi.

Mehnat baxt kelrirar, yalqovlik - baxtsizlik. Maqol. Gulnorning ko'zlari unga [Yo'lchiga] butun umrini yoritgan bir baxt va'da etar edi. Oybek, Qutlug' qon. Anvarning bu holati balki oila baxtsizligidan, ota-ona

bag'rida yayramaganlikdan tug'ilgandir. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

baxtiyor - baxti qora baxtiyor - baxtsiz baxtiyor - bebaxt baxtiyor - tolesiz baxti qora - baxtiyor baxti qora - baxtli baxti qora - saodatli baxti qora - baxtli

BAXTLI BAXTSIZ

Baxtiyor Bebaxt

Saodatli Tolesiz Baxti qora

Hayotidan o'ta mamnun , bearmon va shodu hurram yashaydigan

Baxtiyor ota-on, Baxtli yigit , Saodatli qiz

Hayotidan o'ta norozi va qayg'u-hasrat bilan yashaydigan

Baxtsiz yigit, Bebaxt ota-ona, Tolesiz / baxti qora qiz

So'zlashdik, xotin, u kishi so'zni aylantirib, "Sizdek baxtli ota jahonda yo'q", - dedi. Oybek, Qutlug' qon. Bir tomonda desangiz tovusday tovlanib, gulday ochilib baxtiyor

kuyov-kelinlar o'tiribdi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Bu bino Kumushning o'z uyi bo'lib, bu uy ichida Otabekning saodatli kunlarining shirin xotiralari saqlanar . . .edi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. . . . ikki yosh qalb qovusholmay, baxtsiz bo'lgani uchun yig'lar edi. M.Ismoiliy, Farg'ona tong otguncha. Bebaxtning oshiga pashsha ham, kana ham, so'na ham, qolaversa, shaloplab olib mana shunaqa azroil ham, munkarnakir ham tushaveradi. H.Hakimzoda, Maysaraning ishi. Erdan tolesiz emas edi u [Norbuvi]. H.Shams, Dushman. Baxti qora ota osmonga nursiz ko'zlarini tikib, xudodan marhamat, rahm-shavqat so'ramoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,baxt va baxtsizlik dualligi turli sathlarda namayon bo'ladi. Bu ba'zan oliy kuchning ta'siri ham deb tushuniladi.Jaloliddin Rumiy ta'biri bilan aytadigan bo'lsak " har narsa ziddi bilan qadrlidir"

Adabiyotlar:

1. 4: 267 - 279 4.Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20-жилд ХАМСА ДЕВОНИ ФОНИЙ 200 б
2. 8: 75 - 80 8.Антрушина Г.Б., Афанасьева О.В., Морозова Н.Н Лексикология английского языка: Учебное пособие для студентов. - М.: Дрофа, 1999. - 166 - 183 с
3. К.М.Караматов. Proverbs- мақоллар- пословицы. Т.: Меҳнат, 2000.- 400 б.
4. Исроилов Б., Машарипова Г. Аждодлар мероси ва маънавий тарбия.-Т.: Маънавият, 2015.- 30 б.

AUTHENTIC TEXT MATERIALS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

1) Suvanova Farida Absamatovna- An English teacher of the secondary school#49 in Namangan city, Namangan region, Email: feridefarishta@gmail.com
2)Jiyanbekov Sayfutdin Saloxidinovich-An english teacher of school number 17 in Pakhtaabad district, Andizhan region. Email: jiyanbekov@inbox.ru

Annotation: The formation of communicative competence is one of the Central problems of modern lingo didactics. Along with the basic language skills, communicative competence includes the ability to work with information: its transformation in accordance with its own representation for the subsequent expression of personal opinion to the perceived information when it is transmitted to the interlocutor. However, it is necessary to specify one of the objectives of the basic educational program in a foreign language, namely, the formation of an active personal position perception of the world and including the development of national identity through familiarization with the basic features of the life of the country of the target language and samples of foreign literature in their genre diversity.

Keywords: authentic materials, information, video, and texts

First of all, it is worth noting that achieving the goal of forming communicative competence in foreign language lessons is impossible without observing anumber of fundamental principles.

One of the ways of forming communicative competence in compliance with these principles can be the use of authentic materials, however, the concept of "authentic materials" due to the novelty of considering this issue in modern lingo didactics has not yet acquired a clear definition. First of all, it is worth considering the concept of authenticity as such. Unfortunately, the appeal to the consideration of this notion leads to terminological confusion. In modern both domestic and foreign methodological science, there is no clear definition of authenticity, at the same time, there is no terminological boundary between the concepts of "authentic", "original" and "authentic". Because of this, we will try to define authenticity and find out the relationship of this concept with its relatives.

Let's start with the fact that in translation from Greek authentic means authentic, which corresponds to English - natural. According to dictionary definitions, the concepts of "authentic", "authentic", "original" as properties of authenticity, authenticity and originality in a broad sense fall into a number of synonyms.

Summarizing all the listed definitions of authentic materials, we can say that authentic materials are materials produced by native speakers for native speakers, presented in the native language in text, video, and audio formats, as well as in the form of illustrations.

The use of authentic materials in teaching aforeign language fully corresponds to the principles of formation of communicative competence described above.They meet the principles of authentic intuitiveness of speech activity, being a means of creating real situations of communication and achieving the authenticity of communication goals, which is manifested in the students ' awareness of the functionality of the language. Moreover, the variety of sources and forms of authentic materials correspond to the principles of individualization and novelty.

In addition, authentic materials provide a variety of types of educational activities, due to their genre and style diversity. At the same time, it lists the main disadvantages usually attributed to authentic materials. It highlights the complexity of authentic texts for understanding related to cultural differences, lack of language proficiency and the authentic used of language units, the rapid obsolescence of information, and as a result, the need for careful selection of material and process development work. The complexity of organizing work with a number of authentic materials, mainly audio and audiovisual materials, is explained by the existence of different accents and dialects. These advantages and disadvantages of using authentic materials raise the question of choosing the most effective authentic materials. Authentic materials, as noted, may include audio, video, and texts in a foreign language that were created for real communication rather than for academic purposes.

One of the above advantages of using authentic materials, namely the ability to create an authentic situation on a par with the authenticity of educational tasks, is completely inherent in the use of functional and informative texts. The latter, performing a pragmatic function and serving the everyday side of society, are characterized by relevance (changing with society), genre diversity of sources (which follows the

principle of individualization), situational conditionality and contain the basic units of language necessary for everyday communication.

Authentic literary texts are characterized by studying reading, which aims to fully understand the content for its subsequent critical understanding. This type of reading is characterized by a longer time duration, the presence of stops and rereading of individual fragments of text. A complete understanding of the content of a text implies an understanding of its lexical, grammatical, and syntactic content.

Most authors share the opinion that there are three main stages in working with any text: pre - text, text and post-text. At the pre-text stage, students ' motivation to work with the text is stimulated, personal experience is updated by attracting knowledge from other areas of the studied subjects, and the content of the text is predicted based on titles and drawings.

The use of authentic text materials fully satisfies the methodological concept of communicative foreign language education and is an effective means of forming communicative competence, provided that the principles of forming communicative competence (individualization, speech activity, functionality, novelty), aspects of the authenticity of the text, as well as the stages of organizing consistent work on an authentic text in accordance with its type are observed.

Literatures:

1. Voronina G. I. Organization of work with authentic texts of the youth press in high schools with in-depth study of foreign language / Foreign languages at school. 1999. n. 2. Pp. 23-25.

2. Krichevskaya K. S. Pragmatic materials that introduce students to the culture and environment of the inhabitants of the country of the studied language / Foreign languages at school, 1996, no. 1, Pp. 13-17.

WAYS OF INCREASING MOTIVATION TO LEARN THE LANGUAGE

Tashpulatova Dilobar Raximberdievna,
an English teacher of Namangan city,
specialised school № 58
tel: 97 3773012

Annotation
This article is about ways of increasing motivation to learn a language. Given activities will help students to develop and maintain their motivation for language learning.
Key words: increasing, learn, motivation, students, help, games, communication

Currently, English has finally become an international language of communication. Language learning in the modern world is becoming more and more relevant. The main factor in teaching speech communication in English is the motivation for learning a foreign language. Motivation is the main element of the structure of educational activities. Motivation should be understood as the organization of educational activities aimed at a deeper study of the English language, its improvement and the desire to develop the needs of knowledge of foreign language speech based on this, it is necessary to create conditions in educational activities that contribute to the development of the highest possible level of cognitive interest in learning English. Students without motivation to learn simply do not exist. Any cognitive activity of students, along with operational components (knowledge, skills), includes motivational (motive, interest, attitude). Every teacher wants to make their lesson interesting and exciting, to ensure that the cognitive interest of students, their creative thinking activity develops.

One of the most effective ways to increase motivation to learn a language is to use games in English lessons. The goal is to study the impact of games on increasing motivation to learn a foreign language. I always use these games at my English lessons and I also recommend English teachers to use them at their English lessons.

Activity 1. ." Story by drawing". The players form pairs. Each couple receives a drawing of a room that contains different things and objects that characterize its owner. You need to make a story about what the owner of the room is doing. The couple who wrote the most interesting story wins.

Activity 2. " Ball game". Two teams are formed. The representative of the first team comes up with a sentence with the studied verb. He throws the ball to the partner from the second team and calls the sentence, skipping the verb.The catcher repeats the sentence by inserting the correct verb form, throws the ball to the first-team partner, and names his sentence by omitting the verb, and so on.

Activity 3. " Who is faster? " It can be performed individually, in pairs and group. Students are given the following task: who will write the words faster in alphabetical order! What letters were missing?

	London	cat	dad
girl			
		Women	brother
summer			
	Letter		
new			
		flowers	
ocean			
green	happy	Tashkent	angry

Activity 4. "Snowball" can be used for studying any lexical material. The student pronounces a word/

phrase/suggestion on the topic, other students repeat and say their own. The game continues until one of the players makes a mistake or puts a word/phrase/sentence in the wrong order. During the game previously studied lexical material is also activated.

Activity 5."Makeup words / Let's make the words" also helps remember the graphic image of a word and its pronunciation. Students in teams it takes two minutes to make up the words they know (or on a specific topic) and write them down. The task is: to look at the alphabet. I'll give you 2 minutes to write down as many words.

Based on all the above, in my practice, I try to include game exercises in each lesson to achieve maximum activity of students. The game is an effective way to improve the quality and productivity of teaching a foreign language. Their use gives good results, increases the interest of children in the lesson, allows them to focus their attention on the main thing - mastering speech skills in the natural situation, communication during the game.

I want to tell you about another game - "Hide and Seek". As a rule, this game is good to use when studying the topic "prepositions of place". I hand out pictures of the room or use the one in the textbook. I choose the place and method - where I seem to hide in the picture. Students must find me by asking questions: Are you behind the curtain? , Are you under the carpet? In parallel, they train not only newly learned prepositions but also long-known names of furniture items. Correctly guessed, is hiding in the picture itself.

Thus, games and game exercises serve as effective a means of increasing motivation in English lessons in primary schools classes. Games and game exercises can be used at any stage of the lesson by the communicative task.

References:

1.Oxford, R., & Shearin, J. Language learning motivation: Expanding the theoretical framework
2.Gardner R. C., 1985. The Role of Attitudes and Motivation.
2.Stipek, Deborah.MOTIVATION TO LEARN: FROM THEORY TO PRACTICE.-1988

"MAHALLADA DUV-DUV GAP" KINOSIDA DIALOGLARNING O'RNI

Temirova Kamola Baxtiyorovna
Termiz davlat universiteti
Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi
2-bosqich magistrant talabasi
Telefon: +998997105094

Annotatsiya:Ushbu maqolada kino san'ati, uning rivojlanish o'rni, dialog, uning lug'aviy ma'nolari haqida qisqacha to'xtalingan. Shuningdek badiiy asarlarda dialoglardan keng qo'llanilgani singari, kinoda ham kinodialoglardan o'rinli foydalanish "Mahallada duv-duv gap" kinokomediyasidan olingan dialoglar asosida bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Kino, ssenariy, inssenirofka, ekranlashtirish, dialog, polilog, drama, kinokomediya, personaj, til vositalari, so'zlashuv va badiiy uslub

Ekranni hayot ko'zgusi deymiz. Binobarin, unda namoyon bo'lgan kinotasvirga qarab yurtimiz, xalqimiz hayoti haqida hukm chiqarilishi tabiiy. "San'atning boshqa turlarini kamsitmagan holda, bugungi kunda televideniye va kino san'atining ta'sir kuchi benihoya yuksalib borayotganini qayd etish lozim" . O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimovning bu so'zlarini audiovizual san'atlarning kechagi va bugungi kunini, istqiqbolini nazarda tutib o'rgansak, muhim xulosalarga kelamiz.

Ekran san'ati haqida fikr yuritganimizda, avvalo, uning o'tmish sahifalarini tiklash, badiiy tasvirlash, bugungi hayot oqimini kinosolnomaga muhrlash imkoniyatlarini, ayniqsa, inson ruhiyati, orzu-umidlari, intilishlarini ko'rsata olishni nazarda tutamiz. Bizningcha, asarning falsafasi va yetakchi g'oyasining bu soha faoliyatiga ko'rsatgan ta'sirini hujjatlar, xotiralar, ssenariyning turli shakllari, ayniqsa kinolavhalarni bir-biriga qiyoslagan holda baholash maqsadga muvofiqdir.

Bugun ham tayyor roman qissa, hikoya, rivoyatlarni, inssenirovka (lot. In -da,scaena - sahna - biror asarni sahnabop qilib o'zgartirish, sahnada qo'yish va sahnalashtirilgan asarning o'zi ; adabiy asar (roman, qissa, doston, hikoya) ning sahna, televideniye, radio uchun qayta ishlanishi) qilib, ekranlashtirish mumkinmi? Dastlabki davrlarda Tolstoyning yirik asarlaridan 10 daqiqali, 40 daqiqali filmlar qo'yishgan. Lekin bunda buyuk yozuvchilarning mashhur asarlari uvol qilingan. Masalan, "O'tkan kunlar" romani dastlab ekranlashtirilganda o'quvchining tasavvuridagi Kumushbibi oddiy, jo'n o'zbek qiziday ko'ringan. Otabek ham oddiy o'zbek yigitidek gavdalangan. Romandagi yozuvchining go'zal tasviriy tili ekranga oddiy su'rat bo'lib ko'chgan. Lekin bu asarlar ssenariynavislikning mukammallashib borishida bir maktab bo'lib xizmat qilyapti. Shuning uchun teatrda ham mashhur romanlardan inssenirovka qilingan asarlardan ko'ra, dramaturgiya janrida yozilgan yangi asarlar ko'proq umr ko'rgan. Masalan, Uyg'un va I.Sultonning "Alisher Navoiy" dramasi, A.Qahhorning "Tobutdan tovush" satirik komediyasi, o'lmas Umarbekovning "Qiyomat qarz" dramasi va hokazolar. Xuddi shuningdek, kino ekranda original ssenariylar bilan yaratilgan

"Maftuningman", "Mahallada duv-duv gap" kabi o'nlab filmlar fikrimiz

dalili bo'la oladi. Asarda qanchalik teran, murakkab falsafiy fikr ilgari surilmasin, uning shakli go'zal, badiiy "tili" ravon, tushunarli, shirali bo'lishi zarur.

Badiiy kinomiz mumtoz she'riyat, xalq og'zaki ijodiyoti, turli davrlardagi yetakchi fikrlar va ularning badiiy ifodasiga tayanganida, ulardan oziq olgan, binobarin, ekranda o'zbekona milliy hayot butun jozibasi, fazilati, ziddiyati bilan gavdalanadi. Badiiy asarlarda go'zal tashbehlardan, maqol-u matallardan, iboralardan, boringki, barcha til unsurlaridan oqilona foydalanilganiga guvoh bo'lamiz. Xuddi shuningdek, kino san'atida ham til unsurlarining o'rni bo'lakcha. Ularning ba'zilari personajlar nutqi orqali ifodalansa, ba'zilari mimikalar, harakatlar orqali bayon etiladi. So'zlashuv va badiiy uslubda keng qo'llaniluvchi dialoglardan kinoda ham keng o'rinlarda foydalanamiz, deyarli butun kino jarayoni, undagi voqealar bayoni ikki yoki undan ortiq kishilarning muloqoti, munosabatlari, suhbatlari orqali gavdalantiriladi.

Ikki va undan ortiq personaj o'rtasida bo'lgan suhbat dialog (yun. dialogos< di-ikki+ologos-so'z; nutq; tushuncha. Ma'nolari: 1. Ikki kishi o'rtasidagi og'zaki muloqot, muloqot; 2. adabiy asarda ikki yoki bir necha personaj o'rtasidagi gaplashuv, suhbat; 3. Ikki yoki bir necha kishi o'rtasidagi uzluksiz suhbat, gaplashuv shaklida yozilgan adabiy asar) deb ataladi. Dialoglarning eng xarakterli xususiyati so'zlashuvchi personajlar orasida qizg'in fikriy tortishuv mavjudligidir. Dialogning mazmuni personajlarning ichki dunyosini ochadi, ularning munosabatlaridagi ziddiyatni ko'rsatadi va rivojlantiradi. Sujetning doimo siljib borishiga xizmat qiladi. Har bir ortiqcha so'z - jumla epizodning emotsional ta'sir kuchini pasaytiradi. Bir nechta chalajon luqmalar (replikalar) kinoepizodni o'ldirishi mumkin. Kinodialogning qisqaligi, bu elementning kinoga

xosligidir. Dialoglar teatr sahnalarida ishtirokchilar tomonidan ijro etiladi. Kinoekranda esa faqat ko'rsatiladi. 1960 yilda ssenariy mualliflari A. Ramazonov, B.Rest; tarjimon A.Qahhor, rejissor Sh. Abbosov boshchiligida su'ratga olingan "Mahallada duv-duv gap" kinokomediyasida ham personajlar nutqlari orqali dialoglarning go'zal ko'rinishlariga guvoh bo'lamiz. Masalan. Oyposhshaxon va uning turmush o'rtog'i Arslonning suhbati juda qizg'in kechgan hamda ziddiyatli:

Oyposhsha: Ha, erjon bugun jaaa erta keptilarmi?

Arslon: Boshlandi

Oyposhsha: Hmmm, nima damiz chiqmay qoldi (ibora)

Arslon: Samovarda osh qilgan (metonimiya)edik. Ko'proq yeb qo'yibman.

Oyposhsha: Hmmm, sho'rginam qursin (norozilik, nolish) Ha, uyim bor demasayiz, xotinim bor demasayiz, loaqal o'g'lizni eslasayiz bo'lmaydimi? Eeee, Tavba..sizga samovar bo'lsayu, palov bo'lsayu, pul falshiviy bo'lsa bas.

Oyposhsha (qushga): Haaaa, aytganingni sanivar qilsin. Heee, ovozing o'chsin (qarg'ish).

Arslon: Bi-bi.. Ufff, bulbuligo'yo (tashbeh)sayraganda, bedanalar tilini tishlaydi (ibora).

Oyposhsha: Ha,mayli, bo'pti. Gapimga quloq soling, ombor mudiri bo'lsangiz ham mudir degan nomiz bor. Qaysi ministrdan kamsiz. Vaqtida mo'ylov qisayiz, Umarjon bechorayam bir nimaga mudir bo'b qolardi. Hech bo'lmasa, butkada o'tirib, suv sotsa ham biri ikki bo'lardi.

Arslon(qushga): Pit-pit. Pitbildiq-pitbildiq

Oyposhsha: Ha,muncha parvoyiz falak (ibora).Men siz bilan gaplashyabman. Bechora Umarjonni ishi ishmi. Ertadan kechgacha qorasini ko'rsatmaydi (ibora). Buning ustiga majlis o'lgur ortiqcha. Ha, Axir bugunam majlisda qoldida. Yuqoridagi er-xotinning suhbati biroz kulguli tuyilsada, odamni o'ylantiradigan jihatlari ham bor. Xotin bechora o'z dardini doston qilish bilan ovora, erining esa parvoyi falak. Ushbu dialogda suhbat mobaynida qarg'ishlar, nolishlar, iboralar, tashbehlar aytilganiga ham guvoh bo'ldik. Ushbu vositalar suhbatni yanada jonli, ta'sirli bo'lishiga xizmat qilgan.

Umuman kinodialogga kelsak, o'zining alohida kinematografik holati qisqa va tarangligi bilan bilan ajralib turadi, undan ta'sirchanligi, sahnaviy rivojlantiradigan bo'lishi talab qilinadi. So'zlarga to'ldirib tashlashlik ekranga ortiqcha yuk bo'ladi. Ssenariynavisning asosiy ishlaridan biri, dialog ustida jiddiy ishlashdir; keskin, ta'sirchan so'zlarni topish, ularni o'z joyida ishlatish va ssenariyda ko'zlangan g'oyaga xizmat qildirishdir. Eng qiyin va murakkab ishlardan biri chaynalgan, qaytariq so'zlar va dialoglarni qayta ishlashdir. "Mahallada duv-duv gap" kinosi ssenariy muallifi B.rest hamda tarjimon A.Qahhor so'zlarni imkon qadar o'z o'rnida qo'llashga harakat qilishgan va buning uddasidan chiqqan. Ayniqsa, kinodagi Arslonning o'g'li Umarjonga aytgan so'zi juda qiziq va esda qolarli. Oyposhsha o'g'li Umarjonni Sayyoraga qovushtirish niyatida Azayimxonga "issiq-sovuq" qilib o'qitilgan duoni, ya'ni qog'oz parchasini Umarjonning kosasiga soladi. Afsuski, ish Oyposhsha o'ylagandek bo'lmaydi, gap iniga tushmaydi.

Arslon: O'g'lim, ovqatingni yemaysanmi?

Umar: Yo'q (boshini qimirlatadi)

Arslon: Menga o'xshab peshanangga bulbuligo'yo bitgan bo'lsa, boshing g'urbatdan chiqmaydi. Yengil kavaleriyaga uchrasang tirikchilikni uyiga borgandan boshlaysan. Uni dastidan choyxonada bir pas dam ololmayman. Oshga qog'oz qayag'dan tushibdi. (duo o'qitilgan qog'oz parchasini tashlab yuboradi). Go'yoki, shu birgina jumla butun boshli matnga tengdek. Ushbu jumla kinoda aktyor tomonidan mahorat-la ko'rsatilgan.

Ikkidan ortiq ishtirokchilarning nutqidan tuzilgan suhbat polilogdir. Polilog hamma til xususiyatlari jihatidan dialogning o'zidir. Faqat unga suhbatdoshlarning soni ko'proq bo'ladi. So'zlovchi o'rtaga tashlagan muammoga birdan ortiq ishtirokchi o'z fikrlarini bildirishi mumkin. Kinodagi eng kulminatsion nuqta darajasiga yetgan quyidagi suhbat har bir personajning qanday xarakter egasi ekanligini ham ko'rsatgan.

Pochtachi Mehri ayaning Moskvada o'qiydigan o'g'li Azimjon tomonidan yozilgan xatni olib kelib, ularga o'qib beradi:

Pochtachi: Aziz onajon, men sizga bir surpi, bir surpiriz tayyorladim. Borganimdan keyin aytaman. Ko'rseyiz og'ziz ochilib qoladi (ibora). Mehribon o'g'liz Azimjon.

Mehrixon: Voy, SURPIRIZ

Halima: Surpiriz degani nimasi?

Oyposhsha: Menimcha bu kir yuvadigan mashina bo'lsa kerak.

Mehrixo: Voy tinchimagan odamlarey, nimalarni o'ylab topishmaydiya, qarang Halimaxon, kirdi mashina yuvsaya

Oyposhsha: Eee Tavbayey. Uyda chakka un yo'g'u, tom boshida qo'sh sandiq.(maqol) Kir yuvadigan mashinani boshizga urasizmi?(ibora)

Halima: Hay, Poshshopa, uyata. Hay Mehropa, bu surpriz degani televizor bo'lmasin tag'in

Oyposhsha: Obbo, o'quvchi bolaga telvizor tushib qoptimi.

Yuqorida onaxonlarning suhbati orqali ularning nechog'lik sodda, samimiy ekanligini, hatto ular uchun notanish bo'lgan SURPIRIZ haqidagi hayratlanarli so'zlari insonda ularga nisbatan iliqlik uyg'otadi. Haqiqatda, inson ko'rmagan, bilmagan narsasini o'z xayolotida tasavvur qiladi. Buni qarangki, Mehri aya aytgan "kirdi mashina yuvsaya" jumlasi orqali anglashilayotgan "kir yuvadigan mashina" bugungi kunda turmushimizni yengillatishga xizmat qilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash o'rinliki, dialogdagi so'z faol ta'sir qilishi uchun ishtirokchi personajlar va epizodik aktyorlardan dramatik kolliziyani keskinlashtirish talab qilinadi. Dialog aktyor uchun yoziladi. Ssenariynavis majburki, uning so'zlari, luqmalari aktyorning ijro etishi uchun qulay bo'lsin, uzundan uzoq so'zlar ijroni susaytiradi, tomoshabinni zeriktiradi. Ushbu kinoda qo'llanilgan har bir ko'rinish, har bir dialogik nutq insonni zeritirmaydi. Kinoni ko'rganing sari qayta ko'rging kelaveradi. Ushbu kinokomediyada yana ko'plab bir-biridan qiziqarli, kulgili, o'ynatadigan va o'ylatadigan, ba'zan keskin va ziddiyatli, ba'zan esa odamga quvonch ulashuvchi dialoglar qo'llanilgan. Ushbu dialoglarning keng o'rinlarda ishlatilishi esa nafaqat ssenariy mualliflari va tarjimonning, balki rejissorning ham yuksak ma'naviyat sohiblari ekanligidan dalolatdir. Kinoni qanday qabul qilish esa tomoshabinga havola.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.: "O'zbekiston", 1964, 4-jild. 142-143-b
2. Akbarov H. Kino san'ati tarixi // T.: Toshkent islom universiteti, 2005.-304
3. Muhamedaliyev Haydar. Ssenariynavislik mahorati: san 'at va madaniyat oliy o'quv yurtlari uchun darslik / "O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi.- Toshkent: "Musiqa", 2009. 160 b
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1 tom: - T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. - B.680. 206-bet
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tom: - T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. - B.672. 216-bet

INGLIZ TILIDAGI OMONIM SO'ZLAR HAQIDA MA'LUMOT

Teshaboyeva Bibiroziya Iqboljon qizi
Andijon davlat universiteti Chet tillar fakulteti talabasi
Bibiroziya.teshaboeva@gmail.com
+998975802751

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tilidagi shakldosh so'zlar va ularning ma'noviy turlari haqida fikr yuritilgan bo'lib, maqoladan omonim so'zlarning gap tarkibida qanday qo'llanishi va ularning ma'no nozikligi jihatidan farqlanishini ko'rib chiqishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: omonimlar, omonimiya, ma'no, so'z, ko'p ma'no, morfema

Omonimlar shakli bir xil, ammo bir necha ma'nolarga ega bo'lgan so'zlar hisoblaniladi. Tilshunoslikda shakldosh so'zlar yirik mavzu bo'lib, uni o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Chunki, ushbu so'zlar umumiy ma'noda, ya'ni bir xil talaffuzga ega so'zlardir.

Misol uchun, "bear" so'zini omonim so'z deb qabul qilamiz. Ushbu so'z fe'l so'z turkumi bo'lib kelganda bear- to carry, ya'ni ko'tarmoq ma'nosida, ot so'z turkumi bo'lganda bear- a large animal, ya'ni hayvon ma'nosida keladi.

Yoki, smb.'s photograph va to photograph smb.- ya'ni kimnidir rasmi va kimnidir rasmga olmoq ma'nosidagi omonim so'z bo'lishga xizmat qildi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, shakldosh so'zlarni ko'p ma'noli so'zlardan farqlashimiz kerak. Chunki, ko'p ma'noli so'zlar va omonimlar bir- biriga yaqin bo'lgan so'zlar hisoblaniladi. Ularni bir- biridan ajratish ma'lum darajada qiyinchiliklarga egadir. Omonimlarni ko'p ma'noli so'zlardan eng katta farqi shundan iboratki, ko'p ma'noli so'zlar o'zaro bir- biriga aloqador so'zlardir. Omonimlar esa umuman boshqa ma'nolarga ega bo'lgan bitta so'z hisoblaniladi.

Masalan, ingliz tilidagi "chain" so'zi ko'p ma'noli so'zdir. Gold chain, ya'ni oltin zanjir, chain of events- voqealar zanjiri ma'nosida qo'llaniladi. Chunki, zanjir ham o'zaro bog'lanib ketadigan predmetdir. Voqealar zanjirida ham voqealar zanjir misolida bir- biriga bog'lanib ketadi. Shuning uchun ham, ushbu chain so'zi ko'p ma'noli so'z, ya'ni ular o'zaro bir - biriga yaqin bo'lgan ma'noli so'zlardir.

Yana "plunge" so'zini ham ko'p ma'noli so'zlar qatoriga olamiz. Chunki, plunge into a river- daryoga sho'ng'imoq, plunge into work- ishga sho'ng'imoq ma'nolarida. Ushbu so'z birikmalaridagi plunge so'zining ko'p ma'noli so'z bo'lishiga asos bu- biror narsaga o'zini otish, o'zini suqmoq ma'nolaridir. Chunki, rostadan ham daryoga sho'ng'iydi va ishga ham o'zi otadi. So'zlar orasidagi bog'liqlik borligi uchun ham ushubu so'z ko'p ma'no so'z hisoblaniladi.

Bundan tashqari," content " so'zini oladigan bo'lsak, u omonim so'z hisoblaniladi. Ya'ni, content child- xursad bolakay, content of book- kitobning mundarijasi ma'nosiga ega bo'lgan shakldosh so'zdir.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, o'zbek tili singari ingliz tilida ham bo'g'inlarga urg'u ko'chishi natijasida ham so'zlar omonim so'zlar bo'lishiga xizmat qiladi. Masalan, desert- cho'l so'zidagi birinchi va ikkinchi bo'g'inga urg'u tushishi natijasida desert so'zi leave ma'nosida ham qo'llanadi.

Yoki minute -daqiqa so'zida ham urg'u ko'chishi natijasida "juda kichkina" ma'nolari ham ifodalanib, shakldosh so'z hosil bo'ladi.

Yana, permit -izn bermoq so'zi urg'u ko'chishi mobaynida ot so'z turkumiga aylanib, "ruxsatnoma" ma'nosini ifodalaydi.

Bundan tashqari, refuse so'zini ham tahlil qilib chiqganimizda, bo'g'inlarda urg'u ko'chishi natijasida, ot so'z turkumidagi so'z ham hosil bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Refuse- inkor qilmoq, refuse - chiqindi ma'nolarida.

Annotatsiya: Maqola pedagog o'z nutqining rang-barang bo'lishi uchun tilning turli fonetik vositalaridanturli uslublarda mohirona foydalanishi juda muhimligi, bu esa nutqning u xoh yozma, xoh og'zaki bo'lsin, mazmunan pishiq, uslubiy ravon, shaklan hissiybo'lishida juda ahamiyatli ekanligi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, innovatsion texnologiya, kompetensiya, notiq.

Mustaqillikning dastlabki davrlaridanoq mamlakatimizda tinchlik hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan bir qatorda o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirish ham davlat ahamyatiga molik asosiy masala qilib belgilab qo'yildi. Bu vazifalarni izchil amalga oshirishda birinchi navbatda umumiy o'rta ta'lim tizimi muhim ahamyat kasb etadi. Endilikda fan, texnika va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o'quv-tarbiya jarayonida interfaol uslllardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiya qo'llanilgan mashg'ulotlar egallanayotgan bilimlarni o'quvchilar tomonidan o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib, ularni tahlil qilishlari, o'z bilimlarini baholashlari, to'g'ri xulosalar chiqarishga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga, shuningdek, erkin fikrlab sinfdoshlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlash va harakat qilishlariga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchi asosiy ishtirokchiga aylanadi.

Pedagog-olimlarning ko'p yillar davomida ta'lim tizimini yanada samaraliligi va natijaliligini oshirishga doir olib borgan ishlari zamirida o'sib kelayotgan kelajak vorislari hisoblanmish yosh avlodni yanada komil insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan. Ya'ni har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun o'qituvchi bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak.

Barkamol avlodni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashda umumiy o'rta ta'lim tizimini zamonaviy pedagog kadrlar bilan ta'minlash davr talabi bo'lib qolmoqda. Zamonaviy pedagog kasbiy, shaxsiy, umummadaniy, maxsus va boshqa kompetensiyalarni egallagan bo'lishi hamda o'z ona tilisini chuqur bilishi zarur. Chunki tilning, avvalambor, pedagog tomonidan qanday maqsadlarda qo'llanishi muhim omil sanaladi. Pedagog o'z kasbiy mahoratlarini oshirishi uchun asosiy e'tiborini o'z ona tilisiga bo'lgan munosabati, uni qo'llashdagi maqsadlari, ya'ni turli nutqiy aktlardagi ishtiroki, nutqiy akt jarayonida fonetik uslubiy vositalardan (ovoz, ohang, tembr, diksiya, ritm, ton) maqsad va niyatlarini qay yo'sinda ifodalashiga qaratishi lozim.

Fonetik vositalar ko'rish, eshitish va talaffuz orqali zohir bo'ladi. O'qish, og'zaki va yozma nutq jarayonlarini puxta bilishi kompetentlilikning asosini tashkil etadi. Shuning uchun nutqiy harakat birlamchidir. Demak to'g'ri nutqni egallash til qonunlarini o'zlashtirishni taqozo etadi. Mavjud ilmiy materiallarga asoslanib shuni aytish mumkinki, nutqning o'ziga xos tabiatini anglash pedagogga o'quvchilar va atrofdagilar bilan to'g'ri, o'rinli muloqotni tashkil etishga, og'zaki va yozma matnlarni yanada yaxshiroq o'qishga yordam beradi hamda savodxonlikni oshirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Nutqning o'ziga xos tabiatiga doir masalalar tarixi tilning to'g'ri me'yorlari, yaxshi uslub me'yorlari haqidagi olimlar ta'limotiga borib taqaladi. Qadimgi Yunon, qadimgi Rimda chiroyli so'zlash va notiqlik san'ati, nutqning ifodali vositalari haqidagi fan boshqa fanlar orasida asosiy yutuqlarga erishdi. Chunki ular uqtirishning, tushuntirishning asosiy vositalari deb qaraldi. "Ritorikaning vazifasi u yoki bu fikrlarni uyg'otishdir".

Tilga e'tibor - elga e'tibor deb bejiz aytilmagan. Chunki inson hayotidagi yaxshi amallar, hurmat-e'tibor, ro'shnolik, baraka til tufayli amalga oshadi. Buningaksi ham til tufayli sodir bo'ladi. Til va uning tarixini puxta o'rganish, ilmiy asoslab berish ? davr talabi. Negaki ta'limiy va tarbiyaviy muammolar yechimi shu talablar negizida o'z aksini topadi. Pedagogning zamonaviyligini belgilovchi asosiy omil uning tiliga, o'z nutqiga bo'lgan ijobiy munosabatidir. Tilga bo'lgan hurmat-e'tibor uning o'z oilasi, jamiyatdagi o'rnini belgilaydi, mehnat faoliyatining samaradorligini oshiradi.

Pedagog o'z ehtiyojlari va tasavvurlari, taassurotlari va dunyoqarashi negizida harakat qiladi, ya'ni u o'z nutqining rang-barang bo'lishi uchun tilning turli fonetik vositalaridanturli uslublarda mohirona foydalanadi. Bu esa nutqning u xoh yozma, xoh og'zaki bo'lsin, mazmunan pishiq, uslubiy ravon, shaklan hissiybo'lishida juda ahamiyatlidir. Muloqot jarayonida olingan, to'plangan bilimlar pedagog xulqini, fe'l-atvorini boshqarishga

yordam beradi.

Pedagog yuqori madaniyat egasi, yetuk mutaxassis, o'z kasbining mohir ustasi kabilarga, albatta, til orqali erishadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, uning o'zi ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlaydigan, nutq va muloqot madaniyati yuksak rivoj topgan, har tomonlama savodxon shaxs bo'lishi davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Niyozmetova R. Ona tili va adabiyot. -Toshkent: Navro'z, 2014.
2. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. Nashrga tayyorlovchi: Rahmatullayev Sh. -Toshkent: O'qituvchi, 2015.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. -Toshkent:Universitet, 2016.
4. Rahmonov N. Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. - Toshkent, 2009.
5. To'xliyev B. va boshqalar. Til va adabiyot ta'limining zamonaviy texnologiyalari. - Toshkent, 2011.

SO'Z MA'NOSINING KO'CHISHI VA SEMANTIK YASALISH

Umarova Farida
Termiz tumani 2-umumta'lim maktabi
ona tli va adabiyoti fani o'qituvchisi
Tel: 99. 547-86-27

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilida so'zlarning ma'no ko'chishi hamda semantik yasalishi haqida ma'lumot berilgan. O'zbek tilshunosligida so'zning yasalishiga oid qilingan ishlar tahlilga tortilgan hamda shu asosda so'z ma'nosining ko'chishi hamda yasalishi hodisasining xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ma'no ko'chishi, polisemiya, semantik yasalish, omonimlik.

So'z turkumlarining bir-biri o'rnida qo'llanishi morfologik tahlilda ayrim muammolarni keltirib chiqarishi ma'lum. So'zlarning bir-biri o'rnida qo'llanishi semantik usulda so'z yasalishi hodisasi bilan bog'liq . Semantik usulda so'z ysalishining tag ma'nosida esa polisemiya asosida omonimlarning vujudga kelishi hodisasi yotadi. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, konversiya haqida fikr yuritishdan oldin semantik usulda so'z yasalishining qanday hodisa ekanligi,o'ziga yondosh hodisalardan qanday farqlanadi, uni yuzaga keltiruvchi asl mohiyat nimadan iborat, ba'zi yechimi topilmagan so'z ma'nosining kengaygan shakllarini qanday ajratish mumkin, so'z ma'nosining ko'chishi deyishi kerakmi yoki so'z yasalishi so'z yasalishi deb qarash to'g'riroqmi degan savollarga javob toppish kerak bo'lar ekan.Shu sababli quyidagi mavzuda so'z ma'nosining ko'chishi va semantik usulda so'z yasalishining bir-biridan farqli qirralarini va bir-biriga yaqin turuvchi hali munozarali jihatini ko'rib o'tishni maqsad qilib oldik.

Umuman tilshunoslikda polisemantik so'zlarni vujudga keltiruvchi birdan bir hodisa ko'chma ma'noning hosil bo'lish hodisasi deb ko'rsatiladi. Haqiqatdan ham ko'chma ma'noning hosil bo'lishi polisemiya yuzaga kelishi uchun asosiy hodisalardan biri hisoblanadi .

M.Mirtojiyev "Polisemiyalardan omonimlarning kelib chiqishi haqida" maqolasida o'zbekcha tub so'zlar birdan ortiq mustaqil ma'noga bir necha hodisalar orqali ega bo'lgan deb besh so'zining taraqqiyotini ko'rsatadi. So'zlar hayotdagi ayrim hodisalar doirasida va o'z taraqqiyoti davridagi tushunchalar doirasida yangi mustaqil ma'nolar orttiradi.Besh so'zi avval besh bosqichli o'qitish dasturi sifatida ishlab chiqilgan, keyinchalik shu dastur asosida o'quvchilarning to'liq bilim olganliklarini isbotlovchi besh so'zi baho ma'nosiga ko'chgan. Hozirda esa besh ketmoq ma'nosi ham yuzaga kelgan. O'zbek tili omonimlar lug'atida ham besh so'zining ravish so'z turkumiga xos ortiq darajada . juda (besh battar yomon) ma'nosi ham keltirilgan .

So'zlar bunday yo'l bilan avvalo asl ma'noga ma'nodosh qirralar orttiradi, polisemiyalar vujudga keladi.Keyin o'sha asl ma'nolarining qirralarini yaratgan tarixiy davr eskirgach yoki o'z umrini o'tagach. Yanggi yaralgan ma'no qirrasi mustaqillashadi va omonimga aylanadi. Bu usulda omonimga aylanish ancha tez sodir bo'ladi va ko'roq uchraydi. Ma'no qirralari uzilib, so'z omonimga aylanadimi, demak semantik usulda so'z yasalishi hodisasi sodir bo'ldi.

Semantik yo'l bilan so'z yasash so'z ma'nosining o'zgarishi, ma'noning ko'chishi (konversiya), polisemantik so'zning ayrim ma'no;ari orasidagi bog'lanish yo'qolib (aloqa-ip uzilib), ayrimlarining maxsuslanishi, shu polisemiya asosida omonimlar -ayrim-ayrim so'zlar tug'ilishidir . Masalan, tom so'zi biron narsaning sirti-ot va sirtiga toshib chiqadigan, tepaga chiqish-fe'l ma'nosida kelgan. Ba'zi olimlar semantik usulda so'z yasalishini rad etadilar. Bunday holatlarni faqat yangi ma'no hosil bo'lish deb e'tirof etadilar

Ma'lumki, polisemiya bir so'z turkumi doirasida sodir bo'ladi. Agar so'z ma'nosining ko'chishi har xil so'z turkumi doirasida yuz bersa, bu omonimiyaga aylanadi. Shu bilan birga omonimlarning bir so'z turkumi doirasida sodir bolish hodisasi ham uchraydi. Shu jihatdan polisemiyadan kelib chiqqan omonimlarni ikki turga ajratish mumkin:

1) bir so'z turkumi doirasida polisemiyadan kelib chiqqan omonimlar;

2) har xil so'z turkumi doirasida polisemiyadan kelib chiqqan omonimlar.

Masalan, dam so'zi. Bu so'zning ot turkumi doirasidagi 4 xil ma'nosi o'zbek tili omonimlarining izohli lug'atida keltirilgan: 1) havo; 2) temirchilikda o'choqdagi olovga havo puflab beruvchi mexanik asbob; 3) lahza,nafas; 4) o'tkir joy,qilichning dami. Hamma ma'nolar havo ma'nosidan kelib chiqqanini, bir so'z turkumida omonimlik hosil qilganini sezish qiyin emas.

Ikkinchi turga esa daydi, qari, och kabi so'zlar misol bo'la oladi. Bular fe'ldan sifatga o'tgan.

Yana tilda shunday so'zlar ham borki, ularni so'z ma'nosining ko'chishi deb xulosaga kelishda ikkilanishlar paydo bo'ladi. Masalan, mustaqil fe'l va ko'makchi fe'l. Har qanday ko'makchi fe'l mustaqil fe'ldan kelib chiqqanligi aniq. Bunday fe'llarni o'zbek tili omonimlarining izohli lug'atida uchratish mumkin.

Masalan, bo'l :

1) fe'l, mavjudlik borlik;
2) ko'makchi fe'l.

Ko'makchi fe'llarni ba'zi olimlar polisemiya deb qarashadi Bir so'zning ma'no kengayishi va torayishi orqali yangi ma'no yuzaga kelishi emas, grammatik vazifada qo'llanuvchi so'z deb hisoblashadi. Shuningdek, ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi so'zlarni olaylik. Asli boshqa turkumga (mustaqil so'zlarga) oid bo'lib, keyin ko'makchiga o'tib qolgan. Ularni omonim deyish kerakmi yoki so'z ma'nosining ko'chishi-polisemiya deb qabul qilish lozimmi? Ko'makchi vazifasidagi so'zlar omonimlar so'zlar lug'atiga kiritilmagan. Ularning mustaqil ma'nosi va yordamchi ma'nosi demakki omonim bo'la olmaydi degan xulosa kelib chiqadi. Aslida mustaqil fe'l va ko'makchi fe'l omonim hisoblansa, mustaqil so'z va ko'makchi so'z ham omonimlik munosabatida. Qolaversa, bu hodisa ikki so'z turkumi doirasida yuz bergan. Polisemiya bir so'z turkumi doirasida bo'ladi degan qoida bor. Misol uchun, bo'lak so'zi sifat turkumidan ko'makchiga o'tgan. Lug'atda omonim sifatida bir qator ma'nolari keltirilgan. Lekin ko'makchi vazifasidagi ma'nosi kiritilmagan.

Bunday munozaralar hali bu mavzuda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borish lozimligini taqozo etadi. Shuning uchun biz ham yuqoridagi kabi masalalarni tadqiq manbayi qilib oldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirtojiyev M. O'zbek tilida polisemiya. -Toshkent, 1975.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. -Toshkent, 1984,
3. O'zbek tili grammatikasi. 1-tom. -Toshkent, 1975.
4. Sayfullayeva R. va b.Hozirgi o'zbek adabiy tili (Morfologiya). O'quv qo'llanmasi. - Toshkent, 2005.

GO'RO'G'LI TURKUM DOSTONLARI VA ULARNING QIYOSIY TAHLILI

Umarov Mirzohid
ToshDO'TAU Adabiyotshunoslik
(turkologiya) II kurs magistranti
+998933730425

Annotatsiya. Turkiy xalqlar og'zaki poetik ijodida Go'ro'g'li turkum dostonlarining o'rni va ahamiyati muhim bo'lib, aksariyat turkiy xalqlar, xususan, o'zbek, turk, turkman, ozarbayjon, qozoq, qoraqalpoq, tatar, shuningdek, turkiy bo'lmagan tojik, grujin, Kavkazorti xalqlari folklorshunosligida sevib mutolaa qiladigan dostonlar tarkibiga kiradi. Go'ro'g'li turkum dostonlarining bu qadar ko'p xalqlar adabiyotida mavjudligi, uning tom ma'noda ko'lamini oshirib, ilmiy jihatdan qiyosiy tadqiq etish, o'rganish dolzarbligini, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik, shu jumladan, turkiy folklorshunoslik jihatidan muhim qilib qo'yadi. Ushbu maqolada o'zbek va turkman xalq og'zaki ijodidagi Go'ro'g'li turkum dostonlarining, asosan, tematik va syujet asosidagi o'zaro mushtarak, o'xshash, shu bilan birgalikda, farqli, tafavutli tomonlari xususida qiyosiy jihatdan ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: folklor, xalq og'zaki ijodi, o'zbek, turkman, Go'ro'g'li, Ko'ro'g'li.

Go'ro'g'li dostonlari xalq dostonchiligida har biri mustaqil yashagan va ayrim-ayrim nomga ega bo'lgan asarlar silsilasi, muayyan omillar bilan bir-biriga birlashgan kattakon turkum bo'lib, Yaqin va O'rta Sharqda juda keng tarqalgan. Bu turkum o'zbek, tojik, qozoq, qoraqalpoq, tatarlarda Go'ro'g'li; turkmanlarda Go'ro'g'li, Ko'ro'g'li, Qaro'g'li, ozarbayjon, gruzin, turk va boshqalarda Go'ro'gli nomi bilan shuhrat qozongan. Go'ro'g'li, asosan, turkiy xalqlarning sayyor dostoni hisoblanadi. Mutaxassislar dostonni ikkita katta - O'rta Osiyo va Kavkazorti guruhiga bo'lib tasnif qilishadi. O'zbek, qozoq, qoraqalpoq versiyalari O'rta Osiyo guruhini tashkil etsa, turk, ozarbayjon, qrim-tatar, arman variantlari Kavkazorti guruhiga kiradi. "Aslida o'zbek elida tarqalgan "Go'ro'g'li" dostonlarining soni yuzdan oshadi" [2. 112-bet].

O'rta Osiyoda islom dini kirib kelishidan burungi davrlarda maydonga kelgan. Ba'zilari bundan uch-to'rt asr ilgari yaratilgan va zamonamizga qadar juda ko'p xalq shoirlari tomonidan har qaysisining o'z zamoni talablariga ko'ra qayta-qayta ishlanib, ko'p variantlarda bizgacha yetib kelgan. "Go'ro'g'li" dostonlari turkumi xalq bahodirining ajoyib-g'aroyib holda tug'ilishi va qahramonona yoshligini tasvirlovchi "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Go'ro'g'lining bolaligi" dostonlari bilan boshlanadi. Ularning Po'lkan variantida tasvirlanishicha, Go'ro'g'lining bobosi To'liboy sinchi Mari yurtining begi Qovishtixonning o'g'li bo'lib, yoshligida Yovmit podshosi Odilxonga asir tushadi. To'liboy sinchi xizmatlaridan ko'ngli to'lgan Odilxon qizi Bibi Oyshani unga nikohlab beradi. Bulardan bo'lg'usi qahramonning otasi Ravshan tug'iladi. Taka-Yovmit yurtining doimiy dushmani Shohdorxonning navbatdagi bosqinchiliklaridan birida Ravshan, shuningdek, Taka-Turkman begi Jig'alixonning farzandlari Gajdumbek va Bibi Hilollar Zangar yurtiga asir tushib ketadi. Zangarda Ravshan bilan Bibi Hilol tasodifan uchrashib qolib, bir-birlarini sevib qoladilar va turmush quradilar. Bu orada Ravshanning sinchiligi xabari Shohdorxonga yetib keladi. Shohdorxon uni saroyga chaqirib, otlarini ko'rsatadi. Ravshan bular ichida tulpor yo'qligini aytib, holvachining otini maqtaydi. Achchiqlangan xon Ravshanning ko'zlarini o'yib oladi. Ravshan ko'r ko'zining xuniga holvachining otini tilab olib, shu ot yordamida qaynakasi Gajdumbek bilan Yovmitga qochadi. Zangarda qolgan Bibi Hilol qornidagi olti oylik gumonasi bilan vafot etadi. Go'rda o'lik onadan bo'lajak qahramon tug'iladi. Cho'pon Rustam uyuridagi bir baytal uni emizadi va keyinchalik Rustam yordamida shu baytalda Yovmitga qochib keladi.

Ko'rinadiki, epos an'anasiga ko'ra, Go'ro'g'lining kelib chiqishi yuqori tabaqa bilan bog'lansa-da, u, avvalo, kambag'al bir otboqar sinchining o'g'li; cho'pon Rustam tarbiyasida voyaga yetadi, xalq qahramonlariga xos g'ayritabiiy yo'sinda tug'iladi va bahodirlik kamolotiga erishadi. Bu bilan, bir tomondan, Go'ro'g'lining yoshligidanoq xonlarga, saroy aristokratiyasiga qarshi tarbiyalanganligi ko'rsatilsa, ikkinchidan, uning epik Chambil yurtining qonuniy hukmdori ekanligi har jihatdan asoslanadi. "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Go'ro'g'lining bolaligi" dostonlari ko'p planli asarlar bo'lib, ularda G'irot biografiyasiga oid ajoyib ma'lumotlar ham bor. Bu ma'lumotlarga ko'ra, qahramonni emizgan baytal bilan Xuroson ko'lidan chiqib kelgan ayg'irdan ("suv oti"dan) urg'ochi qulun tug'iladi. Bu qulun uch yashar bo'lgach, Go'ro'g'li Rayhon arabning dong'i chiqqan tulporidan nasl olishga harakat qiladi. Natijada uchinchi ot - G'irko'k tug'iladi. G'irko'k yetti kunlik bo'lganda, onasi o'ladi. Go'ro'g'li unga turli xil hayvonlarning sutini berib tarbiya qiladi. Go'ro'g'li bilan G'irot orasida juda ko'p o'xshashliklar bor: dostonda har ikkalasi ham uchinchi naslgacha tilga olinadi (To'liboy - Ravshan - Go'ro'g'li; qahramonni emizgan baytal - "suv ot" - G'irko'k); ikkalasi ham yetim; ikkalasi shirxo'ra va hokazo. Bu bilan qahramon va uning jangovar oti o'rtasida eposga xos ajoyib bir aloqa yuzaga

keltiriladiki, bu butun turkum bo'ylab izchil davom etadi. Dastlabki dostonda yosh qahramonning chiltonlar bilan uchrashuvi, kelajak yo'lining oldindan belgilanishi, epik Chambil yurtining bunyod etilishi, Yovmit eliga xon qilib ko'tarilishi kabi voqealar juda qiziqarli tasvirlanadi. Shohdorxon va Ravshan, Ravshan va Urayxon, Rayhon va Go'ro'g'li to'qnashuvlarida butun turkumga xos bo'lgan ijobiy va salbiy sifatlar namoyon bo'ladi. Turkumning ushbu dastlabki dostonlaridayoq o'zbek "Go'ro'g'li"siga xos bo'lgan cheksiz fantaziya, ko'z ilg'amas geografik va etnografik kengliklar to'la namoyon bo'ladi. Bu hol, ayniqsa, "Yunus pari", "Misqol pari", "Gulnor pari" dostonlarida yanada yorqin ko'rinadi. Bu asarlar Go'ro'g'lining uylanishi va shu bilan bog'liq qahramonliklariga bag'ishlangan. Epik an'anaga ko'ra, Go'ro'g'lining ikki xotini - Yunus pari va Misqol parilar (Po'lkan varianti bo'yicha uchinchisi - Gulnor) bor. Ular Ko'hi Qofda Eram bog'ida yashaydi, ularni juda katta g'ayritabiiy kuchlar - devlar qo'riqlaydi. Parilar Go'ro'g'liga ilgaridan "belgilangan" bo'lsa-da, ularni qo'lga kiritish uchun yuksak jismoniy kuch bilan bir qatorda aql, farosat, usta tadbirkorlik ham kerak edi. Go'ro'g'li buni qoyil qilib bajaradi. Dostonlarda parilar podsholigi, undagi saroy va oilaviy hayot inson turmushining ideal ko'rinishi sifatida keng, hayotiy lavhalarda juda real tasvirlanadi. Baxshi inson turmushi bilan bog'liq hayotiy, tarixiy va etnografik tafsilotlarni muhabbat bilan bayon etadi. Kitobxon va tinglovchi shunday bir bepoyon fantastik olamga olib kiriladiki, aqlbovar qilmas bu yuksak olamda inson turmushi, tafakkuri, kurashlari, hasrati va xursandchiligi namoyon bo'ladi. Real hayot bilan mustahkam bog'liqlik bunday chiroyli fantaziyalar namunalarini "Go'ro'g'li" dostonlaridan istagancha topsa bo'ladi ("Balogardon", "Malikayi Ayyor", "Mashriqo" va boshqa dostonlarni eslash kifoya). Turkumda Go'ro'g'li va Chambil yurtining doimiy tashqi dushmanlari sifatida Rayhon arab, Bektosh arab, Xunxorshoh va boshqalar tilga olinadi. Shirvon xoni Rayhon arabning Go'ro'g'lining yangasi (Ahmad Sardorning xotini) Xoljuvonni olib qochib ketishi va, o'z navbatida, yosh Go'ro'g'lining Rayhon arabning qizi Zaydinoyni tog'asiga keltirib berishi ("Zaydinoy" dostoni) ular o'rtasidagi qator dushmanlik harakatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bunday dushmanlik harakatlari ko'pchilik asarlarda epizodik tarzda tilga olinsa, ayrim dostonlarda ("Rayhon arab", "Chambil qamali", "Bektosh arab", "Xoldorxon" va boshqalar) bu narsa ikki taraf o'rtasidagi haqiqiy jang tarzida kengaytiriladi. Lekin bosqinchilik urushini har gal arab yoki xunxor hukmdorlar boshlaydi va har gal ular Go'ro'g'lidan yengiladi."□ turkumlanish xususiyatlari, syujet sostavi va dostonlarning soni jihatidan ham obrazlar talqini tomonidan ham ular boshqa-boshqa hodisadir" [1. 6-7-betlar].

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlari ko'pgina xalqlar orasida juda keng tarqalgan bo'lib, ayrim xalqlarda baxshilar tomonidan hozir ham kuylanib kelinmoqda. Bu dostonlar o'zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, turk, qozoq, qoraqalpoq, arman, gruzin, kurd xalqlari epik ijodiyotida o'ziga xos turkumlarni tashkil etadi. "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari har bir xalq eposida shu xalq orzu-istaklari asosida yaratilgan qahramonni aks ettiradi. Shu jihatdan ularda o'zaro o'xshashlik va farqli tomonlari yuzaga keladi.

O'zbek va turkman versiyalarida dostondagi sirli voqealarda bir xillikni ko'rishimiz mumkin. Bo'lajak qahramonning yoshlik chog'idagi g'ayritabiiy "telbaliklari". Bu holat dostonning o'zbek versiyasidagi bir qator o'rinlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Dastlab Xunxor yurtida yosh Go'ro'g'li "Shuytib har kuni ko'chalarda bolalarning oshiqlarini yutib, zo'rlik qilib olib, urush qilib, yoqama-yoq bo'lgan bolalarning qulog'ini ushlab yulib oldi, bir xilini ushlab bosib olib pichoq bilan tilib oldi, belgi qildi. Shunda haligilar "yaxshi bo'ldi, o'ldirmadi" deyishib quvonib qoldi. Yosh bolalar G'o'ro'g'lidan qo'rqib, ko'chaga tirq etib chiqolmay qoldi. Buni otalari eshitib, amaldor-hokimlari o'z ortalarida gap qildi". Ahvol shu darajaga yetadiki, Go'ro'g'li Shohdorxonning Badkir polvonini o'ldirib, bu yerdan ota yurtiga ketishga majbur bo'ladi. Lekin Xoljuvonni Rayxon arab olib ketgach, Go'ro'g'lining "dali"lillari haddan oshadi. U Bolli ko'lga borib, "Tong qorong'usi boy cho'ponlarning nonini tortib olib yeydirgon bo'ladi. Cho'ponlar, podachilar non-oshlarini dalaga chiqarib yeyolmaydi. Go'ro'g'li shu tariqa kun o'tkarib yura berdi" deb hikoya qilinadi. Dostonda bu xatti-harakat Go'ro'g'lining yangasini o'g'irlatib qo'yganligi alami, deb izohlagan. Araz shu darajaga yetib bordiki, Go'ro'g'li Ahmad sardor yuborgan odamlarni ham urib, o'ldirib, bir xillarining qo'llarini sindirib jo'natadi. Dostonning turkman versiyasida ham ayni holni uchratamiz va har ikkala versiyada ham Ko'ro'g'li/Go'ro'g'lining yoshligidagi telba xatti-harakatinng asl sabablari bizga qorong'u bo'lib qolaveradi. Chunki xalqning himoyachisi bo'lishi kerak bo'lgan qahramonning o'zgalar qatori o'z xalqi, yaqin qarindoshlariga nisbatan bu dalilliklari bir arashdaepikideal haqidagi tasavvurlar qolipigasig'maydi.Negashunday? Biz duch kelgan eng asosiy dastlabki savol mana shu.

Go'ro'g'li dostoninng o'zbek, turkman, ozarbayjon versiyalaridagi "alpning qayta yaralishi" voqelari o'zaro qiyoslansa, ular bir-birini to'ldiradi va eposdagialpning qayta yaralishi" motivini qayta tiklashga imkon beradi:

a) "alpning qayta yaralishi" amalga oshuvchi joy:
- o'zbek versiyasida : tog', chiltonlar g'ori;
- turkman versiyasida : cho'l, ulkan chinor tagi;
- ozarbayjob versiyasida: tog' ustidagi sirli buloq.

b) "alpning qayta yaralish" tafsilotlari:

- turkman versiyasida: Go'ro'g'linig ko'ksi yorilib, barcha a'zolari nur bilan yuviladi;
- ozarbayjon versiyasida: Mag'rib va Mashriqdan chiqqan yulduzlar qo'shilib, ularning nuri Qo'shabuloqqa tushgach, suvning ko'pirib toshishi va karomatli-ilohiy ichimlikka aylanishi hamda qayta yaralishning shu suv vositasida amalga oshirilishi;
- o'zbek versiyasida: chiltonlar davrasida ilohiy ichimlikni ichib, koinot sirlaridan voqif bo'lishi, sohibqironga aylanishi;

c) "alpning qayta yaralishi"da ishtirok tuvchi shifobaxsh "ilohiy suv"

Ozarbayjon versiyasidagi yulduzlar nuridan ko'pirib, ilohiy quvvat oluvchi buloq suvi motivi o'zbek va turkman versiyalarida sharob-u antaxur bilan almashirilgan. Lekin mohiyat bir xil.

"Go'ro'g'li"turkumi dostonlari xalq hayoti, turmush-tarzini, orzu-umidlari va ideallarini, axloqiy-estetik va ijtimoiy qarashlarini keng planda tasvirlovchi epopeyadir. "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari xalq hayoti va turmushini, uning orzu-umidlari va yuksak maqsadlarini, ma?naviy-estetik olamini keng miqyosda badiiy aks ettiruvchi asar sifatida bebaho meros sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T., Husainova Z. Go'ro'g'li o'zbek xalq dostonlari. -T.:Sharq, 2006.
2. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuarlari. -T.:Fan.
3. Turdimov Sh. "Go'ro'g'li" dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. -T.:Fan, 2011.
4. O'zbek xalq poetikasi ijodi. -T.:O'qituvchi,1980.

GAMES AS A TOOL FOR TEACHING ENGLISH VOCABULARY TO YOUNG LEARNERS

Umirzaqova Sohiba Obidjonovna,
an English teacher of Namangan city,
school № 15. Tel: +998 99 9746662

Annotation

This article is devoted to the use of game methods and techniques in the process of teaching English at school. The author uses examples to prove that the theme of using games in the classroom is relevant in modern pedagogical reality since the game is one of the most important means of physical, mental and moral education of a child, it helps to activate his activity, develops cognitive activity, observation, attention, memory, thinking, creative imagination, maintains an interest in the subject.

Keywords: games, tool, memory, thinking, vocabulary, young, attention

Every teacher of a foreign language, undoubtedly, wants to make their lesson interesting and exciting, to interest children in the language, to develop their cognitive interest and creative thinking activity. The game is a teaching tool that activates the mental activity of students, makes the learning process attractive and interesting, and makes students worry and worry. This is a powerful incentive to master the language. With the help of the game, pronunciation is well- practised, lexical and grammatical material is activated, listening and speaking skills are developed. The game develops the child's creative and thinking abilities and involves making a decision: what to do, what to say. Educational games help to make the process of learning a foreign language interesting and exciting. You can add game elements to any activity in the lesson, and then even the most boring activity takes on an exciting form. When teaching vocabulary, it is advisable to use games on cards, riddles, crosswords, chain words, games such as "Find a word", "Find a proverb". At the stage of introducing lexical material, the teacher leads a story in which new words are gradually used, the meaning of which can be guessed from the context. Students try to explain a new word by giving it a definition, synonym, or antonym. This creates healthy competition and collaboration. In the next lesson, you can turn to lexical guesses, when the teacher or student describes a word without naming it, and the others try to guess. Tasks of this type help you learn vocabulary without having to use translation. Also, such exercises prepare students for further workwith crosswords, chain words, game texts based on the principle of guess and subsequent construction, which are very interesting.

In my opinion, games that I use widely in English lessons can help solve these problems:

Activity 1."In the world of animals" game. Participants are given one large card with the image of animals or birds. The small cards that the host has been shuffled. He takes out one card, shows it to the players, and addresses the question: What is it?. The player who knows the answer raises his hand and calls the depicted animal or bird in English. If the answer is correct, the host gives him the card. The winner is the one who closes all the images on their big map faster.

Activity 2. "Five words" game. Goal: fixing the vocabulary on the topic. Two teams are formed. While the trainee from one team is slowly counting to five, the representative of the other team must name five words on this topic, for example: "School, school supplies" or "City". The participant who fails the task is eliminated from the game.

Activity 3." True or false?" game. Subject: appearance. The teacher throws the ball to the student, calling a feature of appearance. The student must tell whether it matches his appearance and throw the ball to the teacher. If the student is wrong, he leaves the game. For example teacher - - you have blue eyes. Student: - it's wrong. My eyes are brown. This game can also be used in fixing the vocabulary on the topic "clothes": teacher: - you wear red pants. Student: - it's wrong. I'm wearing a skirt.

Activity 4." I love, I do not love " game.Subject: article defined with the verb To Love.Equipment: pictures of objects, people, and nature. The teacher attaches pictures to the Board and asks students to say what they like and don't like in these images. For example teacher: - what do you like? Pupil: - I love the sun and flowers, but I do not like the rain. A point is awarded to the student for a correct sentence.

Activity 5. "How many pages? " game. Goal: training numerals greater than 20. The teacher always has a lot of beautiful books on his Desk. He asks the children, pointing to one of the books: - How many pages are there in this book? Children try to guess: - There are …

Activity 6."We count" game. The class is divided into 2 teams. The teacher quickly shows each team a picture with a number and a toy or a picture with the image of a toy (for example, the number " 3 " and a toy car). Children call a toy using the plural (for example, three cars). After that, points are calculated (for

the absence of errors, quick reaction), and the winning team is identified.

In conclusion, we can say, that, the very fact that the game arouses the interest and activity of children and allows them to express themselves in exciting activities for them, contributes to faster and stronger memorization of foreign words and sentences. This is also because knowledge of the material is a prerequisite for active participation in the game, and sometimes aprerequisite for winning.

References:

1.Lewis, Gordon and Bedson, Gunther. 1999. Games for Children. Oxford: OUP.

2.Nation I. S. P. 2001. Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge. Cambridge University Press.

3.Schmitt, Norbert, 2005. Vocabulary in Language teaching. Cambridge: Cambridge University Press.

FORMATION OF LEXICAL LANGUAGE SKILLS IN THE PROCESS OF INDEPENDENT THINKING OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN THE PROCESS OF STUDYING ENGLISH

1) Urazmetova Baxtigul Tulbayevna- An English teacher of the secondary school # 11 in Amudarya district, The Republic of Karakalpakistan.
2) Toirova Muhayyo Maxsudovna : An English teacher of the secondary school # 55 in Amudarya district, Mangit town, The Republic of Karakalpakistan.
E-mail: Bahtigulteacher20@mail.ru

Annotation: At the present stage, the study of English as one of the simplest languages is given a significant place in the education of primary schoolchildren. But, nevertheless, it is a foreign language for students who study it, because it is a language that also needs to feel and be able to use lexical material, taking into account all the shades of meaning of words in the construction of oral and written statements. Lexical skills are important in reading, speaking, and writing. This is why learning vocabulary becomes one of the key goals of teaching English.

Keywords: teaching grammar, teaching vocabulary, methodological recommendations

Knowledge of vocabulary in terms of semantic accuracy, synonymic richness, adequacy and relevance of its use becomes an integral prerequisite for the implementation of the goal of teaching a foreign language, which is defined as the development of oral and written forms of communication.

Oddly enough, little attention is paid to learning vocabulary. British Methodists explain this fact by the fact that in the programs of General education institutions more emphasis is placed on teaching grammar. Moreover, teachers believe that too much lexical knowledge prevents pupils from constructing sentences grammatically correctly. As a result, there is not enough attention to the development of techniques for teaching foreign language vocabulary.

The difficulty of learning vocabulary is that the language is a dynamic system that undergoes constant changes: words move from one lexical layer to another, new words "neologisms" appear, and some words are no longer used at all. In addition, it is necessary to create conditions that will increase the volume of the active vocabulary of students and minimize the transition of words to a passive dictionary.

The teacher must be constantly ready to solve the above problems, which actualizes the introduction of innovative techniques in the process of teaching vocabulary. In theory, there are many new methodological developments to improve the effectiveness of teaching vocabulary. But in practice, they are almost not used.

Therefore, the purpose of training is to test a set of techniques for the formation of lexical skills in the 3th grade. Thus, the hypothesis of our research is that a set of techniques of critical thinking technology will increase the effectiveness of the process of learning vocabulary. In order to realize the goal, we will consider some aspects of the chosen topic, which are the objectives of our research:

- Analysis of the theoretical foundations of teaching English vocabulary;
- identifying problems in the process of learning vocabulary, choosing ways to further solve them;
- Analysis of the educational and methodological kit "English-3";
- Systematization of a set of techniques that contribute to the formation of lexical skills;
-development of methodological recommendations for the use of the identified set of techniques;
- Interpretation of the results obtained.

It is known that the vast majority of teachers insist on keeping dictionaries for students. In English, there are two concepts corresponding to the Uzbek word "dictionary" - " dictionary - dictionary "and "vocabulary" - 1) a dictionary, a list of words arranged in alphabetical order, with explanations; 2) a stock of words; 3) vocabulary".

For little pupils, associations at the Syntagma level are typical. For example, they associate the word "glass "with the word "milk". But at 9-10 years old, categorical thinking becomes predominant, and, consequently, paradigmatic connections. For example, "good" begins to be associated with "bad".

"When memorizing the form of a lexical unit, when mastering its nominative function, students learn the paradigmatic connections of words inherent in the language. When a word needs to be used in speech conditions, it is usually not called". Paradigmatic connections are directly related to various levels of grammatical, phonetic and other paradigms. They include not only the formal level of lexical and grammatical paradigms, but also semantic fields and Microsystems, which include synonyms, antonyms, and other

words that are close in meaning (context).

In the component of state standard of elementary General education in foreign languages practical assimilation of lexical aspects of speech is defined as "a lexical unit serving the situation of communication within the subjects of elementary school, the elementary idioms, evaluative vocabulary and replica-clich? as elements of speech etiquette, reflecting the culture of the target language (the use and recognition of speech), a first insight into the ways of word formation, borrowing from other languages". That is, at the initial stage of training, students must learn the paradigmatic and syntagmatic connections of the word.

However, there is a contradiction: students who have studied the new word well do not know how to use it. In order to eliminate this problem, " it is necessary to organize the process of teaching vocabulary in such a way that the leading role, immediately after the first meeting of students with a new lexical unit, is assigned to mastering its functional side, syntagmatic connections, and purpose."

In the initial period of learning a foreign language, the textbook plays a special role: it serves not only as a source of information, but also as a means to support the motivation to constantly acquire knowledge. Pupils at this stage attach special importance to the textbook as a bright, interesting book.

Literatures:

1.Kharchenko T. I. Organization of students ' activities for completing homework // Foreign languages at school. 1990. N 4. Pp. 17-22.

2. Tsetlin V. S. school failure and its prevention. Moscow: Pedagogy, 1977. 120 p.

MAKTABDA QO'SHMA GAP VA UNING TURLARINI O'RGANISH

Vaxidova Lola Abdullayeva,
Navoiy viloyat Xatirchi tuman 4-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola ona tili darslarida qo'shma gap sintaksisini o'rganish o'quvchilarning nutqiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda, fikrni nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini, madaniy nutq malakalarini shakllantirishi va rivojlantirishi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: grammatik shakl, qo'llanma, nisbiy so'z, bog'lovchi, yuklama, ko'makchi.

Qo'shma gap sintaksisini o'rganish o'quvchilarning nutqiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda, fikrni nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini, madaniy nutq malakalarini shakllantiradi va rivojlantiradi. Darsliklarimizda qo'shma gaplar talqini anchayin murakkab. U ikki va undan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik shakl va ohang asosida birikuvidan tuziladi. Uning tarkibidagi sodda gaplar bir-biri bilan bog'lovchilar, yuklamalar, ko'makchilar, nisbiy so'zlar fe'l shakllari va ohang orqali bog'lanadi.

Ona tili o'qitish metodikasida qo'shma gaplarni o'rganish yuzasidan an'anaviy darslikdagi mashqlar, savol va topshiriqlar 1950-yillarda shakllantirilgan va hozirgi kunga qadar amalda qo'llanilayotgan dastur va darsliklar talablari doirasida qolib ketgan edi. Mazkur o'quv qo'llanmada o'zbek tilshunosligining so'nggi yillarda qo'lga kiritgan yutuqlariga tayangan holda qo'shma gaplarni:

1. Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar.
2. Yuklama vositasida bog'langan qo'shma gaplar.
3. Teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar.
4. Ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar.
5. Nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar kabi yangi tasniflarga asoslanib o'rganish tavsiya etilmoqda.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar: Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar qo'shma gapning bog'lovchisiz yoki grammatik vositalarsiz tarkib topishidir. Masalan: Qorlar eridi, havo yurishib ketdi. Yaxshi o'g'il edirar, yomon o'g'il pand berar (maqol). Barvaqt qilingan harakat, hosilga berar barakat. (maqol). Yuklama vositasida bog'langan qo'shma gaplar. Ushbu mavzuni o'rganishda, "Yuklama" mavzusi yuzasidan egallangan BKMlar qisqa takrorlanadi. Buning uchun:

1. Biz Vatanimizni sevamiz. Uning tarixini yaxshi bilmog'imiz lozim.
2. Qo'ng'iroq chalindi. Mashg'ulotlar boshlandi.
3. Soy yoqalab biroz yurdik. Yo'l o'ngga burildi, gap juftlari beriladi. Mustaqil ish sifatida berilgan sodda gaplardan -mi, -da, -u(-yu), -ku kabi yuklamalar vositasida qo'shma gaplar tuzish vazifasi topshiriladi:

1. Biz Vatanimizni sevamiz-mi, uning tarixini ham bilmog'imiz kerak.
2. Qo'ng'iroq chalindi-yu mashg'ulotlar boshlandi.
3.Soy yoqalab biroz yurdik-da, yo'l bo'ylab o'ngga burildik.

Mavzuni o'rganishda o'quvchilarga badiiy matnlardan teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplarni topish, izohlash, teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar tuzish, ularni ma'nodoshi bilan almashtirish, teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar yordamida matn tuzish singari ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarish havola qilinadi: Namuna. Donolarning aytishicha, uch guruh kishilar bilan do'stlik yo'lini tutish maqsadga muvofiqdir. Birinchisi - ilm ahli bo'lib, ular o'z hayotlarini ilmu odob bilan o'tkazgan va hayotning barcha achchiq-chuchugini totgan bo'ladilar. Ikkinchisi-baxtiyor tabiatli, saodatmand kishilar bo'lib, ular o'z do'stlarining ayblarini odamlardan yashiradilar va hech qachon oshkor qilmaydilar. Xilvatda do'stdan sodir bo'lgan xatolarni yuzlariga aytib beradilar va ulardan hech bir nasihatlarini ayamaydilar. Uchinchisi - beg'araz va beta'ma kishilar bo'lib, ularning do'stliklari haqqy bo'ladi, biror foyda topish evaziga qurilmagan bo'ladi. Xursandchilikda birga bo'lgandek, qayg'u-kulfat chog'larida ham hamisha yoningda bo'ladi. Ularga doimo suyanish, orqa qilish mumkin.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma otlar.Mavzuni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar e'tiboriga sodda gap juftlari beriladi. Ulardan ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida qo'shma gaplar tuzish so'raladi: 1. Bahor keldi. Qushlar issiq o'lkalardan qaytib kela boshladi. 2. Gulchehra chet tillarini o'rganishni yaxshi ko'radi. U rus va ingliz tillarida yaxshi gapiradi. Namuna: Bahor keldi, shuning uchun qushlar issiq o'lkalardan qaytib kela boshladilar. Mavzuni o'rganishda bog'lovchi vositalarni ma'nodoshi bilan almashtirish,

ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplardagi ma'noviy munosabatni aniqlash, ulardan o'rinli foydalanish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlar beriladi.

Nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar. Mavzusini o'rganishda ham o'qituvchi tomonidan tanlab berilgan yoki o'quvchilar tomonidan tuzilgan sodda yig'iq va sodda yoyiq gap juftlaridan nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar tuziladi.

1. Mashinalar qatnovi yaxshilandi. Ko'chalar kengaytirildi. Mashinalar qatnovi yaxshilansin deb, ko'chalar kengaytirildi.
2. Qayerda intizom yaxshi bo'lsa, u yerda obodonchilik ham bo'ladi.
3. Kim ko'p mehnat qilsa, u hurmatga sazovor bo'ladi.

O'quvchilar gaplarni tahlil qilish orqali nisbiy so'zlar (qaysi, shu, kim, o'sha, qaerda, shu erda, deb kabi) bog'langan qo'shma gaplarni hosil qilishda muhim rol o'ynashini bilib oladilar. Bunda nisbiy so'zlar fikrni, mazmun va maqsadni aniq ifodalash imkonini berayotganini anglab etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. Yuksak manaviyat-yengilmas kuch.T.,Manaviyat. 2009.
2. Madayev O., va boshqalar. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. - T.: Turon zamin ziyo, 2017.
3. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti, 2012. - 5-son, 3-16-betlar.
4. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. -T., O'qituvchi, 1995.
5. 7-9 -sinflarning ona fani tili darsliklari. So'nggi nashr.

CHET TILLARINI MUSTAQIL O'RGANISHDA AXBOROT KAMUNIKATSIYALAR VA RAQAMLI TIZIMNING O'RNI.

Buxoro shahar 31-maktabning Ingliz tili fani o'qituvchisi:
XABIBULLAYEVA SHAHNOZA NURITDINOVA.
Buxoro shahar 31- maktabning Ingliz tili fani o'qituvchisi:
NIGMATULLAYEVA ZEBINISO AKBAROVNA.
Buxoro viloyati Romitan tumani. 1-Umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi
KENJAYEV SARDOR NURMURODOVICH
Telefon:+998941215225
sardorkenjayev2020@mail.ru

Anotatsiya: Chet tillarini mustaqil o'rganishda axborot texnalogiyalari va komunikatsion tizimni rivojlantisrish bugungi kunning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chet tillarini o'rganishda Komunikatsion tizimning ahamiyati benihoya kattadir.

Kalit so'z: Kamunikatsiya, CD, Player, Internet, CEFR, IELTS, TOEFL, Kompyuter, Naushnik, Vidio player.

2020-yil O'zbekiston Respublikasida "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilindi.2020-yilgi ustuvor yo'nalishlar Ular uchta - ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyot sohasida keng qamrovli loyihalar qabul qilindi.Maktab ta'lim tizimini rivojlantirish va chet tillariga etiborni yanada kuchaytirish ustuvor vazifa qilib belgilandi. Bu Globallashayotgan zamonni axbarot kamunikatsiya tizimisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chet tillarini o'rgatishda va o'rganishda komunikatsiya tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda quydagilarni amalga oshirish mumkin:

1. O'quvchilar kompyuterlardan foydalanish jarayonida chet tilidagi dialoglarni, qisqa video roliklarni, multfilm yoki kinolarni bir vaqtning o'zida ko'rishi va eshitishi;

2. CD pleyerlardan foydalanishi; 3. Turli bilim saviyasiga ega talabalarga elektron testlar berilishi va x.k.

Bunday texnik vositalaridan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Bu jarayonda o'quvchilardan bir paytning o'zida so'zlovchining grammatik qoidalarga rioya qilganligini, talaffuzini, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi.

Foydalanayotgan kompyuterlarimizda internetning mavjudligi esa chet tilini kompyuterlar yordamida o'rgatishni yanada samarali qiladi. Negaki kompyuterlardan foydalanish jarayonida o'quvchilar nafaqat sun'iy intellekt yordamida chet tillarini o'rganishi, yoki bo'lmasa internetda jonli muloqotlar yordamida boshqa til o'rganuvchilar bilan bilimlari doirasida aloqa qilishi natijada o'zlaridagi bilim va ko'nikmalarini oshirishlari mumkin. Bundan tashqari shuni alohida takidlash mumkinki, internetdan foydalanish orqali bir necha turli tipdagi masalalarni hal qilishda ham keng ko'lamda foydalanishimiz mumkin. Bunga misol qilib: o turli saytlardagi on-line, ko'rinihidagi testlar; o off-line testlarning elektron shaklidan foydalanish;

o Internet tizimidan foydalanib o'quvchilarning bilim darajasiga qarab turli ko'rinishdagi CEFR, IELTS, TOEFL testlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Bu kabi ko'rinishdagi testlarning o'quvchilar uchun eng afzal tomoni natijalarni tezkor ko'rsatib berishidadir. Shuningdek, bir vaqtning o'zida bilim saviyasi har xil bo'lgan talabalar uchun ularning bilim darajasiga mos keluvchi testlar online shaklida berilishi ham mumkin. Bundan tashqari, internetdan foydalanib chet tilini o'rganishda o'qituvchilar ham birdek o'quvchilar qatori o'z kundalik ishlarida qulayliklarga ega bo'ladilar, shu boisdan ham axborot texnologiyalarini dars jarayonlariga joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari ingliz tilini kompyuter orqali o'rgatishda ma'lumotlarni matnli, tasvirli, ovozli va video ko'rinishida yetkazib berish o'quvchi xotirasida yaxshiroq saqlanishi isbotlangan.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Azizxo'jaeva N.N.Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat.-T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. - B.153.

2. Yo'ldoshev J., Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G.Interfaol ta'lim sifat kafolati.-T., 2008. - B.114. 1. Zubov A.V. Methods of applying information technology in teaching foreign languages: study guide for students. Higher studies. Institutions/A.V.Zubov, I.I.Zubova. - M.: Publishing Center "Academy", 2009. - 144 p.

3. Sysoev P. V. Development of copyright educational Internet resources in a foreign language / P. V. Sysoev, M. N. Evstigneev // Foreign Languages at School. - 2009. - № 2. - Pp. 8-16.

MAKTAB O'QUVCHILARIGA CHET TILINI O'RGATISHIMIZDA INNAVATSION TEXNOLOGIYALARINI SAMARALI QO'LLASH.

Buxoro shahar 31-maktabning Ingliz tili fani o'qituvchisi Xadjiyeva Zarina Ahmedovna.
Buxoro shahar 31- maktabning Ingliz tili fani o'qituvchisi:Dilova Guldas Bahodirovna.
Telefon:+998941215225
sardorkenjayev2020@mail.ru

Anotatsiya: Chet tillarini o'rganishda texnik vositalaridan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Bu jarayonda o'quvchilardan bir paytning o'zida so'zlovchining grammatik qoidalarga rioya qilganligini, talaffuzini, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi.

Kalit so'z: Axbarot,Komunikatsiya, Televidiniya, radio, lokatsiya, globallashuv, komunikatsiya, Kompyuter.Planshet.

Hozirgi rivojlanayotgan zamonamizda chet tillarini mukammal bilish kasbiy malakaning asosiy talablaridan biri bo'lib qolmoqda. Bilamizki ingiliz tili hozirgi kunda dunyodagi muloqot tillari orasida yetakchi o'rinda. Shunday ekan ingliz tilini o'rganishga alohida e'tibor qaratilishi ham bejiz emas. Chunki bu tilni o'rganish oson emas va anchagina vaqt talab qiladi. Lekin hozirgi kunda chet tillarini o'rganish ancha osonlashgan. Buning asosiy sabablaridan biri axborot texnologiyalaridan maqsadimiz yo'lida to'g'ri va oqilona foydalanish. Bir so'z bilan aytganda hozirgi kunda qo'limizdagi kompyuter va telefonlarimizda mavjud elektroni lug'at va video kurslarning mavjudligida.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012-yil dekabr oyida aynan shu sohani rivojlantirishga qaratilgan 1875-sonli qarori qabul qilingan. Natijada mamlakatimizning har bir jabhalarida chet tillarini o'rganishga, o'qitishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Yurtimizning har bir maktab, kollej, litseylariga malakali pedagoglar jalb qilindi va chet tillarni o'qitilishida yangicha dastur ishlab chiqildi, shuningdek chet tilini o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga ortib bormoqda.Ma'lumki, ingliz tili to'rt xil bilim ko'nikmasini qamrab olgan holda, ya'ni (o'qish, yozish, tinglash va gapirish)ga bo'linadi. Bu aspectlarning har biri bo'yicha malakali pedagog mahoratiga ega bo'lgan o'qituvchilar o'quvchilarga tushuncha va ko'nikmalar bermoqda. Keyingi yillarda chet tili darslarini o'tishda zamonaviy-axborot texnologiyalardan, innovatsion usullardan foydalanish talab qilinmoqda. Ushbu talablarni inobatga olgan holda o'quv binolari lingafon xonalar, video uskunalari, stendlar, elektron doska va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Bu jihozlar orqali dars vaqtini tejash va o'quvchilarning yanada ko'proq hamda samarali bilim olishlariga imkoniyat yaratib berilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, chet tillarini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanib bu jarayonni samarali bo'lishi uchun hammamiz birdek yondashmog'imiz lozim. Chunki innovatsion ta'lim texnologiyalari samaradorligi jihatdan ularni ta'lim jarayonlarida aniq va sifatli foydalanish natijasida yuzaga keladi. Shuningdek, chet tillarini o'qitishda yangi g'oyalar, texnologiyalardan foydalanilgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin bo'ladi. Agar ta'lim tizimini yaxshilashda ularga amal qilinsa, yuqori darajada samara berishi shubhasizdir. Chunki unib o'sayotgan iste'dodli yoshlarimizni o'z qiziqqan sohalarida yetuk va malakali kadrlar bo'lib yetishishlari uchun, avvalambor chet tilini jumladan, ingliz tilini mukammal o'zlashtirgan bo'lmog'i lozim.

Shunday qilib, chet tilini o'rganish hozirgi zamon talabi ekan, o'sib kelayotgan yosh avlodga til o'rganishning yangi uslublarini, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dan chetga chiqmagan holda ishlab chiqib, ta'lim jarayoniga tavsiya etish mutaxassislarimizning, olimlarimizning oldida turgan dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1875 sonli "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarin to'g'risidagi" qarori, Xalq So'zi. 2012.
2.Aripov H., Axborot Texnologiyalari.- Toshkent, 2008.
3. http://tuit.uz
4. http://ziyonet.uz
5. https://www.ethnologue.com/world
6. 2017 - yil shiddatli islohotlar yili. - T.: "Adolat", 2018. - 96 b.

7.https://daryo.uz/2017/02/07/ozbekiston-prezidenti-2017 2021 yillarga moljallangan -harakat-strategiyasi-haqidagi-farmonni-imzoladi, 2017 [elektron resurs].
8. https://www.norma.uz/uz/bizning_sharhlar.

BOSHLANG`ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA QO`SHIMCHA MASHQLARDA LUG`AT BILAN ISHLASH

Xalimova Kamola Muhiddinovna
Murodova Dilfuza
Buxoro viloyati Vobkent tumani
3-umumta`lim maktabi boshlang`ich sinf o`qituvchilari
Telefon +998(91)6461947 Xalimovxalimovsherali@gmail.com

Annotatsiya:Maqolada boshlang`ich sinf ona tili darslarini o`quvchilar ongiga singdirish uchun tirli xil ta`limiy o`yin metodlaridan foydalanish jarayoni hamda qo`shimcha mashqlarda ham lug`at bilan ishlash o`quvchilar lug`at boyligini oshirishga xizmat qilishi yoritilgan.

Kalit so`zlar:Pedagogik texnologiya, adash nomlar o`yini,zanjir o`yini,chaqqon bolajon

Ona tili fani o`quvchilarni fikr bayon qilish va uni uqib olish faoliyatiga tayyorlaydi. Fikr til vositasida ro`yobga chiqadi, shu sababli har bir kishi tilni va undan foydalanishni bilishi zarur. Tilni bilish uning grammatik qonun-qoidalarini, ta`rifini o`zgartirishgina emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilish hamdir, ya`ni fikrni og`zaki va yozma shaklda to`g`ri, tushunarli va savodli ifodalay bilishdir.

Bunga erishish uchun ona tili darslarida lug`at ustida ishlashga alohida e`tibor qaratish lozim. Lug`at ishida so`zning ma`nosi, talaffuzi va imlosi e`tiborga tutiladi. Bular ustida ishlashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o`quvchilarning ulardan nutqda foydalanishlariga erishish, o`zgalar nutqini anglashlarini ta`minlashdir. Buning uchun o`qituvchi ona tili darslarida qo`llangan har bir so`zning va ta`limiy jarayonlarda: ekskursiya, o`zaro suhbat, turli tadbirlarda ishlatilgan so`zlarning ma`nosiga e`tibor bilan qarashi, ularning qaysilari maxsus ishlashni taqozo etishini belgilab olishi kerak.shuningdek qo`shimcha mashqlarda ham lug`at bilan ishlash muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik texnalogiya - axbarotlarni o`zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, axbarotdagi yangi ma`no-mazmunlarni o`rgatish jarayonidir.Yangi axbarotlar orasidagi turli bog`liqliklarni ochish orqali o`yin metodlaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.Demak pedagogik texnologiya insonga oldindan belgilangan maqsad bo`yicha ta`sir o`tkazish faoliyati hisoblanadi va o`quvchini mustaqil o`qishga,bilim olishga, fikrlashga o`rgatishni kafolatlaydi.

Bir tovush bilan farq qiladigan so`zlar.

1.Yoq-tomon Yog`-moy

2.Ziyrak-diqqat , e`tiborli Zirak- ayollarning quloqqa taqadigan taqinchog`, bezagi

3.Kartochka-varaqa shaklidagi rag`bat
Kartoshka- sabzavot, poliz ekini

4.Pay- muskul
Poy-juft narsalarning biri (ko`pincha oyoq kiyim)

5.Pasta-tish pastasi
Pastda-pastlikda, quyida

6.Rol-kino, sahnadagi obraz
Rul-transport vositasini boshqarish mexanizmi

7.Soda-oziq-ovqatga ishlatiladigan mahsulot
Sodda-oddiy, jo`n, sofdil

8.Surat-chizilgan rasm
Sur`at-temp, tezlik, jadallik, ishning borishi

9.Tort-shirinlik
To`rt-raqam

10. Sher-yovvoyi hayvon, vaxshiy
She`r-asar, nazm

11.Shox-shox-shabba
Shoh-podshoh

TOPSHIRIQLAR

Mosini qo`ying

1.O`qituvchimis bizga rag`bat _____ berdilar
Bobom _____ ekdilar
Kartochka kartoshka
2.Qani oyoq kiyimingni ikkinchi _____?
Go`shtning _____ qismi qattiq bo`ladi
Poyi payi
3.Aziza tish _____ qidiryapti
U _____da uxlaydi
Pastda pasta
4.Aktrisa sahnada, kinoda _____ o`ynayapti
Jahongir mashina _____ boshqaryapti
Rul rol
5.Oyim xamirga _____ soldilar
Dilroza _____ qiz
Sodda soda
6._____ juda chiroyli chizilgan
Sanoatimiz juda tez _____larda rivojlanmoqda
Surat Sur`at
7. Bu daraxtning ____-shabbalari o`sib ketibdi
Zahiriddin Muhammad Bobur _____ va shoir bo`lgan
Shoh shox
8.Opam _____ pishirdilar
Uch sonidan keyin qaysi son keladi?
Tort to`rt
9.O`rmonzor qiroli?
Charosxon o`qish kitobidan _____ yodladi
Sher she`r
10. Uchburchakning nechta _____lari bor?
Ovqat pishirishda qozonga birinchi bo`lib _____ solinadi
Yog` yoq
11.Itlar juda _____hayvon
Singlim qulog`iga _____ taqdi
Zirak ziyrak

Boshlang`ich sinf o`quvchilari yuqoridagi so`zlarni diktantlarda yozishda ba`zan xatoga yo`l qo`yishadi.Bunday mashqlar ko`proq o`tkazilsa o `quvchilar bitta harf bilan ham ma`no o`zgarishini tushunib yetib,xatoliklarga yo`l qo`yishmaydi.

Shakli har xil ma`nosi bir xil bo`lgan so`zlar.
1.Asramoq-avaylamoq
2.Barg-yaproq
3.Vatan-mamlakat, yurt, diyor

TOPSHIRIQLAR

Mosini qo`ying
1.Biz kitobimizni asrab ishlatishimiz lozim
2.Kuzda daraxtlarning barglari sarg`ayadi
3.Vatanimiz kundan kunga chiroy ochib bormoqda
Yuqoridagi mashq orqali esa so`zlarni o`z o`rnida qo`llay olish malakalari shakllanadi.
O`zbek tilining imlo lug`ati. Yodlang!
Aa
assalomu alaykum a`lo
adolat alifbe (kitob)
aeroport alifbo (harflar)
aktyor ananas
albatta apelsin
Bb
bab-baravar bodring
badantarbiya buyuk
baybaylamoqburch

beaql bo`shlik (zaiflik) bo`shliq (joy)
behi bezak
bilanbilet
borlik(mavjudlik) borliq (koinot)
bronza bug`doypoya…
Qolgan so`zlar ham yodlatiladi.Bu mashq orqali o`quvchilarning lug`at boyligi oshadi.

``Adash nomlar``o`yini orqali gullarning nomlari orasidan insonlarga ism qilib qo`yilganlarini ajratib olish. Masalan: lola, boychechak, rayhon, chuchmoma, nargiz, binafsha, nilufar, atirgul. Lola,Rayhon,Nargiz,Nilufar kabilar kishilarga atab qo`yilgan ism ham bo`ladi shuningdek,gul nomi ham bo`lib keladi.O`quvchilarning lug`at boyligini o`stirishga katta yordam beradigan ta'limiy o'yinlardan yana biri "Chaqqon bolajon"o'yini.O'yinda bolalardan chaqqonlik,tezkorlik talab qilinadi.Bu o'yinning ikkita sharti bor.Birinchi shart o`quvchilar ikki tomoni bir xil unli bilan tugaydigan so'zlarni yozadilar. Ikkinchi sharti esa ikki tomoni bir xil undosh yoziladigan so`zlarni yozish topshiriladi.Bu o'yinni sinfni ikki guruhga bo'lib ishlasa ham bo'ladi.

u 1-guruh: ikki
u 2-guruh:katak

Har bir to`g`ri javob bergan o`quvchi rag`batlantiriladi.Dars jarayonlarida ko`rgazmali qurollardan foydalanish, mavzuni o`zlashtirish,xotirada saqlab qolish imkoniyatlarini kuchaytiradi.Tarqatma kartochkalar, tarqatma test materiallari o`quvchilarni (individual) yakka tartibda mustaqil ishlashga , mustaqil javob berishga yoki kartochkadagi savolga jamoaviy tarzda javob berishga , jamoa fikrlarini umumlashtirishga katta yordam beradi.Yosh bolalar,ayniqsa, boshlang`ich sinf o`quvchilari o`yin o`ynashga qiziqadilar.

``Zanjir``o`yini O`qituvchi birinchi bo`lib so`z aytadi.O`quvchilar bu so`z qaysi harf bilan tugagan bo`lsa,shu harf bilan boshlanuvchi so`zni aytadilar.Imlo lug`atidan berilgan so`zlardan Masalan:albatta,adolat,tinchlik,kitob,borlik...

Endi o`yinimiz shartini o`zgartiramiz.2-shart boshi ham oxiri ham unli bilan tugaydigan so`zlardan yozing. Masalan: alla, ana□shu tarzda davom ettiriladi.Keyingi mashqlarimiz ham lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishda juda katta samara beradi.``Eslab qol keyin yoz mashqi`` Gaplar beriladi o`quvchilar 10 soniya ichida so`zlarni o`qib,eslab qolishlari kerak.Undan keyin boshida ko`rsatilgan so`zlar yana ko`rsatiladi.Daftarlar almashtiriladi partadoshi tekshiradi,

Gaplarni o`qing va yodda saqlang!
Gulchehra dars tayyorladi
.Aziza yuz-qo'lini yuvdi
.Burgut o'zini o'ljaga tashladi,
Muattar savol-javobga tayyorlandi.
Gaplarni qayta tiklang.
dars tayyorladi.
tayyorlandi
Aziza yuz-qo'lini .
Burgut o'zini dars tayyorladi
Muattar o`ljaga tashladi
savol-javobga Gulchehra yuvdi
Gaplarni o`qing va yodda saqlang!

Qizlar mevalarni terdilar.Bolalar maydonda koptok tepishadi.Bu uyda Javohir yashaydi. Amakim biznikiga keldilar.

Gaplarni qayta tiklang
Qizlar Bolalar mevalarni koptok terdilar.
maydonda uyda
tepishadi.
Bu biznikiga Javohir yashaydi.
Amakim keldilar.

Doska ikkiga ajratiladi.O`quvchilar doskaga birma-bir chiqib har bir ustunga mos so`zlarni yozadilar.Natijada o`quvchilarda sodda yig`iq gap tuzish malakalari shakllanadi.

Kim? nima qildi?
Aziza o`qidi
Dilfuza yozdi

``Yozgi ta`til`` mavzusida matn tuzing.

Tayanch so`zlar:yozgi, ta`til,hordiq,birga,oromgoh,zerikmaymiz,do`stlashamiz,ba`zi

chiniqamiz,taassurot,esdalik,qay.

Ona tilini o`rganish jarayonida lingvistik materialni o`rganishda yangi o`rganiladigan materialning ilgari o`rganilganlar bilan ilmiy asoslangan bog`lanishini aniqlashga imkon beradigan izchillikni ko`zda tutadi.Masalan : 1-2-sinflarda fonetika,grafika mavzulari yetakchilik qilsa,3-4-sinflarda morfemika,gap,so`z turkumlarini o`rganish muhim hisoblanadi.Yuqorida biz ko`rib o`tgan ta`limiy o`yinlardan boshlang`ich sinf ona tili darslarini samaradorligini oshirishda muhim vosita bo`ladi.

Xulosa qilib aytganda,ona tili darslarida mavzuga oid qo`shimcha mashqlar bajarishdan foydalanish orqali boshlang`ich sinf o`quvchilarning ona tili grammatikasi bo`yicha bilim va ko`nikmalarini o`stirish boshlang`ich sinf o`qituvchilaridan o`qitish jarayoniga katta mas`uliyat bilan yondashishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1.Karima Qosimova, Safo Matchonov,Xolida G`ulomova,Sharofat Yo`ldosheva,Sharofjon Sariyev-Ona tili o`qitish metodikasi Toshkent "NOSIR" nashriyoti 2009.

2.Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, maxsus muharrir Y.Abdullayev O`zbek tilining imlo lug`ati .3-nashri.-T. ,,Oqituvchi"Nashriyoti-matbaa ijodiy uyi Toshkent- 2011.240 b

THE ROLE OF FAIRY TALES IN TEACHING ENGLISH

Xasanov Dovudbek Hamidulloxon og'li,
an English teacher of Namangan region,
Namangan district, school № 3
dovudhon@rambler.ru /tel:+998993211492

Annotation

The article discusses the role of fairy tales in learning English, as its use in the classroom contributes to the implementation of the most important requirements of the communicative method.

Key words: teaching, fairy tales, characters, communication, improving, create

Fairy tales are a fertile source of early foreign language education. The study of fairy tales fascinates children. A dramatization of fairy tales helps to relieve the mind of students, create a favourable friendly atmosphere of communication in the classroom, which is so necessary for the classroom for both the teacher and the student. The use of fairy tales in the classroom is aimed at improving the effectiveness of students ' activities. Fairy tales are also an important means of moral education of the individual. Also, they encourage students to become familiar with the culture of the countries of the language being studied, as well as expand their knowledge of the cultural heritage of their native country, which allows students to take an active part in the dialogue of cultures. In this process, it is important to use authentic material. With the help of afairy tale, the teacher can develop almost all skills and abilities, teach to anticipate, tell about its content. In primary school, fairy tales play an important role in teaching vocabulary. Learning with fairy-tale characters is fun and instructive because they have such different characters. Memorizing rhymed texts of fairy tales, performing illustrations for them, staging fairy tales in front of parents and on school holidays contributes to the formation of students' communicative competence and increases their interest in the English language. The choice of a fairy tale and the amount of literary analysis depends on how prepared children are for the perception of a foreign word and what goals the teacher pursues. In grades 5-6, it is preferable to take folk tales, such as" Three bears "and" Goldilocks and the Three Bears"," Scarlet flower "and "Beauty and the Beast". In grades 7-9, children already have decent baggage of grammatical knowledge, you can use literary fairy tales works or fantasy. As an example of this work, we offer a lesson developed for students in grades 5-6 on the fairy tale "Goldilocks and the Three Bears". By the following goals:

Training materials. Recall with students the fairy tale "Goldilocks and Three Bears"; learn new vocabulary that occurs in the text of the fairy tale; generalize and systematize grammatical material on the topic "Past Simple and Present Simple"; repeat the word order in an English sentence; Developmental: Contribute to the development of analytical skills; develop communication skills; train the skill of identifying causal relationships; Educational: Teach students asense of respect for the culture of aforeign country; teach them to work in a team

The lesson begins with watching a small cartoon based on the story of a fairy tale in English, the language is adapted for students of grades 5-6. Methodical this exercise serves not only as a game point in the lesson but also activates the auditory channel of perception, the lexical stock of children. Having first fixed the worked-out vocabulary, you need to find a use for it. Exercise to restore the sequence of events in a fairy tale allows you to do this. Before the children are presented statements that tell about the events of the fairy tale, but not consistently:

Goldilocks goes to the forest; Goldilocks runs away;
She eats the porridge and falls asleep; The bears see Goldilocks;
She comes into the house.

It is the use of fairy tales that provides a wide range of opportunities for teaching grammatical skills. A fairy tale develops the child's imagination, which is directly related to the development of speech and the emotional sphere of the individual. Also, the fairy tale is a means of creative modelling of communication situations. In this article, I have presented several fairy tales that I use in my lessons when explaining grammatical material. A fairy TALE ABOUT the VERB to be, Fairy TALE about GINS DO and DOES

For example A fairy TALE ABOUT the VERB to be

In the country of Gramland, the verb to be lives with its sons. He has his own business. He's old and doesn't work. Only three of his sons work: am, is, are. They are not always translated into Uzbek. Everyone works with their pronouns:

I-am We - are

You - are
He-is
She - is
It - is

You - are
They - are

The task of the guys is to put these statements in the right order in writing. In the process of completing the task, the children update their vocabulary, as well as work out the skill of conscious reading. Through a fairy tale, a teacher can turn the process of learning a foreign language into an exciting, desirable and expected schoolchild, using a fairy tale on a large number of methods for teaching reading.

References:

1.Digital storytelling: an active learning tool for improving students' language skills Article (PDF Available) · March 2018
2.Favat, F. A. (1977). Child and tale: The origins of interest.
3.Ockey, G., & Ogden, D. (1997). Tapping Student Interest with Fairy Tales.

TANLAQLARDIN INTONACIYASIN OQITIW

Xojabekova Gulsuliw Qudaynazarovna
Kegeyli rayoni 55-sanli qanigelestirilgen mekteptin
qaraqalpaq tili ham adebiyati pani mugallimi
+998937720772

Annotaciya: *Bul maqalada gáp dúzlisinde tańlaqlardıń qollanılıwı , intonaciyalıq ózgeshelikleri hám sintaksislik xızmetleri haqqında maǵlıwmatlar berilgen.*
Gilt sózler*: tańlaqlar, intonaciya, sintaksislik xızmet*

Tańlaqlardıń tekst hám gáp qurawdaǵı xızmetleri hár túrli. Olar tekst hám gáp quramında hár túrli intonaciyalıq ózgesheliklerge iye boladı. Tańlaqlardıń intonaciyalıq ózgesheliklerine qaray sintaksislik xızmetleri anıqlanadı: 1.Eger tańlaqlar tekst ishinde óz aldına gáplik intonaciya menen aytılsa, bunday jaǵdayda olar tańlaq sóz-gáp xızmetin atqaradı. Tańlaqlardıń gáplik xızmette qollanılıwı, kóbinese tekstke qatnaslı tuwra gápli qurılımlarda hám dialog gáplerde keledi. Mısalı: -Bárekella! Júdá jaqsı. Hárkim óz mákanınan kamal taspa. (S.X) Súyinshi, Tolǵanay apa, Jorabek atamnıń kelini bosandı. -Qoya-a! -Qashan bosandı? —Búgin tańnıń aldında. (Sh.A) - «Woho-ho!-dep quwanıp ketti ol. Wah, sen-áy! —dedi Ájimurat sońınan. —Sonday bir túlkini jiberdiń de qoydıń. (Sh.A) 154 2. Tańlaqlar gáptiń quramında tamamlanbaǵan, gáplik emes intonaciya menen aytılıp, sol gáptiń mazmunınan qatnaslı bolıp kelse, kiris aǵza xızmetin atqaradı. Bunday jaǵdayda olar páseń intonaciya menen aytıladı, gáptiń basqa aǵzalarınan útir arqalı ajıratıladı. Mısalı: Bárekella, azamat jigitler, maǵan etken bul húrmetińiz altınnan da artıq. (A.Bek.) Bul ne kórgensizlik, toba! (İ.Yu.) Yapırmay, Áliymannıń sondaǵı quwanıshın-ay! 3. Demek, tańlaq sózler gáptiń quramında basqa sózler menen sintaksislik baylanısqa túspeydi. Olar tikkeley sóz ózgeriwshi qosımtalar menen ózgermeydi. Bul jaǵınan qaraǵanda tańlaqlar tikkeley grammatikalıq gáp aǵzası xızmetin atqara almaydı. Biraq, geyde tańlaqlardıń júdá siyrek gáp aǵzası wazıypasın atqaratuǵın múmkinshilikleri ushırasadı. Bul jaǵdayda tańlaq sózler atlıqlasıp, geypara sóz ózgertiwshi hám sóz jasawshı qosımtalardı qabıl etedi yamasa betlik yemes formada kelgende, kómekshi feyil menen dizbeklesip, bir intonaciya basımında aytıladı da analitikalıq formadaǵı feyil yaki feyil toplamı formasında gáp aǵzası xızmetin atqaradı. Mısalı: Adamlar ılay atıp atırǵanda «bárekellasın» jetkerip tur. (T.Q.). Bul gáplerdegi dıqqat etilgen sózler ózleri qatnaslı sózler menen sintaksislik baylanısqa túsip, belgili gáp aǵzaları-baslawısh, tolıqlawısh xızmetin atqarıp kelgen. «Tańlaqlardıń intonaciyası, gáptegi xızmeti hám irkilis belgilerin oqıtıw» teması ushın ulıwma bilim beriw mekteplerinde 7-klass ushın «Qaraqalpaq tili» sabaqlıǵında 2 saat ajıratlıp, 68-69-betlerde keltirilgen. [1.68-69]. Tańlaqlar tekst hám gáp ishinde hár túrli intonaciyalıq ózgesheliklerge iye boladı. Tańlaqlardıń intonaciyalıq ózgesheligine qaray, onıń sintaksislik xızmeti hám irkilis belgilerin anıqlanadı. Birinshiden, eger tańlaqlar óz aldına gáplik intonaciya menen aytılsa, tańlaq sóz-gáp xızmetin atqaradı. Bunday jaǵdayda aytılıw intonaciyasına qaray noqat, úndew belgileri qoyıladı. Ekinshiden, sóz-gáp xızmetinde kelgen tańlaqlar kóterińki aytılsa, keyinine úndew belgisi qoyıladı. Mısalı, Bárekella? Júdá jaqsı. Súyinshi! Tolǵanay apa, Jorabek atamnıń kelini bosandı. Úshinshiden, sóz-gáp xızmetinde kelgen tańlaqlar páseń intonaciya menen aytılsa, tańlaqtan keyin noqat qoyıladı. Mısalı: -Qálegen kuzovqa otır, kolxozǵa deyin aparıp taslayın. - Raxmet. Atım bar. Tórtinshiden, tańlaqlar gáp ishinde kiris aǵza xızmetinde jay intonaciya menen aytıladı. Kiris aǵza xızmetinde kelgen tańlaqlar gáptiń basında

kelse, keyninen, al ortasında kelse, sen tárepinen, aqırında kelse, aldınan útir qoyıladı. Mısalı: Bárekella, azamat jigitler, maǵan etken bul húrmetińiz altınnan da artıq. Raxmet, Siziń bul aytqan keńeslerińizdi esapqa alaman. Besinshiden, geyde tańlaqlar jeke siyrek atlıqlasıp kelip grammatikalıq gáp aǵzalarınıń xızmetin de atqaradı. Mısalı: Alıstan ura esitildi. Bizler jaqınlasqan sayın way-waylar, bay - baylar anıǵıraq esitildi. Adamlar ılay atıp atırǵanlarǵa «bárekallasın» jetkerip tur. Altınshıdan, juplasıp kelgen tańlaqlar defis arqalı jazıladı. Mısalı: Wah-wah, qolıma tiymeń.

Ádebiyatlar

1.Dáwletov A., Dáwletova M. Qaraqalpaq tili (7-klass ushın sabaqlıq) Nókis, Bilim, 2000.
2.Házirgi qaraqalpaq ádebiy tiliniń grammatikası .“Bilim” baspası, 1994

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA XORIJIY TILLARNI O'RGANISHNING AMALIY AHAMIYATI

Xolmurzayeva Dilrabo Raxmonovna
Navoiy viloyati Xatirchi tuman 65-umumta'lim maktab
ona tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilshunosligida xorijiy tillarni o'rganishning amaliy ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarini o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni ongida milliy g'ururni shakllantirishga, yo'naltirilgan ta'limiy, tarbiyaviy islohotlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o`qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni o`qitish, tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik hamda muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida: O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 12-dekabrdagi "Chet tillarini o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi Qarori qabul qilindi. Unga muvofiq "2013-2014-o`quv yilidan boshlab Respublikaning barcha hududlarida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o`rganish umumta`lim maktablarining birinchi sinflaridan o`yin tarzidagi darslar va og`zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o`zlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilib borilmoqda.

"Ilm-fan salohiyati bu - xalqning, Vatanning ulkan boyligi, kelajak poydevoridir. Uni rivojlantirishda davlat imkoni bo`lgan hamma ishni qiladi, hech narsani ayamaydi."

Iqtisodiy muammolar ertami-kechmi hal etiladi, lekin ilmiy boyligini qadrlamagan, uning taraqqiyoti uchun qayg`urmagan davlatning kelajagi bo`lmaydi. Buni biz doimo yodda tutmog`imiz shart"

Respublikamiz Prezidentining bu fikrlaridan davlatimiz hududida ilm-fanni rivojlantirish, uning istiqbolini belgilashga katta e`tibor berish zarurligini anglash mumkin. Istiqlolga erishgan respublikamizda ma`naviyat, madaniyat, ilm-fan, texnika, maorifni yuksaltirishga katta ahamiyat berilayotgani sezilib turibdi.

Ushbu sharoitda dunyoning yetakchi olti tilidan biri bo'lgan ingliz tilini oddiy munosabatlar doirasida emas, balki mukammal bilish yo'lida va uni yosh avlodga o'rgatish jarayonida juda ko'p diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Ingliz tili grammatikasi, lug`at tarkibiga va fonetikasiga oid bir muncha ishlar amalga oshirilgani holda, bu tildagi turg`un birikmalar va iboralarni o`rganish, tasniflash, o'zbek tili bilan tadqiq qilish e'tibor talab masalalardan biri bo`lib qolmoqdaki, ularni o`rganish ingliz ilmiy va adabiy tilini chuqur tushunishga, badiiy- informatik asarlarni to`laqonli tahlil etishga olib keladi.

"Hozirgi paytda xorijiy tillarni o`rganish va o`rgatishga respublikamiz miqyosida katta ahamiyat berilmoqda. Butun jahon hamjamiyatlaridan o`ziga xos o`rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o`z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilish ahamiyatini baholashning hojati yo`qdir", - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov.

Xorijiy tillarga o`rgatish borasida juda ko'p xilma-xil tajriba, kuzatish va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo`lib, qanday usul va uslubdan foydalanilmasin, baribir u bilim oluvchilar bilan til amaliy ko'nikma va malakalarini mashq qilish va matn bilan ishlashga borib taqaladi. Amaliy mashq qilmay, matn ishlatmay turib so'z o`rgatish mumkin emas. Atrofda xorijiy til andozalari, namunalari ko`p uchramaydigan muhitda matndan tarjima usuli bilan xorijiy til asoslarini hosil qilib olish ham o`ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda xorijiy tilni o`rgatishning juda ko'p samarali va maqbul usullari mavjud bo'lib, ular orasida og`zaki nutqni rivojlantirish, uning mazmunini boyitish va o`stirishga qaratilgan xilma-xil sohalarni qamrab oladigan matnlar tizimining tipologik ahamiyati kattadir. Zamonaviy til o`rgatish usullarida ona tilidan foydalanish u yoki bu darajada olib boriladi.

Mustaqil respublikamizda ilm-fan, texnika, madaniyat, maorif va boshqa sohalarni yanada yuksaltirish uchun e'tibor borgan sari kuchayayotganini har qadamda sezish mumkin.

Fan sohalari qatori o'zbek tilshunosligi ham rivojlanishning istiqbolli yo'liga chiqib oldi. O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi esa milliy tilimizning yuksalishida, iste'mol doirasining kengayishida muhim

ahamiyatga ega bo'ldi. Xorijiy til materiallarini ona tiliga, ona tili materiallarini esa xorijiy tilga tarjima qilish jarayonida tafakkur qobiliyati o'sadi, bir oyatning o'zida aql, tafakkur, hayol, xotira va so`z, bilish qobiliyati rivojlantiriladi, chunki aytilgan fikrni chuqur tushunishgina emas, balki o'sha fikrni o'z ona tilida mukammal va to'g'ri ifodalay bilish ko'nikmalari ham talab etiladi. Xorijiy tilda gapirishda ikki tomonlama qiyinchilikka duch keladi: u nima deyishini ham, o'sha fikrning qanday ifodalanishini ham o'ylashi kerak bo'ladi. Amaliy tarjima matnlarini izchillik bilan muntazam o'rganib borish esa ayniqsa til o'rganishning boshlang'ich bosqichlarida xorijiy nutqning avtomatlashuviga olib keladi. Bunday amaliy matnlarni o'rganish jarayonida til o'rganuvchining aqliy va tafakkur qobiliyati ham o'sadi, rivojlanadi.

MUHAMMAD YUSUF-BETAKROR IJODKOR

Yakubbayeva Zebiniso Abdulboqiyevna,
Namangan viloyati, Namangan tumani,
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
tel: 93 403 89 60

Annotatsiya
Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she'rlari soddaligi, samimiyligi, xalqning ruhiga yaqin bo'lganligi uchun ham kitobxonning ko'ngil xazinasiga aylanganligi haqida fikrlar keltirilgan.
Kalit so'zlar: shoir, betakror, sodda, samimiy, she'rlar, ijodkor, ijod, asarlari

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf hayot bo'lganida 66 yoshni qarshilagan bo'lar edi. O'zbek xalqining sevimli farzandi, otashqalb shoir Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumani Qovunchi qishlog'ida tug'ilgan. 1971-yili o'rta maktabni tugatgach, Respublika rus tili va adabiyoti institutida tahsil oladi. Ijodiy faoliyati 1980-yildan boshlangan. Muhammad Yusuf turli nashriyot va tahririyatlarda, turli lavozimlarda faoliyat yuritgan. 1997-yildan umrining so'nggi kunlariga qadar esa O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'rinbosari lavozimida ishlagan. Muhammad Yusufning dastlabki she'rlari "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida 1976-yilda e'lon qilingan. Shundan so'ng "Tanish teraklar", "Bulbulga bir gapim bor", "Iltijo", "Uyqudagi qiz", "Halima enam allalari", "Erka kiyik", "Saylanma" kabi juda ko'plab she'riy to'plamlari nashr etildi. 1989-yilda "Uyqudagi qiz" she'riy to'plami uchun unga Respublika Yoshlar mukofoti berildi.

O'zbekiston Xalq shoiri, Muhammad Yusuf betakror she'rlari bilan yurtdoshlarimiz qalbidan chuqur joy olgan ijodkor edi. El-yurt muhabbati, hurmatiga sazovor bo'lish har bir ijodkorga ham nasib etavermaydi. Muhammad Yusuf adabiyotimizning ana shunday ehtirom va e'tirofga erisha olgan zabardast vakillaridan biridir. Muhammad Yusuf xalq dardini oddiy va ravon tilda kuyladi, vatanparvarlik, go'zallik, muhabbat va sadoqatni o'zigagina xos betakror usulda tarannum etdi. Shoir bugun oramizda bo'lmasada, xalqimiz o'zining ardoqli farzandini aslo unutgani yo'q. Uning nomi, ijodi tillarda doston, asarlari minglab qalblarga quvonch, samimiyat, go'zallik ulashmoqda, she'rlari asosida yaratilgan qo'shiqlar hamon sevib tinglanmoqda.

Vatan
Men dunyoni nima qildim,
O'zing yorug' jahonim,
O'zim xoqon,
O'zim sulton,
Sen taxti Sulaymonim,
Yolg'izim,Yagonam deymi,
Topingan koshonam deymi,
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan, Vatanim…(Muhammad Yusuf)

U rostgo'y shoir, halol va pokiza qalb egasi. U muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo'shiq to'qiydimi yoki tariximiz va taqdirimiz sahifalarini qalamga oladimi, ularda hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi. Muhammad Yusuf o'zining ko'plab she'rlarida muhtarama onajonlarni, go'zal opa-singillarni, lobar qizlarni madh etib, ularga bag'ishlab go'zal she'rlar yaratgan. "Kimda g'am ko'p bo'lsa - u mening onam", deydi u yana bir she'rida. Shoir onasini Vatanni suygandayin, Vatanini esa onasini suygan yanglig' yaxlit va beminnat mehrini berib kamol topdi. She'ri ham, so'zi ham shu mehr barobarida, yurtning bo'yu bastiga qarab voyaga yetdi. Uning muhabbatini onaga alohida, Vatanga alohida ayro-ayro holda tasavvur qilish qiyin. U o'z diyorini, ona tuprog'ini bir farzand suyganchalik suydi, bir farzand yanglig' ko'nglini ufqlarday keng ochib tarannum etdi. Uning dardi nurli, shu bois armonli satrlaridan ham ko'nglingiz yorishib ketadi. Shuning uchun bu she'rlar kishiga dard ustiga dard yuklamaydi, aksincha ruh bag'ishlaydi, ko'ngilni ko'taradi. She'rlari qo'shiqday o'z ohangi, musiqasi bilan tug'ilgani uchun ham darhol xalq suygan, odamlarning ko'nglidan tez joy olgan mashhur ashulalarga aylanib ketdi. Vatanparvarlik oiladan, oilaviy muhitdagi tarbiyadan boshlanadi.

Shoir Muhammad Yusuf o'z oilasini bo'lakcha mehr bilan sevuvchi, oilaparvar, bolaparvar inson edi. Buni volidai muhtaramasi, uka-singillari, umr yo'ldoshi va qizlariga bag'ishlangan jigarlik, dilbandlik va otalik mehr-muhabbati barq urib ufurib turgan "Onam yig'lar", "Fotima", "Madina", "Uzr", "Rafiqamga", "Ey, jufti halolim", "Lolaqizqaldoq" singari ko'plab she'rlarining hozir ham keng kitobxonlar tilida mehr

bilar aytilib, o'qilayotganidan ham bilsa bo'ladi. Uning she'rlari ravon va soddaligi bilan xalq og'zaki ijodiga hamohangdir. Muhammad Yusuf adabiyotimiz va xalqimizga qilgan fidoyi xizmatlari uchun "Do'stlik" ordeniga, "O'zbekiston xalq shoiri" faxriy unvoniga sazovor bo'lgan. Muhammad Yusuf 2001-yil 30-iyulda vafot etgan.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusuf she'riyati o'zbek adabiyoti uchun o'ziga xos takrorlanmas hodisadir. Muhammad Yusuf halqning qalbidan chuqur joy oldi. Shu ma'noda shoir Muhammad Yusufning nomi biz muxlislarning qalbida mangu yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirkomilov B. Muhammad Yusuf Vatan haqidagi she'rlari ustida ishlashda kompyuterdan foydalanish. Til va adabiyot ta'limi jurnali. 2007, 1- son

2.Yusuf. M. Ulug'imsan Vatanim.Toshkent.O'zbekiston.2010, 206 bet

3.Sharafiddinov O., Muhammad Yusuf. Saylanma. T., 2007.

IN ENGLISH LESSONS, IN DEBATES AND COMMUNICATION, THERE IS A LESSON ABOUT DENTAL METHODS AND TECHNIQUES OF THEIR APPLICATION

Yakubov Anvar Rajabbaevich
An English teacher school number 42 Kharezm region
Shavat district Uzbekistan
Anvarkhorezm2020@mail.ru

Annotation: In this article, we will discuss the formation of speech skills and abilities and ways to overcome the difficulties that students face when learning the skill of speaking in English classes. Also, we consider ways to develop speaking skills for students of philological direction through the method of "Discussion".
Keywords: study of English, communication, language knowledge, discussion

Today, due to the development of information technologies and science in Uzbekistan, much attention is paid to the study of foreign languages. In the sphere of foreign language teaching reform, the first President of the Republic of Uzbekistan adopted resolution PC-1875 of December 10, 2012 "on measures to further improve the system of foreign language learning", which demonstrates the importance of foreign language learning in our country. The study of English as a language for international negotiations and cooperation and a means for free use of the achievements of civilization is particularly highlighted. As a result of the large-scale reforms carried out at all stages of English language teaching, from pre-school to postgraduate education, the criteria for knowledge, training, and assessment were established taking into account national characteristics and the CEFR system was introduced. In this regard, we have made the transition to new educational standards, created new textbooks and training programs that meet modern requirements. Thus, for higher education bachelor's degree in Philology, taking into account national characteristics, the degree of preparation and knowledge of the English language must reach the level of B2+ in the first year. To achieve this mark, universities are working hard to improve methods and methods of teaching English. As practice and personal experience of teaching shows, the existing problems in teaching speaking are one of the main reasons that make it difficult to communicate in English. In this regard, the study of the causes of difficulties and ways to overcome them in teaching the skill of speaking English is relevant.

As many researchers have noted, the speaking skill is one of the main components in teaching English, which is considered a productive type of speech activity, through which oral verbal communication is carried out [3]. The purpose of teaching speaking is to develop students ' communicative skills such as: ? understanding of a foreign language utterance in accordance with a specific communication situation, speech task or communicative intention;-implementation of speech behaviors taking into account the understanding of national and cultural characteristics of the English language. To implement the above skills, classes in English should be aimed not only at mastering phonetics, grammar, vocabulary, stylistics and other aspects of the language, but also at forming language skills and developing speech skills. In this regard, E. V. Passov notes that all exercises in foreign language lessons should be speech-based to some extent [6]. Therefore, classes should be based not only on the theory of language knowledge, but also should be modeled in the context of speech practice, contributing to the development and development of speech skills. But as practice shows, in teaching the skill of speaking, University teachers face some difficulties, since speaking is interpreted as a complex integrated skill. As penny Ur notes, there are four main types of difficulties in learning to speak English [1, p. 121]:

- Psychological discomfort. Students, as a rule, because of the fear of making mistakes and criticism from the teacher, are shy to speak English, because speaking, unlike other speech skills, requires freedom and courage in front of the audience. "Nothing to say." Sometimes students have a problem-lack of thoughts, they can not concentrate and Express themselves in English. ? Use of the native language. Students sometimes resort to using their native language, due to the lack of sufficient vocabulary and an unnatural environment in communication.- Unequal level of student participation.Some students speakwell enough and prevail in the group, for some, it takes a long time to be heard and they say very little or nothing at all. Therefore, working in large groups makes it difficult to learn how to speak. In addition to the above difficulties in learning to speak, there are also motivational problems: students do not understand the speech task, they are not involved in a collective discussion of the lesson topic, they are not interested in learning English,

they do not maintain the required amount of communication time in English.

The purpose of using the method of discussion in English lessons is to enable the use of language / speech knowledge and skills in practice, as well as the formation of the ability to think clearly, critically perceive information, highlight the main idea in it and find the means and arguments to confirm and justify it. Many methodologists note that the method of "discussion" is able to activate the speech-thinking activity of students, which contributes to the development of speaking skills and the ability to think in English. Therefore, students must not only be fluent in the language as a means of communication, but also be able to think in the language being taught. In the process of communication, they must interact directly with each other. In this regard, the use of the "discussion" method is important and necessary. The introduction of this technique at the initial stage of higher education will help to improve speaking skills and develop communicative competence, since in the first year students have different levels of training, motivation and abilities. According to some researchers, the use of discussion during classes contributes to the effective creation of natural motivation of speech act in students, thereby stimulating them to creative expression, leads to an organic fusion of teaching conversational topics and the development of untrained speech.

Literatures:

1. Gordienko N. P., Kuznetsova E. P. Using discussion as a method of forming communication skills at the senior stage of foreign language training in secondary school / / Young scientist. - 2015. - № 8. - P. 1112-1114.
2. Gurvich P. B. On the specifics of teaching foreign languages as a science//Foreign languages at school. Golden pages, Moscow, 2013, Pp. 3-9.
3. Zaretskaya E. N. Rhetoric: Theory and practice of speech communication. - 4th ed. - Moscow: Delo, 2002. - 480 p.
4. Morozova I. G. Use of discussion in foreign language classes in the framework of problem-based learning in the training of modern specialists // Foreign language. Theory and practice, 2010, no. 1, pp. 25-35.

МУҲАММАД АЛИНИНГ "ЖАҲОНГИР МИРЗО" ТАРИХИЙ ТЕТРАЛАОГИЯСИДА ХАРАКТЕР ЯРАТИШ МАҲОРАТИ

Яхшиева Зебо Рашидовна
Хамидова Эъзоза Обиджоновна
Қарши Давлат унверситети тадқиқотчиси
Телефон: +998(97) 756 81 15
Zebona.sevinch@gmail.com

Аннотация:
Мақолада Муҳаммад Али қалимига мансуб "Улуғ салтанат" тарихий эпопеясининг "Жаҳонгир Мирзо" биринчи китобида характер яратиш маҳорати, тарихий ҳақиқатни бадиий ҳақиқатга айлантириш манераси хусусида сўз юритилади. Яъни тарихий эпопеяда ҳар иккала ошиқ-маъшуқнинг чуқур изтироблари, кечинмалари, илк танишув саҳнасигача бўлган даврдаги интилишларининг сюжетда рўй бериш вақти тадқиқ этилди. Тарихий ҳақиқат шундан иборатки,унда ёзувчи бадиий нияти билан уйғунлашиб, ҳаётий воқеликни юзага чиқишига замин ҳозирлайди. Бу жараён ёзувчидан муракаб ва заҳматталаб изланишни тақозо этади.
Таянч сўзлар: характер, концепция, психологизм, образ, шахс, қаҳрамон, рамз, киритма ҳикоя, сюжет, ғоя, бадиий тил.

МАСТЕРСТВО МУХАММЕДА АЛИ ПО СОЗДАНИЮ ХАРАКТЕРА В ИСТОРИИ "ДЖАХОНГИР МИРЗО"

Яхшиева Зебо Рашидовна
Хамидова Эъзоза Обиджоновна
Исследователь Каршинского
Государственного Университета
Телефон: +998(97) 756 81 15
Zebona.sevinch@gmail.com

Аннотация:
В первой книге" Джахонгир Мирзо "исторической эпопеи" улугсалтанат", принадлежащей Мухаммеду Али Калиме, упоминается мастерство создания персонажей, мания превращения исторической правды в художественную реальность. То есть в исторической эпопее изучалось время глубоких страданий, переживаний обоих влюбленных, время их стремлений в сюжете От момента первого знакомства до выхода на сцену. Историческая правда - это выражение, в котором писатель, в согласии со своим художественным замыслом, закладывает основу для возникновения жизненной реальности. Этот процесс требует консультации и напряженной работы со стороны писателя.
Ключевые слова: персонаж, концепт, психология, образ, личность, герой, символ, вводная история, сюжет, идея, художественный язык.

MUHAMMAD ALI'S SKILL AT CREATING CHARACTER IN HISTORY "JAHONGIR MIRZO"

Yayshieva Zebo Rashidovna
Xamidova E'zoza Obidjonovan
The Researcher Karshi state University
Phone: +998(97) 756 81 15
Zebona.sevinch@gmail.com
Abstract:
The first book" Jahongir Mirzo "of the historical epic" ulugsaltanat", which belongs to Muhammad Ali Kalima, mentions the skill of creating characters, the mania for turning historical truth into artistic reality. That is, the historical epic studied the time of deep suffering, the experiences of both lovers, the time of their aspirations in the story From the moment of first acquaintance to the stage. Historical truth is an expression in which a writer, in accordance with his artistic intent, lays the Foundation for the emergence of life's reality. This process requires consultation and hard work on the part of the writer.
Keywords: character, concept, psychology, image, personality, hero, symbol, introductory story, plot, idea,

artistic language.

Кириш: Бадиий асар турли хил деталь, унсурлардан ташкил топади. Жумладан, романий тафаккурнинг салмоғи ортгани сайин уни ифода қилиш йўсинлари ҳам турфалашади. Бадиий асарда характер яратиш азал-азалдан халқ оғзаки ижодида кўплаб шакллари учрайди. У бир вақтнинг ўзида қаҳрамон руҳий ҳолатини, сюжет линияларини бир-бирига пайвандлашда жуда қўл келади. Айниқса, соф бадиий асарда характер яратиш ёзувчи ижодий концепциясини юзага чиқарувчи омиллардан бири саналади. Унда воқелик орасида асар ғоясини ифодалашда бадиий талқинни жозибадор тарзда намоён бўлишида муҳим ўрин тутиши табиийдир. Тарихий асарда хоҳ у подшоҳ, хоҳ у саркарда, хоҳ у оддий персонаж бўлсин характер ва шароит тақозоси натижасида муайян ўзгаришларда рўй бериш ҳоллари кўплаб учрайди.

Асосий қисм: Таниқли ёзувчи Муҳаммад Алининг "Жаҳонгир Мирзо" тарихий тетралогиянинг биринчи китобидир. У тўрт китобдан иборат "Улуғ салтанат" деган мукаммал тарихий тетралогияни ўзида жамлайди. Бу тарихий тетралогия Амир Темур ва темурийлар даври ҳукмронлигининг ўзига хос жиҳатларини, ота ва фарзанд ўртасида кечган муносабатлар йиғиндиси, давлат бошқаруви, ватанпарварлик, олижаноблик каби инсоний фазилатлар билан бир қаторда тожу тахт учун кураш, муҳаббат ва нафрат, руҳий изтироблар бадиий талқини ёрқин тасвирларда намоён бўлган.

Характер бадиий асарда кенг ва тор маънода қўлланилади. Кенг маънода асарда иштирок этувчи жами персонажлар тушунилса, тор маънода битта индивид шахснинг ижтимоий-психологик ҳолатининг зуҳур этилиши англашилади. "Инсонни маълум бир ҳаётий, ижтимоий, тарихий ва бошқа шароитларда тасвирлаш барча ижодий методлар учун умумий қонундир. Бироқ қаҳрамон характерининг ҳар бир қиррасини ҳаётнинг объектив шароитларига мослаштириб шу йўсинда далиллаб тасвирлаш фақат реалистик адабиётга хос бўлган ҳодисадир"1. Бинобарин, характер, инсон ва шахс учлиги ўртасида муайян даражада тафовут мавжуд. Бу ҳолат тарихий воқеликни қайта идрок этишда бадиий тўқиманинг қай даражада мукаммалигига, ишонарлигига, ҳаётий ҳақиқатга қанчалик яқинлигига бориб туташади. Бадиий асардаги характер (инсон феномени) муайян ижтимоий муносабатлар йиғиндисини ўзида ташувчанлик хусусияти билан диққатга сазовордир. Негаки, мавжудлик сир-асрорларини билишга қизиққан китобхон тасаввурида характер (инсон) феномени мудоми мукаммал, олижаноб, идеал, бенуқсон аҳамият касб этиши билан азал-азалдан чуқур мушоҳада юритишга сабаб бўлиб келган.

Тарихий эпопеянинг биринчи жузвида таъкидланганидек, ёзувчи воқеликка тайёр ҳолатда характерларни намойиш қилиш билан биргаликда улардаги жиддий нуқсонларни ҳам очиқ, шаффоф тасвирлаш йўлидан боради. Бир қарашда Амир Темур ўғиллари қалбида уйғонган инсоний фазилатлар билан уларда намоён бўлган қусур ҳамда камчиликларни ҳам танқидий руҳда тасвирлашга алоҳида диққат қаратади. Бадиий воқеликда қабариб кўринган ҳар қандай образ, тип, характер ўз миссиясига юклатилган вазифани тўлақонли бажаришга йўналтирилади. Тарихий эпопеядаги давр нуқтаи назаридан баҳоланаётган характерлар йиғиндиси айрим ҳолларда эпизодик образларда мукаммал даражада очиб берилмаган. Бироқ шундай бўлса-да, бадиийлик қонун-қоидалари негизида ёзувчи тарихий ҳақиқатни қайта тиклашга маълум маънода эришишга ҳаракат қилган. Асарда Жаҳонгир Мирзо ва Хонзода хоним характерига алоҳида аҳамият қаратадики, ёзувчи бу икки ошиқни худди муҳаббат достонларида кузатиладиган ўта таъсирли, сирли-сеҳрли тасвирларга ўхшатма тарзида инкишоф қилган. Буни қуйидаги лавҳада ҳам кўришимиз мумкин:

"Жаҳонгир Мирзо табиатан юмшоқ кўнгил ва хаёлпараст бўлиб ўсди. Ширин хаёлларни ёқтирар, агар хаёллар бир оғушига тортиб кетса, дунёнинг у бошидан кириб бу бошидан чиқарди. Энди ўн беш ёшга қадам қўяётган эса-да, тутумининг босиқ, ўзининг салобатлилигидан катта йигитларга менгзарди, бунга дуркун, бўйчанлиги ҳам сабабчи эди, албатта. "Бўларининг боласи ўн беш ёшда бош бўлар, бўламасининг боласи йигирма бешида ёш бўлар", мақоли айни ўн беш ёшли Жаҳонгир Мирзо шаънига айтилгандек эди. Шунинг учун Темурбек сафарга, жангларга кетар экан, ҳар доим хотиржам подшо уғруқини2 Жаҳонгир Мирзога топширади ва бундан кўнгли тўқ бўлади3.

Келтирилган парчада қаҳрамон Жаҳонгир Мирзо табиатидаги руҳий, ижтимоий, сиёсий ўсиш-ўзгаришлари, кучли ирода ва матонат соҳибига айланиб бориш жараёнини юксак муҳаббат билан қайта тиклашни мақсад қилганлиги ойдек равшан. Чунки асарнинг ҳар бири битта - универсал характерни намойиш қилишга (Амир Темур ўғлиларининг биттасини) алоҳида диққат қаратганлиги билан ажралиб туради. Унда ҳар бир асар концепциясида битта фарзанд ва унинг отага, онага, жамиятга, атроф-жавонибга бўлган муносабати, қатъий позицияси, мақсад муддаосини кўрсатишдан иборатлиги ёзувчи ижодий ниятининг баркамоллигидан шаҳодат беради. Мазкур лавҳада Жаҳонгир Мирзонинг "юмшоқ ва кўнгил ва хаёлпараст бўлиб ўсган"лиги ёзувчи ушбу биринчи китобда илгари

сурган романтик буёқдорликни юзага чиқишида муҳим омил бўла олади. Тарихий эпопеянинг тўққизинчи бобида Жаҳонгир Мирзо ва Хонзода хоним характерларини индивидуаллаштириш мақсад қилинганлиги билан таҳсинга сазовордир. Тўғри, бу ўринда баҳодирлик унвони билан тақдирланган Ахий Жаббор ҳам ўзига хос мавқе касб этади. Ҳар иккала пок ва гўзал ишқ соҳибларининг романтик саргузаштларига кенг йўл очган, бу ўринда истак ва хоҳиш, (Яратганнинг истаги), "тақдир шамоли"(Б.Карим) сирли-сеҳрли воқеаларнинг содир бўлишига кенг йўл очиб берилади.

Алоҳида таъкидлаш жоизки, Муҳаммад Али тарихий эпопеянинг биринчи китобида сюжет воқелигининг қизиқарли чиқиши учун романтик достонлардаги афсона ва ривоятларга қаҳрамон нутқи орқали очиб беришни мақсад қилганлигида кўринади. Яъни Жаҳонгир Мирзонинг чуқур романтик хаёларга мустаҳриқ бўлган пайтлардаги руҳий ҳолати - кўнгилда ниш ураётган пок ва шаффоф муҳаббатнинг валиаҳд ҳаётини бутунлай ўзгартириб юборганини мантиқий ургулайди. Натижада роман воқеалари лирик композицияни юзага келтиради. Аслида қаҳрамон деганда биз нимани тушунамиз? Тарихий қаҳрамон деганда-чи? Уни қандай идеал фазилатлари билан қаҳрамон деган мезон билан баҳолаймиз? Кашф қиламиз? Бу саволларга жавоб беришда қуйидаги иқтибос билан изоҳлашга ҳаракат қиламиз:

"Қаҳрамон - (грек.heros) қадимги жангчи (воин) бошқалардан ўзининг жасурлиги билан фарқланувчи, кучли, тажрибали ва оқил, келиб чиқиши жиҳатидан ўзида ярим илоҳийлик ва ярим инсонийлик сифатларини жамлаган, жамлаган, вафотидан сўнг хизматлари учун улуғланган шахсдир. Гомерга кўра қаҳрамон - бу подшоҳ"4дир. Тарихий асарларда кузатилганидек, қаҳрамон кучли, мард, жасур ва ҳар қандай вазиятда тўғри қарор қабул қила оладиган олижаноб шахс бўлиши керак. У идеаллик сари талпиган, бошқаларга қараганда инсоний фазилатлари билан ўрнак бўлишга арзигулик персонажга биз тўлақонли қаҳрамон дея оламиз. Тарихий эпопеянинг ушбу китобида келтирилган биринчи, иккинчи, учинчи даражали персонажлар системаси ҳақиқатдан ҳам муҳим ижтимоий-сиёсий иродани ўзида намоён қилган образлар галиреясидан иборат. Биргина Амир Темур сиёсий иродаси ва унинг оталик масъулияти сарои аҳлидаги энг муҳим ва қудратли шахслардан бири, роман ичкарисида кечаётган воқеликни мувозанатда ушлаб туришга бел боғлаган матонат соҳиби сифатида кўз ўнгимизда намоён бўлади.

Қаҳрамон ва характер тушунчаси тарихий асарда иккаласи ёнма-ён қўйиб қўлланиладиган муҳим категориялардан ҳисобланади. Дейлик, Жаҳонгир Мирзонинг ўтлиғ дилига "ғулу" солган, унинг тинч ва осайишта оромини ўғрилаган Хонзода хоним табиатидаги эврилишлар мудоми оқила ва меҳр-муҳаббатга муштоқ аёллар характерини ўзида жамлайди. Унга сингдирилган садоқат, меҳр-шафқат, сабр-тоқат, мулойимлик, ҳар қандай ишда ўта ҳушёрлик, сермулоҳазакорлик каби ўнлаб чин инсоний сифатлар асардаги уюшган бошқа бекаларга ҳар қанча ибрат олишга лойиқлигини исботлайди.

Юнон мутафаккири Аристотель шундай ёзади: "Характерларда ҳам воқеалар таркибида ҳам доимо зарур ёки эҳтимолликни излаш керак, яъни кимдир қаЙсидир гапни, ё ишни зарурият туфайли, ёки эҳтимол тутилганидай гапирсин, ё бажарсин ҳамда қандайдир воқеа бошқа воқеа туфайли зарурият тақозоси билан ёхуд эҳтимол тутилганидай содир бўлсин. Бинобарин, табиийки, ривоят ечими ҳам асар воқеаларининг ўзидан келиб чиқиши керак. "Медея" ва баъзи асарлардагидай ёхуд "Илиада" асаридаги қирғоқдан сузиб кетиш каби асар ечими машина ёрдамида ҳал қилинмасин"5. Ҳақиқатдан ҳам, Аристотель талқинича хоҳ у тарихийми, хоҳ у замонавийми, хоҳ у романтикми қандай йўсинда ифода қилинишидан қатъи назар бадиий воқелик руҳи сингдирилган концепция мезонларидан ташқаридаги унсурларни ҳал қилишга қодир эмас. Чунки бадиийлик қонунияти ҳар бир поэтик образда ўзининг ҳусни таровати билан бўй кўрсатиши синалган ҳақиқатдир. Айнан, тарихий ҳақиқатни қайта кашф қилишда, бадиий тўқималарни муайян бир даражаланишда тасвирлашда - эпик кўлам чегарасида бўлиши лозим. Масалан, ёзувчи асосий воқеликни тўхтатиб қўйиб, икки вафодорнинг қисматидан сўз очса, бир томондан ўқувчида матнни ҳиссий қабул қилиш кўникмасида чалкашлик рўй беради. Бу ўринда бобларнинг мантиқий бир-бирига пайвандланиши поэтик коммуникацияни ўзлаштириш даражасини ҳийла оширишга хизмат қилади. Демак, Муҳаммад Али танлаган ривоя (ҳикоя қилиш) усули тўғри танланган. Биринчидан, Жаҳонгир Мирзо табиатида кечаётган узил-кесил ўзгаришларни қайта идрок қилишга қаратилса, иккинчидан, Самарқанд ва Хоразм ўртасидаги (сюжет вақти) масофани бироз яқинлаштирган. Воқелик баёнида Жаҳонгир Мирзонинг кўрган туши, кечирган мусаффо хаёллари, ўйлари, изтироблари, тўлғонишлари тарихий эпопеянинг тўққизинчи бобида ўз аксини топган ва бу тасвирларда роман охиригача ритмик изчилликни сақлаб қолишда муҳим вазифадошликни юзага чиқарган:

"Хонзода хонимнинг довруғи юртлар оша Жаҳонгир Мирзога етиб келди. "Хоразм ҳукмдори хонадонида бир ожиза бор эмиш, фаришталар маликаси деса, муносибмиш. Ҳали бундай ҳусну

малоҳат эгаси Ер юзига қадам босмаган экан. Башар фарзанди демакка тил бормасмиш. Шаҳар айлангани чиқса, юзига етти қават парда тутармиш, бутун эл томошага ошиқармиш. Жамолидан йўллар ёришармиш, ўттиз икки қасаба"6 чироқ ёқмай иш қилармиш. Етти иқлимдан совчилар келармиш... Ахир Амир Ҳусайннинг ҳам келин қилмоқчи бўлиб совчи юборганини Жаҳонгир Мирзо ўз қулоғи билан эшитган-ку. Волидаи муҳтарамасининг ўзи қизнинг ҳуснидан лол, чеҳрасига тикилиб ўлтирармиш..."7

Мазкур парчада Хон қизи Хонзода (асл исми Севин бика) хоним ҳақидаги довруғи оламни тутган қувончли хабарни ўз шахсий ҳаётига муқояса қилиб кўрар экан, "хон қизига лойиқ бир йигит" каби ўзини янада бахт қаршисида тургандек ҳис этди. Ёзувчи шу қисқа эпизодик киритма воқеада Амир Темур ўғилларининг тарбияси билан оқила, ҳар қандай вазиятда кўнгил ишларини ҳам мушоҳада қилишга ўргатадиган бибиси Тегина Хотуннинг ҳам характер қирраларини маҳорат билан очиб беришга интилади. Тарихий эпопеада бадиий вақтнинг сиқиқ, муайян бир тафсилотнинг иккинчи бир лавҳага унчалик алоқаси бўлмаса-да, иккинчи, ёки учинчи боблардан кейин занжир каби бориб уланиши адабий талқиннинг барқарорлашувига замин ҳозирлай олган.

Тарихий эпопеяда кўзланган асосий бадиий ният Жаҳонгир Мирзо характери орқали Хонзода хоним, укалари Умаршайх Мирзо орқали Мироншоҳ Мирзо характерлари, ўзаро муносабатлари, ундан кейин Шоҳрух Мирзо орқали Гавҳаршод бегим характерлари алоҳида-алоҳида индивидуал хусусиятга эга эканлигини далолатлашдан иборат бўлибгина қолмай, Амир Темур ва унинг суюкли хотини Бибихоним тимсолида бутун оила ҳаётини кўрсатишдир. Шунингдек, биринчи китобдаги садоқатли дўст, хос баҳодир Ахий Жабборнинг маҳоратли саркарда эканлигини бот-бот тилга олинади ҳамда унинг олиб бораётган садоқатли ишлари натижаси замрида ифодалай олганлиги эътиборга моликдир.

Хулоса

Хулоса ўрнида шуни қайд этиш жоизки, Муҳаммад Алининг "Жаҳонгир Мирзо" тарихий эпопеясининг биринчи китобида илгари сурилган воқеалар ўқувчини ҳеч бир бефарқ қолдирмайди. Унда ҳар бир персонаж руҳиятига теран кириб бориш, уларни ич-ичидан ҳис қилиб тасвирлаш, бош қаҳрамон атрофида уюшган жами воқелар занжирини мантиқий тасвирлаш йўсини ўзига хос аҳамият касб этиши билан эътиборга лойиқ. Чунончи, тасвир экзистенциясида қабариб кўринган асосий омиллардан бири Жаҳонгир Мирзо ва Хонзода хоним руҳиятида роман экспозициясида келтирилган даъват, ишора, асосий мақсад муайян давр дунёқарашини ойдинлаштиришга хизмат қилади. Романда тасвир полифонияси билан қоришиб кетган руҳий таҳлил чегаралари янгича ифода имкониятларининг юзага келаётганини далолатлайди. Зеро, бадиий-фалсафий-ижтимоий-руҳий талқин бирикувида қаҳрамон ва характер моҳияти янада теранроқ очилишига замин ҳозирлайди.

АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА МАКТУБНИНГ ТАРИХИЙ ТАРАҚҚИЁТ СИЛСИЛАЛАРИДА РИВОЖЛАНИШ ИЛДИЗЛАРИ

Яхшиева Зебохон Рашидовна
ТАТУ Қарши филиали ўқитувчиси
Телефон: +998(97) 756 81 15
Zebona.sevinch@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада бадиий наср поэтик бутунлигини таъминлашга қаратилган мактуб жанрининг роли хусусида фикр юритилади. Муҳаммад Алининг "Улуғ салтанат" тетралогиясининг бадиий композициясида макутб жанри алоҳида ўрин эгаллайди. Бунда характер қирралари аниқланди. Мироншоҳ Мирзо табиатида содир бўлган шуҳратпарастлик касаллиги моҳиятига назар ташланди.

Калит сузлар: полифоник роман, туликлилик,лирика, эстетик яхлитлик, драматизм, жанр,хат,талкин,полифиник нутк.

КОРНИ ПИСЬМА В ИСТОРИЧЕСКОЙ СЕРИИ ПИСЬМА В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

Яхшиева Зебохон Рашидовна
Учительница Каршинского филиала ТАТУ
Телефон: +998(97) 756 81 15
Zebona.sevinch@gmail.com

Аннотация: В этой статье рассматривается роль жанра письма, направленного на обеспечение поэтической целостности художественного прозы. В художественной композиции "Великое царствование" Мохаммеда Али особое место занимает жанр письма. При этом были определены края персонажа. Мироншах Мирзо был посвящен сущности болезни славы, которая произошла в его природе.

Ключевые слова и фразы: полифонический роман, целостность, лиризм, эстетическая целостность, драматизм, жанр, письмо, интерпретация, полифонический дискурс.

ROOTS OF LETTERS IN THE HISTORICAL PROGRESS OF THE SOCIETY

Yakhshiyeva Zeboxon Rashidovna
Teacher of TUIT Karshi Branch
Phone: +998(97) 756 81 15
Zebona.sevinch@gmail.com

Annotation: This article discusses the role of the genre of writing aimed at ensuring the poetic integrity of fiction. In the artistic composition "The Great Reign" of Mohammed Ali, the writing genre occupies a special place. In this case, the edges of the character were determined. Mironshah Mirzo was dedicated to the essence of the disease of glory that occurred in his nature.

Key words and phrases: polyphonic novel, integrity, lyricism, aesthetic integrity, drama, genre, writing, interpretation, polyphonic discourse.

Маълумки, ҳар қандай ахборот узатиш ва қабул қилиш манбалари даставвал ёзма шаклда (қоғоз) тарзида узатилган. Унда қабул қилувчи ва юборувчи ўзига хос мақомни тайин қилган. Даставвал бу борада сўз юритганда, буюк Соҳибқирон салтанатида ҳарб юришлари, иқтисодий-маданий, маърифий-ижтимоий жабҳаларда - мулоқот шаклида намоён бўлган. Жумладан, Соҳибқирон Амир Темур ҳаётнинг энг чигал дамларида-ю, ҳарб юришларида мактубдан бениҳоя кенг ва хўп фойдалана олган. Бугунги куда эса ахборотлашган жамиятда бунинг ўрнини NANO технологиялар бажармоқда. Хўш, Соҳибқирон даврида мактуб марказлашган давлатни бошқаришнинг оптимистик дастурлашган моҳиятни илгари суришган бўлса, бугунги кунга келиб, рақмали иқтисодиётнинг ажралмас узвига айланди. Бадиий асарнинг сюжет ва композициясини мувофиқлаштирувчи ёрдамчи унсурлардан бири мактубдир. Мактуб энг қадимдан халқ оғзаки ижодида, фольклор асарларидан бошлаб намоён бўлган бадиий унсурлардан бири саналади. Тарихий-ижтимоий шароит тақозоси билан ёзма адабиётнинг турли жанрларида битилган асарларда ушбу жанр (ифода қилиш шакли) тадрижий

ривожланиш босқичларини босиб ўтди. Мактублар тарихий асарларда ўзига хос тарзда (вақт, замон, макон) намоён бўлишини ҳисобга олсак, масала моҳияти янада ойдинлашади. Истеъдодли ёзувчи Муҳаммад Алининг "Улуғ салтанат" асарида воқеалар тизмасини бир-бирига улашда, буюк Соҳибқирон дорулсалтанатининг мустаҳкам пойдеворини қад ростлашда мактубнинг роли беқиёс эканлигини унутмаслик лозим. Негаки, ёзувчи тарихий ҳақиқатни кайта ишларкан, унга поэтик жозиба бахш этиш мақсадида вазият ва шароит тақозоси ўлароқ мактубнинг турли хил усуслларидан унумли фойдаланади. Бу биринчи жиҳати. Иккинчи жиҳати шундан иборатки, мактуб эгаси қай мақсадда, қай йўсинда битишига қараб уни икки хил даражада ажратиб ўрганиш лозим. У характер (руҳий ҳолати) қирраларини, муаллифнинг ижтимоий аҳволи, муҳаббати, соғинчи, безовталиги, нима қилиш лозимлиги хусусида реал ахборот беришга мўлжалланганлиги билан алоҳида аҳамият касб этади. "Ижодкор эпик тур жанрларида мактуб жанридан фойдаланар экан, бунда "хат жанри орқали мурожаат қилишда муаллифнинг руҳий кечинмаларини чин қалбдан зўр куч билан изҳор қилиш имконияти туғилади. Шунинг учун ҳам баъзан ёзувчи эпик асарлар композициясини мактуб асосига қурса, баъзида эса асар таркибида қаҳрамонларнинг бир-бирига ёзишма мактубларини асарга илова қилади"1. Дарҳақиқат, Европа адабий ҳатида мактуб алоҳида жанр сифатида қадрлидир. Бизда бунинг шеърий, насрий йўсинда битилганларини ҳам учратиш мумкин.

Ёзувчи "Улуғ салтанат" тетралогиясида мактубнинг кўпроқ ижтимоий-сиёсийшаклига мурожаат қилган. Унда Соҳибқирон Амир Темурнинг юришлари, Самарқанд ва унда рўй бераётган ўзгаришлар, фарзанд тарбиясида Сароймулкхонимга маслаҳатлар, қилиниши лозим бўлган ишлар хусусида мулоҳазалар ёритилади. Тарихий фактларни саралаб, танлаб, бу хусусда бадиий бўёқдорлик билан жозибадор қилиб мактуб ёзиш ҳам бир санъатдир. Ёзувчи воқеликни баён қиларкан, худи ўзидек қилиб тасвирлаш маҳоратни талаб қилади. Адиб бунинг уддасидан ҳам чиқа олган. Тетралогиянинг учинчи китоби "Мироншоҳ Мирзо" деб номланган. Унда Амир Темурнинг Боязид Йилдирим билан кечган жангу жадаллари, Султон Барқуқнинг ҳимояга муҳтожлиги шундоқ акс эттирилган:

"Худосиз (жоним сизга омода, ҳазратим, узр, бу ерда шундоғ ёзилган) Темурлангга жавобимиз: Биз парвардигор иноятн бирлан ўзимизни дини ислом ҳомийси деб ҳисоблайдурмиз ва, хомтама бўлмасунларким, ёлгиз Оллоҳнинг расули Муҳаммад Мустафо саллаллоҳу алайҳи ва салам жанобларига ва амир ал-мўминин, яъни халифа зоти олийларига итоат айлайдурмиз! Ўзгаларга итоат айлайдурғонлар ҳали бизда туғилмаган… Яна шуни маълум қиламизки, усмонли султон шавкатли Боязид Йилдирим бизга мактуб йўллаб, агар Темурлангга қарши курашсак, ўз қўшинидан икки юз минг йеничарни беришга тайёр эканлигини билдирибдурлар… Султон Аҳмад жалойирни эса Бағдоддаги ноибимиз этиб тайин қилдук…"

- Бас деб юборди Амир Темур. Кейин ўйланганча қўшиб қўйди: - Ҳа, улар бизни билмайдурлар, аммо билганларида кеч бўладур…"2

Мазкур мактубнинг оқибати нималарга олиб келгани тарихдан маълум. Шу ўринда сюжетнинг қизиқарли бўлиши учун ҳамда воқеликнинг тадрижий баёнида ёзувчи бадиий нияти муҳим роль ўйнаган. Чунончи, адиб Соҳибқироннинг руҳий олами, ҳар бир ишда вазминлик билан иш тутиши, мамлакатни идора этишда "адолат тамойили" асосида ислоҳот юритишини ҳам мантиқий далолатлайди.

Тетралогиянинг энг кульминацион нуқталаридан бири айшу ишратга муккасидан кетиб, ўз отасига ғайрлик қилишни хушлаган Мироншоҳ Мирзонинг аҳвол-руҳиясини тасвирлар экан, унда бошланган хато-кечмишларни қуйидагича ифодалайди:

"Мироншоҳ Мирзо уч бор қарсак урди ва мулозимга, сарой муншийсини чақиришни буюрди.

Чаккон мулозим: "Мунший! Мунший жаноблари!" - дея югуриб кетди. Кўп ўтмай, аждодлари қачонлардир элхонийлар саройида котиблик вазифасини бажарган, сал елкаси чиқиб қолган, олтмиш ёшлардаги тийрак кўзли, калта соқолли муншиц кўринди.

- Биз Амир соҳибқиронга бир дуои Саломнома битдук… - деди Мироншоҳ Мирзо даврадагиларга, худи аҳамиятсиз нарса ҳақида гапираётгандек хотиржам оҳангда. - Мунший жаноблари, ўқусунлар!"3.

Тетралогиянинг ушбу тасвирларида айшу ишрат орқасида ота ҳакидаги бундай тафсилотларга йўғирилган мактубида атрофидаги мулозим ва аёнларининг ҳам таъсири борлиги маълум. Бироқ у ўз табиатидаги бундай хунрезликнинг жуда тез суратда зоҳир бўлишини ҳам билмай қолади. Хоразм маликаси Хонзода хонимнинг улуғ отаси Амир Темурга нисбатан қилинаётган туҳмату адоватлари дея баҳолайди.

Ж.Эшонқул кайд этишича: "Инсон руҳияти жуда кенг олам бўлиб, ундаги ҳиссиёт ва туйғулар икки хил шаклда ўзини намоён этади: биринчиси англанган, маълум мантиққа бўйсунган, иккинчиси, онг ости ҳислари, онгга қалқиб чиқмаган, лекин инсон руҳиятида доимо мавжуд, ташқи дунё билан тинимсиз алоқа қилиб турувчи ҳислар"4. Кўринадики, кўрагон Мироншоҳ Мирзонинг табиатида уйғонган онг ости ҳислари унга ўз отасига бўлган меҳру муҳаббатига соя солмоқда. Тожу тахт ҳирси,

бойлик, шон-шуҳрат, кибр унга онг остидаги англамсиз тасаввурларини намоён қилмоқда. Демак, шароит ва вазият тақозоси натижасида юзага келган конфликт отав а ўғил муносабатига рахна солмоқда. У ўз "мен"ини намойиш қилиш замирида шон-шуҳратга мойил хислатларини ҳам ифодалаб бормоқда.

Тетралогияда мактуб поэтик бутунликни таъмиловчи унсур (усул)лардан бири бўлиб, ёзувчи сюжет воқеаларини тезлаштириш, характерларни ёрқинроқ тарзда ифодалаш, шунингдек, кейинги тафсилотлар (замон ва макон)га ҳам ойдинлик киритиб боради. Бир томондан, адиб асар қаҳрамонларидаги руҳий ўзгаришлар, дорулсалтанатнинг мустаҳкам пойдевори ота тақдирининг бехотиржамлиги, она қалбидаги ҳиссий-шуурий ачинишлар, диний уламоларнинг нимадандир хавотирларини маҳорат билан тўлдиришга ҳаракат қилган.

Хулоса:

Ахборотлашган жамиятнинг ривожланишида хат, мактуб ҳаётнинг илғор суратларда ривожланишига кенг йўл очиб беради. Шунингдек, асардаги мактублар тарихий воқеликни реал воқеликка янада ишонарли тарзда айлантира олишда ўзига хос ифода шаклин танлай олган. Демак, М.Алининг "Улуғ салтанат" тетралогиясида бадиий тўқима шаклида ҳам намоён бўлган мактуб жанри тарихий воқеаларни бугунги кун учун муҳимлигини, давр муммоларини янада теран англашда қулай имкон эканлигини тўлақонли далолатлайди. Зеро, улуғ салтанат соҳиби Амир Темурдек донишманд инсон характерини янада теран идрок этишда мактуб жанри алоҳида аҳамият касб этади.

Ishlatilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhammad Ali. Jahongir Mirzo. Tetralogiya. -T., Navro'z., 2019, -B.87-88
2. Batirova Sh. Ulug'bek Hamdam romanlarida badiiy psixologiya.Falsafa fanlari doktori dissertatsiyasining tabiiy fanlar sohasidagi dissertatsiyasi.-Qarshi, 2019 yil.
3. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. G. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2015.-B.205.
4. Muhammad Ali. Jahongir Mirzo tetralogiyasi. -T., Navro'z. 2019 yil. B.87-88
5. E. Gumanistik psixoanalizdan. Sankt-Peterburg: Peter, 2002. 32-son

Заключение:

Письма в работе выбрали свою собственную форму выражения, чтобы сделать историческую реальность более надежной. Таким образом, жанр послания М. Али в тетралогии "Великое царствование" в форме художественной текстуры наглядно демонстрирует важность исторических событий для современности и возможность более глубокого понимания проблем современности. В конце концов, жанр письма играет важную роль в более глубоком понимании характера такого мудрого человека, как Амир Темур.

Список использованной литературы:

1. Мухаммед Али. Джахонгир Мирзо. Тетралогия. -Т., Навруз.2019 год, -Б.87-88
2. Батырова Ш. Художественная психология в романах Улугбека хамдама.Диссертация доктора философских наук в области естественных наук.-Карши.2019.Б.106
3. Журакулов У. Вопросы теоретической поэтики. Издательство литературы и искусства имени Г.Гуляма.2015.-Б.205.
4. Мухаммед Али. Джахонгир Мирзо.Тетралогия. -Т., Навруз. 2019 год,. Б.87-88
5. Фром Э. Гуманистический психоанализ. Спб.: Питер, 2002.С.32

Conclusion:

The letters in the work chose their own form of expression to make historical reality more reliable. Thus, the genre of the message of M. Ali in the tetralogy "The Great Reign" in the form of artistic texture clearly demonstrates the importance of historical events for the present and the possibility of a deeper understanding of the problems of the present. After all, the genre of writing plays an important role in a deeper understanding of the character of such a wise person as Amir Temur.

List of used literature:

1. Muhammad Ali. Jahongir Mirzo. Tetralogy. -T., Navruz. 2019, -B.87-88
2. Batyrova Sh. Art psychology in the novels of Ulugbek Hamdam. The dissertation of the doctor of philosophical sciences in the field of natural sciences.-Karshi. 2019.
3. Zhurakulov U. Questions of theoretical poetics. G. Gulyam Publishing House of Literature and Art.

2015.-B.205.
4. Muhammad Ali. Jahongir Mirzo Tetralogy. -T., Navruz. 2019 year. B.87-88
5. From E. Humanistic psychoanalysis. St. Petersburg: Peter, 2002.S. 32

ТЕТРАЛОГИЯДА ТАРИХИЙ ҲАҚИҚАТ ВА БАДИИЙ ТЎҚИМА

Яхшиева Зебо Рашидовна
Хамидова Эъзоза Обиджоновна
Қарши Давлат унверситети тадқиқотчиси
Телефон: +998(97) 756 81 15
Zebona.sevinch@gmail.com

Аннотация:
Маълумки, тарихий ҳақиқатни бадиий ҳақиқатга айлантириш учун ёзувчидан жуда кўплаб ижодий изланишларни, матонатни, фактик материалларни синчиклаб ўрганишни тақозо қилади. Бу ҳақда сўз юритганда "...тарихий роман ижод қилишда бой материал йиғиш ҳам машаққатли меҳнат, лекин йиғилган материални саралаш, танлай билиш, чегаралаш, уни бадиий қайта ишлаш - катта санъатдир"1.
Калит сузлар: сюжет тамсили, онг оқими, роман-эпопеяси.

ИСТОРИЧЕСКАЯ ПРАВДА И ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ТЕКСТУРЫ В ТЕТРОЛОГИИ

Яхшиева Зебо Рашидовна
Хамидова Эъзоза Обиджоновна
Исследователь Каршинского
Государственного Университета
Телефон: +998(97) 756 81 15
Zebona.sevinch@gmail.com

Аннотация:
Известно, что для того, чтобы перевести историческую правду в художественную реальность, необходимо тщательно изучить у писателя множество творческих поисков, мужество, фактичесих материалов. Когда речь заходит об этом "...сбор богатого материала при создании исторического романа тоже кропотлив, но сортировка, отбор, ограничение собранного материала, его художественная обработка - это великое искусство "1
Ключевые слова: репрезентация сюжета, поток сознания, роман-эпопея.

HISTORICAL TRUTH AND ARTISTIC TEXTURE IN THEOLOGY

Yayshieva Zebo Rashidovna
Xamidova E'zoza Obidjonovan
The Researcher Karshi state University
Phone: +998(97) 756 81 15
Zebona.sevinch@gmail.com

Abstract:
It is known that in order to translate historical truth into artistic reality, it is necessary to carefully study the writer's many creative searches, courage, and factual materials. When it comes to this "...collecting rich material when creating a historical novel is also painstaking, but sorting, selecting, limiting the collected material, and processing it artistically is a great art. "1
Keywords: representation of the plot, stream of consciousness, novel-epic.

Кириш: Дарҳақиқат, узоқ йиллик ижодий изланишлари натижаси ўлароқ дунёга келган Муҳаммад Алининг "Улуғ салтанат" тетралогияси ана шу жараённинг типик намунаси саналади. Ёзувчи Темурийлар сулоласининг ўзига хос стратегик концепциясини, давр, муҳит, жамият ҳаётини, эволюцион ўсиш-ўзгаришларини фактик материаллари негизида қайта кашф қилиши мавжуд тасаввурларни кенгайтиришга, "роман шакли"ни идрок этишга йўл очади. Негаки, В.Г.Белинский таъбирича "Нима бўлганини айтиб бериш - бу ҳали тарих бўла олмайди"2.

Асосий қисм: Чунончи улуғ ва мутафаккир инсон ҳақида қалам тебратиш борасида ёзувчи олдида жуда катта масъулиятли вазифалар туради. "Улуғ салтанат" тетралогияси янги ўзбек адабиётида тарихий эпопеянинг ўзига хос шакли саналади. Асарни номлашда ҳам ёзувчи рамзий мушоҳадага

мурожаат қилади. Улуғ салатанатнинг муҳташам иморати сифатида бадиий концепцияга - тўртта фарзанд номи билан белгилашни олий мақсад сифатида қарайди. Демак, "улуғ сиймоларнинг фикрини кузатиш - жуда қизиқарли машғулот" (А.С.Пушкин) лигини ҳақли равишда эътироф қилади.

Тарихий ҳақиқатни юзага чиқаришда ёзувчи ўрганган фактик материаллар Амир Темур давридага муаррихлар қўлёзмаларидан тортиб, рисолаларигача муҳим омил бўлиб қўшилганлигини тушуниш қийин эмас. Романда қўлланилган давр муҳитига оид бадиий тафсилотларда ёзувчи ижодий ниятининг кўламдорлиги сезилиб туради. Бу борада академик Б.Назаров: "Ёзувчининг асосий мақсади улкан тарихий воқеалар, жанги жадаллар, салтанат қудрати-ю турли мамлакатлар забт этилишини кўрсатиш ээмас, уларни муайян маънода бадиий фонга ўтказиб, асосий эътибор шу фон моҳиятини ҳаракатга келтирган Инсон - Соҳибқирон, ҳамда унинг атрофидагиларни, узоқ-яқинда у билан муносабатда бўлган кишилар қалбини, уларнинг гоҳ шу кун, гоҳ ўтмиш, гоҳ келажакдаги ҳолатларини тасвирлашдан иборат бўлганини кўрсатади"3. Бинобарин, романда "сюжет тамсили" эпик кўламдорликни - компас (композиция вақти) билан ягона эстетик марказга йўналтирганлиги эътиборга лойиқ жиҳатлардан биридир. Роман-эпопеянинг илкинчи китоби "Жаҳонгир Мирзо" нашри қилинганига ўн тўққиз йил бўлган бўлса-да, асар бир неча тузатишлар билан икки-уч маротаба босмадан чиқди. Жараён шуни кўрсатмоқдаки, "бадиий тўқиманинг" ҳаётийлигини таъминлашга қаратилган воқелик хронологияси занжири эпик канонларни янгилашга қаратилди.

"Жаҳонгир Мирзо" роман-эпопеясидаги тарихий воқелик кетма-кет бўладиган жангу жадаллар ҳақидаги "огоҳ"ликни тарғиб қилишдан, салтанат муқимдорлигини сақлашда хушёрлик энг асосий юмуш эканини талқин қилишдан бошланган. Унда даврнинг муайян концептуал солномаси Жаҳонгир Мирзо сингари жаҳонгашта саркарданинг, оатсига меҳрибон, фазли одил ўғилнинг характерини теран чизишдан иборат бўлибгина қолмай, оиладаги муросани мувозанатда ушлай олиш қобилияти хусусида ҳам тўла-тўкис маълумот беради. Ёзувчи "Соҳибқирон фарзандлари" номли мақоласида Жаҳонгир Мирзонинг портретига шундай таъриф беради: "Амир Темурнинг тўнғич ўғли Жаҳонгир Мирзо" 1356 йилда туғилган, ўн-ўн-тўрт беш ёшлариданоқ саркарданинг ёнига кириб жангларда иштирок этган. Умуман, фарзандлар, ўғиллар ҳам, қизлар ҳам ҳарбий санъат сирларидан яхши хабардор бўлишган. Жаҳонгир Мирзо Амир Темурнинг Турмиш оқа деган хотинидан дунёга келган. Баъзан уни Нурмиш, Нурмушк оқа деб ёзишади, тўғриси, бизнингча, Турмиш оқа; оилада фарзандлар туравермагинадан кейин, янги туғилган чақалоққа умид билан "турди", "Турсун", "Турмиш" каби исмларни қўйиш одати халқимизда азалдан бор. Турмиш оқа соҳибқироннинг яқин сафдошларидан бири Амир Жоку барлоснинг дилбанди эди"4. Мазкур тарихий ҳақиқат ёзувчи наздида роман сюжетида ҳамда воқеликни бадииятга айлантиришда жуда қўл келган. Айнан ҳаётий материаллар Низомиддин шомий билан Али Яздийнинг асарларида учрайдиган маълумотларнинг ҳам ҳиссаси беқиёсдир.

Жаҳонгир Мирзо табиатан мард, довюрак, масъулиятли, Амир Темур ўзи комил ишонч билдирганидек, салтанат ишларини давомчиси сифатида улуғланган эди. Бу ҳақда баъзи тарихий манбаларда ҳам, жумладан Хондамирнинг "Ҳабиб ус-сияр" асаридаги "Насабнома" да ҳам аниқ маълумотлар келтирлади. Жаҳонгир Мирзо энди билаги кучга тўлиб, ҳаёт ҳақидаги тасаввурлари ўткирлашган, ота ва она ишончини оқлаш учун бел боғлаган йигирма ёшида оғир бетобликдан вафот этади. Бу жудолик Амир Темур қалбини жуда қаттиқ тирнайди. Ҳақиқатдан ҳам у ўз ўғлининг келини "Хонзода хоним"ни "қизидан ҳам қаттиқ ардоқларди". Бу ҳақиқатни бугун бадиий ҳақиқатга айлантирган роман-эпопеяга мурожаат қиламиз:

"Жаҳонгир Мирзо йўрғалай бошлаган отини секинлатди. У асли Хоразм, умуман турон тарихини яхши биларди. Амир Темур хонадонида фарзандларига билим бериш, ҳарбий маҳоратни ошириш тўғрисида ҳамиша қайғуриб келинарди. Қисиқ кўзлари доим кулиб турадиган, чиройли Соҳибқиронга мозийдан ҳикоялар сўйлаганда, Амир Темур болакай шаҳзодани ҳам ўлтириб тинглашга ундар, ўзи ҳар турли саволлар ёгдириб ташларди. Ана шу суҳбатларда шаҳзода хийла саводини оширган, ҳатто бир марта Бюук Турк хоқони Истамий ҳақида қайта-қайта саволлар бериб падари бузрукворини ҳам, қиссахонни ҳам ҳпйрон қолдирган. Хоразмшоҳлар Такаш, Маъмун, Муҳаммад Хоразмшоҳ, Султон Жалолиддин тақдирлари ҳам унга маълум. Аммо ҳозир у атай, Ахий Жаббор баҳодир гапларини Хоразм ҳақида биринчи марта эшитаётган ғофил бир одамдай берилиб тингларди"5.

Кўринадики, тарихий манбаларнинг шаҳодат беришича, Амир Темур ҳақидаги батафсил маълумотларда унинг комил фарзандлари ҳам тўлақонли очиб берилганлиги, инсоний сифатлари билан шаҳоншоҳлик фазилатлари ёритилганлиги ҳақиқатдир. Демак, Ёзувчи бадиий ғоя концепциясини ота-фарзанд муносабатлари тиғизлиги, ўзаро суҳбатларида ҳал қилинадиган қарорлар ижроси, дорулсалтанатдаги фзли-икром тамойили муайян даражада ҳаққоний ифодасини топганлигини тушуниш мумкин.

Дарвоқе, жамият ҳаётидаги узил-кесил ўзгаришлар концептуал ақидани намоён қилиш баробарида

Амир Темур салтанатидаги ҳарб юришлари қаторида оқила аёлларининг тарбиясини олаётган фарзандлар тийнатини ҳам аниқлашда муҳим аҳамият касб этади.

Мунаққид О.Голубев ёзишича: "Асар қаҳрамони - ёзувчи тасвирлаётган даврни қандай тушуниши ва тушунтиришнинг бош мезонидир. Сирасини айтганда, асар қаҳрамони образида мужассамлашган даврнинг ўзи тарихий романнинг қаҳрамонидир"6. Бу тамойил "Жаҳонгир Мирзо" роман-эпопеясида Жаҳонгирнинг характерида мужассамлашган турфа нодир фазилатлар ўша давр муҳитнини тўлалигича англашга, маълум даражада ҳис қилишга кенг йўл очади.

Ёзувчи М.Али тасвирда "онг оқими" тамойилини ҳам етакчи усул тарзида қўллайди. Яъни Жаҳонгир Мирзонинг бетоблиги, атроф-жавонибдаги унга бўлган муносабатлар, меҳрибон волидасининг меҳр-мурувватн, суюкли ёрининг муҳаббати тасвирларида ҳақиқий воқеликни кузатамиз. Ёзувчи тасвирни қуюқлаштириш баробарида тарихий воқеликни Амир Темур ислоҳотларининг тадрижий такомилини фарзандлар хатти-ҳаракатларида бардавом эканлигини далолатлашга ҳам эришади. Умуман, роман-эпопеяда тарихий ҳақиқатнинг поэтик талқини Жаҳонгир Мирзо шахсини индивидуаллаштиришга қаратилган қатор тафсилотларга тўлалигича намоён бўлган.

Хулоса:

Ўтмиш ва келажак ҳақида чуқур ўйлашга ундаган асар композициясида мудоми Амир Темур салтанатининг ҳар томонлама мустаҳкам қўрғони, бунёдкорлик ва ободлик борасидаги тизимли ишлари, шариат аҳкомлари наздида дунё халқларига ўрнак бўлгулик чин инсоний фазилатлари теран фалсафий-эстетик мушоҳадаларда ёритилган. Зеро, ҳақиқий тарих саҳнида рўй берган шиддатли воқеалар Соҳибқирон оиласидаги ҳамжиҳатликнинг юксак намунаси эканлигини эътибордан соқит қилиб бўлмайди. Чунончи давр манзараларини кенг эпик планда ёритган, батафсил тарихий воқеликни бадиий ҳақиқатга айлантира олган адиб ижодий кредоси мураккаб ва кўп қирралиги билан ажралиб туради.

Адабиётлар:

1. Каттабеков А. Тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат. Монография. -Т., " Фан". 1972. -Б 102.
2. Белинский В.Г. Сбор.соч. в. 3-х томах. Т. 2. М., 1948, С.288.
3. Назаров Б. Барҳаёт асар. "Жаҳонгир мирзо"
4. Муҳаммад Али. Ўз-ўзингни англаб ет. -Т., Шарқ. 2012. -Б.432.
5. Муҳаммад Али. Жаҳонгир Мирзо. -Т., Наврўз. 2019. -Б. 182.
6. Вопросы литературы. 1958. №1, С.84.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA QUYOSH SO'ZINING QO'LLANISHI

Yo'ldosheva Gulbahor Azimovna,
Navoiy viloyat Zaafshan shahar 13-umumta'lim maktab
ona tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy asarlarida quyosh so'zining qo'llanishi muhokama qilingan.

Alisher Navoiy asarlarida, xususan, "Xamsa"da ko'plab fazoviy jismlarning nomini uchratish mumkin. Masalan, Quyosh, Oy, Yulduz va boshqa turli sayyoralarning sinonimik qatorlarda hamda tasviriy ifodalar holida kelishi fikr emotsionnalligini oshirgan.Bu astronimlar ichida eng ko'p qo'llangani quyosh leksemasi bo'lib, birgina "Farhod va Shirin" dostonining o'zida ushbu so'z 150 ga yaqin o'rinda qo'llangan . Asarda quyosh so'zi olmosga o'xshaydi. Muallif unga turlicha sayqal bergan. Shu bilan birga bu "sayqallangan olmos" jumlalarga o'zgacha badiiylik kasb etadi.

Ushbu leksema dostonda quyidagi so'zlar orqali ifodalangan.

Quyosh.

Shafaqgun may sari chun qo'l uzotib,
Chu axsumlab Quyosh jomin ushotib .

Bu so'zning "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagi ma`nolari mavjud:

1.Quyosh sistemasiga oid markaziy jism-o'zidagi termoyadroviy reaksiyalar hisobiga yorug'lik va issiqlik tarqatuvchi (chiqaruvchi) ulkan gazsimon shar shaklidagi yoritqich.

2.Shu jismdan taraluvchi nur, issiqlik.

3.ko'chma Nimaningdir hayot, yashash manbai, asosi hisoblanadigan, shunday deb qaraladigan narsa haqida.

4.Quyosh (erkaklar ismi)

Xurshed (forscha)
Skandardek kirib zulmatga xurshed,
Tlism ichra yoshindi jomi jamshid. (XXIV bob, 100-bayt)

"Xurshed"(xurshid)-"kun,oftob,quyosh" ma`nolarini bildiradi .

Mehr (arabcha)

Bu erdi shug'liy to ul lahzakim mehr,
Yoshurdi burqai xoro aro chehr. (XV bob 106-bayt)

Mehr-2 xil ma'noga ega:

1.Muhabbat.

2.Oftob, quyosh .

Xur (forscha)

Bayt chu gardun rustami xur tig'in oldi,
Zamon oq devining bo'yniga soldi. (XXXIII bob, 113-bayt)

Xur so'zi "quyosh, oftob" ma`nosini bildiradi .

Shams (arabcha)

Agarchi shamsni oltun ko'rar his,
Vale chnun shindi ayrildi bo'lur mis. (IX bob, 103-bayt)

Ushbu leksema ham 2 xil ma'noda qo'llangan:

1.Quyosh, oftob-o'z ma'nosida.

2.Go'zal yor, mahbuba-ko'chma ma'noda .

Oftob (fors-tojikcha)

Vale yodig'a bu keldikim oy,
Demay oy, oftobi olam oroy. (XXXII bob 9-bayt)

Oftob so`zi hozirgi o'zbek adabiy tilida ham deyarli avvalgi ma'nosini yo'qotmagan. Bu so'zning "O'zbek tilining izohli lug'ati"da 4 ta ma`nosi berilgan:

1.Quyosh kun.

2.Quyosh tarqatayotgan nur: Quyosh harorati.

3.Quyosh nuri tushib turgan, quyosh isiyib turgan joy.

4.ko'chma Yorituvchi, yangilik kirituvchi,o'zgartiruvchi .

G'azola (arabcha)
G'azola demakim, zarrin g'azola,
Shafaqdin har yon atrofida lola. (LI bob, 4-bayt)
G'azola so'zining ma`nolari:

1. Ohu, kiyik.
2. Oftob.

Quyoshni ifodalovchi so'z birikmalari esa boshqa ijodkorlar asarlarida uchramaydi. Navoiy voqealar rivojiga bog'liq holda birikmalar qo'llaydi. Masalan, XXV bob shunday so'zlar bilan boshlanadi: "Farhodning Iskandar tilismin ochib, hoqon va Mulkaro bila Suqrot tog'ig'a azimat qilmog'i va ul tog'ning irtifo'da falakdin bosh o'tkarganidin sarguzashti aytmoq va tiyra g'orlarning har biri hijron tunidin savod ko'rguzganidin afsona demak...

Xulosa qilib aytganda, Navoiy o'ziga xos tasviriy ifodalar va so'z birikmalari bilan asarning emotsionalligini oshirgan. Ularning ayrimlari esa boshqa hech qayerda uchramaydi.

DEVELOPMENT OF SPEAKING SKILLS THROUGH THE USE OF ROLE-PLAYING GAMES IN ENGLISH LESSONS

Yodgoraliyeva Zilola Rahmonaliyevna,
an English teacher of Namangan region,
Chartak district, school № 43
E -pochta : zilolayodgoraliyeva@gmail.com/tel: +998 94 5906045

Annotation
This article is about development of speaking skills through the use of role-playing games in English lessons.
Keywords: speaking, through, role-playing games, English, dialogue

The methodological content of a modern foreign language lesson should be communicative. By teaching children a language, we teach them to communicate in that language. And this can only be taught in the context of communication, i.e. foreign language training should be organized in such a way that it is similar to the process of natural communication. Only in this case, it is possible to transfer the formed skills and abilities to real conditions. Of course, the learning process cannot be made completely similar to communication. A training conversation is a conditional conversation during which the real situation of communication is played and modelled. However, it is necessary to give educational communication the maximum similarity to live English speech, reflecting its natural colours, its flavour. One of the tools that help solve the problems of learning to communicate is a role-playing game. The role-playing game is a conditional reproduction of its participant's real practical activities of people, creates conditions for real communication. Roles within the role-playing game are inevitably artificial, conditional (imagine that you are a doctor, a salesman, etc.). the Effectiveness of training here is primarily due to an explosion of motivation, increased interest in the subject.

Role-playing games can be divided into two main groups:

- controlled role-playing game;
- free role-playing game.

For children, you can use role-playing games with pictures, audio or video materials. For example, you can ask students to choose their favourite toys from cards with images and name them. To fix spatial prepositions and another vocabulary, you can offer students role-playing games with cards.Participants should describe the route according to the scheme: find the way to famous attractions or other objects. You can ask students to tell you about their favourite places in the city and how to get to them. To train your speech skills at advanced stages of training, you can organize a discussion of discussion questions. During the game, participants will express their opinions, arguments and counterarguments.Story-based role-playing games in English language teaching are often used in courses on communication techniques. These programs are designed for maximum immersion in the situation of communication in a foreign language, so students ' speech skills are formed quickly.

Common characteristics of role-playing games are the following:

1 Role-playing games are usually implemented in oral speech, but can also be presented in writing (for example, via e-mail).

2 The role-playing game usually involves the use of role-playing cards, which give ageneral description of the plot and adescription of their roles.However, the use of these cards is not always mandatory.

3 Role-playing involves performing a role on behalf of a character, but students can also act on their behalf (sometimes this type of activity is called "simulation").

As a rule, role-playing games are held in the following modes: learner1? learner 2, learner-class, and learner-group.

Exercise to train students in the ability to respond to the proposed statements. They are designed to develop the ability to use cliched phrases equivalent to Uzbek "Ha", "You", " Sunday?", " Sunday emasmi?" etc. For example:

The volume has come to us. He is a good boy. He likes to eat jam, doesn't he?
You are right. He likes to eat jam.
Do you like to eat jam?
Yes, of course.

An example of a role-playing game is the game Activity 1. "Celebrity party". I put posters of famous

people on the Board and explain that they are at a party. Together with the students, we create a dialogue between these people, which is recorded on the blackboard.

- Hello. - Hi.
- My name is XX. What's your name?
- I'm XX. - Nice to meet you.
- Nice to meet you too. - Bye.

The dialogue is practised in the choir while paying attention to pronunciation and intonation. Students are allowed to practice pairs using proper names. Before the game starts, I explain to the students that they are at a party. Each of them is a famous person. Then a minute is given to choose who they will play and invitation cards and props are distributed.I explain that their taskis to get around the participants of the evening and get to know at least 6-7 of them. In this case, students should use the dialogue they worked out at the beginning, or expand it. Students should be allowed to move around the classroom. You can turn on the appropriate music for the situation. After the students finish, they sit down and have to say who they met. This game allowed me to organize the communication of students in the classroom from the first days of learning English and allow students to feel the language as a means of communication.

Activity 2. "What are the differences?". Goal: comprehensive training of question-and-answer interaction with the inclusion of elements of reasoning. Play: participants of the game are divided into pairs.One player gets a picture, the second-the same picture, but with some changes. When they ask each other questions, they must find the differences between the pictures and name them. It is forbidden to show images to each other.

Activity 3. "If I were... ".The Goal of the game: the formation of skills and abilities to use the subjunctive mood in foreign language speech and means of expressing modality based on the activation of speech-thinking activity. The course of the game: the teacher asks the players to imagine themselves as a famous movie actor, writer, etc. and tell them what they would look like, what they would do, etc.

Activity 4. " Verbs and adverbs". Goal: to activate grammar and vocabulary in oral speech.

Game progress: players form pairs. There are two piles of cards on the table. There are cards in one stack that contain verbs that indicate actions, and cards with adverbs that explain these actions in the other. One of the players takes a card with a verb, the second-with an adverb. Each pair of players must represent the action recorded on the cards in front of the group. Players must guess what action they represent, which verbs and adverbs illustrate, and name them in a foreign language.

Activity 5. "Who am I? ". The student imitates a character and talks about it. Students guess who he is.

Activity 6. "I can do everything!". The doll is a sign of the situation. An unfamiliar doll appears in front of the class. This creates an incentive for dialogue-questioning. A poorly dressed, the dishevelled doll is an incentive for a dialogue of will-expression: "Wash, dress, comb your hair!" A doll that boastfully declares: "I can do everything!" becomes an incentive for a combination of several types of dialogue.

Exercises for training students in making micro dialogues in pairs, within the framework of the proposed situation: Imagine, your friend has a birthday party today. What will you do?

Hello.

Hello, Lola. Happy birthday to you. Here is a present for you.

Thank you. What is it? Oh! It is a doll. It's very nice. I like to play with dolls.

Exercises for training expressions of a label character:

- Hello, Lola - Hello, Lobar
- How are you? - I'm fine, and you?
- I'm fine too. Thank you. - Good-bye, Lobar.
- Bye. - Bye.

In conclusion, we can say, role-playing games are actively used in teaching English. This is a technique with very good learning capabilities, so it is often used not only for children but also for adults. Using role-playing games in the classroom can improve the effectiveness of classes. Educational activities become more interesting and diverse, and the participants of the game actively interact with each other, which allows you to speed up the development of speech skills.

References:

1.Freeman, with S. Cornwell(eds.). New Ways in Teachers Education. Alexandria, VA: TESOL.

2.Tina Tao. 2003. How can I improve my students' motivation so they can improve their learning. AR report in GTC.

PSYCHOLOGICAL, DIDACTIC AND LINGUISTIC BASES OF TEACHING ENGLISH

1)Yuldasheva Umida Suvanovna. Navoi region, Navoi city,
Navoi professional mining college, English teacher
2) Umirzakov Jaxongir Abdunabiyevich. An
English teacher of the secondary school #3 in Karasuv town,
Kurgantepa district , Andijan region. E-mail: mohammadaziz0123@mail.ru

Annotation: Recent decades, along with many social transformations and the intensification of cross-cultural contacts, are characterized by fundamental changes in the field of foreign language teaching. Not least, they are caused by the rapid penetration of new technology based on the achievements of electronic technology into the educational process.

Keywords: communicative situations, video material, foreign language lesson

The first group concerns the authentic nature of communicative situations that allow you to learn to model your behavior in specific life situations, give you the opportunity to "try them on", develop your own adequate behavior in similar communication. In real life, speech behavior is related to a specific situation. Visual present circumstances also carry their share of information. The most rational way to teach such speech behavior is through demonstration in a visible situation, which facilitates attention and understanding of the speech material. With the help of video, we observe communicative situations in the unity of language and non-language components. It is no exaggeration to say that thanks to the video, life with all its richness of communicative situations has stepped into the classroom. These situations materialized in the video material give all the variety of auditory, visual and other information.

The next set of problems is the use of video to obtain country-specific, cultural knowledge about the country (countries) of the language being studied, and the formation of intercultural competence of students.

Today, speaking about foreign language teaching, it is impossible to separate this process from the process of intercultural communication. In this regard, the need for the formation of intercultural competence in students is becoming more and more apparent.

It is important to take into account that socio-cultural knowledge is used not only as a means of communication at the interpersonal level, but also as a means of enriching the spiritual world of the individual on the basis of acquiring knowledge about the culture of the country of the language being studied. After all, the communicative goal of foreign language teaching is to form a communicative competence, which is based on skills formed on the basis of language skills, as well as linguistic and country studies knowledge. It is important to acquire a reflective culture, a secondary language environment. Thus, intercultural communicative competence is, of course, "a concept of multilevel and multi component".

It is very difficult to master the communicative competence in English without being in the country of the language being studied. Therefore, an important task of the teacher is to create real and imaginary situations of communication in a foreign language lesson, using various methods and techniques.

At the same time, it is important to give students a clear idea of the life, traditions, and language realities of English-speaking countries. In this regard, the video provides a rich opportunity to effectively combine the educational process of working on the language and country studies, mastering elements of the culture of the country of the language being studied. The video series provides much more information than just a verbal explanation. The video material also makes it relatively easy to introduce language-specific and country-specific vocabulary and grammatical structures. However, the teacher must maintain a sense of proportion and not overload the students with information, since this will result in insufficient strength of memorization and assimilation of speech material.

The third group of problems is related to the ability of the video to more individualize the educational process, more to address the personality of the student in the educational process, taking into account his psychological and intellectual characteristics. When choosing a video material for a class, the teacher has a specific group in mind and takes into account the interests of specific listeners. The material selected in this way provides a greater degree of activity of students in the classroom.

The fourth group of problems is related to the video's ability to perform a large number of methodological tasks. The requirement of a communicative method "...to present the process of language acquisition as comprehension of a living foreign-language reality" makes us pay great attention to the stage of familiarization

of students with this reality. In this regard, the question of how the presentation of this reality can and should be organized within the educational process becomes of particular importance.

It is well known that communication is based on the exchange of verbal and non-verbal information. With the exception of telephone conversations and listening to tape recordings, information is perceived not only through the auditory, but also through the visual channel. Information presented in a visual form is the most accessible for perception; it is easier and faster to learn. According to UNESCO, when a person listens, he remembers 15 % of speech information, when he looks-25 % of visible information, when he sees and listens-65 % of the information received. The need for technical training tools that can affect various sensory organs is obvious. The eye can perceive millions of bits per second. Information perceived visually, according to psychological research, is more meaningful, easier to store in memory.

Thus, the psychological features of the impact of educational videos on students contribute to the intensification of the educational process and create favorable conditions for the formation of communicative (language and socio-cultural) competence of students.

Literatures:

1.Bondarenko O. R. Intercultural aspects of communicative competence in a foreign language // Methods and organization of teaching a foreign language in a language University. - Moscow: MGLU publishing house, 1991. - P. 38-48.

2. Golovanova I. A. Ways of forming intercultural communicative competence at the faculty of advanced linguistic qualification // Actual problems of intercultural communication. - M: publishing house 1999. - P. 32-38.

3. Loginova V. L. on the lingo methodic potential of audiovisual sources of information // Modern technical means in teaching a foreign language. - M.:,1989. - P. 17-32.

ALISHER NAVOIY IJODIDA KOMIL INSON TARBIYASI

Yuldosheva Shaxnoza
Zarafshon shahar, 12-maktab o'qituvchisi
Telefon:+998(93)6641134

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodi va amaliy faoliyatining eng asosiy, markaziy masalasi har narsadan oldin inson taqdiri, baxti, saodati ekanligi ta'kidlangan. Ulug' mutafakkirning "Hayrat ul-abror"("Yaxshi kishilarning hayratlanishi") dostonidagi komil insonni tarbiyalashning usul va yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, komil inson, odob-axloq, vafo, zulm, jahl, vatan, muomala, mansabdor shaxslar, do'stlik, ota-onani hurmatlash, rahm-shafqatlilik, farz, amalparast, ota-onani roziligi, xalqqa sadoqatli bo'lish, barkamol avlod.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov " Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida ma'naviyatni shakllantiradigan mezonlar haqida gapirib:"O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan yana biri- bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo'tabar nomi ijodiy merosining boqiyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz", degan edi.

Chindan ham Alisher Navoiy mutafakkir shoir.Dunyoda shoir ko'p o'tgan bo'lsa-da, ulardan juda oz qismigina bu sharafli nomga loyiq ko'rilgan.Chunki biror hayotiy masala, insonga xos qadriyat va tuyg'ular, fazilat va illatlar yo'qki, ul zot qalamga olmagan bo'lsa!

Alisher Navoiy ta'limiy-axloqiy asarlarida komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo'llari va usullarini bayon etgan. Yaxshilik, odamiylik, muhabbat, vafo, do'stlik, mardlik, odob, hayo, saxovat, qanoat, adolat, diyonat, olijanoblik, mehnatsevarlik, halollik kabi fazilatlarni ulug'lab, yomonlik, zulm-zo'rlik, xiyonat, dilozorlik, yolg'on, hasad, riyo, kibr, xasislik, ta'ma, nafsga qul bo'lish, nohaqlik singari illatlarni keskin qoralagan. Shu bois uning ijodi o'ziga xos hikmat bo'stonidir. O'zingizda tug'ilgan har qanday savolga javob izlab, unga murojaat qilsangiz, ahvoli ruhiyangizga mos bir hikmat topib, maqsadingiz hosil bo'lishi, ko'nglingiz taskin topishi shubhasiz.

Alisher Navoiy " Xamsa"sining birinchi dostoni "Hayrat ul-abror"("Yaxshi kishilarning hayratlanishi")ni 1483-yilda yozib tugallagan bo'lib, unda komil inson uchun zarur bo'lgan barcha xislatlar sanab chiqiladi.

Shoir katta va kichiklarning o'zaro munosabati, kattalarning kichiklarni tarbiyalashlari va kichiklar sodir etgan xatolarini shafqatlilik bilan tuzatishlari, ikkinchi tarafdan esa kichiklarning kattalarga nisbatan izzat-ikrom ko'rsatishlari, ularga xizmat qilishlari kerakligida o'z ifodasini topadi deb fikr bildiradi.

Alisher Navoiy amalparast, manmansiragan odamlar sharaf topa olmasliklari, haqiqiy sharaf hay ova odobdan kelishi haqida yozadi va "odobsiz kishilar hech qachon e'tibor qozonmaydilar", deb ta'kidlagan.Buyuk shoir mansabdor shaxslarning qo'l ostidagilar bilan muomalasi, ularning bu sohada odobli bo'lishi haqida ham so'z yuritadi:

" Agar biron kishi sizdan martabada past bo'lsa, uni sen o'zingga tobe holda ko'rsang, garchi u senga tobe, bog'liq bo'lsa ham ko'nglung uning tuyg'ulariga sherik bo'lsin Ularga g'amxo'rlik qilish sening bo'yningdadir. Tirikchilik yozuqlari ham sening qo'lingda. Barchasiga do'stlik qilish senga vojibdir. Yaxshi-yomon ishidan xabardor bo'lib turish ham".

Alisher Navoiy ota-onani hurmat qilishni esa tarbiyalilik belgisi sifatida shunday baholaydi:Boshni fido ayla ato qoshiga,

Jismni qil sadqa ano boshig'a.
Tun-kunungg'a aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Ota-onani farzand hayotida tutgan o'rnini hechkim bundan ortiq ta'riflab berolmasa kerak: dunyo uchun oy bilan quyosh qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, farzand uchun ota-ona ham shunchalik qimmatga ega! Chindan ham, oy tufayli tun, quyosh sababli kun yorug' bo'lganidek, ota farzand hayotining tunini yoritsa ona kunini nurga to'ldiradi. Ota-onani hurmat qilish farzand uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qilish zarur. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadqa qilsang arziydi! Ikki dunyoying obod bo'lishini istasang, shu ikki odamning roziligini ol! Tunu kuningga nur berib turgan- birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh!

Alisher Navoiy rahm-shafqatlilikni ham tarbiyalilikning belgisi, deb hisoblaydi va kimki katta bo'lsa, uning xizmatini qilishga, kimki kichik bo'lsa, unga shafqat qilishga chaqiradi:"Rahm in'omini

o'zingga qarz deb bil: o'sha toifadagi(kichiklar, bo'ysinuvchilar) odamlarga rahm qilishni farz hisobla. Yurgan odamlar ichidagi kattadan kichigigacha, yoki oraliqdagi o'rta martabalikkaqarab, kimki katta bo'lsa, uning xizmatini qilish kerak. Kimki kichik bo'lsa, unga shafqat ko'rsatish kerak".

Bu ulug' mutafakkir, shoir, davlat arbobi Alisher Navoiyning odob-axloq, ta'lim -tarbiya sohasida yaratgan tarixiy merosi mustaqil O'zbekistonning ta'lim -tarbiya sohasini isloh qilish, komil insonni tarbiyalash borasidagi siyosatining muvaffaqiyatli asoslaridan biridir. O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol salohiyatli avlodni tarbiyalashga bog'liq. Ushbu dolzarb vazifani amalga oshirish uchun o'zbek xalqining ta'lim -tarbiyaga oid boy tarixiy tajribasini, Alisher Navoiy bobomizdek allomalar ijodini o'rganish va uni yangi zamon kishisini shakllantirish hamda tarbiyalashda hayotga amaliy tatbiq muhim ahamiyat kasb etadi.Yaratganning sevimli bandasi butun hayotini inson faoliyatining rivojiga bag'ishlagani uchun ham hamisha e'zoz va e'tiborda bo'lib, asrlar osha xalqimizga xizmat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Karimov I.A Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyt, 2008.
2. Karimov I.A Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. - T.: O'zbekiston, 2009.
3.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 7-jild. - T.: Fan, 1991.
4. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
5.S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik) II qism. - T.:Sharq, 2015.

GRAMMAR TALES IN ENGLISH LESSONS IN PRIMARY SCHOOL

Zahro Otabayeva,
an English teacher of Namangan region,
Uchkurgan district, school № 2
tel:+998 93 4030485

Annotation

This article examines the use of tales in Primary Education English classes. Its use is important, taking into account the students' characteristics at that age and in the formal context of the classroom. It suggests the teacher how to choose tales in terms of students' age, materials to work with, the layout of the class and so on. It also provides the teacher with several activities based on the tale with which to use meaningful learning. This is the way to make them practice vocabulary and grammar in the meaningful context provided with the story.

Keywords: fairy tales, activities, teach, method, grammatical structures

The role of fairy tales must be considered in three aspects: psychological, emotional and cognitive. So, to implement educational intentions towards the child, it is necessary to create a psychologically favourable situation in which the child will be comfortable. Creating fairy tales helps to relieve the students' minds, create a favourable friendly atmosphere of communication in the classroom. The fairy tale contributes to the development of creative abilities of students, creates an emotionally positive atmosphere of cooperation. One of the requirements of a modern school is to teach children their age characteristics and capabilities. Children of primary school age have several differences from children of middle and high school age. Younger students learn more slowly, take longer to learn new material, they do not have developed analytical thinking, which significantly complicates the development of foreign language grammar. Kids can't rely on their knowledge of the world or universal learning skills. On the other hand, these children are positive and not afraid to look stupid because of mistakes in pronunciation or use of new vocabulary. They are easily drawn into the world of fantasy and creativity. They easily accept the terms and rules of the game. That is why one of the most effective methods of teaching a foreign language is the use of fairy tales in lessons. Fairy tales develop children's imagination and serve as a link between fantasy and the real world. The use of fairy tales in lessons fascinates children, increases the motivation of learning a foreign language. The fairy tale, in turn, has an impact on their emotional state: reduces anxiety and negative manifestations, creates an atmosphere of enthusiasm and joy. When learning a foreign language by younger students, many grammatical structures are introduced without lengthy explanations or relying on difficult-to-understand rules. Children simply "absorb" them like a sponge, like the structures of their native language. Still, sometimes it is useful to explain to the child why we say it this way and not otherwise. Such explanations can be given in an interesting and accessible form-the form of a grammatical fairy tale. In this way, we increase the chances of memorization, as we engage emotional memory, providing positive emotional reinforcement caused by empathy with the characters of the fairy tale or arising from an appeal to the children's sense of humour. The use of fairy tales in the study of grammatical phenomena, the use of figurative epithets allows you to visualize abstract language concepts to students, while sharpening perception, improving memorization. Here are examples of such grammatical fairy tales.

Activity 1.Grammatical structure of " have got" Once upon a time, there was the verb Have. He spent days checking the contents of the refrigerator and saying, " I have jam, I have milk, I have chocolate, I have bread, I have butter." The verb Have was very fond of eating and was very thick. And then one day, when he opened the refrigerator, he found that all the food was gone. He said, "I have no jam, I have no milk, I have no chocolate, I have no bread, I have no butter". He had to go to the store. It was raining hard outside. A small puppy was sitting in a huge puddle. Seeing the verb Have, the puppy barked joyfully: "got, got, got". The verb Have picked up the puppy and carried it home. They became very friendly and began to walk together. The verb Have led the puppy on a leash and said: "I have got jam, I have got milk". Thanks to walking, Have soon lost a lot of weight, only half of it remained. They were running fast down the street, and the only sound they could hear was the puppy barking: "I've got chocolate, I've got bread, I've got butter"

Activity 2."Past Simple"

In the Magic Kingdom, which was called Past Simple (past tense), there were magic trains with magic cars-verbs. And there was a bully boy in that Kingdom. His name was Ending ed. This bully didn't have

any money. But he loved riding the magic train. So he went without a ticket. Ed hitched himself to the back of the trailer and rode like a hare. (draw a trailer on the Board-a verb with the ending ed on "trailer", give examples of sentences in the past tense). But in this country, there was a strict controller-the auxiliary verb Did. He didn't allow anyone to ride magic trains without a ticket. When he appeared on the train, the stowaway ed had to run away (change the sentence on the Board to negative and erase the "stowaway".

Grammatical fairy tales can be accompanied by presentations with pictures of characters and diagrams, which will promote imaginative memorization of information, as well as increase interest in the story.

Thus, I believe that the use of fairy tales in teaching introductory reading in English classes allows you to make a variety of the content of the lesson, expands the General Outlook and communicative culture of younger students, increases the interest of students in the language and also the motivation to learn.

References:

1.Phillips, S.1993.Young Learners.Oxford: Oxford University Press.

2.Rinvolucri, M. and J. Morgan. 1983. Once upon a Time. Using Stories in the Language Classroom. Melbourne: Cambridge University Press.

"LOLAZOR" ROMANIDAGI YAXSHIBOYEV NUTQIDA KINOYANING IFODALANISHI

Ziyayeva Yulduz
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O`zbek tili va adabiyoti universiteti
Adabiyotshunoslik yo`nalishi II kurs magistranti
+998904004302

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi Murod Muhammad Do`stning "Lolazor" romani asosida so`z boradi. Maqolani "Lolazor" romanidagi Yaxshiboyev nutqida kinoyaning ifodalanishi" deb nomladik. Asardagi kichik kuzatishlarimiz natijasida Yaxshiboyev nutqida kinoyaning ifodalanishi, piching, kesatiq, qochirimlarga to`xtaldik. Yaxshiboyev obrazini talqin qilishda kinoyaning o`ziga xos qirralarini tahlil qildik.

Kalit so`zlar: qahramon nutqida kinoyaning ifodalanishi, kinoyaviy talqin, piching, kesatiq, kinoyada qarama-qarshi ma'no.

Annotation. This article is based on the novel "Lolazor" by the writer Murad Mukhammad Dost. We called the article "The expression of irony in the speech of Yakhshibaev in the novel "Lolazor". As a result of our small observations in the work, in Yakhshibaev's speech we focused on the expression of irony, pitching, cuts, omissions. In interpreting the image of Yakhshibaev, we analyzed the peculiarities of the film.

Key words: the expression of irony in the speech of the protagonist, satirical interpretation, pitching, cutting, the opposite meaning in irony.

Аннотация. В данной статье ведётся речь о романе Мурод Мухаммад Доста "Лолазор" (Тюльпановый луг). Мы озаглавили статью следующим образом: "Использование метафоры в речи Яхшибоева в романе "Лолазор" (Тюльпановый луг). В результате нашего непродолжительного наблюдения за речью Яхшибоева мы остановились на использовании метафоры, колкости, иносказания. В интерпретации образа Яхшибоева мы анализировали своеобразные грани метафоры.

Ключевые слова: использование метафоры в речи героя, метафорическая интерпретация, иносказание, противоположное значение в метафоре.

Yaxshiboyev obrazi "Lolazor" romanida o`ziga xos yo`sinda ifodalangan. Asarda qahramonni mushohadalarga boy, har bir kuni, har bir qilgan ishi, do`stlari, oilasi, yaqinlari haqida o`ylari ichida ko`ramiz. Yozuvchi, aytish joizki, Yaxshiboyevning nutqida juda ko`p o`rinlarda kinoya, qochirimlar, pichinglarni ishlatgan. Qahramonning dunyoqarashi, fikrlashi, asarda aks etgan voqeliklar aynan ana shunday til birliklari orqali yanada aniqroq namoyon bo`ladi. Yaxshiboyevning kinoya bilan gapirishi qahramon ichki olamining bevosita voqelikka munosabatini ham ko`rsatib beradi. Yaxshiboyevning atrofidagi yaqinlari, do`stlari, hamkasblari, shogirdlariga bo`lgan munosabati ana shunday kinoya-yu qochirimlar, kesatiq-u pichinglarga boy. Asar voqeligini baholashda nafaqat butun asar ichidagi qahramonlarning nutqidagi o`ziga xosliklar, balki markaziy obrazlardan biri hisoblangan Yaxshiboyevning nutqidagi ajib tasvir bizni qiziqishimizni yanada orttiradi. "Murod Muhammad Do`stning "Lolazor" romani ham ko`p ovozli romanga misol bo`la oladi. Undagi Oshno, Nazar Yaxshiboyev kabi qahramonlarni fe'l-atvori turfa tovlanishlarda akslangan. Ayniqsa, Nazar Yaxshiboyevning obrazida ko`p ohanglilik yaqqol ko`zga tashlanadi: u o`z nuqtayi nazari (iroda yo`nalishiga) ega bo`lganidan tashqari, o`zini-o`zi (ikki, uch□ko`pga bo`linib) tahlil ham eta oladi, o`zgalar (qarama-qarshi tugunlar) bilan ishonchli bahslasha ham biladi□ "U bir ongning in'ikosi bo`lib emas, xususan boshqa ong ta'sirida paydo bo`lgan va bir necha ongning o`zaro aloqasi asosiga qurilgan" (M.Baxtin) ligi bilan xarakterlidir". [1. 55-bet]

Yaxshiboyev obrazini talqin qilishda, albatta, qahramonning o`z-o`zini tahlil qilishida, o`zgalar bilan bahs-munozaraga kirishishida kinoya, kesatiq, achchiq va kulgili shama-yu ishoralarning o`rni beqiyosligini inobatga olishimiz zarur. Aytish joizki, nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligini oshirishda kinoya muhim o`rin tutadi. Buni "Lolazor" asari misolida yaqqol ko`rish mumkin. Avvalo, kinoya tushunchasiga to`xtalsak. Kinoya so`z yoki iboraning o`z ma'nosiga butunlay qarama-qarshi bo`lgan ko`chma ma'noda ishlatilishidir. Unda so`zlovchining tasvirlanayotgan narsa yoki tushunchaga kesatiqli, pichingli, istehzoli, umuman, subyektiv-kulgi aralash munosabatini yuzaga chiqqanini ko`ramiz. So`z yoki iboraning to`g`ri ma'nosiga zid, ya'ni inkor, emotsional-ekspressiv bo`yoqli ma'no ifodalashi ayni kinoyaga xosdir. Kinoyaning lug`atlarda izohlanishiga e'tibor beramiz. "Til birligini uning haqiqiy ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda, kesatiq, qochirim, piching

bilan ishlatishdan iborat ko`chim" [2. 49-bet] deya ta'rif berilgan kinoyaga. "O`zbek tilining izohli lug`ati"da esa "Kinoya [a] Masxaralash, kulish uchun aytilgan pardali gap; qochirim, istehzo, piching, kesatiq" [3. 386-bet] deyilgan.

Kuzatganimizdek, lug`atda kinoya leksemasining mohiyati gapning qo`llanish maqsadi asosida tavsiflangan, ma'noni yoritish uchun kinoyaning sinonimlari qochirim, istehzo, piching, kesatiqqa ham murojaat qilingan. Kinoya o`zagi asosida yaratilgan kinoyali, kinoyaomiz so`zlari izohi ham ayni shu lug`atda berilgan. Og`zaki nutqda ko`pincha "Kinoyali gapirdi", "Kinoyaomiz qarab qo`ydi" jumlalariga duch kelamiz. Aytish joizki, o`zbek tilining bunday ohang tovlanishlaridan muallif Yaxshiboyev obrazida yaxshigina foydalangan. Uning nafaqat nutqida, balki xatti-harakatlarida kinoyali, kinoyaomiz holatlarni kuzatamiz. Tilning bu birligidan foydalanish Yaxshiboyevning qalamkash yozuvchi ekanligi bilan ham bog`liq. Negaki, yozuvchilar so`zni qaysi o`rinda, qanday o`ynatishni yaxshi biladi. 5 jildli "O`zbek tilining izohli lug`ati"da esa kinoyaga ta'rif boyitilgan. "Kinoya [a - belgi; shama, ishora; piching; kesatiq] 1. Masaxaralash, kulish uchun asl ma'nosidan boshqa, majoziy ma'noda aytilgan so`z, gap; qochirim, istehzo, piching, kesatiq ifodasi. 2 ad. Uslubiy vosita: badiiy asardagi inkor etish usullaridan biri bo`lib, biror shaxs yoki narsa ustidan kesatiq, qochiriq vositasida yashirin kulishdan iborat" [4. 370-bet]

Ushbu izohdan kinoyaning mohiyati ma'lum darajada oydinroq yoritilganini, uning turli sath birliklari, deylik, so`z, gap bilan ifodalanishi haqidagi hukmni, sathlar bo`yicha sochilgan keng qamrovli hodisa ekanligiga ishorani anglaymiz. Badiiy adabiyotda ham kinoya atorflicha ma'no-mazmunga, qo`llanish doirasiga ega. "Ironiya (gr. yeironeia - bilib bilmaganga olish so`zidan) - kinoya, qochiriq, kesatish, piching. Badiiy asardagi inkor etish usullaridan biri bo`lib, biror shaxs yoki narsa ustidan kesatish, qochiriq vositasida yashirin kulinadi. Shuning uchun ham kinoyaning muhim belgisi so`z yoki gapning hamma vaqt ikki ma'noli bo`lishida, haqiqiy ma'no aytilgan so`z yoki gapning teskari ma'nosi orqali anglashilishida namoyon bo`ladi. Kinoya o`zining ta'sir darajasiga qarab fosh etuvchi yoki shunchaki qochiriqdan iborat bo`ladi. Kinoya usuli, asosan, hajviy, kulgili tasvirda keng qo`llaniladi" [5. 141-bet]

Shunday qilib, kinoya o`zida so`zlovchining salbiy, hissiy munosabatini aks ettirgan, shakliy va mazmuniy nomuvofiqlikdagi, kulgi, istehzoga asoslangan, turli sathga birliklariga xos nutqiy ma'nodir. Yaxshiboyev juda ko`p o`rinlarda kinoya bilan so`zlaydi. Uning kinoyalarini mag`zini chaqish asar mazmuniy kalitini ochishga yordam beradi. "Lolazor" romanida Yaxshiboyev nutqida keltirilgan kinoyalar oddiy qahramonlar tilida qo`llanuvchi kinoyalardan keskin farq qilib, obrazlilik, chuqur ma'nolilik, o`tkir qochirimlar, o`xshatishlar, frazeologikbirliklar tipidaberilgan.Yaxshiboyev aytolmagan gaplarini, yozolmagan so`zlarini kinoyalari qatiga singdirib yuborgan. Ularning ba'zilariga to`xtalib o`tsak.

Asar muqaddimasi "Osmon mezonlardan yiltirar edi" so`zlari bilan boshlanadi. Bu gapni Yaxshiboyev qayt-qayta takrorlaydi, atrofidagilarning munosabatini bilmoqchi bo`ladi. Topgan tashbehi ostida uning hayoti, qanday yashash zarurligi aks etgan. U o`tgan umrini sarhisob qilish asnosida mezonlardan yiltiragan osmon yonida "xushomadgo`y laychalar" qolganini kinoya bilan xotirlaydi. U asar so`ngida umrini boshqacharoq yashab o`tishi mumkinligini anglaydi. Afsus qiladi, nadomat qiladi. Keksayib qolgan Yaxshiboyev xotini Muhsina xonimga baho berishda kinoyali sifatlarni ko`p o`rinda ishlatgan. Kasalxonada yotganida vazadagi gul haqida o`ylarkan, "Muhsina xonim tarafidan - didli, savodli Muhsina xonim tarafidan qo`yilganki, oq nilufar deb ataladi". [6. 12-bet] "Didli, savodli" izohida yengilgina kinoya bor. Sababki, Yaxshiboyev gulni ko`rganda dimog`ida botqoq hidini tuyganday bo`laveradi. Bir o`rinda Muhsina xonimga "Qarg`alar ko`ngilda bo`lsa-chi? Ko`ngilda qag`illab tursa-chi?" [6. 29-bet] deydi. Albatta, Muhsina xonim kinoyaning mag`zini chaqolmaydi. Yaxshiboyev, aslida, Muhsinaning diydiyosidan charchagan, uni Yosumanga qiyoslaydi. Yaxshiboyevning Muhsinaga ishlatgan kinoyalari unga munosabatini aks ettiradi. Yaxshiboyev kasalxonada badantarbiyachi ayolga "Bu deyman, xonim, ayni maskanda□bekorchi yotib kuch yig`ayotgan chollarning ichida ishlashingiz qiyindir-ov?" [6. 143-bet] tarzidagi kinoyasi esa Yaxshiboyevning xarakteri xos xususiyatni, ya'ni ayollarga munosabatini oshkor qilib qo`ygan. Hazilomuz kulgi ohangidagi kinoyalar ham talaygina. Kasalxonadagi farrosh xotin Marfaning yetmish yoshini mazax qilib, "Eh-he, hali qiz bola ekansan-ku!" [215-bet] deganda Yaxshiboyevning hazilni to`g`ri kelgan odamga qilib ketaverishi, hazillarida kinoyalar ko`rinib qolishini kuzatamiz.

Muyassar xonim bilan muloqotda kechmishini eslatish uchun achchiq kinoya qo`llaydi. "Ilojimiz qancha, - dedi Yaxshiboyev takabburona iljayib. - Siz, xonim, mulozamatga shunchalar o`rganib qolgansizki, endi eng quyuq salomga ham alik olavermaysiz. Haddan oshganimning boisi shuki, betamizlik bahonasida zora esingizda qolsam□" [6. 513-bet] Kinoya ohangida mulozamat, xushomadga o`rganib qolgan Muyassar xonimni iltimosiga ko`ndirish maqsadida Yaxshiboyev kinoya bilan so`zlashda davom etadi. "Eshagingiz loydan o`tganiga, eh-he, necha zamonlar bo`ldi!" [6. 513-bet] Yaxshiboyevning kinoyasiga qarab Muyassar xonim uni tamagirlikda ayblaydi. Kinoya subyektiv munosabat ko`rinishlaridan biri bo`lib, so`zlovchining salbiy munosabatini bildiruvchi uslubiy vositadir.

Oshno obrazi ham diqqatga sazovor. Negaki Yaxshiboyevning butun hayot yo`li, ijod yo`li bevosita Oshnoga bog`liq. Oshno bilan muloqotda ham kinoyalar qo`llangan."Och qolsak, yana "ov"ga chiqaman!" - dedi qat'iy qilib. [6. 113-bet] Yaxshiboyev do`sti Oshnoga qaroqchilik qilishga chiqib xarom luqma topishiga ishora qilyapti. Bu yerda kesatiq shundan iboratki, Yaxshiboyev Oshno aytganday halol yo`l bilan topib keltirilgan yegulikka qoniqmaganidan dalolat. Yaxshiboyev va Oshnoning yoshlikdagi sarguzashtlarida ular halol va yaxshi yashash haqida ancha tortishgan. Oshno Bulduriq qishlog`iga do`sti ikkalasi muallimlikkka mo`ljal qilinayotganini aytganda "Qadaming boshqacha-ku, - dedi Yaxshiboyev hasadini yashirolmay. - Endi u yoqlarga qaytib borarmiding!" [6. 136-bet] tarzida shahardagi hayotini kinoyaomuz yodga solib qo`ygandek bo`ladi. Ya'ni sen osmonlarda yuribsan, pastga tushib qishloqqa qaytib ketasanmi degan ma'noda. Yillar o`tib ikki do`st xotiralarni albatta eslaydi. Kasalxonada yotgan keksa Yaxshiboyevdan hol-ahvol so`ragan Oshno unga xotira yozishni tavsiya qiladi. "Xotira yozgali cho`chiyman. Umrimizda ko`p voqealarga guvoh bo`ldik, hammasini ham yozib bo`larmikan?.." [6.149-bet] tarzida o`zining o`tgan umrida bo`lgan voqealarga ham qo`shtirnoq ichida kinoyaomuz munosabat bildiradi. Shu birgina jumlada o`zining hayotida tilga olib bo`lmaydigan voqeliklar borligi anglashiladi. Oshno katta lavozimlarda ishlab yurganida unga qarata "Sizdek ulug` odam rashk qilsa yarashmas ekan, dedim, rashkingiz - men uchun sharaf, oqsoqol, lekin butun bir xalqning do`sti bo`lgan odam birgina bechora Bog`iyni chetlatib qo`ysa qanday bo`larkan?.." [6. 173-bet] deyishida bitta gap bilan do`stining nozik joyidan ushlaydi. Yaxshiboyevning istehzo, yengil kulgi sezilib turgan so`zlariga javoban Oshno "balosiz, gapniyam olasiz" deb tan beradi.

Kinoya "…nutqning ma'lum bir maqsadni yo`naltirishga xizmat qiluvchi, salbiy subyektiv munosabat (modallik) ifodalovchi uslubiy vosita hisoblanib, nutqning ta'sirchanligini oshirishga katta yordam beradi". [7. 14-bet]

Yaxshiboyev nutqida keskin kinoyaning o`tkir namunalari ham benihoya ko`p keltirilgan, har bir jumla xuddi muayyan kinoya ifodasi uchun yaratilganday. Uni kasalxonaga ko`rgani kelgan yosh-yalang shogirdlari ketayotgan chog`da qaysidir nashriyotda ilig`liq turgan "Bu dargohdan hech kim norozi bo`lib ketmasin!" shiori eslab, o`rniga xayolida "Xush kelibsiz, qalang`i-qasang`ilar" shiorini mos topishi faqat Yaxshiboyevda uchraydigan takrorlanmas kinoyaviy ishora deyish mumkin. Haqiqatan, qahramonning nafaqat nutqida, balki xatti-harakatlarida, atrofidagi har bir voqelikka baho berishida, o`ylarida kinoyaomuz holat aks etib turadi. Bu esa xarakterni chuqurroq, ko`lamliroq, aniqroq ochilishiga va serbo`yoqli hayotiy chiqishiga asos bo`lgan. Bunday kinoyaviy ma'noning voqelanishida nutq vaziyati, kontekst va intonatsiya ham alohida ahamiyatga ega.

Asardagi qahramonlardan biri Suyarqul muovinlikka nomzod so`raganda Ostonovni tavsiya etadi. "Dunyoda kushandasini bilmagan banda bormikan o`zi?" [6. 155-bet] tarzidagi istehzoda Ostonov Suyarqulning kushandasi ekanligiga ishora bor. Ana shu o`rinda Yaxshiboyev kasalxonada uni bezor qilgan odam Ostonovdan shu usulda qutilishidan rohatlanishi unga xos salbiy jihatni ko`rsatadi. Yana bir qahramon Bog`iyning yupqaroq bir jurnalchaga bosh muharrir qilib tayinlanishiga hissa qo`shgan Yaxshiboyev uni "bosh muharrir" bo`lgani bilan tabriklaydi. Bog`iy kal bosh ekanligini mazax qilish maqsadida o`ylab topilgan bu tayinlov Yaxshiboyevning qitmirligiga, kinoya-yu kesatiqlari atrofidagi odamlar bilan o`zaro munosabati izohlashiga guvoh bo`lamiz. Umuman, Yaxshiboyev kinoya ishlatishiga nutqiy vaziyat yaratiladi. Jumladan, Yaxshiboyev kasalxonda ekanida uni tinimsiz so`rattirib turgan Zohid undan yordam so`rab kelganda qarigan chog`ida ajdahoning og`ziga ro`para qilayotgan Zohidga zavqlanib, yoyilib kulib, "Bitta sassiq chol kam bo`lsa kam-da, a?" [6. 499-bet] deydi. Bu kesatish ortida og`ir vaziyatda Yaxshiboyevdan foydalanib, Zohidning o`zi suvdan quruq chiqmoqchiligiga ishora bor. "Kamsitish, masxaralashni yarim yashirin ravishda ifodalovchi gap-so`z, xatti-harakat. Kesatish so`zida masxaralash ottenkasi kinoya so`ziga nisbatan kuchliroq. Kinoya so`zi kesatiq so`ziga nisbatan kitobiy bo`lib, termin sifatida ham qo`llanadi. Istehzo kitobiy". [8. 123-bet] Kinochi yigit Abrorga Xarajat, kasalxondagi xonadoshlariga Daroz va Xumkalla laqabini qo`yishi, Muhsina xonimni Yosuman kampirga qiyoslashi, yosh qalamkashlardan ba'zilariga Mahmadana va Taqirbosh deb laqab ulashishi, asli ismi Turg`un bo`lgan Taqirboshga "Do`ltachol" laqabini ham qo`shib berishi, Rahmatovga nisbatan "Shirin bola" laqabini qo`llashi, Ko`klamovning familiyasini "ko`klam, ko`k, ko`kat, ko`kalamzor" so`zlarini aralshtirib so`z o`yini qilishi, ichida bobosini "lalmikor yer" ekan deb kulgiga yo`yishi ayni Yaxshiboyevni yaxshi tanib olishimizga, xarakteridagi qusurlarni ko`rishimizga yo`ldir. Kinoya qo`llanganda gap semantikasida xarakter bilan bog`liq psixologik bo`yoq ifodalanadi. Aytish joizki, Yaxshiboyevning nutqida bu so`zlar nedirki achchiq kesatiq emas, yengil kulgini, yumorni, go`yoki atrofdagilarini aslida qanaqa ekanligini ko`rsatayotgandek. Yoinki Yaxshiboyebga xos bachkanalikdek tuyuladi.

Xulosa o`rnida shuni aytish kerakki, asar voqeligi, sujeti, kompozitsion qurilishi, qahramonlar taqdiri, asarda polifonik obrazlar talqinini ifodalashda kinoya juda qo`l kelgan. Yaxshiboyev misolida oladigan bo`lsak, uning atrofidagi odamlarga laqab to`qishida ham kinoya ishlatishi, ko`p ovozli qahramon sifatida butun hayoti, yoshligi, ijodiy faoliyati haqidagi o`ylari, o`z-o`ziga ham kinoya bilan baho berishi, ichki

olami va tashqi dunyoni ayni qarama-qarshilikda ko`rishi kabi o`rinlarni kinoyalarning uslubiy vazifasi, badiiy tasvir vositasi sifatida muhim o`rin tutishi bilan izohlashimiz mumkin.

Adabiyotlar ro`yxati:
1. Hotam Umirov. Adabiyotshunoslik nazariyasi.:T. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. 55-bet.
2. A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati. -T.:O`zME, 2002. 49-bet.
3. "O`zbek tilining izohli lug`ati" 2 tom, 2-tom, 386-bet.
4. O`zbek tilining izohli lug`ati. 5 jildli, 2-jild. 370-bet.
5. Hotamov.N, Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlari. - 141-bet.
6. M.M.Do`st. Lolazor.
7. Mamajonov A, Ibragimova E. Kinoya - subyektiv munosabat ifodalash usullaridan biri\\ O`zbek tili va adabiyoti jurnali. -T., 2000. N.4 14-bet.
8. Hojiyev A. O`zbek tili sinonimlarining izohli lug`ati: Universitetlarning va pedagogika institutlarining studentlari uchun qo`llanma. - Toshkent: O`qituvchi, 1974. 123-bet.

ҲАҚ СЎЗЛАР ЖАМЛАНМАСИ

Ўткир Абдуназаров
Термиз давлат университети магистранти
Тел:+99893 7665952

Аннотация: Ушбу мақолада машҳур адиб Носир Фозиловнинг "Мунаввар лаҳзалар" тўпламидан жой олган замондошлари ҳақидаги ёднома ва эсселари хусусида мулоҳазалар юритилган.

Калит сўзлар: Ўзбек адабиётида хотира-ёднома, Носир Фозилов шахси, таржимаи ҳол, ёднома, ҳангома, юмор.

Ҳаётда яшаймизки, бир муҳим туйғу бизни ўтмиш билан боғлаб туради бу ҳам бўлса хотира. Хотира бизни ўтмишдан хулоса чиқариб келажакка қадам қўйишимизга муҳим омил бўлиб хизмат қилади.Ўзбек адабиётида хотира-ёднома ёзиш асосан, XX асрда жонланди. Бу йўналишда ижод қилган ижодкорларимизни ҳеч камситмаган ҳолда таниқли ёзувчимиз Носир Фозиловни ёдномаларини таҳсинга сазовор десак фикримизга муболаға бўлмайди. Носир Фозилов шахси хақида сўз кетганида аввало ижодкорнинг ҳаёт йўли ва ижодий фаолияти хақида қисқача тўхталиб ўтишимизга тўғри келади. Носир Фозилов 1929 йил 10 июнда Қозоғистин Республикасининг Туркистон тумани Кориз қишлоғида таваллуд топган. Ижодкор умри давомида турли нашриётлар, журнал ва таҳририятларда адабий ходим, бўлим мудири, масъул котиб вазифаларида ишлаган. Адибнинг биринчи тўплами "Ирмоқ" 1959 йилда чоп этилган, сўнгра "Оқим" (1962), "Робинзонлар" (1964), "Қуш қаноти билан" (1965), "Қорхат" (1968), "Кўклам қиссалари" (1970), "Дийдор" (1979), "Бололигим-подшолигим" (1989), "Шум боланинг набиралари" (1995), "Тошкентнинг носи" (1996), "Эсласанг кўнглинг ёришур" (2004), "Топдиму йўқотмадим" (2010), "Мунаввар лаҳзалар"(2013), "Ношир ва Носир сўзи" (2015), "Тушовли той" (2016) ва бошқа кўплаб асарлар муаллифи. Адиб таржима соҳасида ҳам самарали меҳнат қилиб қорақалпоқ ва қозоқ ёзувчиларининг асарларини ўзбек тилига маҳорат билан таржима қилган. Адабиётимизда Fофур Fулом, Абдулла Қаҳҳор, Ойбек, Мақсуд Шайхзода, Миртемир, Асқад Мухтор, Саид Аҳмад, Одил Ёқубов сингари кўплаб ёзувчиларимиз ҳамда Уйғун, Зулфия, Абдулла Орипов, Эркин Воҳидов ва бошқа шоирларимиз ҳаётида рўй берган воқеалар, ҳангомалар хақида, устозларнинг юриш туриши, туриш турмуши хақида биз келажак авлод албатта ёзилган ёдномалардан билиб оламиз. Биз адибларимиз уларни таржимаи ҳоли ҳақида адабиёт дарсликларидан, олимларимизни яратган китоблари, рисолаларидан билиб оламиз, лекин уларни ҳаётидаги қизиқарли бўлган ҳолатларни фақатгина шу инсонлар билан бир замонда яшаган ёзувчиларимизни яратган ёдномаларини ўқиганда биламиз ва ундан хабардор бўламиз.

Ёднома ёзишда инсон аввало ўзга одамнинг қарашлари билан эмас балки ўзининг шахсий "мен"и орқали ички бир ҳиссиётини адабий руҳда қоғозга туширади. Унда шахс эркин фикрлаш орқали воқеаларни реал тасвирлайди, ўзганинг фикрига муҳтожлик сезмайди. Мустақиллика эришганимиздан сўнг айни бу йўналишда ижод қилиш анъанага айланди. Айни истиқлол шарофати билан ижодкорларимизга ўзлари билан бир даврда ҳамнафас бўлиб ижод қилган адибларимиз ҳақида ҳақ сўзни айтиш имконияти пайдо бўлди. Носир Фозиловнинг ёзувчи шоирларимиз ҳақида ёдномалар, митти ҳангомалар ва ҳикоялар келтирилган "Мунаввар лаҳзалар" китоби ("Ўзбекистон", 2013) юқоридаги фикримизнинг яққол исботидир. Ушбу китобда келтирилган "Келаверинглар, тишламайди" ёдномасида адабиётимизнинг етук даргаларидан бири Абдулла Қаҳҳор ҳақида сўз юритилган. "Мен устоз Абдулла Қаҳҳорни уста мерганга менгзайман, Мерган шунинг учун мерганки, отган ўқи бекор кетмайди, Абдулла ака шунинг учун мерганга ўхшайдики, айтган гапи мўлжалга тегмай қолмайди" - дейди Носир Фозилов Абдулла Қаҳҳорнинг сўзомоллигига ишора қилиб. Бу ёдловда ёзувчи таниқли танқидчи Матёқуб Қўшжонов билан бирга Абдулла Қаҳҳор хонадонига борганида адиб бир қўлида қайиш иккинчи қўлида итининг бўйинбоғини ушлаган ҳолатда турарди, Матёқуб Қўшжонов итдан қўрқиб сал тайсаллаб итингиз деганида адиб кулиб, келаверинглар,-танқидчидан ёмон эмас, тишламайди дея жавоб бергани Абдулла Қаҳҳорнинг сўз қўллаш маҳорати бой эканлиги, юморни ўрнида қўллай билиши, топқирлиги ва ҳозиржавоблиги ўқувчига маълум бўлмаган ҳолатлари ҳаётий тарздар кўрсатиб берилган. Муаллиф қуйида келтирилаётган ёдловида ҳар бир персонажни эътибордан четда қолдирмайди. Бундан ташқари "Раҳмат", "Қиёсни қаранг", "Тағин нима қилай", "Сизни ҳам тўхтатдими, устоз?" каби ёдномаларида ҳам айнан Абдулла Қаҳҳор феълига ахос хусусиятларини очиб берган. Китобдаги "Қардошлар", "Ҳеч ким бундан оширолмайди", "Қайси Ойбек" номли хотираларида Ойбек домла шахси, одамийлиги, бағрикенглиги, бадиий асарга хос

таъсирчанлик билан тасвирланган. Таниқли академик шоиримиз Fофур Fулом ҳақидаги "Fофур акани ўз оғзидан эшитган ҳангомаларим", "Вот томоша", "Спортчи", "Ҳе,ғўдайган", "Саҳройи", "Шеърий мактуб" ҳангома эсселарида Fофур Fуломнинг бетакрор шўхликлари, чапанилиги, топқирлиги, бошқаларга ўхшамаган номаълум жиҳатлари ҳақида сўз кетиши билан аҳамиятлидир. Ёзувчининг бу китобида келтирилган ёдномалар тасвир этилиши жиҳатидан ҳақиқатга яқин бўлган воқеаларни реал кўрсатиб бера олганлиги билан ўқувчини эътиборини тортади. "Ўзларидан сўрасак", "Арзиҳол", "Узр" драматург шоиримиз Мақсуд Шайхзодага, "Қарз", "Тезроқ жўнат", "Инглизча қулф", "Учқўрғўн" каби ёдловлари севимли ёзувчимиз Саид Аҳмадга бағишлангандир. Бу ёдловларда Шайхзода домланинг дилкашлигию одамохунлиги, Саид Аҳмаднинг кўнгли очиқлигию қувлиги ҳақида чиройли тасвирлар берилган. "Янгангга борақол", "Неччи пул берай", "Арра қиламизми", "Тушундим" ёдномалари шоиримиз Миртемир ҳақида бўлиб, қуйида келтирилган "Неччи пул берай" ёдловида Миртемир хонадонида тўй бўлганини Носир Фозилов шундай эслайди: "Миртемир аканинг хонадонида вадаванг тўй! Ҳовлининг ўртасида дўпписининг қиррасини пешонага тўғирлаб Миртемир ака турибдилар. Югурдаклар тез-тез олдиларига бориб туришибди.-Миртемир ака беш юзта нон келди. Миртемир ака суриштирмай, ҳамёнига қўл солади.-Хўш, неччи пул бўлади?- Миртемир ака, сомса келди...- Неччи пул берай?- Қимиз олиб келишди.- Мана деб пул узатади домла. Шундай қисталанг пайтда мен ҳам домланинг олдиларига бориб қолибман:- Миртемир ака, Роза опа билан Сергей Петрович келиб қолишди. Қаерга ўтқазай? Миртемир ака бир зум гарангсираб турди-да, сўнг менга қараб деди:- Хўш, бу неччи пул бўлади?" деб жавоб бергани Миртемир домланинг соддалиги тасвири қаламга олинган.

"Биринчи учрашув", "Каромат", "Дарвозабон" каби ёдловларининг қаҳрамони таниқли шоиримиз Абдулла Ориповнинг ўзига хос жиҳатлари, характер хусусиятлари ҳақида гап кетади. Бунда Абдулла Ориповнинг шахсияти унинг очилмаган қирралари Носир Фозиловнинг ўзи иштирок этган ҳаётий воқеалар асосида ёритиб берилади. Бу ёдловда даврнинг адолатсизлиги сабабли юраги парчаланган шоирнинг бир инсон кўмаги билан биринчи шеърлари журналга чоп этилиши натижасида юзага келган чексиз қувонч бадиий тарзда тасвир этилади. Абдулла Ориповнинг Яссавий зиёратида қўллари дир-дир титрагани кўзларида ёш халқаланиб нималарнидир пичирлаб дуо қилгани ва унинг шу тобда руҳий оламида нималар кечаётгани ҳақида ўқувчига образли тарзда ифода қилиб берилган.

Шоирнинг болалар билан футбол ўйнагани унинг болаларча беғубор ҳарактерга эга эканлиги, бола дунёсига бирзум сайр этганлик ҳолати "Дарвозабон" ёдловида чиройли акс эттирилган. Бу ёдловларда Носир Фозиловни ёш шоирга нисбатан гуманизм ҳолатларини кузатишимиз мумкин. Носир Фозиловнинг "Муааввар лаҳзалар" китобида келтирилган бирюз тўқсон битта ёдловларида муаллиф йирик ижодкорлар тўғрисидаги ўзи гувоҳи бўлган воқеаларни хотирлаб ўтган. Адабиётимизда баракали ижод қилган адибларимизнинг ибратли умр йўли ёшларимизнинг маънавий онги шаклланишига мустаҳкам пойдевор бўлиб хизмат қилади. Муаллифнинг ушбу китоби жамиятимиз маънавиятида ўчмас из қолдирган буюкларимиз хақида айтилган хаққоний сўзларининг жамланмасидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий тахлил асослари. -Т.: "Камалак", 2016.
2. Фозилов Н. "Мунаввар лаҳзалар" Т.: "Ўзбекистон" 2013.
3. "Носир Фозилов замондошлари хотирасида" -Т.: "Машҳур-пресс" 2019
4. "Ўзбек-қозоқ адабий алоқалари" мақолалар тўплами.-Т.: "Машҳур-пресс" 2018

РОЛЬ УЧИТЕЛЕЙ В 21 ВЕКЕ

Абдуразакова Умида Олимовна - преподаватель английского языка средней школы № 5 города Наманган (Узбекистан)
Миржалалова Маргуба Эргашевна - преподаватель начального образования средней школы № 5 города Наманган (Узбекистан)
Umidahin85@yahoo.com/tel:+998982710571

Не ограничивайте ребенка собственным обучением, потому что он родился в другое время.
- Рабиндранат Тагор

Аннотатция

Эта статья посвящена учителям, которые наиболее известны своей ролью в воспитании учеников, находящихся на их попечении. Помимо этого, учителя выполняют множество других функций в классе. Учителя задают тон своим классам, создают теплую обстановку, наставляют и воспитывают учеников, становятся образцами для подражания, прислушиваются и ищут признаки неприятностей.

Ключевые слова: роль, учитель, XXI века, навыки мышления, роль

Нация зависит от деятельности учителей. Идентично, они работают, чтобы вырастить основание студентов. Независимо от того, школа это, колледж или университет, квалифицированный учитель - строитель ученика. Даже учитель по специальным навыкам или техническим курсам выполняет обязанности общества. По этой причине лидер завтрашнего дня создается учителем. В то же время, если учитель не может открыть вечную силу ученика, ученик терпит неудачу во всей своей жизни. Это означает, что учитель - лучший наставник в жизни ученика. Система образования XXI века радикально изменилась с внедрением технологий в каждом секторе. В то же время студенты более зрелы, чем в прошлый раз. В настоящее время в образовании двадцать первого века зависят навыки мышления, навыки межличностного общения, информационные медиа, технологические навыки, а также жизненные навыки. Особенно в образовании современности акцент делается на жизненные и карьерные навыки. Теперь нет никакого смысла для заучивания. В общем, это необходимо для удовлетворения потребностей отрасли. Чтобы уточнить, обучение будет эффективным, когда ученик может использовать урок за пределами классной комнаты.

Меняющаяся роль учителей в 21 веке: Для изменения глобализирующегося мира роль учителей имеет важное значение для улучшения устойчивого образования. В то же время, вдохновляя и направляя студентов на повышение навыков трудоустройства с помощью цифровых инструментов, является необходимым условием для учителя. Таким образом, учитель в двадцать первом веке будет цифровым учителем. Преподаватели не являются помощниками в обучении только студентов, и теперь они несут ответственность за обучение студентов навыкам трудоустройства, расширению кругозора, развитию цифровой гражданственности, критическому мышлению и творчеству, а также устойчивому обучению. Таким образом, победа студентов является победой учителей.

В противном случае студенты не получат урок, и это увеличит количество образованных безработных в цифровую эпоху. Давайте посмотрим, как меняется роль учителя в 21 веке.

1. Планировщик карьеры 21-го века

Это самый конкурентоспособный мир, и у него есть разнообразная возможность выбрать следующую карьеру для студента. В этом случае учитель должен стать большим планировщиком, чтобы поддерживать их в соответствии с их психологией. Будущее студента будет зависеть от 4C (Критическое мышление, Коммуникация, Сотрудничество и Творчество). Обязанность учителя - представить им упомянутые термины очень четко. Студенты должны будут попробовать несколько междисциплинарных заданий. Таким образом, учителя будут определять, где они будут придавать большее значение, и какие навыки нужны только для повышения ценности или сохранения в качестве необязательных Кроме того, если педагог может дать студентам правильное руководство для построения карьеры в 21-м веке, он будет самым разносторонним в своей карьере и жизни.

2. Поставщик ресурсов

В наш цифровой век интернет полон вспомогательных ресурсов. Это может быть видеоурок YouTube, цифровой контент, электронные книги или даже распечатка документов. Если учащийся получает вспомогательные материалы о том, как обогатить критическое мышление, навыки общения, сотрудничество и творческий подход, он может вести свое будущее.

3. Цифровой инструктор по различным способам обучения

Эффективные учителя не ограничивают учебные ресурсы для студентов. Соответственно, они лучший инструктор для студентов. Напротив, они будут создавать развлекательные учебные материалы. В эпоху цифровых технологий вы можете найти множество ресурсов, которые эффективно преподают курс.

Безусловно, быть учителем 21 века не так-то просто, и человек, который решил посвятить свою жизнь этой благородной профессии должен всегда помнить, что он тот, кого ученики запомнят и будут вспоминать всю жизнь . И его задача - сделать все возможное, чтобы эти воспоминания были светлыми и радужными.

Таким образом, вы, как строитель нации, можете столкнуться с тем, что ваши студенты заняты компьютерными или мобильными играми или работой в Интернете. Здесь вам нужно указать ресурсы в Интернете. Это повысит интерес студентов. Во что бы то ни стало, следуйте всем вышеперечисленным правилам, если вы хотите стать учителем-победителем в XXI веке.

Список использованной литературы:

1.Мырзаханова И.А., Садыкова А.Е., Советканова Д.М. РОЛЬ УЧИТЕЛЯ В РАЗВИТИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО И ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА МОЛОДЕЖИ // Международный журнал экспериментального образования. - 2014

2.Черкесов Б.А., Лобода О.Б. УЧИТЕЛЬ XXI ВЕКА: КАКОЙ ОН? // Успехи современного естествознания. - 2015.

PUBLITSISTIK MATNLAR SARLAVHALARIDA IMPLIKATSIYANING IFODALANISHI

Abduraimova Shohsanam Ismoil qizi
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU,
2-kurs magistranti
+998997902342

Annotatsiya. Maqolada publitsistik matnlarda sarlavhalarning o'rni, tuzilish jihatidan turlari, ularda implikatsiyaning ifodalanishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Publitsistika, implikatsiya, eksplitsit, axborot, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, publitsistik uslub.

Ma'lumki, muloqot ko'p tomonlama o'ziga xos jarayon bo'lib, bu jarayon ishtirokchilari bir-birlarini to'g'ri anglashlari, idrok etishlari uchun uchun til egalarining maqsadi, til birliklarini to'g'ri qo'llay olishi, kontekt va nutq vaziyati katta rol o'ynaydi. Publitsistik matnlarda sarlavhalarning to'g'ri tanlanishi muhim ahamiyatga ega, ularda yashirin axborot ifodalanishi mumkin. Nutq jarayonida ifodalanadigan implitsitlik muammosi bugungi kunda nafaqat tilshunoslarni, balki boshqa soha vakillarini ham o'ziga xos ifodasi, murakkab semantik tarkibi, turli vositalar orqali yuzaga chiqishi bilan qiziqtirib kelayotgan masalalardan hisoblanadi. "Implikatsiya" tushunchasi til tarixchisi Gerbert Pol Grays tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, u o'z ishida "mantiq va nutq aloqasi", nima deyildi va nima nazarda tutilganligi o'rtasidagi aniq chegarani belgilab beradi.

Tilshunoslar axborotning lisoniy belgilar orqali bevosita ifodalanishini eksplitsit ifodalanish, fikrning leksik va grammatik belgilari orqali ochiq ifodalanmay, tinglovchi yoki o'quvchi tomonidan mustaqil idrok qilishni ko'zda tutuvchi ma'nosini implitsit ifodalanish sifatida belgilaydilar. Bugungi kunda pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar uchun qiziqarli bo'lgan implikatsiya tushunchasi "ifodalanmagan ma'no (axborot), ifodalanmagan fikrdan vujudga keladigan xulosa, ikki yoki undan ortiq lisoniy birliklarning nutq jarayonidagi mantiqiy-ma'noviy bog'liqligini ifodalaydi" [1.78]

Biz ushbu maqolamizda o'zbek ommaviy axborot vositalari, xususan, internet tarmog'idagi axborot kanallaridan biri "Kun.uz" sahifalaridagi xabarlar va ularning sarlavhalarini tahlil qilishga harakat qildik. Publitsistik matnlar o'ziga xos bo'lib, "publitsistika emotsional, ta'sirchan, ifodali sohadir, biroq bu ta'sirchanlik tabiati badiiy adabiyotdan farq qiladi, chunki u obrazli emas" [3.42]. Shunday bo'lsa-da, har ikkala matn turida ham sarlavhalarning to'g'ri tanlanishi muhim ahamiyatga egadir. "Kun.uz" sahifalaridagi xabarlarning sarlavhalarini tuzilish jihatidan quyidagi turlarga bo'lish mumkin.

1. Bir so'zdan iborat sarlavhalar. Bunda e'tibor qaratilgan sub'ekt yoki ob'ektni ifodalagan so'z alohida ajratiladi.Vazir: Stipendiyaislohotidan zarar ko'rgan talabalargapullar qaytariladi.; Foto: I.Karimovning birinchi mobil telefoni.

2. So'z birikmasi alohida ajratilgan sarlavhalar: "Barbod qishloq". Ustabuzarmonlardan qolgan izlar bo'ylab.; Iste'folar haftasi. Jizzax viloyatidan ham bir hokim ishdan ketdi.

3.Uyushiq holatdagi sarlavhalar: 21 qurbon, 50 dan ortiq yarador: Kerchdagi voqea haqida kim nima demoqda?; Is gazi yo ovqatdan zaharlanish. Mutasaddilar muammoga befarqmi?

4. Sodda gap shaklidagi sarlavhalar: Choy nimasi bilan zarar: olimlarning 6 ta kutilmagan xulosasi.; Vannadagi bola voqeasi. Bog'chalardagi kulgili va ayanchli holatlar.; Ozish uchun ofis badantarbiyasi: Ish vaqtida badantarbiyani to'g'ri tashkillashtirishga oid o'n maslahat

Yuqorida keltirilgan maqolalarning sarlavhalarida yashiringan ma'nolarni tahlil qilib ko'raylik. Choy nimasi bilan zarar: olimlarning 6 ta kutilmagan xulosasi maqola sarlavhasidan choyning zararli tomonlari ham bor degan yashirin axborot anglashiladi. Yoki vannadagi bola voqeasi sarlavhasidan bola vannada yotishi mumkin emas degan axborot anglashiladi. Sarlavhaning davomi ya'ni, bog'chalardagi kulgili va ayanchli holatlar voqeadan kulish yoki achinish kerakligini o'quvchining o'ziga havola qiladi. Sarlavhalar publitsistik matnlarda asosiy kalit hisoblanadi. To'g'ri tanlangan sarlavha o'quvchining diqqatini tortibgina qolmay, axborot nima haqidaligini ham ifodalaydi. Shuning uchun ham sarlavhaga axborotning eng qiziq, muhim, o'quvchining diqqatini tortadigan jihat tanlanadi. Ozish uchun ofis badantarbiyasi sarlavhadan ofisda ham badantarbiya qilish mumkin degan axborot yashirin ifodalangan. "Publitsistik uslub o'z mohiyat e'tibori bilan ijtimoiylikka mansub bo'lgani bois bu uslubga doir matnlar, asosan, davlat yoki jamiyat hayotida ayni paytda ro'y berayotgan o'zgarishlarni o'zida aks ettirishga qaratiladi" [2.25]. Buni quyidagi sarlavhada ham ko'rishimiz mukin. "O'zavtosanoat"da arzon avtomobillar ishlab chiqarish rejasi yo'qmi sarlavhali maqoladan O'zavtosanoat faqat qimmat avtomobillar ishlab chiqaradi degan xulosa chiqadi. UzAvto Motors'ning to'rtta yangi modeli

xorijdan olib kelib sotiladi sarlavhali maqola UzAvto Motors' avtomobil ishlab chiqaradi degan ma'lumotning zidini beradi, ya'ni yangi to'rtta model ishlab chiqilmaydi degan axborot yashirin ifodalanadi. Demak, sarlavhaning bunday qo'yilishi diqqatni tortadi hamda o'quvchilar sonining oshishiga xizmat qiladi.

Umuman, publitsistik matnlarda sarlavhaning to'g'ri qo'yilishi muhimdir. Unda yashiringan axborotning to'g'ri anglanishi uchun esa o'quvchidan til egalari uchun umumiy bo'lgan bilimlardan xabardorlik talab etiladi. Yashirin axborot to'g'ri anglanganda muallif qo'ygan maqsadiga erishadi, siqiq ifoda orqali ko'p ma'no anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Мирбобоева Д. Ипликация тушунчасининг когнитив-прагматик аспектда талқин қилиниши // www.journal.fledu.uz № 6. 2019. - Б.77-82

2. Одилов Ё. Публицистик матн ва тил бирликларида маъно тараққиёти //Ўзбек тили ва адабиёти. № 3. 2019. - Б.25-30

3. Тешабоева Д., Усмонова Ш. Публицистик дискурс матн асосини ташкил қилувчи концептуал тил бирлиги сифатида // www.journal.fledu.uz № 1. 2019. - Б.39-45

LINGUA-CULTURAL DIFFERENCES BETWEEN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS

Azimova Umida
Master's degree student of TerSU
Tel. number: +998912349694
miss.azimova21@gmail.com

Abstract

This thesis is aimed at to explain the peculiarities of English and Uzbek proverbs, their differences according to two different nations' cultures, compare the proverbs' structures in English and Uzbek. As English proverbs contain semantic-syntactic structure, historical, cultural and structural features, it is essential to differentiate lingua-cultural differences between English and Uzbek language. In this article, such cases of these two languages are discussed.

Key words: proverb, paremiology, lingua-cultural, translation, target language, source language, peculiarities

It would appear that nothing could be easier than writing down the definition of a proverb. "Oxford Dictionary of English proverbs" defines a proverb as a sentence that has been developed orally and is still used by the people of a region. Proverb is a brief saying that presents a truth of some bit of useful wisdom. True proverbs and sayings that have been passed from generation to generation, primarily by word of mouth. They may also have been put into written form and proverbs help us to learn English, because they are good example of English culture and language. Because many proverbs are both poetic and traditional, they are often passed down in fixed forms. Although spoken language may change, many proverbs are often preserved in conservative, even archaic form. Therefore, it is common that they preserve words that become less common and archaic in broader society. From the perspective of language form, English proverbs and sayings are characterized by religious structure, concise form, deep moral, bold image, unique geography and ethnic characteristics, and from the perspective of cultural backgrounds, they are associated with religious beliefs, habits and customs, fables and myth, culture and art. Therefore, it is not an easy job to translate them precisely, because these characteristics make difficulties for us to translate English proverbs and if we want to keep the original proverb's language and taste.

Фузулий ўзидан кейинги барча туркий тилли шоирлар, жумладан, ўзбек шоирларига ҳам кучли таъсир кўрсатган. Фузулий таъсирида, унга эргашиб шеърлар битиш, шоир ғазалларига назира-татаббуълар ёзиш, мухаммаслар боғлаш деярли барча шоирлар ижодида учрайди. Фузулийнинг озарбайжонча девони ўзбек халқи орасида XVIII - XIX асрлардаёқ кенг тарқалган ва бир неча бор ўзбек тилида нашр қилинган. Вадуд Маҳмуд Фузулийнинг туркистонлик шоирлар ижодига кучли таъсири, унинг асарлари энг "маъруф китоблардан бири" сифатида кенг тарқалганлиги, Фузулийнинг таъсирида икки тиллилик пайдо бўлгани ҳақида алоҳида қайд этади. Фузулий усулида шеър ёзган шоирлар кўплиги, айниқса, буларнинг ичида Умархоннинг ўғли Муҳаммад Алихон Фузулий услубини чуқур ўзлаштирганлиги, ҳатто шеърларини Фузулийникидан ажратиш қийинлигини эътироф этиб, шу йўлдаги "Оҳким, дўкди фалак қонимни мужгонимдан" деб бошланувчи ғазалини тўлалигича келтиради. Тадқиқотчи тўғри англаб етганидек, ғазал Фузулий шеърларига жуда ҳамоҳанг тарзда битилган. Шоир Муҳаммад Алихон шеърда Фузулий шеърларининг шаклий жиҳатларинигина эмас, балки ифода тарзи ҳамда ғоявий моҳиятини ҳам сингдиради.

Фузулий асарлари қўлёзмалари дунё бўйича кенг тарқалган. Улар ҳар бир йирик кутубхонада бир неча нусхада сақланади. Европада унинг етти асаридан 41 қўлёзма мавжуд. Маълумотларга кўра шоир асарлари Ўзбекистонда XVII - XX асрларда йигирма тўрт даъфа нашр этилган ва ҳар бир саводли кишининг қўлидан тушмас китоб бўлган .

Ҳозирда Алишер Навоий номидаги Ўзбек тили ва адабиёти университети қўлёзмалар фондида Фузулий девонларининг еттида ноёб қўлёзмаси мавжуд.

1958 - 61 йилларда Ҳамид Арасли таҳририда Фузулий асарларининг тўла илмий-танқидий нашри яратилди.

Бугунги кунда Фузулий асарлари ўрганилиб, крилл ва лотин алифболарида бир неча бор нашрдан чиқди. Ўзбек тилидаги дастлабки мукаммал нашр Холид Расул томонидан тайёрланган бўлиб, 1968 йилда "Муҳаммад Фузулий асарлар" номи билан икки жилдда Fафур Fулом номидаги бадиий адабиёт нашриётида чоп этилган. Ушбу нашр профессор Ҳамид Ораслининг 1958 йилда нашр эттирган "Муҳаммад Фузулий асарлари" китоби асосида нашрга тайёрланган. Шунингдек, шоирнинг 1569 - 1572 йилларда кўчирилган девонининг фото нусхаси ва Шоҳ Мурод Неъмат Охун ўғли томонидан кўчирилиб, Тошкентда 1891 йил тошбосмада нашр қилинган "Девони Фузулий Маъ Лайли Мажнун" китобидан фойдаланилган.

Фузулий туркий девони нашрларини ўрганар эканмиз, матнларда бир қатор ўзгаришларнинг

гувоҳи бўламиз. Жумладан, Т.Жалолов ва М.Муинзода нашрида сўзлар озарбайжон тилига хос. Мусанниф нашрни Ҳамид Орасли нашри асосида тайёрлаган. Масалан: тош - дош, тут - дут, мана - манга, сана - санга каби.

Холид Расул нашрида эса туркча сўзларни кўпроқ учратамиз. Сабаби мусанниф ушбу нашрда сўзларни қўлёзмада қандай келган бўлса ўз ҳолича ёки ўз тилимизда бўлганича олган ва шундай ёзган. Холид Расулнинг фикрича, энг эътиборли ҳисобланган, 1569/72 йилларда кўчирилган қўлёзманинг Боку нусхасида айрим сўзлар ўзбек шеваси талаффузига яқин. Шу сабабдан аслида қандай бўлса, шундай олинган. Масалан, аксик, дурпоқ, ўх сўзлари қўлёзмада келган ўксик, турпоқ, ўқ шаклида ўз ҳолича келтирилган. Ҳ.Орасли эса, ўз нашрида озарбайжон тилини етакчи ўринга қўйган.

Ҳозирги кунда Алишер Навоий номидаги Ўзбек тили ва адабиёти университети қўлёзмалар фондида сақланаётган 863 рақамли китобда Фузулий девони берилган. Ушбу қўлёзмани Холид Расул нашри билан солиштирганда баъзи бир ўзгаришларга дуч келдик. Жумладан, "Қад анорал - ишқа лил-ушшоқи минҳожал ҳудо" мисраси билан бошланувчи ғазалда 3 ва 4 - байтлар ўрни қўлёзмада алмашиб келинган.

"Ё ма антаҳо илмукал ашёа куллаҳо" мисрали ғазалнинг иккинчи байти биринчи мисрасидаги "йўлингда" сўзи қўлёзмада "кўйингда" деб ёзилган. 3-байт 2-мисрасида "илм ганжи" сўзи қўлёзмада "ганжи илм" тарзда келган.

"Ё Раб, ҳамиша лутфингни эт раҳнамо манго" мисраси билан бошланувчи ғазалда иккинчи мисра ёзилмай қолган. "Манго" радифи "банго" шаклида қўлланилган. Иккинчи байт қўлёзмада тўртинчи байтда келган. Олтинчи байтда "ман" сўзи қўлёзмада "бан" шаклида ифодаланган. Еттинчи байт биринчи мисрасидаги "ўлур" сўзи қўлёзмада "улдур" шаклида ёзилган.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, Алишер Навоий номидаги Ўзбек тили ва адабиёти университети қўлёзмалар фондида сақланаётган мазкур қўлёзмада асар тили озарбайжон шевасига мансублигининг гувоҳи бўламиз. Ьазкур қўлёзма 1903 йилда Тошкентда кўчирлган. Фонддаги бошқа қўлёзмалар 1893, 1900, 1901 йилларга оид.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, буюк озар шоири Фузулий асарлари йиллар давомида халқимиз қалбидан чуқур жой олган ва мумтоз шоирларимиздан тортиб, Э.Воҳидов, Ж.Камол, Г.Саидғани каби шоирлар шеъриятига ҳам катта таъсир кўрсатган. Фузулий хизматлари натижасида бу борада шеъриятда ижодий анъана давом этган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.Фузулий. Девон. Қўлёзма. Тошкент: - 1903.

2. "Фузулий девони". Нашрга таёрловчи Т.Жалолов ва М.Муинзода. Т.: ЎзССР давлат бадиий адабиёт нашриёти - 1959.

3. Вадуд Маҳмуд. "Фузулийи Бағдодий". Мақола. "Маориф ва ўқитғувчи" журнали 1925 йил 4 сон.

4. Холид Расул. Муҳаммад Фузулий асарлар. Икки жилдлик. Биринчи жилд. 1968, 6-бет.

КОРЕЙС ТИЛИДА ФЕЪЛЛАРДАГИ КЎП МАЪНОЛИЛИКНИНГ ИФОДАЛАНИШИ

Камалова Ширин(СамДЧТИ 1-курс магистранти)
Тел:+998(93)831 55 15
Izzatzoda94@mail.ru

Аннотация: Ушбу илмий мақолада ўзбек ва корейс тилларидаги полисемия ҳодисаси ва феъларда кўп маънолилик ҳодисаси ўрганилиб, унинг чет тилларни ўрганишдаги аҳамияти кўриб чиқилган.

В данной научной статье рассматривается феномен полисемии в узбекском и корейском языках и феномен полисемии в глаголах, а также обсуждается его значение в изучении иностранных языков.

This scientific article examines the phenomenon of polysemy in Uzbek and Korean languages and the phenomenon of polysemy in verbs, and discusses its importance in the study of foreign languages.

Калит сўзлар: моносемия, полисемия, ўз маъно, кўчма маъно, бир ва кўп маънолилик, феъларда кўп маънолилик, кўп маъноли феъллар.

Тилдаги сўзлар бир ва бирдан ортиқ маънога эга бўлиши мумкин. Бир маънолилик ҳодисаси моносемия, кўп маънолилик ҳодисаси эса полисемия деб юритилади. Масалан, мармар, гоя, хулоса, таассурот каби сўзлар ва илм - фан соҳаларига доир атамалар бир маъноли сўзлардир. Ўз ва кўчма маънолари туфайли икки ёки ундан ортиқ маънога эга бўлган сўзлар эса кўп маъноли (полисемантик) сўзлар дейилади. Тилшуносликда сўзнинг кўп маънолилик хусусиятини ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Чунки кўп маъноли сўзлар турли усуллар воситасида маъно кўчиши орқали ўз маъносидан бошқа маънолар ифодалаган ҳолда тилнинг ифода имкониятларини бойишида муҳим аҳамият касб этади. Демак, кўп маъноли сўзлар ўз маъносидан ташқари кўчма маъноларга ҳам эга бўлади. Сўзнинг нутқдан ташқарида, яъни тилда ифодалаган маъноси ўз маъноси деб аталади. Масалан, кўз, этак сўзлари якка ҳолда ишлатилганда унинг асл, яъни ўз маъноси англашилади. Сўзнинг гап ичида, яъни нутқдаги ўз маъносидан бошқачароқ мазмун ифодалаши унинг кўчма маъноси деб юритилади. Масалан, ишнинг кўзи, тогнинг этаги каби бирикмалар таркибида кўз ва этак сўзлари кўчма маънода қўлланган.[2, 42]

Шу ўринда корейс тилида ҳам сўзлар ўз маъносидан бошқа маъноларда қўлланилиш жараёнини кузатиш мумин. Бунда корейс тили мулоқотида асосий сўз туркумларидан бири бўлмиш феъллар орқали ушбу маъно кўчиш ҳодисасини кўриб чиқайлик. Келиб чиқиши жиҳатидан полесемия бир предметни ёки ҳодисанинг номини бошқа предмет ёки ҳодисага кўчириш орқали пайдо бўлади. Лекин, бу ҳодиса, асосан, от сўз туркумига тегишлидир. Феъларнинг кўп маънолилига эса бошқа сўзларга боғланган ҳолда, яъни матн таркибида қўлланилганда ўз маъносидан бошқа кўчма маъноларни ҳам ифодалаб келиши мумкин. 먹다 – емоқ, ичмоқ, қабул қилмоқ, ўсмоқ, 살다 - яшамоқ, мавжуд бўлмоқ, ҳаёт кечирмоқ, ўчмаслик(олов), ишламоқ, умр ўтқазмоқ, 보다 – кўрмоқ, томоша қилмоқ, ўқимоқ, кўриб чиқмоқ, кўришмоқ, қарамоқ, ғамхурлик қилмоқ, 잡다 – ушламоқ, тутмоқ, топмоқ, тўхтатмоқ, 주다 бермоқ, 받다 олмоқ, 있다 бор, 없다 йўқ, :자다 ухламоқ, 늘다 ўсмоқ, 오다 келмоқ, 가다 бормоқ, 돌다 қайрилмоқ, 듣다 эшитмоқ, 맞다 тўғри бўлмоқ, 서다 турмоқ, 생기다 пайдо бўлмоқ, 들다 кирмоқ, 걸리다 осилмоқ, 오르다 кўтарилмоқ каби феъллар кўчма маъноларда қўлланилиш ҳолатлари кўп кузатилади. [3,168-257]

“먹다” феъли мисолида нутқнинг турли шароитларида, турли хил маънолар беришини кузатамиз. Дастлаб “먹다” феълини асосий маъносига эътибор берадиган бўлсак, “먹다” феълининг асл маъноси ўзбек тилига “емоқ(бирор озуқани оғиз орқали ичга қабул

қилмоқ)” маъносини беради. Бу феълнинг қўлланилиш даражаси ниҳоятда кенгдир. “먹다” феълининг луғавий маъноларига эътибор бериб қарасак, ушбу феъл йигирмадан ортиқ луғавий маънога эга бўлган кўп маъноли сўз эканини билиб оламиз. “먹다” феълининг луғавий маъноларига мисоллар келтирган ҳолда, унинг қандай маъноларда келишини кўриб чиқамиз.

먹다 – емоқ феъли корейс тили луғатларида кўп маъноли сўз сифатида гап таркибида ёки сўз бирикмаларида кўчма маъноларида қўлланилиш ҳолатлари ифодаланганлигини кўриш мумкин. “한국어-러시아 학습사전” ва “새한노사전” луғатларида ифодаланган маънолари орқали кўриб чиқамиз:

1) Овқат кабиларни оғиз орқали ичига қабул қилмоқ: 우리는 점심에 식사로 된장찌개를 먹었다. Биз тушликка твенжангчиге едик; 2) Суюқликни ичга қабул қилмоқ, ичмоқ: 우리는 카페에서 가서 시원한 과일 주스를 먹었다. Биз кафега бориб салқин мевали шарбат ичдик; 3) Дори воситаларини ичга қабул қилмоқ: 나는 배가 앞아서 약국에서 약을 사 먹었다. Мен қорним оғриганлиги учун дорихонадан дори сотиб олиб ичдим; 4) Сигарет чекмоқ ёки наркотик моддаларни қабул қилмоқ, чекмоқ: 젊어서부터 담배를 많이 먹었더니 폐가 안 좋다.

Ёшликдан кўп сигарет чекканлигидан ўпкаси касал; 5) Қандайдир газ, тутунларни ўзига қабул қилмоқ, олмоқ, ютмоқ: 모닥불 옆에 가까이 가니 연기를 먹게 되어 눈물이 났다. Гулхан ёнига яқин боргандим, тутунни ютиб кўз ёшим чиқди; 6) Қарор қабул қилмоқ ёки бирор туйғуни ҳис қилмоқ: 마음을 먹다. Қарор қилмоқ; 7) Ўсмоқ, бирор ёшга тўлмоқ, ёшига ёш қўшилмоқ: 어머니는 스무 살 먹던 해애 결혼을 했다. Онам йигирма ёшга тўлган йилда турмуш қурган; 8) Қўрқувни ҳис қилмоқ ёки шокка тушмоқ, қўрқмоқ: 아이는 군인을 보자 겁을 먹고 엄마 뒤에 숨었다. Бола ҳарбийни кўриши билан қўрқиб онасининг орқасига яширинди; 9) Бошқалардан танбеҳ, ҳақорат, таъна кабиларни эштиш: 김 대리는 실수를 하여 직원들에게 핀잔을 먹었다. Ўринбосар Ким хато қилганидан ишчилар томонидан маъломатга қолди; 10) Фойда олмоқ, бирор фойда даромадга эга бўлмоқ: 노인은 퇴직금을 은행에 넣고 이자를 먹으며 살았다. Қариялар нафақасин банкка қўйиб, фойдасини олиб яшайди; 11) Суюқлик, намлик ва ёғ маҳсулотларини шимиб олмоқ, ўзига олмоқ: 습기를 먹은 과자는 눅눅해져 맛이 없었다. Намлик шимган ширинлик нам бўлиб қолиб таъми йўқолган; 12) Спорт мусобақасида балл йўқотмоқ: 우리 팀은 전반전에 세 골을 먹어 현재 지고 있다. Бизнинг гуруҳ ўйиннинг биринчи яримда учта гол еб, ҳозир ютқазмоқда; 13) Бошқа одамдан калтак емоқ: 상대 선수가 주먹 한 방 먹고 나가떨어졌다. Рақиб спортчи бир мушт еб йиқилди; 14) Бирор кишининг нарсаси ёки пулини ноҳақлик билан тортиб олиб ўзиники қилиш: 김 부장은 회사의 돈을 모두 먹고 달아났다. Бўлим бошлиғи фирманинг ҳамма пулларини еб қочиб кетди; 15)Жазо олмоқ, бирор чеклов олмоқ: 나 학교에서 정학 먹었다. Мен вақтинча мактабдан четлатилдим; 16) Бирор ҳаёт тарзи ёки маданиятини тажриба килиб олмоқ: 내가 미국 물을 좀 먹어서 영어 발음이 좋아요.

Мен Америка сувини ичганим сабабли(тажриба қилган)инглиз тили талаффузим яхши; 17) Бирор жойда, ташкилотда ишлаш ёки яшаш: 우리는 오랫동안 같은 직장에서 한솥밥을 먹어 온 든든한 동료이다. Биз узоқ вақт бир ишхонада бир қозондан овқат еб юрган қадрдон ҳамкасбларимиз; 18) Ўткир тиғли асбобларга нисбатан яхши кесилмоқ, яхши ишламоқ: 나무가 너무 단단해서 칼날이 잘 먹지 않는다. Дарахт жуда қаттиқ бўлганлиги сабабли пичоқ тиғи яхши ўтмаяпти; 19) Яхши тарқалмоқ ёки текис ётмоқ, бирор юзага бирор ёғли ёки суюқлик ейилмоқ: 구두약이 잘 먹은 구두가 반짝거렸다. Оёқ кийим креми яхши сурилган туфли ярқирарди; 20) Пул ёки буюмларни ишлатмоқ, сарфламоқ: 형은 교통비가 많이 먹는다고 차를 새로 샀다. Акам йўл ҳаққини кўп сарқлаяпман деб янги машина олди; 21) Ёши ўсмоқ, катталашмоқ: 나는 나이가 먹었어도 어릴 적 꿈을 간직하고 있다. Мен ёшим ўсган бўлса ҳам ёш боладек орзулар қилмоқдаман.[6, 196]

Худди "**먹다**" феъли каби бошқа бир қатор феълларда ҳам кўп маънолилик хусусиятларини кўришимиз мумкин. Масалан, **살다 – яшамоқ феъли** *яшамоқ; мавжуд бўлмоқ; ҳаёт кечирмоқ; ўчмасдан ёнмоқ(олов); олдингидек қолмоқ; намоён бўлмоқ(ранг, характер); хотирада, қалбда яшамоқ; ишламоқ - нарса ёки техника ўз функциясини бажармоқ; омон қолмоқ, бирор ўйинда тирик қолиш; жонли, тирик бўлмоқ(матн, нутқ, феномен); турмуш қуриб бирга умр ўтқазмоқ* каби маъноларда қўлланила олади. 시계가 살아 있다 Соат ишламоқда; 혼자 살다 ёлғиз яшамоқ;연탄불이 살다 гулхан ёнмоқда[3, 224]. **보다 – кўрмоқ феъли** *қарамоқ, томоша қилмоқ, ўқимоқ, кўриб чиқмоқ, кўриб чиқмоқ, кўришмоқ, қарамоқ, ғамхурлик қилмоқ, билмоқ, фол кўрмоқ, текширмоқ, топширмоқ(имтиҳон), шуғулланмоқ, эришмоқ, натижа кўрмоқ, оила аъзосига эга бўлмоқ, фойда олмоқ, зарар кўрмоқ каби маъноларда корейс тили мулоқотида кенг қўлланилади*. 그림을 보다 Расм кўрмоқ; 신문을 보다 газета ўқимоқ; 아이를 보다 Бола кўрмоқ; 이익을 보다 фойда кўрмоқ. **잡다 – ушламоқ феъли** *ушламоқ (қўл билан бирор нарсани), тутмоқ, ушлаб сўймоқ, тутиб олмоқ, топмоқ(пул, бойлик), тўхтатмоқ, ушламоқ(машина), тутиб олмоқ, ушлаб олмоқ(кадр, кўринишни), олмоқ, эга бўлмоқ(иш, имконият), эгалламоқ (катта балл, ютуқли рақам), тўхтатмоқ, тутиб қолмоқ(одамни), сақлаб қолмоқ, белгиламоқ(режа, сана), ўзини қўлга олмоқ, гаровга қўймоқ каби ўндан ортиқ маъноларда қўлланилади*. 도둑을 잡다 ўғрини тутмоқ; 택시를 잡다 такси ушламоқ; 집을 잡다 уй олмоқ[3,257]. **주다 – бермоқ феъли** *бермоқ (нарса предмет); бермоқ (баҳо, ҳуқуқ); салбий таъсир кўрсатмоқ; кўнглини очмоқ, меҳр бермоқ каби кўчма маъноларда ҳам қўлланила олади.* 상처를 주다 жароҳат етказмоқ; 사랑을 주다 севмоқ, меҳр бермоқ. **받다 – олмоқ, қабул қилмоқ феъли** *олмоқ(предмет); йиғиб олмоқ; олмоқ(ҳолат, жараён); қабул қилмоқ(одам); олмоқ(пичоқ зарби, ўқ)* 세금을 받다 солиқ олмоқ; 손님을 받다 меҳмон қабул қилмоқ; 칼을 받다 пичоқ емоқ. **자다 – ухламоқ феъл** *ухламоқ, биологик ҳолат, тўхтамоқ, бирор предмет ўз вазифасини бажаришдан тўхтамоқ, ётмоқ, босим остида пачоқланмоқ (соч, ёстиқ, пар), ётмоқ, бирор нарса ишлатилмай туриши ёки ёпиқ бўлиши*: 시계가 자다 соат ухлапти; 머리가 자다 сочим ётиб қопти. **오다 – келмоқ феъли** *Бир жойдан иккинчи*

жойга ҳаракатланмоқ; бирор восита белгиланган жойга ҳаракатланмоқ, бошқа одамга бирор нарса ўтмоқ, етказилмоқ; бирор кишига етиб елмоқ(хабар, янгилик); келмоқ, пайдо бўлмоқ(омад, бахт, имконият); исталган жойига эришмоқ, етмоқ; узунлик ёки чуқурлик бирор даражагача етмоқ; ёғмоқ(қор, ёмғир) ёки тушмоқ(совуқ); бирор касаллик ёки уйқучанлик пайдо бўлмоқ; келмоқ (бирор вақт, фасл); 전화가 오다 қўнғироқ бўлмоқ; 물이 무릎까지 오다 сув тиззагача келди; 눈이 오다 қор ёғмоқда; 잠이 오다 уйқим келди[3,428].

가다 – бормоқ, кетмоқ феъли *бормоқ, бир жойдан иккинчи жойга кўчмоқ; транспорт воситалари жўнамоқ; бирор жойга бирор мақсадда бормоқ; ўтиб кетмоқ, бошқа бировнинг мулкига айланмоқ; қизиқмоқ, диққати бирор нарсага қаратилмоқ; хабар бермоқ, етказмоқ; кетмоқ, вақт ўтмоқ; ҳуши кетмоқ, ўзини йўқотмоқ; ҳаётдан ўтмоқ, ўлмоқ*: 버스가 가다 автобус кетди; 재산이 가다 бойлик кетди; 시간이 가다 вақт кетди; 젊은 나이에 가다 ёшлигида кетди(ўлди).[3,11]

Юқорида келтирилган мисоллар орқали шуни кўришимиз мумкинки, корейс тилидаги феълларнинг кўп маъноларда қўлланилиши ва ўзбек тилидаги баъзи феълларнинг айнан ўша маънода қўлланилган ҳолатларини кўриш мумкин. Масалан, бормоқ, кўрмоқ, емоқ каби феълларнинг ўзбек тилида ҳам корейс тилидаги каби кўплаб маъноларда қўлланилишини кўриш мумкин. Шунингдек, тилларда сўзларнинг ўз маъносидан бошқа маъноларда қўлланилиш ҳодисасининг ўрганилиши чет тилларини янада мукаммал тарзда ўрганилиши учун катта аҳамиятга эга ҳисобланади. Ҳар бир тил ўрганувчи ўз она тилидаги ва ўрганаётган чет тилидаги сўзларнинг ўз маъносидан бошқа маъноларда қўлланилишини ўрганмас экан, тил билиш даражаси паст ҳисобланиб, кўплаб камчилик ва хатоларга йўл қўшиши мумкин бўлади. Бирор чет тилидаги асарни ўзбек тилига таржима қилмоқчи бўлсак, тилдаги баъзи сўзлар ўз маъносидан бошқа маънода қўлланилаётганлигини билшимиз зарур ҳисобланади. Шунда таржима тўғри ва таъсирли бўлади. Тилшуносликда ҳам, тил ўргатиш ва ўрганишда ҳам ўшбу ҳодиса ўз аҳамиятига эга ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Сайфуллаев Р., Менглиев Б. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 2010, 234 –б.
2. Турниёзов Н., Раҳимов А.: Ўзбек тили (маъруза матни) 1 -қисм. Самарқанд, 2006, 175 б.
3. Светличная Н.И., Н Ким. Новый корейско-русский и русско-корейский словарь. – М.: Дом Славянской книги, 2013. 960 с.
4. 이기문. 새국어사전. 서울. 2004.
5. 김석주, 이숭녕 국어사전. 서울.: 동아출판사. 1986
6. 새한노사전. 서울.: 한국외국어대학교출판부. 2009. 1312 б
7. http://www.koreaaward.com
8. http://www. naver.com
9. http://krdict.korean.go.kr/rus

ПРОДУКТИВНОЕ ПРЕПОДАВАНИЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА МАЛЕНЬКИМ ДЕТЯМ.

Караматдинова Шахсанем Байрамовна
Узбекский государственный университет мировых языков
Телефон: +998(91)303 59 95

Аннотация

Эта статья предоставляет полезную информацию о различных методах и эффективных способах, чтобы проводить уроки более увлекательным и интересным. Кроме того, дан ряд принципов преподавания английского языка молодому поколению и какими качествами должен обладать учитель языка, а также некоторыми наблюдениями и занятиями, чтобы побудить учителей преподавать английский в начальный уровень студентов.

Ключевые слова: произношение, новые слова, ролевая игра, загадка, обманщик, само мотивация, грамматические теории, мультфильм, алфавит, сложные предложения, жесты, эмоциональные положения.

В настоящее время английский язык становится все более популярным и распространенным в каждой стране. Во всем мире не только взрослые, но и множество детей хотят изучать английский язык и свободно говорить по-английски. Очевидно, что обучать детей любому языку сложнее, чем пожилым. Однако считается, что дети младшего возраста имеют тенденцию быстро освоить любой язык из-за естественной способности легко овладеть языком. Взрослые или подростки сталкиваются с различными трудностями при изучении английского языка, такими как произношение слов, которые трудно произносить, и учение новых слов из-за нехватки энергии и памяти, чтобы выучить их наизусть, в то время как дети могут идеально имитировать произношение новых слов и легко запоминать слова, которые им незнакомы.

Что касается обучения детей английскому языку, это правда, что маленькие дети, скорее всего, будут любознательными и хотят чему-то научиться с удовольствием, если их интересовать. Поэтому обучение детей требует активной, творческой и организованной деятельности, которая будет им интересна. Если маленькие дети занимаются тем, что им любопытно, есть отличная возможность отучить их. Молодым учащимся нужны разнообразные короткие занятия, чтобы заинтересовать их. Попробуйте чередовать живые "волнующие" занятия со спокойными "успокаивающими", чтобы использовать энергию учащихся, избегая чрезмерного возбуждения и разнообразия. Использование различных интересных и забавных занятий для обучения детей младшего возраста даёт эффективные результаты. Преподавание английского языка детям с жесткими, скучными и некоторыми грамматическими теориями затрудняет детей. В этом случае невозможно приобрести что-либо для детей. Например, изучение алфавита с песней является более эффективным и забавным, чем просто выучить их наизусть. Кроме того, мультфильмы - самая любимая детская программа. Дети могут выучить некоторые слова или фразы с помощью интересных английских мультфильмов. Хотя они могут не понимать предложения, которые в них используются, но они пытаются понять его значение с помощью действий или приобретений, эмоциональных состояний, используемых персонажами. Это считается одним из эффективных способов овладения процессом изучения языка. Другими способами продуктивного изучения английского языка являются ролевые игры на английском языке или загадки для детей. Им интересно найти ответ на загадку, и они будут искать ее. Как мы все знаем, скороговорки помогают нам свободно говорить по-английски. По этой причине дети могут выучить скороговорки, чтобы улучшить их разговорную речь.

20. Когда дело доходит до изучения новых слов, мини-проекты и видео считаются одним из замечательных способов обучения новым словам. Сделайте видео-просмотры короткими, однако, сделав его такими интересными, так как у детей короткие интервалы внимания. В видео-просмотрах, можно заставить детей считать фрукты, птиц и диких животных. Другая игра, которую можно выполнить, - это попросить молодых учеников поднять руки, как только они увидят в видео змею, леопарда, медведя или любых других животных. Признавая, что маленькие дети, как правило, учатся чему-то легко и без усилий, учителя должны найти инновационные и интересные способы привлечь внимания детей.

Ниже приведены несколько полезных советов:

- сделайте ваши уроки веселыми. Это может привлечь внимание детей, поскольку они

любят веселиться;

- играйте в игры больше. Если вы организуете игры на конкурентной основе, это поможет расширить их возможности и способности;

-будьте креативными;

-создайте более подходящую атмосферу для детей;

-старайтесь провести занятия на природе;

Одна из лучших игр для детей - память. Память -игра для изучения и запоминания новых слов. Попытайтесь поместить слово на одной карточке и изображение, показывающее слово на другой. Или поместите синонимы или антонимы на двух разных карточках. Сначала, вы должны показать все слова с соответствующими изображениями, и дети должны повторят за вами. Затем всё замешав, попросите одного из учеников найти слово с соответствующим изображением.

Когда вы учите детей, одна из самых важных вещей - это не оказывать на них давления. Помните, что дети учат некоторые аспекты иностранных языков легче, чем взрослые. Таким образом, независимо от того, что вы делаете в классе, они уже будут на пути к свободному владению английским языком.

Кроме того, должна быть реализована целевая стратегия по основным навыкам. Эти навыки включают в себя способность использовать эффективные методы, чтобы интересно проводить уроки, иметь знания об использовании инновационных технологий. Нам необходимо применять креативные и инновационные стратегии, уделяя особое внимание базовому образованию молодых учащихся. Использование современных и инновационных технологий делает уроки простыми для понимания, а также более продуктивными и эффективными.

Список литератур:

1.Кевин Д. Бесной, Лейн В. Кларк, Успех преподавания! Пошаговое руководство по использованию инновационных технологий в вашем классе, Prufrock Press, Inc. 1 октября 2009 г.

2. Николас Макгуинн, Дэвид Стивенс, Искусство преподавания вторичного английского: творческие подходы, Routledge; 7 августа 2004 г.

3.http: //www.learntEnglishlib.org/primary/p/4713

ПРОБЛЕМА АДАПТАЦИИ МОЛОДЫХ ПЕДАГОГОВ

Кронфельд Лидия,
Навоийская область,г.Навоий
СШУИОП №1, учитель истории
Телефон : +998979998878

Ключевые слова: эмоциональная устойчивость, классификация профессий, компетентность, самосовершенствование.

Профессия "учитель" - одна из самых древних профессий. Она будет востребована всегда, и от нее зависит благосостояние и развитие любого общества. Согласно данным исследования, проведенного Фондом общественного мнения в феврале 2010 г. в 14 регионах Узбекистана (100 населенных пунктов, величина выборки 2000 респондентов), половина населения страны считает, что престиж профессии учителя низкий. При этом каждый третий респондент полагает, что уровень престижа снижается, и только каждый пятый считает, что он растет. Даже в этих негативных условиях абитуриенты педагогических специальностей вузов совершают, как правило, осознанный выбор. Выпускник педагогического вуза или колледжа, придя работать в школу, начинает в своем ежедневном труде применять знания и практические навыки, полученные во время обучения профессии. Процесс самореализации в педагогической сфере начинается с адаптации к труду в образовательной организации. Нередко начинающие педагоги сталкиваются с определенными трудностями. В школе могут возникать различные ситуации, вызывающие у молодого педагога самые различные эмоции. Эти эмоции могут быть не только положительными, но и отрицательными, такими как переживание, тревога, потеря уверенности в себе, злость, раздражение, страх. Одной из наиболее важных сторон профессиональной подготовки педагога является развитие эмоциональной устойчивости. Она помогает сохранять работоспособность, эффективно взаимодействовать с учениками и коллегами, получать удовлетворение от работы, поддерживать хорошую физическую и психологическую форму и избегать раннего профессионального "перегорания".

На наш взгляд, самой актуальной проблемой является наличие у молодого педагога страхов, связанных с реализацией своей профессиональной деятельности. Наличие или отсутствие того или иного страха отчасти зависит от определенных личностных особенностей педагога, его черты характера. Согласно классификации профессий Е. А. Климова, профессия педагога относится к типу "человек-человек", возлагающая на педагога ответственность при взаимодействии с другими людьми. Человек, выбравший такую профессию, должен изначально обладать соответствующими склонностями, навыками, способностями, ко-торые впоследствии разовьет до профессиональны знаний и умений. В данном случае, страхи, возникающие в про-фессиональной деятельности, могут мешать педагогу выполнять свою профессиональную деятельность. Одним из основных страхов является негативное восприятие молодых учителей детьми и их родителями. Так как дети и родители основная группа людей, с которыми педагогу приходится взаимодействовать чаще всего. Так же педагог может испытывать страхи, связанные с администраций школы, и более опытными коллегами - учителями. Сталкиваясь на работе с ситуациями, вызывающими страх, молодые учителя пытаются побороть его, изменяя личное отношение как к самим себе, так и к детям, развивая чувство любви к ним и желание донести до них знания. Несмотря на то, что молодые учителя являются выпускниками вуза, имеют диплом о высшем образовании по своей специальности, страх начинать педагогическую деятельность очень силен. Одной из главных задач современной школы является оказание помощи молодым специалистам в осознании профессиональных страхов и предложение путей их преодоления, сохранение и развитие психологического здоровья педагога. Наставничество стимулирует потребности молодого педагога в самосовершенствовании, способствует его профессиональной и личностной самореализации. Эффективность системы наставничества помогает руководителям образовательных учреждений, педагогам-наставникам быстро и качественно решать задачи профессионального становления молодых учителей, включать их в проектирование своего развития, оказывать им помощь в самоорганизации, самоанализе своего развития, повышать их профессиональную компетентность. В процессе наставничества затрагиваются интересы трех субъектов взаимодействия: молодого педагога, учителя - наставника и школы. Молодой педагог получает знания, развивает навыки и умения, компетентности, повышает свой профессиональный уровень и способности; развивает собственную профессиональную карьеру; учится выстраивать конструктивные отношения

с наставником, коллегами; приобретает информацию о деятельности организации, в которой он работает. Учитель - наставник развивает свои профессиональные качества; методические, методологические, психолого - педагогические, информационные.

Наставничество должно стимулировать потребности начинающего специалиста в самосовершенствовании, содействовать его профессиональной и индивидуальной самореализации. Многосторонний анализ эффективности концепции наставничества даст возможность руководителям образовательных организаций, педагогам-наставникам быстро и эффективно решать задачи профессионального становления начинающих специалистов, включать их в планирование своего формирования, оказывать им поддержку в самоорганизации, самоанализе своего развития, способствовать их профессиональной компетентности.

Литература:

1. Веретенникова, Л. К. Развитие творческого потенциала младших школьников// Учебн. пособие. в 2 ч. - Москва, изд. Альфа,2008.
2. Веретенникова, Л. К. Формирование образовательных стратегий студентов университетов// Преподаватель 21 век. 2014.№ 3.

SCIENTISTS OF KARAKALPAKSTAN: THE ACADEMICIAN MARAT NURMUKHAMEDOV'S CONTRIBUTION TO THE KARAKALPAK LITERARY SCIENCE

Mambetnazarova Rano Kuanishbaevna
The Karakalpak scientific-research institute of humanitarian sciences of the Karakalpak branch of Academy of sciences of the Republic of Uzbekistan, Nukus city
telephone: + 998 (91) 381 49 81
mrano*@mail.ru**

Annotation: The article is dedicated to the analysis of the outstanding scientist M.K.Nurmukhamedov's works, scientific writings and researches. In the article the author reveals the contribution of the famous karakalpak scientist to the karakalpak science. The theme needs deep scientific research, because the necessity of study of scientific heritage of the first Academician of the karakalpak people has become imminent.

Keywords: learned, pedagogue, historian, publisher, publicist, critic, erudite, patriot, public figure.

Scientist Marat Nurmukhamedov proved himself a painstaking researcher of Karakalpak Soviet prose. In his doctoral dissertation, he traces the path to the origin of prose, beginning with newspaper essays, short stories, and feuilleton of the first years of Soviet authority, considers other new prose genres in Karakalpak literature of recent years, and gives an objective assessment of the original works of local word artists.

M.Nurmukhamedov was born in 1930 in Turtkul, Republic of Karakalpakstan. In 1950, Nurmukhamedov graduated from the Nukus State Pedagogical Institute. He was the first of the Karakalpaks who received education in Russian.In his student years, he adhered to the principle of being active in many areas of life, was engaged in various sports, especially football, and the first of the Karakalpaks graduated from training courses for coaches and referees in football, was the creator of a home literary and poetic course, he loved to draw, play the mandolin.

In 1965 Nurmukhamedov got his Doctor's degree. In 1966 he was elected a Corresponding Member, and in 1974 - an Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan.

M.K. Nurmukhamedov emphasized in his scientific works that through the Russian language, Karakalpak readers and writers got acquainted with the treasures of world literature and studied artistry, innovative techniques on its samples, and followed the development paths of Russian and all fraternal literature. In addition, this will be a very important condition for the rapid development of Karakalpak literature in the future.

M.K. Nurmukhamedov was the chairperson of the Specialized Council of the Institute of Language and Literature of the Uzbek Academy of Sciences on the defense of doctoral dissertations. He oversaw scientific work, led graduate students, and acted as an opponent in the defense of doctoral dissertations throughout the Central Asian region.Under his leadership, 11 doctoral students and 19 candidates of sciences defended their dissertations. Nurmukhamedov was a member of the All-Union Scientific Council at the Department of Literature and Language of the USSR Academy of Sciences on the study of world literature. Nurmukhamedov was the chairperson of the commission of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR on the study and promotion of the creative heritage of A.S. Pushkin. The theme "Pushkin and Central Asia" was a long-term study of Nurmukhamedov, he made presentations at scientific conferences and in print. The result was the publication of two brochures. Introducing into scientific use topics that have been little studied in Pushkin's science, rare archival and printed information and facts, he offers specialists and a wide range of readers a series of new judgments and assessments in the history of the interaction of different cultures. Unfortunately, the tragic death of Nurmukhamedov interrupted his enthusiastic work on a large joint work on the theme "Central Asia in the works of A.S. Pushkin", the publication of which was scheduled for 1986.

M.K. Nurmukhamedov is one of the most prominent Karakalpak scholars, who made a significant contribution to the wide propaganda of the national heritage, due to which the achievements of the Karakalpak people in the field of culture became widely known not only in the country, but also beyond. at one time it was the greatest dream of the wonderful scientist N. Davkaraev, which M.K. Nurmukhamedov was able to fulfill with the greatest enthusiasm.

Academician Nurmukhamedov talked about the problem of the Aral Sea even before its wide discussion

in the media, before the official announcement of the Aral Sea and Aral Sea area as an environmental disaster zone. In 1984, he wrote a letter to the famous writer Chingiz Aitmatov, which lists the socio-economic problems of the dying sea and urges him, as a patriot of his homeland, to begin the struggle to save the Aral Sea and the Amu Darya and Syr Darya rivers flowing into it.

M.Nurmukhamedov published over 400 scientific articles, books and monographs. He took part in many International Conferences in: Ashkhabad, Berlin, Bombay, Madras, Bologna, Halle, Baghdad, Istanbul.

LITERATURE

1. Nurmukhamedov M. A Brief History of Karakalpak Soviet Literature. - Tashkent, 1959. p. 144
2. Bulletin of KCO ANRUz No. 1. - Nukus, 1960.
3. Nurmukhamedov M. Karakalpak Soviet prose. - Tashkent: Fan, 1968. p. 312
4. Nurmukhamedov M. Modern Karakalpak prose. - Nukus: Karakalpakstan, 1968. p. 190
5. Nurmukhamedov M. From the History of Russian-Karakalpak Cultural Relations. - Tashkent: Fan, 1974.
6. Narymbetov J. Academician M.K. Nurmukhamedov. A brief history of a scientific biography. - Nukus: Karakalpakstan, 1993.

ИЖТИМОИЙ ТУЗУМНИНГ ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИ СИФАТИГА ТАЪСИРИ

Мансурова Мухлиса Мавлоновна,
Навоий вилоят Навбахор туман 14-умутаълим мактаб
она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада ижтимоий тузумнинг она тили таълими сифатига таъсири тўғрисида тўхталиб ўтилган.

Калит сўз: ижтимоий тузум, она тили таълими

Деярли бир аср давом этиб келган мустабид тузум таълимнинг ҳеч бир соҳасида она тили таълими даражасидек нохуш из қолдирмаган бўлса керак. Инсоният тарихига назар ташласак, ҳар қандай мустабид, босқинчи тузумлар босиб олинган миллатнинг маданияти - энг аввало тилига тазйиқ ўтказишга ҳаракат қилади. Она тили таълимининг ўша даврдан анъанавий бўлиб қолган шакли замонавий ижтимоий-иқтисодий талабларни қай даражада қондирмоқда? Она тили ва адабиёти учун ажратилган соатлар фақат юқори синфларнинг ўзида тахминан 1000 соатдан кўпроқни ташкил этади. Инсоннинг азиз умридан банд қилиб олинган шунча вақт эвазига ўқувчи умри давомида қўллаш учун қандай билимларни эгалламоқда? Агар шунча пайт сартарошгами, тикувчигами шогирд тушса, аниқ тирикчилиги учун асқотадиган ҳунарли бўлиб олади.

Шу ўринда яқинда кузатган бир воқеани баён этсак: университет фаолиятига доир телекўрсатув тайёрланадиган бўлиб, аудиторияга оператор кириб келди: "Шунчаки дарс жараёнини акс эттирамиз, бирор талаба ўрнидан туриб, гапириб турсин. Овози эшитилмайди", - деди. Ана энди томошани кўринг. Бўлгуси филологлардан бирортаси туриб, гапириб туришга кўнмайди: "Нима дейман", "Фалончи гапирсин", "Нега мен, ўзинг гапир" деган луқмалар билан ўзларини олиб қоча бошладилар. Зўрлаб

турғазилган талаба ҳаяжонга тўлиб, қип-қизариб, дудуқланиб, ҳушдан кетгудек бўлди. Филологлар шу бўлгач, бошқа контингентни қўяверинг. Вилоят хотин-қизлар қўмитаси қошида аёлларга психологик кўмак бериш гуруҳида ишлаш жараёнида мулоқотнинг маиший ҳаётдаги ўрнига оид кўп ҳолатлар кузатилади. Қайноналар кўпинча келинларининг муомаласи йўқлигидан шикоят қиладилар. Бир қайнона: "Нима десам ҳам "хўп" дейди", - деса бўладими. "Ҳа, орзудагидек келин экан-да", - деймиз биз ҳам. "Йўқ, у мени эшитмайди. Қутулсам, бўлди, деб "хўп" дейди.

Эшитсин, ўз фикрини билдирсин" - қайнонанинг ягона эътирози шу экан. Келинпошша озода ва пазанда, қўчқордек ўғил ҳам туғиб берган. Аммо мулоқот малакаси йўқ. "Буғдой нонинг бўлмасин, буғдой сўзинг бўлсин", - деб бежиз айтмаганлар ахир.

Инсон ижтимоий-маиший ҳаётида зарур бўлган ана шу буғдой сўзни она тили сабоқларида олмаса, қайда олади. Албатта, халқимизнинг мулоқот малакасига оид асрлар давомида шаклланиб келган мерос анъаналари бор. Мулоқот усуллари менталитетимизнинг таркибий қисми сифатида бизнинг лисоний онгимизда ҳам мавжуд. Бироқ оилавий таълим анъаналари анча чегараланиб қолган ҳозирги даврда мактаб таълимининг ўрни беқиёс. Бобобувилар билан яшаш жуда кам ёшларга насиб этади. У ёғини айтганда, ҳозирги бобо-бувилар ҳам шўро таълимини олиб, миллий мулоқот усулларини ўзлаштиришда ёшлардан узоқ кетмаган. Аммо ўзи бу малакага эга бўлмаса-да, талаб қўйиш инсонга хос хусусият. Чиройли инсонни ким ёқтирмайди? Ўзи хунук бўлгани учун чиройли жуфт, чиройли ҳамроҳ, чиройли фарзанд орзу қилинмайдими? Йўқ, албатта. Чиройли мулоқот ҳам шундай. Кимгадир ҳусн табиат томонидан берилади. Кимдир мунтазам ўз устида ишлаб тобора гўзаллашиб боради. Ишлаб борилмаган ҳусн аста-секин инсонни тарк этади. Тинимсиз ишлов берилган гўзаллик доим сақланиб қолади. Мулоқот малакаси ҳам шундай. Айнан мавжуд малакаларга сайқал бериб, йўқларини шакллантириш она тили таълимидан мақсад бўлиши лозим. Аммо бугун она тили таълимидан мақсадтилшунос тайёрлаш бўлиб қолди гўё. Мактаб ўқувчиси билиши лозим деб топилган она тилига доир билимлар жуда мураккаб. Мактаб ўқитувчилари бу соҳада катта қийинчиликларга дуч келишларини айтиб келишади.

ТЕХНИКАГА ОИД ТЕРМИНЛАР ТАРЖИМАСИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Мирходжаева Гулрух Миралиевна
Тошкент шаҳридаги Турин политехника университети
Телефон:+998(90) 959-55-11
g.mirhodjaeva@polito.uz

Аннотация. Мазкур мақолада техника ва илмий-техникага оид матнлардаги терминлар таржимасидаги муаммо ва камчиликлар, таржима қилинган матнларда йўл қўйилаётган хатоликлар ва асл контестни тушунишдаги муаммолар каби масалалар ёритилган.

Калит сўзлар. Термин, атама, муқобил таржимаси, сўзма-сўз таржима ва тасвирий таржима, лексик контекст, лингвистик муаммолар, таржима муаммолари, транслитерация, таржимада ишончлилик ва аниқлик

Давлатнинг жаҳон ҳамжамиятида тутган ўрни ва мавқеини белгиловчи асосий омил, бу унинг интеллектуал салоҳиятидир. Ўзбекистон мустақилликка эришгандан сўнг ёшларга ҳозирги замоннинг энг илғор билимларини бериш, уларни давр талабига мос етук мутахассис қилиб тарбиялашда изчил ишлар олиб борилмоқда.

Сўнгги йилларда техника воситаларининг юртимизга кириб келиши, илм-фаннинг такомиллашиши, технологик жараёнларнинг тўлиқ автоматлаштирилиши, ҳорижий тажрибани миллий ишлаб чиқаришда тадбиқ этишда манбааларни таржима муҳим ўрин тутади. Шунингдек, миллий маиший техник қурилмаларнинг ишлаб чиқарилиши натижасида шу каби матнларнинг ўзбек тилига таржимаси талаби кундан-кунга ўсиб бормоқда.

Техник таржима, одатда, техникага оид матн ёзувчилар томонидан маҳсулотлар ва хизматлар учун ёзиладиган фойдаланувчи қўлланмалари, фойдаланиш бўйича кўрсатмалар, илмий-техник адабиётлар ва бошқа манбаалар каби матнлар таржимасини ўз ичига олади. Техник ҳужжатларда технологик ва илмий матнларда ва технологик мавзуларга бағишланган маълумот мавжуд. Ушбу матнларнинг аксариятида техникага ихтисослашган калит атамалар мавжуд бўлиб, барча матнлар қисқа ва аниқ тарзда аниқ бир техникага оид бўлган лексик воситаларни қўллаган ҳолда тузилган бўлади.

Мазкур талабнинг ортиши баробарида тизимдаги терминларнинг инглиз/рус/хитой тилларидан ўзбек тилига таржима қилиш муаммолари ҳам таржимонлар олдида кўндаланг бўлиб, терминларнинг лексик, грамматик ва стилистик муаммолари оз бўлса-да ўз ечимини топиб бормоқда. Бироқ баъзи

ҳолатларда тизимдаги терминларнинг ҳали ўзбек тилида муаммал шаклланманганлиги, бундан ташқари, таржимонларнинг салоҳиятсизлиги оқибатида техникага оид терминларининг ўзбек тилидаги муқобил воситаларини бериш матнинг мазмун ва моҳиятини ўзгартирибгина қолмай, балки уларнинг денотатив хусусиятлари ўзгартирилмоқда. Айниқса, бу каби муаммо ва камчиликларни техника воситаларининг "Фойдаланиш йўриқномалари" ҳамда уларга тегишли баъзи ҳужжатларда учратиш мумкин. (5)

Соҳага оид терминларнинг лингвистик ва таржима муаммоларини тадқиқ этган ҳолда уларни бир нечта таснифда келтиришни лозим. Техник атамаларнинг таржимасида, баъзида ҳолатларда таржима қилинаётган тилдаги муқобил воситаларнинг мавжуд эмаслиги ёки айнан мос келувчи маҳсус терминларнинг топилмаслиги катта қийинчиликлар туғдиради. Бундай ҳолатларда маҳоратли таржимон таржима жараёнида бир неча таржима усулларидан фойдаланиш мумкин.

Техник матни иккинчи тилга таржима қилиш жараёнида таржимонга мавзу бўйича маҳсус билим ва тажриба талаб этилади. Қўшимча равишда, технологик процессга оид маълумотларни ҳам тушуниши ва уларнинг тўғри талқин этилишига алоҳида эътибор қаратиши лозим. Умуман олганда, матн таркибнинг тахминан 5-10 фоизи атамалардир, қолганлари эса табиий тил ҳисобланади. Шу сабабли, техникага оид атамаларни таржимон технология ва технологик жараёнга оид турли омилларга қандай таъсир қилишини тушуниши муҳимдир. Ушбу элементлардан маълум бир бозор учун локализация қилинган нашр тилида фойдаланиш мумкин. Шундай қилиб, таржима қилинган ҳужжат маданий жиҳатдан мос бўлиши керак ва табиий силлиқ услубда ёзилиши керак. Бу эса тўғри маънони таъминлайди, лекин мавзуни сўзма-сўз таржима қилишдан қочади.

Техник материални таржима қилишда қийинчиликлар

Илмий-техник соҳалар жадал ривожланмоқда ва шу билан бирга янги терминология (неологизмлар)

нинг тезроқ яратилиш жараёни содир бўлмоқда. Янги атамалар яратиш тезлигидан ташқари, таржимон сўз ёки атаманинг дунёнинг бошқа қисмларида турли хил рўйҳатдан ўтган номга эга эканлигини ёки сўзнинг содда таржимасига халақит беришини фарқлаши керак.

Техник атамалар таржимасида таржимон мавзу бўйича маҳсус билимга эга бўлиши керак. Ихтисослашган билимларнинг етишмаслиги ишларни бажаришга имкон бермайди ва натижа матндан фойдаланувчининг мавқеи ва ҳаттоки молиявий барқарорликни йўқотишига олиб келади. Таржимон атаманинг чуқур маъносини тушуниши керак, шунда у асл тилга ўхшашлиги бўлмаган тақдирда ҳам, тадқиқот ўтказиш мақсадга мувофиқдир. (3)

Тил мутахассиси учун яна бир қийинчилик, одатда бошқа тилларда турли хил услубларда ёзилган ҳужжатлар билан ишланади. Самарали таржима қилиш учун асл матн форматини ва услубини қайта тиклаш ҳар доим ҳам мумкин эмас. (1)

Техник таржима адабиётни таржима қилишдан фарқли ўлароқ аниқлик ва синчковликни талаб қилади. Техник таржимада матннинг техник таркибий мазмуини сақлаб қолишдир. Агар бу ҳар қандай қурилманинг фойдаланиш қўлланмаси бўлса, таржима қилинган ҳужжат фойдаланувчиси аниқ кўрсатмаларга амал қилиши ва ушбу қўлланмани асл тилида қандай маълумот ёритилган бўлса худди шу тарзда қурилмани йиғиши керак.

Илмий-техник матнларни таржима қилиш вақтида қуйидаги ҳолатларни кузатиш мумкин: а) Байналмилал характерга эга бўлган терминлар. Улар транслитерация йўли билан узатилиб, кўп ҳолларда таржимага муҳтож бўлмайди: antenna-антенна, smartphone-смартфон, grill-грилл.

б) Баъзи терминлар ўзбек тилида ўз муқобилларига эгадир: hydrogen - водород; tailplane - самолёт думи. в) инглиз тилидаги сўзларни сўзма-сўз тарзда узатувчи сўз бирикмалари келтирилади: single-needle instrument - бир ўқли асбоб: superpower system - юқори қувватли тизим. г) Кўп ҳолларда луғатда инглиз тилидаги терминнинг муқобили келтирилмаслиги мумкин.

Бундай ҳолатларда таржимон мазкур контекстдаги маънони ифодалайдиган тасвирий таржимани амалга ошириши мумкин. Масалан: carbon-fibrereinforced plastic - ойнали материал билан қучайтирилган пластик; imflammable materials - тез ёнувчан материаллар. (6)

Терминларни таржима қилиш вақтида бошқа тиллардаги сўзларни ишлатмаслик тавсия этилиб, кўпроқ ўзбек тилидаги муқобилларга мурожаат этиш ижобий эканлиги таъкидланади. Масалан, айни вақтда баъзи матбуот матнларида инглизча industry (6) сўзи интдустрия (эътибор беринг яна русча талаффузда) деб таржима қилингани кузатилмоқда. Ваҳоланки, унинг ўзбек тилида саноат деган аниқ муқобили варианти мавжуд. Бинобарин, терминнинг асосий хусусиятларидан бири семантик кўламнинг аниқлиги экан, у контекстдаги оддий сўзга қараганда анчайин салмоқли мустақилликка эга.

Чиқариладиган тилда идрок қилиш учун кўрсатмаларни иложи борича содда қилиш бўйича ҳам бир жиҳат мавжуд. Агар дастлабки қўлланмада маҳсулотни муайян вақт ичида тўплаш мумкинлиги айтилган бўлса, ўқиётган тилидаги ўқувчи йўриқномани ўқишга кўп вақт сарфламасдан ва уларда тасвирланган нарсаларни тушунишга ҳаракат қилмасдан осонликча олиши керак. Бу ҳужжат ва матнни стандарт форматлаш билан бирга чиқиш тилида аниқ, тўғри ва содда луғатни танлашни англатади.

Жаҳон миқёсидаги бизнес шароитида ушбу турдаги тилшуноснинг ишлаши беқиёс тилшунослик билимларини ва таржимонга ушбу иборани эгаллашга имкон берадиган аниқ кўникмаларни талаб қилади. Ҳамма тил мутахассислари ҳам техник таржимон бўла олишмайди. Бирор киши техник ҳужжат, қўлланма, адабиёт, журнал ёки бошқа ҳужжатнинг мураккаб мавзусини чуқур билиши керак. Таржимон расмий луғатлар ва мижознинг услубига оид кўрсатмалар ҳақида билиши керак.

Техник таржимонлар дуч келадиган яна бир қийинчилик бу матннинг узунлиги. Матн узунлиги асосий муаммолардан бири ҳисобланади, чунки у ёзма чиқиш тилларига тегишли, чунки бошқа тилларда тақдим этилган материалда бир хил миқдордаги белгилар ёки сўзлар бўлмайди. Бу қўлланманинг саҳифалари сонига ёки ҳатто мавжуд тартибига таъсир қилиши мумкин, бу эса босиб чиқариш нархига таъсир қилиши мумкин.

Техник таржималар учун аниқлик жуда муҳим, шунинг учун тажрибали мутахассисдан фойдаланиш зарур. Профессионал таржима компанияси лойиҳага тайинланган тўғри таржимоннинг таржима қилинган ҳужжатнинг юқори даражадаги аниқлигига ишонч ҳосил қилиш учун керакли тажрибага ва ихтисослашган маълумотга эга бўлишини таъминлаши мумкин. Техник таржимада ишончлилик ва аниқликнинг аҳамияти катта. Сифат техник ҳужжатларни юқори даражада ихтисослаштирилган таржимасига муҳтож бўлган компаниялар учун муҳим тушунчадир. Техник таржимадаги хатолар жуда қимматга тушиши мумкин ва баъзи ҳолларда умуман ҳаёт учун ҳавфли бўлиб фавқулотда ҳодисаларни олиб келиши ҳам мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати:

1. Миньяр-Белоручев Р.К. Теория и методы перевода. - М., 1996.
2. Тюленей С.В. Теория перевода: Учебное пособие. - М.: Гардарики, 2004. - 336 с
3. Федоров А.В. Введение в теорию перевода. - М., 1953. С. 13.
4. Федоров А. Основы общей теории перевода. - М. 2002. - 320 с.
5. Buranov J., Muminov A. A practical course in English Lexicology. - T: 1990. -163 p.
6. http://study-english.info/translation-glossary.php
7. http://en.wikipedia.org
8. https://cyberleninka.ru/article/n/teoriya-perevoda-i-problemy-obucheniya-perevodu/viewer

ЧУВСТВО ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В РАССКАЗЕ М.ШОЛОХОВА "СУДЬБА ЧЕЛОВЕКА"

Му́йдинов Ґуломжон Носиржанивич,
Учитель русского языка и литературы
средней школы № 7 Уйчинского района
Наманганской области
тел:998973340760

Аннотатция
В этой статье говорится о главной теме произведения-теме войны, а также раскрывается тема силы человеческого духа, поиска смысла в жизни.
Ключевые слова: чувство, в рассказе, судьба человека, воспитания, герой

Мы не должны забывать уроки, которые человечество извлекло из общей трагедии народа, Великой Отечественной войны. Война нанесла непоправимый ущерб миллионам наших сограждан, и одним из них был Андрей Соколов, главный герой рассказа Шолохова "Судьба человека". Подлинность величайших произведений автора завоевала всемирную популярность, поражая его трагедией и человечностью.

Мы предлагаем анализ работы "Судьба человека" по плану, чтобы подготовиться к уроку по литературе в 9 классе. История основана на реальных событиях. История была рассказана писателю одним человеком, который встретил его на охоте. Рассказ поразил писателя настолько, что он решил обязательно напечатать рассказ. Интересная история - создание этой истории. Однажды на охоте М. Шолохов встретил мужчину. Между новыми знакомыми начался разговор, и случайный прохожий рассказал Шолохову о его печальной судьбе. Трагическая история глубоко тронула душу писателя, и он решил написать историю в обязательном порядке. Он не сразу приступил к работе, в течение десяти лет писатель обсуждал эту идею, и лишь затем, всего за несколько дней, перенес ее на бумагу, и год, когда была написана история, начался в 1956 году. Работа была опубликована в самом конце года, накануне 1957 года. Повесть "Судьба человека" была посвящена писателю Е. Г. Левицкой. Она была в числе первых читателей "Тихого Дона" и внесла свой вклад в публикацию этого романа.

В рассказе "Судьба человека" анализ работы сразу раскрывает основную тему, тему войны и не только войны, но и человека, который в ней участвовал. Эта трагедия целой страны раскрывает самые глубины человеческой души; это ясно дает понять, что человек на самом деле.

До войны Андрей Соколов был обычным человеком, у него был дом, семья, работа. Как и все обычные люди, Соколов жил и работал, может, о чем-то мечтал. В любом случае, война не входила в его планы. Андрей учился на водителя, работал на грузовике, дети хорошо учились в школе, жена занималась сельским хозяйством. Все прошло как обычно, и внезапно началась война. На третий день Соколов вышел на фронт. Будучи истинным патриотом своей родины, Соколов становится ее покровителем.

Шолохов был одним из писателей, который был уверен в силе духа русского человека, способного сохранить настоящие человеческие качества даже в кровавой битве. В его рассказе главную мысль озвучила судьба Андрея Соколова, которому удалось остаться человеком, и его судьба созвучна миллионам других советских людей, которые прошли мясорубку войны, плена, концлагерей, но сумели вернуться к нормальной жизни, не потеряв самое главное - человечество.

В этой работе выражается проблема морали и духовности. Всеобщая война предоставила выбор, и все решают эти проблемы. Такие, как Андрей Соколов, не согнулись перед врагом, сумели противостоять, противостоять и лишь еще больше укрепить свою веру в власть Родины и русского народа. Но были и такие, которые ради сохранения своей мелкой, никчемной жизни были готовы предать и своего товарища, и свою родину.

Человек остается человеком в любой ситуации, какой бы ужасной она ни была. В худшем случае человек выберет смерть, но человеческое достоинство не позволит совершить измену. И если человек выбирает свою жизнь ценой жизни своих товарищей, его уже нельзя назвать человеком. Так же поступил и Соколов: когда он услышал о готовящемся предательстве, он просто задушил этого мелкого ублюдка.

Судьба Андрея Соколова была трагической, и на войне ему было тяжело, а после войны

стало еще хуже. Немцы бомбили его семью, старший сын умер в День Победы, и он остался совершенно один, без семьи и без дома. Но даже здесь Соколов встал, подобрал бездомного мальчика и назвал себя отцом, давая надежду на будущее и ему, и ему самому.

Сделав анализ истории, мы можем сделать вывод, что человечество непобедимо, а также благородство, мужество и мужество. Каждый, кто читает "Судьбу человека", должен понимать, чему учит эта героическая история. Эта история о мужестве и героизме целого народа, победившего коварного врага и сохранившего веру в будущее страны.

Годы войны разрушили многие судьбы, забрали прошлое и лишили будущее. Герой истории пережил все трудности войны и остался один, потеряв дом и семью, потеряв смысл жизни. Без дома и семьи тоже был маленький мальчик, такой же беспокойный, как Соколов. Два человека нашли друг друга, снова обрели смысл жизни и возродили веру в будущее. Теперь им есть за кого жить, и они счастливы, что судьба свела их вместе. Такой человек, как Соколов, сможет вырастить достойного гражданина страны.

Один из критиков тонко заметил, как язык автора отличается от языка Соколова. Шолохов умело применяет эти выразительные художественные средства, а его творчество приобретает яркость и глубину содержания, дает необычайную трагедию истории Соколова.

Повесть "Судьба человека" названа не случайно. Это имя, с одной стороны, убеждает нас в том, что характер Андрея Соколова типичен, а с другой стороны, также подчеркивает его величие, поскольку Соколов имеет полное право называться Человеком. Эта работа дала толчок возрождению классической традиции в советской литературе. Для него характерно внимание к судьбе простого "человечка", достойного полного уважения.

С помощью различных приемов - признания, портрета, речевых характеристик - автор максимально полно раскрывает характер героя. Это простой человек, величественный и красивый, с достоинством, сильный. Его судьбу можно назвать трагическим, поскольку Андрей Соколов пережил серьезные испытания, но, тем не менее, мы невольно восхищаемся им. Не смогли сломить его ни смерть близких, ни война. "Судьба человека" (М. Шолохов) - очень гуманистическая работа. Главный герой находит смысл жизни в помощи другому. Это то, чего прежде всего требовал суровый послевоенный период.

Используемая литература:

1.В.А.Ковалева, Русская советская литература, М., Просвещение, 1976.

2.И. Кузьмичев, Литература и нравственное воспитание личности. М., Просвещение, 1980

3.Кормилов С.И. Рассказы М.А. Шолохова "Наука ненависти" и "Судьба человека" как произведения своего времени [Текст] / С. И. Кормилов // Вестник Московского университета. Сер. 9. Филология. - 2005. - № 3.

4.Н.Я.Мещерякова, Нравственное воспитание учащихся на уроках литературы, М., Просвещение, 1984

ЎЗБЕК-ХИТОЙ-КОРЕЙС МИФОЛОГИЯСИДА МАҲЛУҚА-АЁЛЛАР ОБРАЗЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ

Мусурманов Эркин Раббимович
СамДУ филология факультети доценти
Рахматуллаев Нодир Нематович.
СамДУ, тадқиқотчи
телефон: +821057862201
rakhmatullaevnodir@gmail.com

Аннотация: Мазкур мақолада шу вақтга қадар ўзбек адабиётшунослиги ва фольклоршунослигида махсус ўрганилмаган қадимги ўзбек (туркий), хитой ва корейс мифологиясидаги ўхшаш, бир генезисга эга бўлган маҳлуқа аёллар таснифи ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари ҳақида сўз боради. Ўрганишлар натижасида мифологик ғаройиб аёллар ҳар уч халқ мифологиясида икки табақага бўлинган ҳолда келтирилиши маълум бўлди: юқори дунё илоҳа аёллар ва қуйи табақа химера-маҳлуқалар. Уларнинг генезиси, эволюцион динамикаси ва сюжет сифатида қўшни халқлар фольклорига кўчишида ҳам маълум уйғунликлар борлиги маълум бўлди.

Калит сўзлар: ўзбек, хитой ва корейс мифологияси, этномаданий алоқалар, асотирларга турли диний-фалсафий таълимотлар таъсири, Нуйва, Умай, Гуанин, Ардвисура Анахита, Квансеим, илон культи ва маъбуда аёллар, Сариқ-эна, Илон қиз ва Геракл, Тенгри ва Эрлик маъбудлари, Мерган Йи ва рафиқаси Чанэ, корейс мифларида Кумихо, Сон–какси, Ино каби маҳлуқалар, сайёр сюжетларнинг уч халқ мифологиясидаги эволюцияси.

Қадимги ўзбек-хитой-корейс фольклорида аёл жинсидаги мифологик образлар икки табақада намоён бўлади: юқори дунё илоҳа аёллар ва қуйи табақадаги химера, алвасти-парилар. Ўзбек-турк фольклорида эзгу маъбуда сифатида асосан Умай тушунилган. Хитой фольклоридаги инсонни яратган бош маъбуда Нуйва Умай образига номланишидаги уйғунликдан ташқари юклатилган вазифаларга кўра ҳам ўхшаш. Корейс мифологиясида бу иккисига маьбуда Квансеим образи муштарак.

Хитой мифлари турли диний-фалсафий таълимотлар тизими таъсирида шаклланди. Хитойга буддизм дини кириб келгандан кейин хитой мифологиясида янги маъбудлар, қаҳрамонлар вужудга келди. Баъзи қадимги хитой фольклори персонажлари буддавий тушунчалар негизида қайта ишланди. Улар қаторида Гуанйин, Сун Укун, Эрлан персонажларини келтириш мумкин.

"Ғарбга саёҳат" асари қаҳрамонларига сафар вақти маъбуда - Гуанинь ёрдам беради. Бу образ ҳинд буддавий маъбудаси - Авалокитешваренинг ўзгарган шакли. Унинг ҳомийлик ҳаракатларини Умай ёки Ардвисура Анахита фаолиятига қиёслаш мумкин.

Соф хитой фольклори маҳсули бўлган маъбуда Нуйва илон тана, мол калла, йўлбарс тумшуқ ва инсон юзли кўринишида тасвирланган. Нуйванинг қиёфасида туркий фольклорга хос тушунчалар бор. Исломгача бўлган туркий мифлардаги қарашларга кўра, илон муқаддас саналган, эзгулик, фаровонлик, бойлик ато этувчи тотем деб тушунилган.

Илон культи ва маъбуда аёл билан бирга акс этган ўзига хос тасвирлар эрамиздан олдинги II минг йилликда яратилган ҳайкалчаларда акс этган. Айрим тасвирларда илон кўкраклар орасига ёпиштириладиган рамзий тумор кўринишида акс этган бўлса, айримларида анъанавий маъбудалар юзини елка ва кўкракларига тушиб турган соч - илонлар беркитиб турган тасвирлар мавжуд (Номозгоҳ-тепа, Олтин тепа, Хопуз-тепа) . Бу каби қадимги тасвирлар халқимиз мифологик тасаввурлардаги илоҳа аёлларнинг илонлар билан кўплаб боғлиқ жиҳатлари бўлганлигини кўрсатди. Бундай тушунча хитой халқ мифологиясига ҳам тааллуқли бўлиб, у маъбуда Нуйва қиёфасида ўз аксини топди.

Айрим манбаларда Умай (Ҳумой) туркий ва мўғул элларининг энг қадимги аёл маъбудаси тарзида келтирилса-да, аслида у зардуштийликдаги Ардвисура Анахита каби аёл тимсолидаги ҳомийлик қилувчи ярим худо ёки бош фаришта даражасида бўлган. Мифологик тушунчаларга кўра, эса у бош яратувчи - Тенгридан кейинги қудратли куч сифатида талқин қилинган. Умай ҳақидаги дастлабки қайдлар қадимги туркий рун битикларида учрайди. Қул-тегиндаги битикнинг П. М. Мелиоранский транскрипциясидаги вариантида шундай дейилади:

"*«Умаj-täг öгäм қатун қутына қнқм қўl-тägін äр ат болды»* ,:
"Улуғ Умай хотин қутлиги билан иним Қул-тегин эр бўлди".

Урхун битикларидаги маъбудлар ҳақида В. Бартольд шундай фикр келтиради: " Бир кўринишдаги Тенгри сўзи ҳам моддий кўкни (осмонни) ҳам яратувчини англатади... (шунингдек битикда-М.Э.) ёш гўдакларга ҳомийлик қилувчи Умай эслаб ўтилади" .

Илоҳа Умай - асосан болалар ва бўйида бор аёллар ҳомийси бўлиб, бу тушунча Саян-Олтой, Марказий Осиё ва Қозоғистон (шорс, қуман, телеут, ҳақас, қозоқ қирғиз, ўзбек) да сақланиб қолинган. Барча туркий тилли халқларда аёлаъзоси шу ном билан аталади. Бундан ташқари бурятлар ғорни ва аёл аъзосини ҳам шундай аташади. Олтой турклари учун Умай универсал аёл маъбуди сифатида тоғларнинг эгаси, овчилар, ёввойи ҳайвонлар, болалар ва оналар ҳомийсисифатида талқин қилинган .

Ўзбеклар Сариқ-энанинг ёйилган сариқ сочлари билан тўлғоқдаги аёлни бегона кўздан яшириб, унга ёрдам беришига ишонадилар. Қирғизларда Умай-эна болаларнинг дунёга келишига ва уларнинг ҳимоясига масъулдир...Умайга топиниш тушунчаси олов культи билан қоришиқ ҳолда, гоҳида тўлиқ бирлашган ҳолда келади. Телеут ва ҳақас шомонлари Умайга юзланиб "эна-олов"га юзлангандек бўлар эдилар . Туркийлар Ҳумойни ҳавода ин қиладиган афсонавий қуш деб тушунишган (Ўрта Осиё халқлари орасида бахтқуши "қуёш Ҳумоси", "Қут Ҳумоси" ҳақидаги тасаввурлари бежиз эмас) .

Келтирилган маълумотларга асосланиб, "Тенгри умр вақтини белгилайди; бироқ "инсон болалари" туғилишини Умай-эна, уларнинг ўлишини эса Эрлик назорат қилади", деган хулосага келиш мумкин.

Бунда Тенгрини бош худо, Умай ва Эрликни эса ислом динидаги бош фаришталарга, бирини Жаброилга, иккинчисини эса Азроилга ўхшатиш мумкин.

Нуйва ярим илон, яъни белдан пасти оёғи ўрнида тангачалик узун думдан иборат маъбуд. Қизиқ томони яна шундаки, "Скифнинг туғилиши афсонаси" асотирида скиф ёки сакларнинг биринчи онаси кўриниши Нуйва қиёфасида тасвирланади: ...Геракл отини қидириб кўп элларга боради. Сўнгра Галеей деган жойга келади. Бу ерда у одамсифат Илон қизга йўлиқади. Илон қизнинг юқори қисми аёл зотига ўхшаса, қуйи қисми илонга ўхшайди. Таажжубга тушган Геракл ундан "Бегона отга кўзинг тушмадими?" деб сўрайди. Илон қиз Геракл агар ўзи билан қовушса, отини беражагини айтади...

Кунлардан бир куни Илон қиз учта ўғил туғади. Улардан бирига Агофир деб ном қўяди, иккинчисини Гелон деб атайди. Учинчиси, энг кейин туғилганини Скиф дейди. Уч ўғлидан иккитаси, яъни Агофир ва Гелон отаси Геракл қўйган шартни бажара олмагани учун Илон қиз уларни мамлакатдан қувиб юборади. Энг кейин туғилган кичик ўғил Скиф отаси Геракл шартларини бажаргани учун Илон қиз унга товоқсимон олтин тўқали қайиш билан бепоён ерларини беради."

Бундан ташқари ўзбек фольклорида пари-илон, қиз-илон билан боғлиқ турли сюжетлар, тушунчалар борки, бу мисоллар хитой фольклорида ҳам бош маъбудани бежиз ярми илон ярми инсон кўринишга эга эмаслиги ойдинлашади.

Хитой мифологиясида шундай аёл - ярим маъбуд образлари борки улар ўзининг манфаатини одамлар ёки ёри манфаатидан юқори қуяди, ўз истакларини амалга ошириш учун яқин инсонларидан воз кечишга ҳам тайёр, бундайлар сирасига Мерган Йининг рафиқаси Чанэ мисол бўлади. Биринчи хитой шоири, эрамизгача 340-278 йилларда яшаган Цюй Юань ўзининг "Осмонга саволлар" асарида Хоу Йи билан боғлиқ мифларни келтиради. Унга кўра, Мерган Йи ерга турли махлуқларни йўқ қилиш учун юборилади, Фэн-си номли қобонни ўлдириб, уни қурбонлик қилади. қуёш - қарғани ўқи билан уриб туширади, дарё ҳукмдорини Хэ-бо ўлдириб, дарё маликаси Лопиньни хотинликка олади. Илоҳий фусан дарахти шоҳларида яшаган ва навбати билан осмонга чиққан уч оёқли олтин ранг қарға-қуёшлардан тўққизини уриб туширади .

Ерда тинчлик ва тартиб ўрнатилгач, Йи хотини Чанэ билан кўкка кўтарилади, бироқ осмон ҳукмдори эр-хотинни салтанатига қабул қилмайди ва ерга қайтишга амр қилади... Манбаларни ўрганишимиз жараёнида Мерган Йи ва Си Ванму образларининг қадимги туркийлар мифологияси билан бевосита алоқада бўлганлиги маълум бўлди. "Юэчжи тегини Сюту қора тошдан ясалган сарматлар маъбудаси Си Ванму қиёфаси олдида қурбонликлар келтирар эди" каби маълумотлардан мазкур мифологик маъбуданинг асли туркий илдизларга эга эканлиги ойдинлашади. Хитой қадимги ёзма манбаларида сармат (юэчжи) элининг аёл маъбудага сиғинганлари, унга атаб ҳайкалчалар ясагани, қора тошдан ўйилган Си Ванму маъбудасига Цзиньшань олтин тоғидаги калисода қурбонликлар қилишганлиги ҳақидаги анъанавий эътиқодларига оид маълумотлар сақланиб қолинган. Келтирилган сюжет Ғарбий Қозоғистон ҳудудида сарматлар жамиятида кенг тарқалган колисолардаги ҳозирги кунга қадар сақланган аёл ҳайкалчалари билан ўхшаш .

Катта эҳтимолга кўра, маданий алоқалар туфайли мавжуд ғоялар янги тушунчалар билан бойиб муштараклик касб этди, туркий кўчманчилар ҳомийси, унумдорлик маъбуди Умай ва уй-рўзғор

эгаси Анахита фаолиятлари бирлашди. Айрим тасаввурларга кўра, эркаклик тухмининг эгаси тоғ маъбуди Ардвисура Анахитанинг дастлабки культини Олтой билан боғлаш мантиқлироқдир. Бу маълумотлардан англашиладики, Си Ванму катта эҳтимолга кўра, туркий халқлар диний қоришиқ тушунчалари натижасида пайдо бўлган илоҳий аёл тимсоли, хитой фольклорига Fарб ва нариги дунё маликаси Си Ванму кўринишида ўзлашган.

Корея ярим ороли ҳудудида яратилган мифология эрамиз бошларида буддавийлик тарқалиши сабабли Хитой ва Ҳинд тамаддунларининг сезиларли таъсирини бошдан кечиради. Корейс маҳаллий мифлари, мифологик образлари буддавийлик аньаналари билан уйғунлашиб, маълум эврилиш босқичларини босиб ўтади.

Масалан, юқори дунё илоҳалар Умай, Гуаньин кабиларга муштарак образни корейс мифологиясида ҳам учратамиз - шафқат маьбудаси Квансеим. Квансеим(Кваним) - корейс мифларида энг юксак мақомли буддавий илоҳа. Генезиси ҳинд буддавийлиги илоҳаси Авалокитешварага боғланади. Дастлабки даврларда эркак маьбуд бўлган Квансеим Кореяда Пэкче(6-аср) давридан бошлаб, авом орасида кенг тарқалган буддавий аньаналарда аёл илоҳа, "Раҳм-шафқат маьбудаси"га айланади. Квансеим инсон зотига ҳамдард, раҳмли, балолардан асровчи шафқатли ҳомийдир. Шунингдек, Тангри Умай каби фарзанд туғилиши ҳамда унинг саломатлиги ҳомийси ҳамдир. Корейс буддавий аньаналарида Квансеим ҳар бир кафтида кўзи бор бўлган минг қўлли илоҳа сифатида тасвирланади.

Ўзбек ва хитой мифларида мавжуд бўлган тубан дунё маҳлуқаларини Корея мифологиясида ҳам кузатишимиз мумкин. Булар тўққиз думли тулки-қиз Кумихо, бевақт вафот этган қизларнинг руҳлари Сон-какси, сувпариси Ино кабилардир.

Кумихо. Корейс мифларига кўра минг йилдан зиёд яшаган тулки соҳибжамол қизга айланади ва унинг тўққизта думи бўлади. Кумихо йиртқич ёвуз руҳ. У эркакларни авраб тузоққа туширади ва уларнинг ҳаётий қуввати, баьзи манбаларга кўра жигари билан озиқланади. Сон-какси турмуш қуришга улгурмай вафот этган қизларнинг аламли ёвуз руҳи ҳисобланади. Сон-какси бокира қизларнинг танасига кириб олиб, уларни нобуд қилади. Ино - корейс мифологиясида Шарқий денгизда, Чежудо ороли яқинида учровчи сув париси. Сувости тўқувчиси Ино балиқ-одам: боши ва гавдаси одам, қўллари сузгичларга айланган, олти ёки еттита оёқлари, отникидек узун ингичка думи бор. Ино болаларини кўкрак сути билан боқади, биров тутиб олса, сувпариси кўзёш тўкади ва бу ёш томчиларти маржонларга айланади. Шу сабабли Инони тутиб олган кишилар унга раҳмлари келса-да, аммо камдан-кам ҳолларда озодликка қўйиб юборишади.

Ўзбек ва хитой мифологиясида маьлум маҳлуқалар инсонлар учун ҳам ижобий, ҳам салбий жиҳатларга эга бўлишса, корейс мифларида таьрифланувчи мифологик аёл образлар ўзларининг ёвузлиги, йиртқичлиги, иблисона қиёфаси билан тавсифланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Массон В.И., Сарианиди В.И. Среднеазиатская терракота эпохи бронзы. М.: Наука, 1973.
2. Николаева Д.А. Культ Умай в традиционной культуре бурят // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. - 2008. - Вып. 62. - ISSN 1992-6464.
3. Бартольд В. В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. Алматы: Жалын, 1993 г. -С. 10
4. Потапов Л.П. Элементы религиозных верований в древнетюркских генеалогических легендах // Советская этнография. - 1991. - №5. -С.82.
5. Длужневская Г.В. Еще раз о "кудыргинском валуне" (к вопросу об иконографии Умай у древних тюрков) // Тюркологический сборник. 1974. - М., 1978. -С. 233.
6. Потапов Л.П. Умай - божество древних тюрков в свете этнографических данных // Тюркологический сборник.1972. - М., 1973. -С.265.
7. Черемисин Д.В. К изучению ирано-тюркских связейв области мифологии // Аборигены Сибири: проблемы изучения исчезающих языков и культур. - Новосибирск, 1995. -С. 342-343.
8. Кляшторный С.Г. Мифологические сюжеты в древнетюркских памятниках СПБ. 1977г. М.1981г. -С. 123.
9. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimiy qatlamlari. Birinchi qism. http://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/turkiy-adabiyotning-qadimiy-qatlamlari-birinchi-qism.html
10. Цюй Юань. Лисао. СПб., 2000. -С. 183-184; прозаич. пер.: Яншина 1984, -С.197.
11. Golden Peter.D. Religion among the Qipchaqs of the medieval Eurasia //Central Asiatic Journal.International Periodical for Languages, Literature, History and Archaeology of Central Asia. - Newark,т42(1998) 2. - P. 49.
12. Тасмагамбетов И.Н. Кулпытас. - Астана: Берел, 2001. -С.12.

13. Мачинский Д.А., Чугунов К.В. Атрибуты женского культа в древних культурах СаяноАлтая //Древние культуры Центральной Азии и Санкт-Петербург. - СПб., 1998. - С. 186.

ҚАДИГИ ХИТОЙ ВА ЎЗБЕК АДАБИЁТИДА КОМИК ОЧОФАТ ҚАҲРАМОНЛАР ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ

Мусурманов Эркин Раббимович
Филология фанлари номзоди, доцент.
Самарқанд давлат университети
Tel: +99897 2868640
alper25@mail.ru.

Анотация Мазкур мақолада хитой адабиётида акс этган фольклор сюжетлари, жумладан, машҳур "Ғарбга саёҳат" асарининг комик персонажи ўлмас чўчқа Чжу Баже билан ўзбек "Гўрўғли" достонлари юмористик образи Ҳасан Кўлбарнинг очофатликлари билан боғлиқ сюжетлар қиёсий ўрганилди. Мутойибага асосланган бу икки қаҳрамоннинг ўхшаш томонлари сифатида уларнинг алп қоматлиги, кўп таом ейишлари жараёнида комик ҳолатларга тушиб қолиши, бироқ ҳар қандай ҳолатда ҳам бош қаҳрамонга ёрдам беришлари каби ижобий жиҳатлари маълум бўлди.

Калит сўзлар Сюензанг, ўзбек достонлари, Чжу Баже, Ҳасан Кўлбар, комиклик ва очофатлик.

Хитой адабиётида муҳим ҳодиса бўлган У Чен-эннинг (1500 - 1582) "Ғарбга саёҳат" (西遊記) романида юртимизнинг қадимда буддизм маркази бўлганлиги сабабли хитойлик персонажларнинг юртимизга ва у орқали Ҳиндистонга қилган сафари бадиий талқини келтирилди ва шу билан фантастик эпопеяга асос солинди. Асарнинг бош қаҳрамонлари маъбудлар водийсининг ўзбошимча вакили, маймунлар шоҳи Сун Укунг, ўлмас чўчқа Чжу Баже, қумлар ҳукмдори Ша Сенг ва уларнинг устози, роҳиб Сюензанг.

"Ғарбга саёҳат" Марказий Осиё ўлкаси саёҳатига бағишланган биринчи хитой фантастик романидир . Асар қаҳрамони Сюензанг (602-664) асли тарихий шахс бўлиб, у- пилигримм, хитойлик будда роҳиби, аллома, сайёҳ, файласуф ва тилмоч бўлиб танилган.

Қизиқ томони шундаки, Сюензанг Фаргона, Тошкент, Самарқанд, Термез каби юртимиз кентларини зиёрат қилган, билим олган, алломалар билан учрашган, муҳим ўтмиш маълумотларни ёзиб қолдирган. Сюензангнинг бу ерларга келиши бежиз эмас эди. Айрим манбаларда келтирилишича, қадимги Хитойга эрамиз бошида буддавийлик айнан "Ғарб томон"- Туркистон ва Бақтрия алломалари орқали кириб борган.

"Ғарбга саёҳат" асарида роҳибнинг ва шериклари -гуноҳлар содир этиб осмон саройидан ерга юборилган маймунлар хони Сун Укунгнинг, кўк салтанатининг яна бир итоатсиз вакили, ўлмас чўчқа Чжу Баже, қумлар роҳиби Ша Сенгларнинг ғаройиб мамлакатларда бўлиши, у ерда турли тўсиқларга ва қаршиликларга учрашлари, ғойибдаги кучлар ва шахсан Будданинг қўллаши билан уларни енгишлари тасвирланади. Асарда Чжу Баже юмористик қиёфада талқин қилинади.

"Ғарбга саёҳат" асаридаги Чжу Баженинг очофатлиги кўп жиҳатлари билан "Гўрўғли" туркуми достонларидаги Ҳасан Кўлбарга ўхшайди. Бу икки юмористик образ ҳаммадан кўп овқат ейди ва атрофдагиларнинг ҳайратига сабаб бўлади. Фольклоршунос олим Ш. Турдимов тўғри келтирганларидек, "Ҳасан Кўлбар ўзининг ошхўрлиги билан машҳур. Унинг Кўлбар сифати ҳам бундан далолат беради. Кўлбар деб чўпонларнинг нон,ош солиб юрадиган халтасига айтилади. Ҳасан Кўлбарнинг чўпонларникидай ош халтаси бор . Лекин унинг кўлбари шунчалик каттаки, унга Қрим подшосининг ўн минг новвойи бутун пиширган нони, уну хамири, ўтинигача жой бўлиб кетади. Достонларда Ҳасан Кўлбарнинг беҳисоб овқатни еб, "тўйдим", деган сўзини оғзига олмаганини тасвирловчи ўринларни кўплаб учратиш мумкин" .

"Ҳасан Кўлбар" даги Ҳасан Кўлбар ўн йилда уч минг олти юз эллик йилқини еб подшоҳликни тарк этади. Унинг очофатлигини тўғри тушунган ва унга раҳми келган Гўрўғли Ҳасан Кўлбарни чўлга чиқариб, тайинлайди: "Ҳар куни инсоф билан Хунхор бетдан келаётган савдогарларнинг туя - йилқиларидан битта тутиб олиб, ей бер. Битта - яримта жосусни кўрсанг ҳам, тутиб е..." . "Холдорхон" достонида Қрим хони Холдорхон элчиларидан Гўрўғли ва унинг атрофидагиларни тўйга таклиф қилади. Аваз, Ҳасан Кўлбар ва Шодмон меҳмонга боришади. Меҳмонларнинг камчилик бўлиб келганлигидан мезбонлар хафа бўлишади. Ҳасан Кўлбар "Шу тўйнинг ошхўри биз-да", деб катта чангалини бургутнинг чангалидек қилиб, келтирилган овқатларнинг ҳаммасини бир ўзи еб қўяди, бироқ тўймайди.

Ҳасан Кўлбар сингари Чжу Баже ўзини доимо оч ҳис қилади. Унинг овқат еганини кўрганнинг

кўнгли айнийди, еётган овқатининг миқдоридан одам қўрқувга тушади. Нонушта вақти юзга яқин нонни кўрдим демайди. Олдидан нимаики чиқмасин, қайнатилган гуручми, буғда пишган бўғирсоқларми, барчасини чақмоқ тезлигида еб битиради. Дўстлари билан муқаддас сутраларни олиб келиш учун йўлга чиққанда ўзини доимо оч ҳис қилади. Шунинг учун йўлда учраган барча егуликларни ҳатто таъмини билмасдан ва ҳидини сезмасдан тезда ютиб юбораверади.

24-бобда Чжу Баже маймунлар императори Сунь Укунни йўлдан уриб, жэньшэньго мевасини ўғирлатади. Сун Укунг ўлжани Чжу Баже ва Шасэнга тақсимлайди. Мевани кўрган Чжу Баже оғзини катта очиб, уни тўласинча ютиб юборади. Бу ҳам етмагандек, икки ошнасидан нима ейишаётганлигини сўрайди. Шасэн "Жэньшэньго мевасини", - деб жавоб берди. "Таъми қанақа?", сўради ундан Чжу Ба-цзе. Сун Укунг "Ҳозиргина ўзинг еб қуйдинг-ку, яна нега мазасини сўрайсан?"- деб жавоб берибди. Шунда Ба-цзе "Мен шошиб, силарга ўхшаб чайнамабман, таъмини татиб ҳам кўрмабман. Унда данак бор-йўқлигини сезмабман ҳам, бутунлай ютиб юборибман. Оғалар, менинг иштаҳамни очиб юбординглар, инсон бўлинглар, мевадан яна олиб беринглар, энди мен уни ақл, ҳиссиёт ва тақсимлаган ҳолда маза қилиб чайнаб ейман."- деб жавоб берибди.

"Ғарбга саёҳат" ўзбек адабиёти учун асосан икки жиҳати билан аҳамиятли: биринчиси, хитой адабиёти тарихидаги энг машҳур бўлган фантастик асар сюжетининг бевосита Ўрта Осиё, жумладан, Тошкент, Самарқанд, Термиз каби шаҳарлар билан боғлиқ бўлганлиги ва бунинг натижасида юртимиз билан боғлиқ воқеа-ҳодисаларнинг хитой муаллифи қай даражада талқин қилганлигини ўрганиш бўлса, иккинчиси, ундаги айрим персонажларнинг ўзбек адабиётида ўхшаш вариантларининг борлиги сабаблидир. Чжу Ба-цзенинг Ҳасан Кўлбар билан характер ва ҳаракатларидаги умумий сатирик-юмористик томонлари билан умумийлик касб этса, роҳиб Сюензанг фаолияти эса бир вақтлари Хитойда буддавийлик таълимоти ёйган аждодлари самарқандлик аллома, таржимон ва пилигримм Канг Сэнгхуэй (? - 280 й.) нинг фаолиятини эслатади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Қаранг: У Чэн-энь. Путешествие на Запад /Пер. А.Рогачева. Т. 1 - 4. М., 1959; то же. Рига, 1994.
2. Никольская С.В. Буддийские мотивы в романе У Чэнъэня "Путешествие на Запад" (XVI в.) // Философские вопросы буддизма /. - Новосибирск: Наука, 1984 Б.-72.
3. Булбул тароналари. Беш томлик. Айтувчи / Эргаш Жуманбулбул ўғли. Ёзиб олиб, нашрга тайёрловчи: Ҳ. Зариф. - Тошкент: Фан, 1973. Тўртинчи том. Б.-118-119.
4. Турдимов Ш. "Гўрўғли" достонларининг генезиси ва тадрижий босқичлари. Филол., фан., д-ри, дис. автореферати - Т: 2011. Б.-2.
5. Гўрўғли достонлари.- Т.: 1996. Б.-201.

ХОРИЖИЙ ТИЛ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ВА ОНЛАЙН ДАРСЛАРНИ ЎҚИТИШДА, КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАР ХУСУСИДА

Мухиддинов Шамсиддин Шахобович
Тошкент вилояти Тошкент тумани
6-мактаб Инглиз тили фани ўқитувчиси
Телефон: +99894-685-21-70 +99893-595-40-50
samsiddinmuhitdinov@gmail.com, 777.olim@mail.ru

Annotation. Current article introduces FIAC, peer-teaching, classroom technique, team-teaching, role play, group discussion, distance education, online lessons snf other effective methods applied in formulating professional competence of foreign language teacher.

Аннотатация. Мазкур мақолада хорижий тил ўқитувчисининг касбий компетенциясини шакллантиришда қўлланиладиган distance education, online lessons, foreign language, method, professional competence, teacher, lesson.FIAC, peer-teaching, classroom technique, team-teaching, role play ва group discussion каби самарали усуллар хусусида сўз боради.

Keywords: Distance education, online lessons, foreign language, method, professional competence, teacher, lesson.яя

Калит сўз ва иборалар: масофавий таълим, онлайн дарслар хорижий тил, усул, касбий компетенция, ўқитувчи, дарс.

Хозирги и даврида хорижий тилларни ўқитишнинг замонавий технологияларидан бири бу масофадан туриб ўқитишдир. Унинг самарадорлиги бир қанча омилларга боғлиқ:

- Ўқувларнинг мустақиллигини шакллантириш;
- Хорижий тилини ўрганиш учун ўз-ўзини мотиватсиясини шакллантириш даражаси;АКТ компетентсиясини шакллантириш даражаси;Мобил алоқа воситаларидан тўғри фойдаланиш;Турли хил ижтимоий сайтлардан оқилона фойдаланиш ва энг мухими фарзанд ота-онанинг назорати остида бўлиши;

Масофавий ўқитишнинг асосий мақсадларидан бири бу таълимнинг автономлигини ва унинг таркибий элементларини шакллантириш: ўз-ўзини ташкил қилиш, ўзини ўзи бошқариш, ўз-ўзини синаб кўриш. Бошқа мақсадлар:

а) хорижи тилида лингвистик билимларни ошириш;

б) хорижий тилини ўрганишда АКТ компетентсиясини шакллантириш.

В) хорижий тилга қўйилган талабларни: тинглаб тушуниш, ўқиб тушуниш, граматика, ёзиш ва гапириш конпитенцияларини шакллантириш.

Масофавий таълимда фойдаланиш учун манбаларни қидириб топиш. Масофавий онлайн дарсларнинг асосий мохияти қуйидагилар:

ўқувчилар дарс давомида ўқитувчилар блогига борадилар, у эрда вазифаларни бажарадилар ва топшириқ учун ажратилган вақт охирида ўқитувчи блогдаги жавоблар ва шарҳлар билан жадвални текширади.

Шунга қарамай, ушбу турдаги ўқитишни ўқитувчининг ўзгарувчан мақоми нуқтаи назаридан энг самарали деб биламан.

Ўқитувчи блогини топшириқлар, талабалар учун жавоб жадваллари билан намойиш қилинади.

Ўқувчиларнинг ишлаш статистикаси:

Ўқитувчилар,ўқувчилар таклиф этилган мавзу бўйича ўрганилаётган материаллар шаклига оид мулоҳазаларини қолдирадилар.

Блог топшириқларини сифатли бажариш учун ўқитувчи ўқувчиларни журналдаги баҳолари билан мукофотлайди. Буни билган кўпгина ўқувчилар белгиланган вақт ичида вазифаларни бажаришга интилишади, ҳар бир ўқувчи онлайн дарс давомида рағбатлантириб борилади.

Хорижий тил ўқитувчиси касбий компитенциясини шакллантиришда турли хил замонавий усуллардан фойдаланиши мумкин. Бу курсларда турли сермаҳсул методик усуллар қўлланилади. Уларнинг асосийлари: FIAC (Flanders interaction analysis categories-Фландерснинг ўзаро алоқа қилиш таҳлилининг категориялари), microteaching (микроўқитиш), peer-teaching (ўз тенгдошларига дарс

ўтиш), flow-chart (жадвал-модель бўйича ишлаш), classroom technique (дарс ўтиш техникаси), team-teaching (гурух бўлиб дарс ўтиш), role play (ролли ўйин), видеоёзувларидан, ТВ фильмларидан фойдаланиш, group discussion (гуруҳ бўлиб муҳокама қилиш), information gap (зарур даражада кифоя қилмайдиган маълумотни тўлдириш), acting as teacher's assistant in a genuine class (ўзининг синфида ўқитувчига ёрдамчи сифатида ўқув жараёнида қатнашиш) ва бошқалар.

FIAC-услуби профессор. Н.Фландерс номи билан боғлиқ бўлиб у талабаларни педагогик мулоқот қилиш малакаларини ҳосил қилишга қаратилган. Бу усулга кўра ўқувчиларга видеоёзувлар орқали ўқув жараёни намойиш этилиб, унда ўқитувчининг ўқувчилар билан мулоқот қила олиш малакаларини аниқлаш, уларни таҳлил қилиш ва методик тавсиялар тузиш вазифалари топширилади. Бир неча дарс шу йўсинда таҳлил қилингандан сўнг ўқитувчи бошқа усулдан фойдаланишга киришади. Бу усул микро дарс ўтиш бўлиб, унда ҳар бир ўқувчи ўз гуруҳдошларига дарснинг айрим қисмларини олдиндан тузилган режа асосида ўтади. Бу асосан юқори 10-11 синф ўқувчиларини педагогика йўналишини танлаган ўқувчилар учун айни муддаодир. Бу иш усулига Д.Аллен, К.Райн асос солган бўлиб, у Американинг барча педагогик олий ўқув юртларида кенг қўлланилади. Бу усул ҳам мактабда, ҳам олий даргоҳда қўлланилиши мумкин. Бу иш усули peer-teaching деб ном олган бўлиб, у хам кенг қўлланилади.

ТВ филмларидан фойдаланиш усули-ТВ филм курси деб номланган. ТВ филими ёрдами билан ўқувчиларнинг хорижий тилни ўрганиш малакаларини ҳосил қилади.

Яна бир сермаҳсул иш омилларидан бири ролли ўйинлардир (simulation/role-playing). Бу усул балки ўрта ва бошланғич мактабларда ҳам кенг миқёсда ишлатиладиган усуллардан биридир.

Ўқитувчининг касбий малакаларини ҳосил қилишда бу усулдан фойдаланишнинг мақсади таълим жараёнин иложи борича ўқитувчининг хақиқий келажак педагогик фаолияти мазмуни ва шаклига яқинлаштиришдир. Бу усулга кўра мактаб ўқитувчисининг иш тажрибасини, мактаб, синф муҳитини акс эттирувчи педагогик вазиятлар яратилиб, ўқувчиларни таълим ва тарбиявий масалаларини ҳал этишга жалб қилинади. Ўқувчиларнинг касбий методик малакаларини ҳосил қилишда ролли ўйинларидан фойдаланишга доир қатор ўқув қўлланмалари нашр этилган. Бу ўқув қўлланмалар тузилишига кўра турлича бўлса ҳам, уларнинг мақсад ва вазифалари ягона-педагогик аҳамиятга эга бўлган малакаларни ҳосил қилишдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси талим тўғрисидаги қонуни
2. Ўзбекистон Республикаси "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури" - Тошкент 1997
3. Авлиёқулов Н, Мусаева Н -Педагогик технологиялар Тошкент - 2008
4. Абдуллаева М Fly High дарсликларининг барчаси,
5, Ғозиев Э Педагогик технологиянинг тадбиқ этиш босқичлари - Халқ таълими журнали.
6. Britishcouncl.org, Americancouncils.org edumarket.uz, uzedu.uz ўқув сайтлари.

"БОБУРНОМА" АСАРИДА ОНОМАСТИКА

Турғунова Нигора Марифжон қизи, Наманган вилояти
Наманган тумани 26-мактабнинг она тили ва адабиёти фани ўқитувчиси
Тел: (99)-027-04-49

Аннотация: ушбу мақолада " Бобурнома" асарининг тилшунослик фани тараққиётидаги аҳамияти ва асардаги ономастик бирликлар хусусида фикр юритилади.

Калит сўзлар: тилшунослик, ономастика, ойконим, топоним, антропоним, гидроним.

Захириддин Муҳаммад Бобур нафақат шоҳ ва шоир, балки машҳур тилшунос олим ҳамдир. Унинг "Бобурнома" қомусий асаридаги тилшуносликнинг туркшунослик, графика, фонетика,стилистика,этнолингвистика, орфоэпия, қиёсий тилшунослик, фразеология, ономастика (номшунослик), этимология, лексикологияга оид далиллар ўзбек, ҳинд, форс-тожик, араб тилларини ўрганишда муҳим тарихий манбадир.

"Бобурнома"да 14728 та сўз қўланилган бўлиб, шундан 4007 таси (умумий лексиканинг 27%)ни номлар ташкил қилади. Жумладан, 1507 та антропоним, 1253 та топоним, 284 та этноним, 175 та зооним, 247 та фитоним, 37 та китоб ва рисола, 4 та кема номи келтирилган.

Асарда тахминан 1000 тагача географик ном-мамлакат, шахар, қишлоқ, калъа, дашт, довон, дала, дарё, кўприк, кечик, кўл, чашма, боғ, яйлов, ўтлоқ ва бошқа жойларнинг номлари тилга олинган. Юзлаб географик номлар тарихий ва тилшунослик нуқтайи назаридан изоҳланган. Асарнинг илмий-танқидий матнини яратган япон олими Эйжи Мано бежизга уни "маълумотлар хазинаси" деб атамаган эди.

"Бобурнома"да учрайдиган топонимлар улар ифодалаган объектларнинг турига кўра бир неча гуруҳга бўлинади. Буларнинг бир қисмини аҳоли масканлари номлари-ойконимлар ташкил этади.Улар қуйидагилар:

1) мамлакатлар номлари: Афғонистон, Ҳиндистон, Арабистон, Мўғулистон, Ироқ, Озарбайжон, Миср, Хитой, Хуросон;

2) шахарлар номлари: Деҳли, Ғазна, Кобул, Машҳад, Банорас, Лоҳур, Урганч, Тошканд, Андижон, Кеш, Сайрам, Қарши, Бухоро;

3) қишлоқ ва кентлар номлари: Маҳаммад оға кенти, Худак кенти, Бешкент;

4) қалъа ва қўрғонлар номлари: Қалъаи Дабуси, Қалъаи Зафар, Олақўрғон, Тошқўрғон, Асфидак қўрғони;

5) работлар номлари: Работи Сарҳанг, Работи Зарврақ, Работи Рўзак.

"Бобурнома"да жуда кўп тарихий шахслар-темурий ҳукмдорлар, ҳарбий амалдорлар, илм-фан ва санъат намояндалари ва бошқаларнинг шакл-шамоиллари ва руҳиятлари моҳирона чизилган, уларнинг хатти-ҳаракатлари очиб берилган .

"Бобурнома"да Амир Темур, Шоҳрух Султон, Абусаид, Улуғбек, Султон Ҳусайн, Муҳаммад Шайбонийхон, Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор, Умар Шайх Мирзо, Султон Аҳмад Мирзо, Султон Маҳмуд Мирзо, Аҳмад Танбал, Хусравшоҳ, Зуннун Арғун, Исмоил Сафавий, Шоҳ Таҳмасп, Хожа Абулмакорим, Хожа Мавлонойи Қози, Бадиуззамон Мирзо, Абдуллатиф Мирзо, Пона Санго, Иброҳим Лўдий сингари шоҳ ва шаҳзодалар, амир ва беклар, пир-муршидлар ҳақида муҳим тарихий маълумотлар келтирилган.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг "Бобурнома" асари жой номларига бой манбадир. Унда сув ҳавзаларини ифодаловчи атоқли отлар-гидронимлар алоҳида ўринни ташкил этади. Гидронимлар қандай сув объектларини англатишига кўра қуйидаги турларга бўлинади;

1.Дарёлар номи: Ганг дарёси, Аму дарёси, Оқсув дарёси, Жўн дарёси, Сайхун дарёси, Иламиш дарёси, Сару дарёси,Сатлуж дарёси, Синд дарёси, Дарёйи Хўр кабилар.

2.Булоқ-чашма номлари: Ёнбулоқ, Қорабулоқ, Қарғабулоқ, Бобоқаро чашмаси, Бодомчашма, Гарчашма, Ҳалвочашма, Чашмаи Пара кабилар.

3.Ариқ ҳовуз ва сойлар номлари: Қирқариқ, Ҳоқон ариғи, Маллахон ховузи, Ҳавзи Моҳиён, Қўруқ сой, Аласой сингарилар. "Бобурнома"да ариқ номларинг айримлари тожикча "жўй" сўзи орқали ифодаланган: Жўйи Инжил, Жўйи Шоҳий.

4.Кўллар номи: Қоракўл, Кўлигил, Кўли Малик, Кўли Мағок сингарилар.

Хулоса қилиб айтганда, "Бобурнома" XV аср охири-XVI аср бошларидаги Ўрта Осиё, Афғонистон ва Ҳиндистоннинг тарихи, географияси, этнографияси, ўсимлик ва ҳайвонот олами, халқи,

одамларининг касб-кори, тили ва бошқа хусусиятлари ҳақида бебаҳо маьлумотларни ўзида мужассам этган қомусий асардир.

"Бобурнома" асарида тарих, этнография, географияга оид қимматли маълумотлардан ташқари, тилшуносликнинг топонимика соҳасида ҳам қимматли маълумотлар келтирилган. "Бобурнома"нинг бу борадаги аҳамияти шундаки, ундан топонимларнинг қадимий шаклларини аниқлаш, тарихий топонимия масалалари, шунингдек, географик терминология тадқиқида муҳим тарихий ва қимматли манба ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.-Тошкент: Шарқ, 2002 й.
2.Улуқов Н. Гидронимик индикаторларининг лисоний тадқиқи. Наманган 2012 й.

ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ САМАРАЛИ УСУЛЛАРИ

Насимова Дилноза Ғайбуллаевна,
Навоий шаҳар 6-умутаълим мактаб
Она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада Она тили дарсларида таълим технологияларидан фойдаланишнинг самарали усуллари борасида фикр юритилган.

Калит сўз: таълим технологиялари, метод,усул

Ҳикоячилик жанрининг асл устаси бўлган Абдулла Қаҳҳор қисқа ва ихчам услуби орқали китобхонлар қалбидан чуқур ўрин эгаллаган. "Бадиий асар сарлавҳасининг ихчам, лўнда, бетакрорлиги матннинг пишиқлигидан, системанинг мустаҳкамлигидан нишона".4 А.Қаҳҳорнинг ўзига хос бўлган йўналиши адабиёт бўстонида ёзувчига юлдузлик даражасини тақдим этди.

Унинг ҳар бир ўткир сўзи замирида иккинчи бир маъно, иккинчи бир фикрлар дарёси тошиб туради. 30-йилларнинг ғам-ғуссага тўла манзараларини "Бемор", "Анор", "Ўғри" ҳикояларида батафсил очиб берган бўлса, 1960-йилларда ўзбек аёлининг ўтмишига оид "Даҳшат" ҳикоясини яратди.

Ҳикоя бир қарашда ўзбек аёлларининг тутқунликда, қарамликда яшаган кундошлик азоби тўла ҳаётини акс эттиради. Ҳикоя эпиграфи қуйидагича: "Хотин-қизларнинг бурун замонда кўрган кунини билмайсизлар, қизларим, айтсам ишонмайсизлар". (Тўрахон ая) Эпиграфнинг мазмуниданоқ асарда жамиятнинг қора кунлари томонидан эзилган оддий, ночор халқ вакилларининг бошига тушган, ишониш қийин бўлган оғир синовлар тасвирланганини сезиш қийин эмас. Ҳикояга китобхонлар томонидан турлича қарашлар билдирилган. Ёзувчи бу ҳақда шундай дейди:

"1960 йилда ўзбек аёлининг ўтмишига оид "Даҳшат" деган бир ҳикоя ёзган эдим. Бу ҳикояда саккизта аёлни Олимбек Додҳонинг ҳарамига қамаб қўйганим бир аёлга ҳақорат бўлиб тушибди. Имзосиз, адрессиз юборилган хатда шундай сатрлар бор: "...ўтмишда шундоқ бўлса, эҳтимол, бўлгандир, лекин ўзбек хотинқизлари тарихининг шундоқ маломатли саҳифаларини ҳозир, бугунги кунда тирилтириш шартмиди? Сиз ўтмишни қаламга олганингизда баъзан уйдирмачиликка берилиб кетасиз..." Ҳикояни ўқиган китобхоннинг хулосаси шундай бўлиши табиий.

Лекин уни таҳлил қилган китобхон ҳикояни ўтмиш ўзбек аёли тақдири тасвири орқали ўтмишда халқимиз бошига қора кунларни солган қора тузум қурбонлари ҳаёти тасвири эканини англайди. Ҳикоя икки ҳафтадан бери кўз очирмаётган кузак шамоли билан бошланади. Ҳикоянинг кузак шамоли билан бошланишида ҳам бир рамз бор. Ёзувчи кузак шамолини қаҳрамонлар ҳаётига тўсиқ ўрнида қўллайди. Шу ўринда кузак шамоли билан баҳор шамолини қиёслаб кетамиз. Бу қиёслаш асарни магзини топишимиз учун бевосита усул ҳисобланади.

Баҳор шамоли	**Кузак шамоли**
Табиатни уйғотади.	Табиатни тирикликдан тўхтатади.
Ҳаётга қизиқишни орттиради.	Инсонни умидсизлантиради.
Эсади, елади, ҳилпирайди.	Чийиллайди, ғувиллайди, вишшилайди, уф тортади.

Асарда ўша давр халқимизни ўраб олган, кўз очирмаётган кузак шамоли (мустабид тузум) гавдалантирилади. Бундай кечаларда (мустабид тузум сиёсати) одамзод (оддий халқ) қўймижоз, ғуж бўлиб, ниманидир кутиб (эркинликни), жимгина ўтиради. Барча кундошлар Олимбек Додҳонинг катта хотини Нодирмоҳбегимнинг уйида йиғилишиб ўтиради. Додҳо (тузум вакили) кириб келганда ҳамма қўзғалади. Асарнинг бош қаҳрамони Унсин шу уйнинг беш ойлик келинчаги. Хотинлардан бири салласини олади, бири чакмонига қўл узатади, Унсин - чилим солиб тутади. Бу қаҳрамоннинг биринчи ҳужуми. Кундошлар салласини, чакмонини олиб, ўз манфаати йўлида хизмат қилади. Демак, улар учун қандай бўлса ҳам яшаш муҳим. Унсин эса Додҳога зарар келтирадиган унсурни қўлига тутди, уни заифлаштирди. Додҳо чилимни тортиб, дарчани очади. Ёзувчи Додҳонинг бир кўзи билан қараб кўрган шамолни шундай даҳшатли тасвирлайдики, китобхонни қалби кескин

чўкади. Яъни мустабид тузум халқимиз бошига солган қора кунлар тасвири яққол кўзга ташланади. "Шамол гоҳ бўридай увиллар, гоҳ ўлим чангалига тушган мушукдай пихиллар, ваґиллар, ҳеч нарса-ҳеч нарса кўринмас эди". Ёзувчи тавсирни тобора ваҳшийлаштиради. "Увиллар" - "пихиллар" - "ваґиллар". Додҳони қўллари тасбеҳни ўгираётган бўлсада, хаёли гўристонда эди. Ўзбек гўристони ҳақида гап очилиб, бир қўйдан гаров ўйнаб, мозорга пичоқ санчган, ҳеч нарсадан қайтмаган ўзбек йигити ҳақидаги воқеа келтирилади.

Унсиннинг бу воқеага беписанд қараши қаҳрамоннинг журъатли, қайтмас эканини англатади. Ҳикоянинг шу қисми Унсиннинг кимлигини очиб беради.

Оддий меҳнаткаш оиласида тарбия кўрган қизларда шунча жасорат. Ёзувчи ўша даврдаги барча аёлларда ҳам эрксеварлик туйґулари яширин тарзда яшаб келганига ишора қилади. Унсиннинг қабристонга бориши, уйдан кетишга рухсат сўраши қаҳрамоннинг эрксевар эканидан далолат беради. Айниқса, унинг "битта гўр эмас, ўнта гўрга пичоқ санчиб келаман" дейиши озодлик учун ўлимга ҳам тик боқишга тайёр бўлган ўзбек халқининг бир вакили сифатида намоён бўлади. Унсиннинг гўристонга йўл олиши, яъни эрки учун курашга отланиши ҳам, моҳирона тасвирланган. Ёзувчи томонидан табиат тасвирлари қаҳрамонга қарши қўйилади. Бу орқали қаҳрамоннинг ҳар қандай тўсиқни енгишга тайёр эканлигини кўрсатади. Кўр ойдин УНСИН Сариқ - кир увада Эгилаётган дарахтлар Пишқираётган шамол Ёзувчи юқоридаги деталларни ҳикоя ґоясини очиб бериш учун, Унсиннинг ҳолатини янада равшанроқ акс эттириш мақсадида келтиради. Шамол уни тентиратади, суриб ташлайди, лекин у йўлида давом этади. Ҳар қандай тўсиқни енгиб ўтади. Ҳатто унга доимий тўсиқ бўлиб келган паранжисини олиб ташлайди. У кўриниб турган саґаналарни, қоп-қора чинорларни ҳам писанд қилмайди. Ўзига-ўзи руҳан далда беради. "Ўликнинг жони йўқ, ўликнинг жони йўқ" деб олґа интилади. Қабристондан ўтин териб, олов ёқади. Олов тафтида чой қайнатади, қўллари қонаганини сезмайди. Кетаётиб ёққан ўтини тепкилаб ўчиради. У қанчалик чиркин жамиятда яшамасин, инсонларга зарар етказиш номард инсонларга хос эканини ҳис қилади. Ниҳоят чой дамлаб, йўлга тушади. Унсин учун янада даҳшатлироқ тўсиқлар учрайди. Чап оёґи чуқурликка тушиб, юмшоқ нарсага теккандай бўлади, аммо у буни ҳам куч билан енгади. У фақат озодлик сари олґа боради. Ковуши чуқурда қолиб кетади. Маҳсичан кетаётган Унсиннинг паранжиси саґана олдида қолгани ёдига тушади, ҳаммасидан воз кечиб, олґа юґуради. Шу вақт Унсинни жонивор миниб олади, у ҳушидан кетади, лекин енгилмайди, ўзига келгач, Додҳога нафрати янада ошиб йўлга тушади. Йўлда у қумґонини унутганини англайди, ортга қайтмайди. Нодирмоҳбегимнинг уйига кириб, чойнакни сандал четига қўяди, шу пайтда ундан бахтли инсон йўқ эди. Додҳо Унсинни кўриб қўрқиб кетади. Додҳо қанчалик қаттиққўл бўлмасин, Унсинни кўрганда қўрқиб, ўлим хавфидан қочгандай, эшикка ўзини уради. Унсин ўзига келганда уйнинг катта аёли унинг тепасида йиґлаб ўтирарди. Кундоши Унсинга турлича даво бўлувчи ирим-сиримларни қўллаб кўради, Унсин пешингача узилади. Унсинни қизил кўрпачага ўраб, Нодирмоҳбегим йўлга тушади. Унинг қизил рангли кўрпачага ўралишида ҳам бир рамз бор. Қизиллик бу тириклик, жўшқинлик, ёшлик, жасорат тимсолидир. Йўлга отланар экан, шамол ҳамон ґувиллар, чийиллар, озодлик курашчисининг ўлганига байрам қилаётгандай эди. Дарвозадан чиққан Нодирмоҳбегим "бу даргоҳни елкамнинг чуқури кўрсин" дея аравага чиқади. Ёшлигининг гўзал дамлари ўтган, оиланинг каттаси бўлган Нодирмоҳбегим қалбидаги йиллик орзулари амалга ошганини сўнгги ҳаракатларида намоён этади. Яъни у ҳам эркинлик тарафдори бўлсада, қалбида яширин эди. Ёзувчи ўша давр аёлларининг барчасида ҳам эркин яшаш орзуси бўлганлиги, уларда қатъият етишмаганлигини айтмоқчи бўлади. Яъни Унсиннинг кураши қурбонлик талаб этди, аммо у туфайли бошқалар озод бўлди. Унсиннинг эрк учун курашини, қаршиликлар зиддиятини жадвал асосида кўрсак янада равшанроқ бўлади.

Қадамлар	**Қаршиликлар**
Кузак шамоли эсди -	Унсин кетишга рухсат сўради +
Шамол Унсинни тентиратди -	У паранжисини ечди +
Даҳшат юрагига раҳна солди -	Ўликнинг жони йўқ дея бақирди +
Ўтин эсидан чиқди -	Олов ёқди +
Ковуши тушиб қолди -	Махсичан кетаверди +
Паранжиси эсдан чиқди -	Орқага қайтмади +
Қумґони қолиб кетди -	Чойнакни баґрига босганча юґурди +
Чойнак тобора оґирлашди -	Нодирмоҳбегимнинг эшигини очди +
Аҳволи оґирлашди -	Ганжиравонга одам юборишини сўради+

Унсиннинг жони узилди, аммо унинг кураши бесамар кетмади. У кундошига эркин ҳаёт бахш этиб кетди. Ўлмас асарлар қанча кўп таҳлил қилинса, шунча янги фикрлар, янги ғоялар бераверади. Асарни бир хил йўналишда эмас, ҳар хил усуллар орқали таҳлил этиш ўзига хос талқинларни яратади. Ёзувчининг маҳорати шундаки, у оддий сўзларни рамзий маънода ифодалаб, китобхоннинг онг-у шуурига кириб борган. А.Қаҳҳор асарлари доимо қалбимизда бетакрор асарлар бўлиб қолаверади.

АЛИШЕР НАВОИЙ ТАЛҒИНИДА АДАБ ВА АДАБИЁТ МАСАЛАСИ

Норкулова Шаҳноза
Термиз давлат университети
ўқитувчиси.
Телефон:+99890 519 96 33
Shaxnozanorqulova1@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада Алишер Навоий ижодида етакчи ўринда турган адабнинг турли қирралари таҳлилга жалб этилади, ҳаё ва илм адабнинг узвий қисмлари ёки аксинча, адаб ҳам айни замонда ҳаё ва илмга тенг алоқадорлик касб этиши, бу эса адаб, ҳаё, илм тушунчаларига юклатиладиган ғояларнинг долзарблиги хамда унинг баркамол авлод тарбиясида аҳамияти беқиёс эканлиги хусусида мулоҳазалар келтирилган.

Калит сўзлар: "Адаб", "даъб","адиб" ҳамда "адабиёт" ва "бадиий" атамалари."Қуръони карим" саҳифаларида "адаб"(даъб) сўзи, "Маҳбуб ул-қулуб" хамда, "Ҳайрат ул-аброр" асарларида адаб ва тавозе.

Алишер Навоий асарларида адаб мавзуи алоҳида мавқени ташкил этади ва мутафаккир шоир адабнинг теран қирраларини турли усулларда очиб беради. Адаб ва унинг ижтимоий ҳаётдаги ўрни, айниқса адабнинг инсон ҳаётидаги таъсири ва фойдалари нечоғлик муҳимлиги ҳар тарафлама таҳлилга жалб этилиб, Навоий бу борада тааллуқли хулосалар ясайди. Аввало "адаб" арабча калима бўлиб, унинг маъно жилолари турфа хилдадир, "адаб"нинг кўплиги "одоб" ва бирлиги "даъб" (гоҳо "даъб" - "адаб"нинг ўзаги дейилади). Қуръони карим саҳифаларида "адаб" сўзи учрамас экан, балки унинг бирлик шакли "даъб" Қуръони каримда мавжуд бўлиб, у "одат", "вазият", "яшаш тарзи" маъноларини касб этган. Муҳими "даъб"нинг дастлабки аниқ маънолари "йўл" ва "сафар" экани ҳам ўз тасдиғини топганлиги эътиборлидир, аммо кейинги замонларда "даъб" истеъмолдан чиқиб, "адаб" сўзи устуворлашиб боради(1.-Б.60). Энди "Ҳайрат ул-аброр"нинг олтинчи мақолати сарлавҳасига диққат қилайлик: "Адаб даъбидаким, кичикларга мужиби саодатмандлиг ва улуғларга боиси сар баландлиқ дурур ва тавозеъ васфидаким,..." (Адаб йўликим, ёшларга бахтиёрлик ва катталарга юксаклик мартабасига боис, тавозе васфида,2.-Б.154). Бу "Ҳайрат ул-аброр"нинг ўттиз иккинчи бобига тааллуқли бўлиб, адаб хусусидаги мақолат (суҳбат)дир ва унда адаб тевaрагида фикр баёни берилиб, китобхон диққати адаб ва ҳаё мавзуига қаратилади. Шунингдек, эътибор берилса, Алишер Навоий худди шу ўринда айнан "даъб" сўзини қўлламоқда ва унинг йўл маъноси мавжудлигига ишора қилмоқда. Зотан "адаб" атамаси бехос "адиб" ҳамда "адабиёт" ва ҳатто "бадиий" атамаларини хотирга келтиради. "Адиб" атамаси "адаб"ни мукаммал ўзлаштирган кишига нисбатан ишлатилиб, "адаб" эса жоҳилиядан кейинги илк кезлар арабларда "базмга таклиф" маъносини англатган. "Адаб" ва "адабиёт" одоб ва одоблар маъносини кашф этганидек, "бадиий" - янги, демак ушбу икки калима биргаликда "бадиий адабиёт" - янги одоблар дегани экан. Юқоридагилардан муддао шуки, бу атамларнинг этимологиясига биррав сайёҳат қилиш ва шунчаки бир эслатиш, холос.

Навоий суҳбат асносида адабнинг хос хусусиятларини китобхон эътиборига йўналтириб, унинг фойдали томонларига урғу беради ҳамда адаб ва инсон муаммоларига муносабат изҳор этади. Адабнинг тавозе билан чамбарчас боғлиқликлари, уларнинг бири иккинчисини тақозо этиши, улар бир-бирисиз ҳеч нарса эканлиги бот-бот уқтирилади:

Лек бу йўл қатъида шарти талаб,
Билки тавозеъ била келмиш адаб (-Б.155).

Байтда адабнинг ибтидоси тавозе экани баралла эътироф этилмоқда ва у асослаб берилмоқда, лекин адаб биргина тавозе ила вобаста бўлиб қолмайди, албатта. Балки адаб тағин бошқа тушунчалар билан ҳам боғланади, чунончи ҳаё адабнинг узвий бўлаги:

Элга шараф бўлмади жоҳу насаб,
Лек шараф келди ҳаёву адаб (-Б.155).

Адабнинг ажралмас бўлакларидан яна бири илм саналади, буни ҳам Навоий тасдиқлайди:

Қилмоқ эрур бири муаллим талаб,
Қилғали таълим анга илму адаб(-Б.159).

Кўринадики, ҳаё ва илм адабнинг узвий қисмлари ёки аксинча, адаб ҳам айни замонда ҳаё ва илмга тенг алоқадорлик касб этмоқда, бу эса адаб, ҳаё, илм тушунчаларига юклатиладиган ғоялар долзарблигининг исботидир. Адабга эришмоқ ёки етишмоқ учун турли талаблар майдони кўндаланг туради, уни енгиб, биргина мақсад сари интилишнинг ўзи кифоя қилмайди. Чунки унинг талаблари

ҳудудсиз оламдек, ана шу ҳудудсиз оламни фақат инсон номли зот енгиб ўтишга қодир, бошқа ҳеч қандай жисм уни маҳв этиш кучига эга эмас. Навоий адабга тегишли мақолатни шу мавзу доирасидаги ҳаё боғлиқ "Нуширавон ҳикояти" билан якунлайди ва қиссадан ҳисса ясайди, тўғрироғи ўзининг ҳаётий хулосаларини китобхон ила ўртоқлашади.

Алишер Навоий адаб мавзуини бир асар доираси билан чегараламайди, уни ривожлантириш ниятида бошқа асарларида ҳам адабнинг ажойиб қирраларини намоён этиш йўлларини давом эттиради. Жумладан "Маҳбуб ул-қулуб"нинг иккинчи қисми, олтинчи боби айнан "Тавозеъ ва адаб зикрида" бўлиб, кўп саволларга жавоб бериши мумкин(3.-Б.39-41). Навоий бу ўринда ҳам биринчи навбатда китобхон билан мусоҳаба қуради, мунозарага киришади ва ниҳоят китобхонни мулоҳаза ва мушоҳада юритишга даъват этади. Навоийнинг кўзлаган асосий муддаоси китобхонни нафақат фаоллаштириш, аксинча унинг мусаффо шуурига тавозе моҳиятини сингдириш ва шу орқали уни тарбиялашдир. "Маҳбуб ул-қулуб"нинг зикр этилган бобида тавозе ва адаб ёнма-ён шарҳини топади, уларнинг инсон ҳаётидаги беқиёс мақоми далиллар билан изоҳланади, инсон, тавозе ва адаб муаммосига жавоблар исталади. Навоий айтади: "Тавозуъ халқни киши муҳаббатиға шефта қилур..." ("Тавозе халқ муҳаббатини ўзига тортади..." -Б.39) ёки "Адаб кичик ёшлиғларни улуғлар дуосиға сазовор этар..."(-Б.39), яна "Адаб ва тавозуъ дўстлуғ кўзгусиға жило берур, икки жонибдин ёруғлуқ еткарур"(-Б.40). Англашиладики, тавозе ва адаб аввалига алоҳида-алоҳида шарҳланади ва ниҳоят улар биргаликда бақамти изоҳланади, бу билан уларнинг узвийликлари уқтирилмоқда. Боиси тавозе ва адаб ёки адаб ва тавозе тушунчалари ўртасида хитой девори йўқ, улар ўртасидаги тавофут мўъжаз, аммо яқинлик жуда кўп, демак фарқдан кўра яқинлик устуворроқ. Қолаверса, шу тавозе ва адаб ўзагидан муҳаббат ва дўстлик униб чиқади, хулоса шуки, муҳаббат ва дўстликни ҳам тавозе ва адабсиз тасаввур этиб бўлмас экан.

"Маҳбуб ул-қулуб"да ҳам "Ҳайрат ул-аброр"даги каби тааллуқли мавзу шарҳланиб бўлингач, шу мавзуга доир ҳикоят келтирилади, ҳикоят мавзуга якун ясайди ва хулосалар шодасини тақдим этади. Бу ҳикоят Муқбил ва Мудбир ҳақидаги машҳур ҳикоятлардан биридир, инсоф юзасидан айтганда, ушбу ҳикоят ғоят латиф жилваларга бой. Ҳикоят ушбу анъанавий хилда бошланади: "акбор ровийлари ва осор ҳовийлари мундоқ ривоят қилибдурларким,..."(-Б.40), сўнг огоҳ Муқбилнинг ва ғофил Мудбирнинг бир чўлдан яёв ўтиб кетаётганлиги гапирилади. Бир тўда одамлар нимадир излаш билан овора, улар атрофдагиларга бепарво, аслида ов пайти Хусрав Парвизнинг тожидаги қимматбаҳо гавҳар узилиб тушиб қолган экан. Саройга келгач, воқеадан воқиф бўлишиб, аркони давлат ов жойига қайтиб келиб, ўша йўқолган гавҳарни излаш билан банд эканлар. Худди шу ердан ўтиб кетаётган Муқбил ва Мудбир уларга тўқнаш келади, шоҳ қўшин бошлиғи (сипоҳсолор) гавҳар изловчиларга раҳнамо экан, гавҳар учун катта мукофот ваъда қилган экан. Мудбир ўз одатига кўра, такаббурлик ила атрофдагиларга саломни ҳам насия қилиб йўлида давом этади, Муқбил эса аксинча солорга бош эгиб, адаб ва тавозе ила салом беради. Ерга қараса, оёғи тагида одамлар излаётган гавҳар қумда ярақлаб кўриниб турган эмиш, Муқбил уни қўлига олиб, ўпиб, қўшин бошлиғига узатади. Шундай қилиб, адаб ва тавозе йўлини маҳкам тутган Муқбил иқболга эришади, Мудбир завол топади, демак адаб инсонни саодатга олиб борар экан.

Навоий "Маҳбуб ул-қулуб"нинг бошқа бир ўрнида адаб, тавозе, ҳаё, илм, муҳаббат, дўстлик тушунчалари қаторига вафо тушанчасини ҳам илова этади. Зотан вафо ана шу адаб, тавозе, илм, ҳаё, муҳаббат ва дўстлик билан камолга етади, ўзини улар орқали кўз-кўз қилади, улардан ўзига зеб олади ва ўзи ҳам уларга таъсир этади. Хуллас, юқоридаги тушунчалар бир-бирини тўлдиради, бир-бирини мукаммаллаштиради, бир-бирини шакллантиради, уларни бирини биридан асло ажратиб бўлмайди. Навоий қаламга олган бу мавзулар ва улардаги ғоялар умрбоқий мавзулардир, улар зинҳор кун тартибидан тушмайди, аксинча доимий равишда жило топади ва баркамол авлод тарбиясида аҳамияти беқиёсдир.

Адабиёт:

1. Пелла Ш. Вариация на тему адаба // Арабская средневековая культура и литература. - Москва: Наука, 1978. -С.60-76.

2. Навоий Алишер. МАТ. Йигирма томлик. Еттинчи том. Ҳайрат ул-аброр. Нашрга тайёрловчилар: А.Ҳайитметов, И.Ҳаққулов. -Тошкент: Фан, 1991. -392 б.

3. Навоий Алишер. Асарлар. 15 томлик. Т.13. -Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1966. -244 бет.

РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ОСУЩЕСТВЛЕНИИ СОЧЕТАЕМОСТНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ СЛОВ.

Учитель русского языка и
литературы высшей категории школы № 13
г.Навои. Нуримова Дилором Бахритдиновна.
Diloromnurimova@yandex.com
Учитель русского языка средней школы № 62
Хатирчинского района Навоийской области
Омонова Дильрабо Нормуминовна.
Тел: +998944855478

Аннотация: в статье рассматривается роль словообразовательных средств в осуществлении сочетаемостных возможностей слов и приводятся примеры словосочетаний с предлогами.

Ключевые слова: сочетаемостные возможности, синтагматика, отглагольное существительное, акклиматизировать, субстантивные словосочетания, структурно-семантический план, префиксальный, зависимый компонент, стержневой.

Словообразовательные средства играют существенную роль в организации сочетаемостных возможностей слов на уровне словосочетания, и изучение их роли входит в компетенцию "словообразовательного синтаксиса" (термин пока ещё не утвердился в лингвистическом обиходе). Интерес к данной теме вызван анализом типов связи слов и словоформ в рамках словосочетания и "явным вторжением" словообразовательных средств в синтагматику: клеить бумагу - п р и клеить бумагу к доске. Учитывая знания учащихся в области словообразования отглагольных существительных, преподаватель сможет без особого труда познакомить обучающихся с элементами словообразовательного синтаксиса. Наиболее эффективным методом практической работы является использование карточек с необходимым материалом и заданиями, направленными на создание творческой, поисковой атмосферы в классе. Приводим в качестве иллюстрации образец такой карточки, используемой нами на практических занятиях:

1. Найдите и выпишите из Словаря русского языка С.И.Ожегова значения следующих переходных глаголов: акклиматизировать,выдать,глотать, завалить.
2. Образуйте от этих глаголов имена существительные, выделяя в них словообразовательные форманты.
3. С помощью этих глаголов и производных имён существительных образуйте словосочетания, используя в качестве зависимых компонентов слова: растения, деньги, пища, яма.
4. Определите синтаксические модели,по которым образованы глагольные и субстантивные словосочетания.
5. Охарактеризуйте в структурно-семантическом плане сопоставляемые словосочетания, определите общее и частное в этих моделях.

Префиксальный способ словообразования оказывает значительное влияние на сочетаемостные возможности глаголов. Как показывает практика, здесь более эффективны карточки, начинающиеся с сопоставления однокоренных бесприставочных и приставочных глаголов, имеющих различные сочетаемостные возможности: бесприставочный управляет одной определённой падежной формой, а приставочный требует обязательного наличия зависимого компонента для лексической полноты стержневого компонента. Без зависимого компонента конструкция становится информативно незавершённой, сравните: паять носик, клеить бумагу и припаять носик к чайнику, приклеить бумагу к доске. Во втором случае подчёркнуты префиксы и вводимые ими в модель словоформы: " при - + к + чайнику", " при- + к + доске". Учащиеся замечают эту разницу, выписывая модели словосочетаний, конструируемых бесприставочными глаголами. Следующий этап работы по словообразовательному синтаксису охватывает глаголы и производные имена существительные, идентичные по сочетаемостным возможностям, например: торговать (торговля) хлебом. Учащимся предлагается выписать из словаря толкования значений подобранных глаголов, образовать от них имена существительные, составить параллельные словосочетания и сопоставить сочетаемостные возможности производящей и производной основ. Работа с карточками опирается на вывод, сделанный Н.Н. Прокоповичем о том, что словообразовательные связи между частями речи в

определённых случаях способствуют построению словосочетаний с одинаковыми зависимыми формами, например: овладеть (владение) наукой, наблюдать (наблюдение) за детьми и т.д.

Очередной этап работы охватывает глаголы и отглагольные имена существительные, в моделируемых словосочетаниях которых зависимый компонент (ЗК) имеет предлог, соотносящийся с префиксом стержневого компонента и предопределяемый им. Это приставочные глаголы и образованные от них имена, обозначающие направлённое в пространстве и во времени действие и образующие следующие модели:

во- + в + ЗК в вин.пад. (войти в комнату);
с- + с + ЗК в род.пад. (спуститься с горы);
до- + до + ЗК в род.пад. (дожить до понедельника);
от- + от + ЗК в род.пад. (отойти от окна);
вы-+ из + ЗК в род.пад.(выехать из города);
при-+ к + ЗК в дат.пад. (приблизиться к нему);
под- + к + ЗК в дат.пад.(подъехать к городу); и т.д.

Следует отметить, что регулярность этих соответствий может быть и нарушена в связи с коммуникативной заданностью высказывания, например: выйти из комнаты (в город, на улицу, за хлебом, через час, после обеда и т.д.). Словообразовательные средства функционируют в определённой степени как "регуляторы" сочетаемостных возможностей слов в сфере управления, поэтому мы считаем, что изучение роли словообразовательных средств в моделировании словосочетаний является одним из необходимых и эффективных приёмов обучения учащихся национальных школ синтагматике.

Использованная литература:

1. С.И.Ожегов. Словарь русского языка.
2. Н.Н.Прокопович. Вопросы синтаксиса русского языка. М., " Высшая школа", 1974, с 23.

ТЕКСТ КАК ДИДАКТИЧЕСКИЙ МАТЕРИАЛ ПРИ ОБУЧЕНИИ МЕЖКУЛЬТУРНОМУ ДИАЛОГУ

Пулатова Зарина Сулаймоновна,
Учитель русского язқка и литературы школы №20,
Наваийская область Кызылтепинский район

Аннотация: В данной статье рассматривается текст как дидактический материал при обучении межкультурному диалогу.

Ключевые слова: межкультурный диалог, дидактический материал, текст

Основная цель обучения русскому языку в современных учебных программах определяется как "обучение учащихся умению свободно общаться на русском языке". Для получения такого результата необходимо заботиться о формировании и развитии коммуникативной компетентности учащихся по всем основным видам речевой деятельности, ориентируясь на различные учебные тексты.

Одна из главных задач применения текстов в процессе обучения русскому языку состоит в том, чтобы не только дать знания учащимся, но и пробудить личностный мотив, привить интерес к тексту и формировать навыки текстообразования, тем самым развить стремление к речевому самосовершенствованию. В связи с этим в современной методике уточняются цели применения учебных текстов на уроках, совершенствуются формы работы с текстами. Одновременно изменились и требования к тексту и формы работы с ним на уроках.

Современная жизнь ставит перед учеником новые цели: свободное владение языком, умение общаться с различными людьми в различных ситуациях, испытывая при этом чувство комфорта, уверенности в себе. Текст стал предметом активного внимания методистов со второй половины XX века. В новом поколении учебников по русскому языку текст является обязательной дидактической единицей учебного материала. Текст в методике преподавания русского языка используется как предмет обучения, а также как средство обучения иным языковым единицам: словам, предложениям, сложным синтаксическим целым, которые изучаются в структуре текста и усваиваются как важные компоненты речи.

Текст является дидактической единицей. В методике работа над текстом осуществляется на основе речеведческих понятий, которые усваиваются в виде умений производить учебные действия с этими понятиями и правилами. Текст - это не просто дидактическая единица, но универсальная дидактическая единица, позволяющая слить воедино два важнейших направления: познание системы формально-языковых средств языка и познание норм и правил общения. Неоценима роль текста в обучении всем, без исключения, видам речевой деятельности. Связный текст выражает законченную мысль, дает материал для речевой практики, позволяет показать источник информации, словарь, все виды речевой деятельности, решает обучающие и воспитывающие цели занятия.

В идеале каждое занятие русского языка должно включать в себя работу с текстом. Такая работа совместима с любой программой по русскому языку. Каждая синтаксическая тема, каждое явление языка должно изучаться на материале текстов: теория проверяется на практике, обучающиеся видят, как правила и законы синтаксиса реализуются на практике, то есть в тексте.

Один и тот же текст можно использовать неоднократно, каждый раз отыскивая в нем что-то новое. Тексты по их содержанию можно рассмотреть как: 1) указание - разъяснение значения слова путем перечисления предметов, явлений, называемых этим словом; 2) описание - выделение внешних признаков предмета, явления, события; 3) характеристика - раскрытие наиболее выдающихся признаков предметов, явлений; 4) пояснение - раскрытие какой-либо части понятия с определенной целью; 5)сравнение - пояснение одного понятия другим, более знакомым, ясным.

Текст выполняет все учебные функции: дидактическую, познавательную, обучающую, развивающую, коммуникативную. Кроме этого, при работе с текстом происходит формирование языковой и речевой компетенций. Цель работы с текстом на уроках русского языка - постижение закономерностей построения, знакомство со стилистическими, фонетическими, морфологическими, синтаксическими и орфографическими ресурсами языка. Эти цели достигаются в процессе использования следующих видов деятельности: нахождение границ предложений в тексте;

деление	текста	на	абзацы;	восстановление	деформированного
текста; собирание текста из фрагментов; определение темы, главной мысли,					
идеи; озаглавливание; дописывание	концовки	текста; создание	текстов		

Основными свойствами, определяющими цельность текста (и, соответственно, связность речевого высказывания), являются тематическое, смысловое и структурное единство, композиционное построение грамматическая связность.

Таким образом, можно сделать вывод, что работа с текстом на уроках является не целью, а средством для развития связной речи у школьников. Воспроизведение, трансформация и информационная переработка текста имеют и самостоятельную ценность, и вспомогательную ценность как ступень формирования умения создавать собственные тексты. Текст при обучении школьников связной речи выступает в качестве основной дидактической единицы, так как он позволяет слить воедино два важнейших направления: познание системы формально-языковых средств языка и познание норм и правил общения. Именно в тексте все единицы языка представлены в естественной ситуации, в естественном положении и окружении.

Использование на уроках русского языка комплексного анализа текста приближает к конченой цели обучения русскому языку - добиться высокого уровня практической грамотности, языковой и речевой компетентности и духовно-нравственного развития учащихся.

НОРМЫ СТИЛИСТИКИ РУССКОГО ЯЗЫКА

Розиков Одилжон Абдурахимович
преподаватель русского языка и литературы
средней школы № 8 Алтыарыкского района
Ферганской области

Аннотация:
В этом статье говорится что очень важно проанализировать свой ключевой словарный запас. Данной статье рассматривается перспекивы развития методики обучения и роль раздела "Нормы стилистики" русскому языку.
Ключевые слова:
Коммуникация, речь разговорная, личность человека, искусство.

Стилистические нормы - это исторически сложившиеся и вместе с тем закономерно развивающиеся общепринятые реализации заложенных в языке стилистических возможностей, значений и окрасок, обусловленные целями, задачами и содержанием определенной сферы общения[1] .

Нормы стилистики регулируют те или иные особенности употребления речевых средств в различных сферах общения, не допускают столкновения разностилевых средств в узком контексте.

Рассмотрим пример. Слово обедать имеет значение "принимать пищу, есть что-либо в качестве обеда", а слово обед - "основное принятие пищи, обычно в середине дня, в отличие от завтрака и ужина". Можно сказать: обедал дома, обедал в столовой, пригласил на обед друзей, угостил обедом и т. п. Может создаться впечатление, что слова обедать и угостить обедом можно употреблять где угодно и когда угодно. Однако в языке имеются близкие им по значению другие синонимические средства: присутствовать на обеде и дать обед. В одном случае стилистика устанавливает сферу их употребления: выражения присутствовать на обеде и дать обед имеют крайне ограниченную сферу употребления - они используются только в официально-деловом стиле и то лишь в его дипломатической разновидности: Правительство России дало обед в честь находящегося с дружеским визитом премьер-министра Франции. В остальных стилях употребляются слова обедать и угостить обедом, имеющие нейтральную стилистическую окраску.

Подобные вопросы возникают и в сфере фонетики, морфологии. Стилистика рассматривает особенности употребления синтаксических вариантов в тех или иных речевых условиях.

Стилистика изучает те же элементы структуры языка, что и фонетика, лексика, морфология и синтаксис, но не ограничивается строением и значением этих элементов, а сопоставляет их с точки зрения особенностей употребления в речи, смысловых и эмоциональных оттенков и т. п. В связи с этим ученые выделяют стилистические нормы как предмет изучения стилистики[2] .

Разновидности литературного языка, обслуживающие различные стороны общественной жизни, называются функциональными стилями. Выделяют следующие функциональные стили:

1) научный стиль;
2) официально-деловой стиль;
3) публицистический стиль;
4) разговорная речь;
5) язык художественной литературы.

Каждый стиль имеет свои особенности, в соответствии с которыми он находит применение в той или иной сфере речевой деятельности.

Нормативность речи во многом определяется правильным употреблением слова. Выделяют следующие главные принципы выбора слова:

1. лексическое значение слова должно соответствовать тому значению, в котором оно употребляется. Например, слова зритель, посетитель совпадают в значении "публика", но имеют разные значения в зависимости от цели, ради которой собирается публика: зритель - на зрелищные представления; посетитель - на выставку или другие общественные места;

2. стилистическая соотнесенность слова должна привести к правильному выбору слова в зависимости от коммуникативной ситуации, в которой оно употребляется. В зависимости от стилевой принадлежности слова делятся на три основные группы:

- лексика, стилистически неокрашенная, то есть нейтральная. Такие слова, как день, голос, я, и, чтобы, дорога, двадцать и др., могут употребляться в любой ситуации;

- слова строго официальные. К ним относятся книжные слова: возложить, интерпретация, термины, то есть слова, употребляющиеся в официальном общении специалистов: консолидация (финансы), парадигма (лингвистика,);

- лексика подчеркнуто неофициальная. К. ней относятся слова разговорные, разговорно-просторечные и просторечные (пятак, глазастый, психушка), а также профессионализмы - слова, употребляющиеся в неофициальном общении людей одной профессии (баранка, окно);

3. экспрессивно-оценочная окраска слова часто определяет его значение. Например, вонь (неодобрительное) - запах (без оценки) - аромат (одобрительное)[3] .

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Кожина М. И. Стилистика русского языка. - М.: Просвещение, 1977.
2. Валгина Н.С., Розенталь Д.Э., Фомина М.И. Современный русский язык. М.: Просвещение, 2002
3. Ткаченко И. В., Шарохина Е. В. Риторика. - М.: ТК Велби, 2005.
4. Введенская Л.А. и др. Русский язык и культура речи. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2004.
5. Столярова Е.А. Стилистика русского языка. - М.: Приор-издат, 2004.

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ С КОМПОНЕНТОМ "ТОПОНИМ" И ИХ НАЦИОНАЛЬНО- КУЛЬТУРНАЯ СПЕЦИФИКА

Рустамова Мафтуна Мурод қизи
преподаватель Шахрисабзкого филиала
Ташкентского Государственного Педагогического
Университета имени Низами
Тел: 94 671 90 81 e-mail: sarah0794@mail.ru

Аннотация

Статья посвящена лингвокультурологической значимости и национально-культурной специфике фразеологических единиц английского языка с компонентами топоним. В том числе, в статье рассматриваются их классификация согласно происхождению, значению и выражаемым признакам.

Ключевые слова: топоним, фразеологическая единица, лингвокультурология, групповые и индивидуальные топонимы, групповые и индивидуальные топонимы, астионимы, урбанонимы, комонимы, пелагонимы.

Английский язык очень богат фразеологическими единицами. Их можно рассмотреть как ценный источник исторических, этнических, географических и духовных знаний о народе. Как отмечал знаменитый учёный А. В. Кунин : "Фразеология -это сокровищница языка". Если раньше фразеологическая единица понималось как устойчивое сочетание слов или словесный комплекс нескольких самостоятельных слов, обозначающий одно единое обобщенно-переносное значение, то сейчас она воспринимается как устойчивые выражения языка, отражающие культуру, историю, национально-специфичные характеристики народа.

В плане национально- культурной специфики особую роль следует уделить фразеологическим единицам с компонентом топоним. С.И. Ожегов определяет топоним как "собственное название отдельного географического места (населенного пункта, реки, угодья и др".). Согласно Оксфордскому словарю (2000), топоним есть "название определенного географического объекта". Многие исследователи отмечают, что географические названия - это выражение ментальности людей, их мироощущения, культуры, быта, обычаев, психологического состояния.

Как показал анализ языкового материала топонимы в составе фразеологических единиц можно разделить на индивидуальные и групповые.

Индивидуальные топонимы лежащие в основе значения фразеологических единиц, включают в себя индивидуальные топонимы, которые основываются на реально существующих жизненных ситуациях и чаще всего значение этих фразеологических единиц имеет метафорический переносный характер. Примером индивидуальных топонимов в составе фразеологических единиц могут послужить следующие: a wooden Indian - молчаливый и замкнутый человек; the British lion - "британским лев", Великобритания, Англия; Kentish fire - гул неодобрения; Indian summer - золотая осень; ? бабье лето; Thieves` Latin - воровской жаргон. Рассмотрим один из примеров подробнее: A wooden Indian - неподвижный безжизненный (фразеологическая единица возникла в результате американского обычая ставить перед табачными лавками для рекламы деревянную фигуру индейца с трубкой во рту). Например: "I felt as wooden as a wooden Indian, and I remember being surprised to discover that my legs worked perfectly even if they were wooden..." [R.P Warren, "All The King`s Men", p. 248].

В отличии от индивидуальных топонимов, групповые топонимы могут основываться на нереальных, фантастических ситуациях. К примеру можно привести следующие фразеологические единицы английского языка: Castles in Spain ;From China to Peru; From Dan to Beersheba.

From Dan to Beersheba - "от Дана до Вирсавии", означает - повсюду или везде.Например: "Then all the children of Israel went out, and the congregation was gathered together as one man, from Dan even to Beersheba, with the land of Gilead, unto the Lord in Mizpeh" [Ярцева 2002].

Помимо индивидуальных и групповых, различаются другие виды топонимов в составе фразеологических единиц , такие как:

- Фразеологические единицы с компонентом астионимы - (названиями городов) :Scarborough warning; Chicago pineapple; New York kiss-off; the Bremenell;
- Фразеологические единицы с компонентом урбанонимы (названия улиц) :Broadway boy; Tyburn blossom; the three tailors of Tooley Street;
- Фразеологические единицы с компонентом гидронимы -названия рек :Mississippi marbles;

All`s quite along the Potomac; father Thames;

- Фразеологические единицы с компонентом комонимы или , как их по-другому называют хорионимы (названия сельских поселений): a Gretna Green marriage, St. Mary Mead, т.е. бомбейское президентство.
- пелагонимы (названия морей) :the mistress of the Adriatic; The Pink Arabian Sea;

Многие из вышеперечисленных фразеологизмов, включающие топонимы являются реалиями, так как не имеют своих эквивалентов в других языках. Они все тесно связаны с географией и историей именно той страны, традициями, бытующими в той или иной местности и выражают национально- культурную специфику.

Использованная литература:

1. Кунин А. В. Англо-русский фразеологический словарь. - М., Рус. яз., 1999
2. Лингвистический Энциклопедический словарь. Под ред. Ярцева В.Н. - М.: Сов. Энциклопедия, 2000
3. Ожегов С. И., Шведова Н. Ю. Толковый словарь русского языка, Институт рус. яз.,Рос. фондкультуры. Москва., 1992
4. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. - М.: Наука, 2002

АДАБИЁТДА ЖАМИЯТДАН БЕГОНАЛАШУВ МОТИВИГА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР

Саидова Биби Робиаъ
Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адаиёти университети таянч докторанти
Телефон:+998(97)7636222
robiya25112016@mail.ru

Аннотация:
Мақолада адабиётда жамият ва шахс тушунчаларига оид адабий-эстетик, илмий-назарий қарашлар эътиборга тортилган. Шу билан бирга уларнинг моҳияти, адабиётшуносликда қай даражада тадқиқ қилинганлиги ва қилинаётганлиги ўрганилган. Яратилаётган бадиий асарларда ёлғизлик мотиви, жамиятдан бегоналашув образлари тадқиқ қилинган.
Калит сўзлар: "жамият", "шахс", "ёлғизлик мотиви", "зиёлилар образи", "адабий авлод".

Жамиятдан бегоналашув, ёлғизлик тушунчаси, инсоннинг ёлғизлиги масаласи азал-азалдан руҳшунослик, фалсафа ва адабиётнинг бош мавзуларидан бўлиб келган. Адабиётшуносликда ёлғизлик мотивининг алоҳида ажратиб олиб ўрганиш ҳодисаси ХХ асргача деярли кузатилмайди. Адабий оқимлар, тур ва жанрлар, ғоявийлик, образларнинг турлари, ижодий жараён, алоҳида адибларнинг ижодига бағишланган мақолаларда (бошқа терминлар воситасида) бу мавзуга эътибор бериб ўтилган.

Жаҳон адабий қарашларида ёлғизликни инсоннинг оғир руҳий ҳолати деб қарашади. Кўпгина олимлар мавжуд тузумдан ўзини четга олиш сабабларини шаҳарлашиш ва индустрлашган жамиятнинг пайдо бўлиши билан боғлашади. "Танҳоликнинг сабаблари, унинг олдини олиш масалаларига А.В, Мудрик, И.С. Кон, Р.С. Немов, Ф. Зимбардо, Дж. Янг, З. Фрейд, Э. Фромм, Б. Миюскович каби олимларнинг кўпгина ишлари бағишланган. Уларнинг фикрича, ёлғиз одам руҳан тушкун, мақсадлардан мосуво ҳолда ўз ичига қараб қочадиган, одамларга қўшилмайдиган бўлиб қолади. У учун ўз қилмишлари ҳам, ҳаёт ҳам маъносини йўқотади, ҳатто ўзи ўладими, бировни ўлдирадими фарқсиз бўлади" . Бу ташхисларнинг мисолини биз Расколников, Печорин, Мерсо каби қатор адабий образлар таҳлилида кўришимиз мумкин

Айрим адабиётшунос ҳамда файласуфлар жамиятга қўшила олмасликни инсон дунёни қабул қилиши ва ўзлигини англашининг алоҳида бир шакли деб талқин қилишади. Лекин Афлотун ва Арасту ёлғизликни иллат деб билишган ва уни дўстлик, муҳаббат туйғулари билан енгиб ўтишни тавсия қилишган. Янги давр файласуфлари Б.Паскал, Г.Торо, Ф.Ницше ва бошқалар ёлғизликнинг пайдо бўлиши, унинг моҳиятидаги қарама-қаршиликларни тадқиқ қилишган. "ХХ асрнинг бошларига келиб экзестенциализм файласуфлари - Н.Шестов, Н.Бердяев, М.Бубер, А.Камю, Ж-П.Сартр ёлғизликни инсон мавжудлигининг ажралмас қисми деб талқин қилдилар. Феномологик фикр тарафдорлари Э.Гуссерл, А.Шюц, У.Садлер, П.Бергар ва Т.Лукманлар ёлғизликка кечинма сифатида қарашди. З.Фрейд, Ж.Зилбург, Э.Фромм, В.Франкл кабилар шахснинг ички дунёсидаги йўқотишлар, ёлғизлик туйғусининг пайдо бўлиш сабаблари, давомийлиги билан қизиқдилар. Улар инсон жамият билан мулоқотда яшаши керак, ёлғизлик инсонни емирилишга олиб боради, дейишади...".

Мустақиллик йилларида адабиётшунослик ХХ асрда яратилган ва ХIХ асрда яратилаётган энг сара асарларга қайтадан янги бир нигоҳ билан назар ташламоқда. Бу давр талаби. Инсоннинг жамиятдаги ўрни, инсон руҳиятидаги эврилишлар нуқтаи назаридан қилинаётган ушбу таҳлилларда ёлғизлик мотиви призмасидан қараш ҳам сезилиб бормоқда. Уни ҳар томонлама, нафақат ақлга, балки қалбга ҳам етиб борадиган даражада фақат адабиёт акс эттира олади, таҳлил қила олади. Бу ўз-ўзидан дунё ва ўзбек адабиётидаги ёлғизлик мотивини ўрганишни, назарий-амалий асосларини таҳлил қилишни тақозо қилади.

Адабиётшунос олим Б.Каримов "Адабий тафаккурнинг янгланиши" мақоласида бу жараённинг рус адабиётида қандай кечаётигани ҳақида гапириб шундай қайд этади: "Ғоядор фалсафасидан бўшаган маънавий бўшлиқ ўрнини шўролар замонида нуқул танқид қилинган тасаввуф, фрейдизм, экзестенциализм, сюрреализм сингари илмий-фалсафий, адабий психологик, иррационал назариялар эгаллай бошлади"

Бу жараён ўзбек адабиётшунослигида ўзига хос тарзда кечяпти албатта. Айниқса, қаҳрамонларнинг ички дунёсини, руҳий ҳолатини тасвирлашлар, модернистик ва постмодернистик адабиёт борасидаги

мақолалар ва баҳс-мунозараларда бу жараённи яққол кузатиш мумкин. Ушбу мунозараларнинг энг сўнггиси сифатида 2013 йилда "Шарқ Юлдузи" журнали ўтказган "Янги авлод овози" адабий баҳсини эътироф этишимиз мумкин.

Энди бу таҳлилларга сабаб бўлаётган қайси асарлару, қайси образлар деган савол туғилади. Шу ўринда мавзумизга яқинроқ бир кузатишга эътиборингизни тортмоқчиман. АДУнинг тадқиқотчиси Б.Мўминовнинг "60-80 йиллар ўзбек насрида зиёли образи" мақоласидаги зиёлилар руҳияти ҳақидаги мулоҳазалари жамиятдан бегоналашув мотиви тушунчаларига яқинлигини таъкидламоқчиман.

Б.Мўминов 60-70 йиллар ва 70-80 йилларда яратилган асарлар ўртасидаги тафовутга диққатимизни жалб қилиб ёзади: "Жавоб"даги кичкина одам - Нуриддин Элчиев, "Отийининг туғилган йили"даги муҳитга кўника олмаётган шартаки Асқар Шодибеков, "Асқартоғ томонларда" қиссасидаги "мақсадсиз умргузаронлик қилаётган" доцент Махди Ашрапов, "Бу кунинг давоми"даги ижтимоий ҳаётдан норози, ўзининг кимлигини англаб бораётган аспирант - У (исми берилмаган), "Кўнгул озодадур" қиссасидаги ортиқчалигини сезаётган "исёнкор одам" - Ғулом каби янгича типдаги характерларнинг яратилиши бу икки адабий авлод бадиий-эстетик қарашларида ҳам, характер яратишдаги маҳорат, имконият ва изланиш масаласида ҳам сезиларли фарқ мавжуд эканлигини очиқ-ойдин кўрсатади".

Гарчи муаллиф зиёлилар образи ҳақида гапираётган бўлса-да, бу "янгича типлар" - жамиятнинг "ўйинлари"га сиғмайдиган "бошқача" одам эканликларидан "ёлғизланганлар"дир. Келгусида бу асарларни ёлғизлик мотиви контекстида таҳлил қилиш навбати ҳам келади деб ўйлайман.

У.Норматов "Шарқ юлдузи" журнали давра суҳбатига якун ясалган мақоласида бу қарашларни шундай умумлаштириб ёзади: "Профессор Ҳ.Болтабоев тўғридан-тўғри "кейинги даврларда ижод қилган алоҳида истеъдодлар номини тилга олиш мумкин, бироқ улар адабий авлод сифатида шаклланмаганга ўхшайди" деса, Ш.Ризаев "Ҳозирги пайтда ана шу кайфиятни ўз асарлари акс эттирувчи авлод вояга етди, деб дабдурустдан айтиш жуда мушкул", деб ҳамкасби қарашини маъқуллайди. Проф. Д.Қуронов ижтимоий тафаккурнинг ҳам илғорида борадиган ижодкорлар - шу кунинг гапини айтадиган "адабий авлод" орзулигича қоляпти; "янгиланган кайфиятни ўз асарларида акс эттирувчи авлод ҳам вояга етган", фақат ундан энди "салафларидаги белгиларни излаш бефойда", "энди ижод аҳлининг барини бирдек ўртовчи умуммиллий дард йўқ".

Худди шу суҳбатда И.Ғофуров шундай мулоҳаза билдиради: "Ёзувчи ким учун ёзади? Истиқлол даврининг горькийлари, ойбеклари, қодирийлари бўлса қани эди? Лекин ХХ асрнинг лимити бундай оламшумул истеъдодлардан сўнг тугаган, таги кўринган чоғи. Сўнгги ёнар юлдуз Тоғай Мурод ва "Отамдан қолган далалар" бўлди. ХХ асрнинг ҳайқирган, айқирган, бонг урган услуби шу асар билан якунланди. Энди Исажону Назару Беҳзоду Хуршидларнинг майин овозлари, майин кузатишлари урфга кирди. Кўринг, бу авлод энди кўпроқ адабий, фалсафий, тарихий, психологик манбаларга мурожаат этяпти. Адабиётнинг, янги давр адабиётининг бадиий фалсафаси, руҳоний хаёлини яратишга интиляпти, ўз мифологияси - асотирларини шаклга соляпти".

Хулоса қилиб айтганда, бу умиду ноумидлик аралаш мулоҳазалардан сўнг ушбу авлод асарларидан ёлғизлик мотивини "қидириш"га ҳам иккиланиб қоларкансан киши. Аммо суҳбатнинг олдинги иштирокчиларидан бўлмиш ёзувчи Н.Эшонқул адабий авлодлар масаласига тўхталиб: "Ёшига қараб эмас, адабий авлодни асарларнинг мазмуни, услуби, коцепциясига қараб белгилаш тарафдориман", деб ёзади. Дарҳақиқат нафақат авлодларга, балки адабий мотивларнинг талқинига ҳам шу мезонлардан қараш тўғри бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Б.Карим. "Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур". Академнашр, 2014.
2. Янги авлод овози.//Шарқ юлдузи. 2013 йил, №6.
3. Қуронов Д. Адабиёт назарияси. - Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси.2004
4. А.О.Маркелова, В.А.Панфёрова. Диссертация: Факторы одиночества и способы его преодоления.Новосибирск 2008. http.//tc-dejavu.net
5. О.С.Алейникова. Одиночество: философско-культурологический анализ : дис.канд. филос. наук : 24.00.01 : СПб., 2005 155 с. РГБ ОД, 61:05-9/596. www.hesse.ru
6. www.wikipedia.org
7. www.e-adabiyot.uz
8. www.Ziyouz.uz

ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШ ТИЗИМИДА НАЗОРАТ ШАКЛЛАРИНИНГ УЗВИЙЛИГИ

Наргиса Эргашевна Сапарова
Термиз шаҳар, ТермДУ ўқитувчиси
Тел: +998912375777
saparova@tersu.uz

Мақолада хорижий тилни ўрганиш жараёнида фойдаланадиган назорат шаклларига эътибор қаратилган. Талабаларни баҳолашнинг узлуксизлиги назорат шаклларига боғлиқлигини кўриб чиқамиз.

Таянч сўз ва иборалар: назорат, жорий, оралиқ, якуний, якка ёки ёппасига, тест, эссе, ёзма, оғзаки, (jigsaw reading)

Ўзбекистон Республикасида амалга оширалаётган ислоҳатлар доирасида таълим-тарбияга катта эътибор қаратилмоқда. Шу мақсадда мамлакатимизда таълим соҳасини босқичма-босқич, аниқ мақсадга йўналтирилган ҳолда ислоҳ қилиш бўйича узоқни кўзлаган дастурлар ва қарорлар изчил амалга оширилмоқда. Таълим муассасасаларида фаолият юритаётган педагогларга катта масъулият юклаб, хорижий тилларни ўқув фани сифатида умумтаълим мактабларида, академик лицейлар, шунингдек, олий таълимда ўқитиш сифатини юқори даражага кўтариш ва индивидуал хусусиятини ҳисобга олган ҳолда, уларга мос келувчи методларни ишлаб чиқариш ҳамда амалиётга самарали татбиқ этиш чет тили ўқитувчиларининг асосий вазифасига айланди.

Таълим жараёнида педагогик назоратни ташкил қилишда ўқитиш мақсад ва вазифаларига асосланган ҳолда назорат шаклларини илмий асосда пухта ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир. Назорат шакллари - ўқув жараёнини самарадорлиги ҳақида маълумот олишда қайта алоқани таъминлаш, ўқитувчи ва талабаларнинг ўзаро боғлиқ диагностик ҳаракатларини амалга оширади. Назоратнинг якка ёки ёппасига, оғзаки, ёзма, бир тилда икки тилда каба шакллари мавжуд.

Назорат шакллари турли даражада намоён бўлади. Масалан талабаларга жорий назоратда суҳбат (савол- жавоб), уй вазифаларини текшириш, оралиқ баҳолашда эса тест ёзма назорат ишлари, якуний назоратда тест, оғзаки сўраш, ёзма ишлар, машқ ёки топшириш бажариш учун мўлжалланган эссе, баён ёздириш кабиларни қўллаш мумкин.

Талабаларнинг гапириш малакасини назорат қилишда эса якка назорат турларидан мавзуларда вазиятлар тузиш, ўқилган матн бўйича ўз фикрини баён қилишда фойдаланиш самарали натижаларни беради.

Якка назоратни, айниқса якуний назорат вақтида қўллаш мақсадга мувофиқ. Чунки оғзаки шаклда ўтказилувчи якуний баҳолашда ўқитувчи билан талаба ўртасида ўтиши табиий. Суҳбат чоғида эса ўқитувчи талабанинг билими даражасини тил материалини қўллаш, мантиқий изчилликка риоя қилиши каби талабалар асосида аниқлайди.

Оғзаки назоратда, асосан, талабаларнинг гапириш малакалари аниқланади ва баҳоланади. Маълумотларга кўра гапириш нутқ фаолиятининг бир тури сифатида нутқ умумий ҳажмининг 30 фоизини, ёзув эса 9 фоизини ташкил қилади. Шу боис хорижий тил ўқитувчиларига талабаларни мулоқатга киришиш, яъни гапиришга ўргатиш вазифаси юкланади. Талабанинг нутқини тўлиқ назорат қилиш, яъни хатоларини илғаб олиш ўқитувчига бирмунча қийинчилик туғдириш табиий. Шунингдек ўқитувчига ҳар бир талаба билан алоҳида суҳбатлашишга, фикрлашиш, йўлланма бериш ва хатоларни тузатишга тўғри келади.

Ёзма назоратда эса ҳозирги кунда кенг қўлланувчи тест ва унинг ҳар хил турлари ҳамда ёзма назорат кабилар қўлланилади. Ёзма назорат иши ўқитувчи вақтини олишига қарамасдан, у лингвистик ҳушёрлик ва аниқликка эгалиги билан диққатга сазовордир.

Мактабда тил ўқитишда айниқса замонавий техник воситалар телевизор, аудио-видео кассеталар, магнитофон ва қўшиқ, диалог, текст ёзилган матнлар хам катта ахамиятга эга.

Демак, давлат таълим стандартлари бўйича белгиланган минимал талабларни ўзини таништириш ,яшаш жой номини айта олиш, саноқ сонларни санаш, оиласини ёки яқин дўстини таништириш, рангларни айта олиш, феъл харакатларини билиш, ўйинлар орқали бола онгига сингдирилганда, улар буни оғзаки нуткда аниқ ва тиниқ равон айта оладилар.

Аста-секин юқори синф босқичларида уларни грамматикасига, ёзув нутқи равон бўлиши учун ҳам эътибор берилади. Бунда кичик текст, хикоя ёки диалог айнан қўл келади.Дарс жараёнларида турли ўйинларни ўқувчиларга ўргатиб, уларни оғзаки ва ёзма нутқини ривожланишига эътибор берилади.

Бошланғич синфларда тил ўқитишни, ўрганишни, ўзига хос томонлари хам бор. Хар кун

ўқувчига янги билим бериш учун ўқитувчи хам ўз устида ишлайди, изланади. Замон талабига мос кадр бўла олиш ёки мутахасис етказиш учун қилинган харакат хам инсонга хос белги.

Бугун замон шиддат билан ўзгармоқда, тараққиёт шу даражада ривожланаётган давлатда ёшларни онги шуури хам шу мезонларга мослашган.Ўз ўрнида жамият олдида масъулиятимизни оширади, ахир эзгу ниятлар қалбни яхшиликка етаклайди, буюк ишлар қилишга, инсонларга наф бериб яшашга ундайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1.Абдураимова З.Х. Методик қўлланма. 2014 йил.
2. Каримова М. Н. Методик қўлланма. 2016 йил.
3.Интернет ресусрлари.
4.Маърифат газетаси. 2018 йил.

ХОРИЖИЙ ТИЛ ЎРГАТИШДА СИНФДАН ТАШҚАРИ ИШЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

Хамидова Замира Хакимовна
Наманган вилояти,Наманган тумани
15-мактаб француз тили фани ўқитувчиси.
Телефон: + 99894 506 34 34

АННОТАЦИЯ

Ушбу тезисда хорижий тил ўқитишда синфдан ташқари ишларни ташкил этиш усуллари ҳақида фикр юритилган.

Синфдан ташқари ишларда, тили ўрганилаётган мамлакатларга оид бўлган тадбир ва байрамларда саҳна асарларидан, эртаклардан фойдаланиш усуллари ҳақида тўхтаб ўтилган.

Ушбу тезисда хорижий тил нутқини тинглаш ва хорижий тилда худди она тилидек қўшиқ айтиш, шеър ўқиш ва саҳна кўринишлари намойиш этиш усуллари хақида фикрлар юритилган.

Калит сўзлар: диққат,хотира, идрок,тафаккур,хаёл, нутқ муаммолари, халқ эртаклари ,саҳна кўринишлар, қўғирчоқ суҳбатлари, ўйинлар .

Бугунги кунда муаллим учун энг муҳим фазилат фидойилик ва ўз касбига бўлган садоқатдир.Ўз фанини чуқур билган ва чин дилдан яхши кўрган муаллимгина таълим жараёнида муваффақиятга эришиши мумкин.Ўқитувчи таълим берар экан, у ҳозирги давр талаби билан ҳамнафас бўлиши,узоқни кўзлаши,мактаб олдида турган ва келажакдаги ҳал этилиши лозим бўлган муаммоларни ҳис этиш талаб этилади.

Хорижий тиллар бўйича ўтказиладиган синфдан ташқари машғулотлар ўқувчиларни ўзаро мулоқотга чорлайди, бунинг учун муҳим шароитни яратади.

Тўгарак ёки синфдан ташқари тадбирлар хорижий тилни мукаммал эгаллашга ёрдам беради. Синфдан ташқари машғулотларда ўқитувчи ва ўқувчиларни ўзаро эркин сўзлашишлари, хато қилишдан қўрқмай суҳбатлашишлари учун имконият яратилади. Агар ўқувчи хато қилса, суҳбатда йўл қўйилган камчиликларни машғулот якунида якка тартибдаги сухбатларда тўғриланиши лозим.

Синфдан ташқари ишларда, тили ўрганилаётган мамлакатларга оид бўлган тадбир ва байрамларда саҳна асарларидан, эртаклардан фойдаланилса, бу янада қизиқарли бўлади. Бунинг натижасида эса боланинг эсида қолишига,ёд олишига эришиш мумкин бўлади. Шу мақсадни кўзда тутган тўгарак аъзолари предмет бўйича амалий билимларини бойитиб борибгина қолмай,балки тили ўрганилаётган мамлакат адабиёти ва санъати намуналари билан танишадилар. Бу орқали ўзларининг дунёқарашларини маданий савияларини ҳам оширадилар.Синфдан ташқари ишлар давомида ташкил этилган байрам кечалари ўтказишда бевосита иштирокчилрнинг ўзи эмас, балки томошабинлар ҳам маънавий дам оладилар.

Тўгарак иштирокчилари лексик бойликларини оширадилар, сўзларни пухта ўрганадилар. Томошабинлар эса хорижий тил нутқини эшитиш ва хорижий тилда худди она тилидек қўшиқ айтиш, шеър ўқиш ва саҳна кўринишлари намойиш этиш мумкинлигига ишонч ҳосил қиладилар.

Синфдан ташқари тадбирларда шеър,мақол, топишмоқ,тез айтиш, маталлардан фойдаланилса янада қизиқарли бўлади. Мақоллар кундалик турмушда кишиларни ўзаро муносабатларида яратилади ва халқ хазинасига айланади. Мақолларда меҳнат,Ватанга муҳаббат,мардлик,севги,вафо, дўстлик туйғулари улуғланиб,ишёқмаслик,ёлғончилик, хоинлик, қўрқоқлик каби салбий ҳислатлар қораланади. Бу орқали ёмонликка,ёвузликка нисбатан нафрат уйғотилади. Жаҳон халқлари тилларида айнан бир хил ёки маъноси бир-бирига жуда яқин бўлган мақол ва маталларни учратиш мумкин.

Тафаккурнинг бундай ўзига хос нодир маҳсули француз, ўзбек, рус тиллари учун ҳам муштаракдир.

Тўгаракларда мулоқот вақтида ўқувчи ўзини эркин тутиши кераклигини ўқитувчи эсда тутиши керак. Қуйида топишмоқлардан намуналар берилади:

" DEVINETTES"

1.Qui ne ferme jamais les yeux? (poisson)
2.Qui porte ses armes sur le dos? (l'herisson)
3.Qui a ses dents dans l'estomac? (l'oiseau)
4.Qui se promene avec sa maison sur le dos? (l'escargot, la tortue)

5.Elle nage tres bien, mais elle n'est pas un poisson. (une baleine)
6.Il a une barbe, mais ce n'est pas un home. (le bouc)
7.Elle a 12 fils, chaque fils a 4 filles. Chaque fille a 7 enfants. Qui est-elle? (une annee)
8.Il est blanc. Tu le bois. Qu'est-ce que c'est? (le lait)
9.Il se leve le matin. Il se couche le soir. Tu ne le vois pas la nuit. Il n'a pas de lit.
(le soliel)
10.Deux regardent, deux ecoutent, une seule parle. (les yeux, les oreilles,une bouche)

Тил фикрни ифода этиш қуролидир. Бинобарин тилдаги ҳар бир шакли инсон тафаккури ва туйғусининг натижасидир.

Хорижий тилларни ўқитиш она тилини бойитади. Ўқув тарбия ишларининг ҳар бир дарс ва дарсдан ташқари тадбирларнинг самарадорлигини оширишда илгор тажриба ва педагогика, психология томонидан яратилган барча фойдали омиллардан фойдаланиш лозим.

Камолотга етгувчи инсонни тарбиялар эканмиз, энг аввало унинг психологик жараёнларига, яъни билиш жараёнлари, диққат,хотира, идрок,тафаккур,хаёл, нутқ муаммоларига эътибор беришимиз даркор.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Халқ таълими журнали. Тошкент . 2017 йил.
2.Livret du formateur . Jonathan Unlu . Тошкент 2013 йил.
3.Дадабоев. Х. Хорижий социолингвистика. 2014 йил.

THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN INCREASING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING ENGLISH

Khasanova Zarnigor Fazliddinovna
Teacher of School №308, M.Ulugbek district, Tashkent, Uzbekistan
Bobokulova Mokhinur Fazliddin qizi
Teacher of Specialized boarding school of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan
Telefon: +998(93) 657 66 60

Abstract. The abundance of technology in recent years has contributed to development in many fields including education. Innovative inventions of devices such as smart phones, laptops, tablets and wireless internet connection assist teachers to replace traditional teaching methods with a technology-based one. This scientific article focuses on the use of information technology in increasing the effectiveness of teaching English and evolving pupils` creative abilities at English lessons.

Keywords: information technology, five initiatives, Internet, network, computer, blogs, podcasts

In today's world, modern technology has become the essential tool for people in communication, transportation, industries, medical and health care due to its accessibility and availability via electronic gadgets. Information technology is also changing the behavior and nature of education system in developed and developing countries. For instance, within the framework of the implementation of five initiatives forwarded by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev, schools and universities are encouraged to engage with new information technologies in both urban and rural areas. Regarding the draft program of measures for the third initiative, most educational institutions are equipped with advanced technology teaching materials and e-learning systems to improve computer literacy of the population. Nowadays, Teachers are practically using interactive equipment such as computers, the internet, LCD projectors, DVD players, electronic whiteboards, social networks, special mobile applications, mobile dictionaries, e-books etc. The integration of those materials in lessons improves the quality of education and increase the motivation of students. Conducting English lessons with innovative educational technologies allows teachers at qualitatively new level to teach students all four types of speech activity (reading, listening, writing and speaking). According to E.N.Voronova "the system of the teachers` work to ensure the learning outcomes of a foreign language must necessarily include the implementation of the following technologies: the technology of communicative learning, the technology of understanding the communicative meaning of the text, gaming technology, learning technology in cooperation, project technologies, etc." [1,p.189].

As English is one of difficult lessons, teacher must create interactive teaching and learning to make students interest. There are various modern tools available for teaching English in the Internet. Blogs can be a good example of it. A blog is a frequently updated website that often resembles an online journal. It is one of the easiest ways to publish student writing on the WWW. There are different types of blogs used in language teaching. The tutor blog is run by the teacher of a class. The content of this type of blog can be limited to syllabus, course information, homework, assignments, etc. Another type of blogs is the class blog. It is best used as a collaborative discussion space, an extra-curricular extension of the classroom. Students can be encouraged to reflect in more depth, in writing, on themes touched upon in class. Students are given a greater sense of freedom and involvement than the tutor blog.

Podcasting can also be the best tool for English language teachers. The term 'podcast' means an audio or video file that can be listened to whenever, wherever and as many times as the listener wants. In ELT, the appeal is not only in providing additional listening input for students, but that students themselves can become involved in recording and producing the podcasts. Educational podcasts devoted to the study of foreign languages, allow to solve a number of methodological tasks, including the formation of auditory skills and understanding of speaking foreign languages, the expansion of lexical vocabulary, the formation and improvement of listening, speaking, writing and grammatical skills.

To sum up, improving the efficiency of a modern lesson involves the use of multimedia technologies, which have the unique ability to increase information density lessons, but require an understanding of didactic specifics of the new media learning materials. Today a teacher must possess the skills of cooperation with students on the basis of information interaction, to able to carry out the selection, structuring and

evaluation of information necessary for solving a wide range of educational tasks.

It is believed that the main purpose of information is to improve the quality of education through improvement of information culture of all participants of educational process and active use of ICT.The achievement of this goal may, in the case where you created a single information space in the classroom, provided conditions for the formation of information culture of students.

References:

1. Voronova E.N. Modern technologies and methods of teaching foreign language in a university // Perspectives of science and education. 2014. № 1. P.189-194.

COACHING AND TEACHING ENGLISH IN HIGHER EDUCATIONAL ESTABLISHMENTS

Sharipova Sarvinoz Sayfiddin qizi
Graduate student of Samarkand State Institute of Foreign Languages
Tel.: +998990751623
shsara232323@gmail.com

Annotation. Coaching has proven itself in commercial practice. However, in language teaching process, especially, at universities this contemporary approach can also be used without any restrictions. This article briefly discusses the effective implementation of coaching approach in teaching English in higher educational establishments like universities and institutes.

Key words: innovative teaching methods, coaching, language learning, self-orientation.

Modern system of higher education in Uzbekistan is developing under the influence of numerous trends. One of the trends among them is considered to be the development of innovative technologies and approaches and their implementation in teaching languages. This trend reveals in two ways. From the first point, it arises the necessity of examining the content of educational programs in teaching languages in order to verify whether these programs match with up-to-date innovative means or not. Therefore, it leads to the changes in the development teaching in higher educational establishments. On the other hand, it creates changes in methods of teaching and learning in universities as whole. In this article the latter point will be discussed.

The changes in modern society, appearance of new professions and other factors demand serious reforms in teaching, to be more exact, modification in presenting and conducting the materials. For example, recently, acquiring computer skills in teaching has become one of the demands for every teacher. However, before this demand only referred to the students or specialists who study or work in the field of information technologies. It should be mentioned that language teaching is a mutual process among the teacher and students. It means that in order to acquire a certain language not only the teacher should work hard, but also a student should do his utmost to reach his goal. As the methods implemented by the teacher have great impact on effectiveness of the language teaching process, additionally, the student's motivation in learning also plays a valuable role in reaching the goal.

The experience shows that numerous students do not demonstrate their high preferences in obtaining education which means that they consider education as tedious compulsory duty. This emerges the necessity of modernization in methods of teaching from the sight of the language teachers. One of the contemporary and fast-developing trend in education, especially, in language teaching is considered to be coaching. It is a new approach in pedagogical science and, in practice, it aims at opening the inner potential of a learner. This approach has been used in the field of education from the early years of current century. The main aim of coaching is not only to teach something, but also to stimulate learner's self-instruction. The role of a teacher in coaching process to show the learner the necessity of given information, its foundation and usage; to teach how to implement, check and interpret the data. Moreover, the language coach should teach a learner to distinguish helpful information from unnecessary data. As one of the ideologist of the coaching approach Timothy Gallwey mentioned: "Coaching does not teach, it helps to learn". With the help of the coach a language learner learns how to find solutions to the tasks standing in front of him by himself. We can observe the following practical implementations of coaching approach in teaching foreign languages, especially, English language in higher educational establishments:

- Using project works while working with course works on highly preferred topics that are given at the end of each study year;
- Introduction of creative tasks for self-study in practical courses;
- Implementation of self-examination and peer check-up to increase the students' language competence;
- Holding additional private consultative seminars on the base of studied materials in order to eliminate the knowledge gap among the students;
- Dividing the students in several subgroups in order to make them compete with their current language skills.

With the usage of coaching approach the new roles of a language teacher as a coach have appeared. In coaching, a language teacher becomes a mentor. As a coach, the teacher urges the students to be more active

during the language class and he stops being ordinary language transmitter.

As we know, education, particularly, higher education is more effective with up-to-minute innovative means. However, distant learning in learning a language can not always bring the high results. Lack of personal communication between the teacher and a student necessarily leads to the decrease of student's motivation in language learning. As a result, there will be also the decline in quality of education. So, the coaching approach in language teaching solves this issues by bringing the learner and the coach to the same place. As it can be noticed, coaching has a significant potential in teaching English in higher educational establishments. It is highly recommended for language teachers to use this new strategy in their language classroom as this approach deals with concept of self-oriented learning which proved its high effectiveness in practice.

Used literature:

1. Gottesman, B. Peer Coaching for Educators. The Scarecrow Press, Inc, Lanham, Maryland and London, 2000.

2.Joyce, B.Showers, B.The Coaching of Teaching.Educational Leadership 40(1), 1989.

3. O'dwyer, J,B. Atli, H.H. The Effects of Professional Development Initiatives on EFL Teachers' Degree of Self Efficiency. Australian Journal of Teacher Education 36 (6), 2011.

ЎЗБЕК АДАБИЁТИДА ҲАРБИЙ НАСР АНЪАНАЛАРИ

Гўзал ҲИММАТОВА,
Термиз давлат университети
мустақил тадқиқотчиси
Тел: +998 91 5873008
E-mail: guzalx@tersu.uz

Аннотация. Мазкур мақолада адабиётда уруш мавзуси масалалари тадқиқ этилган. Унда ўзбек адабиётида ҳарбий насрнинг пайдо бўлиши ва эпик анъаналар ёритилган.

Калит сўзлар. Ҳарбий наср, уруш, мавзу, давр, анъна, ҳикоя.

Дунё адабиётида ҳарбий мавзудаги бадиий асарлар кўплаб яратилган. Улар орасида Э.Хеменгуэй, Лев Толстой сингарилар ижоди алоҳида ажралиб туради.

XIX асрнинг иккинчи ярмида ижод қилган Лев Толстойнинг ижоди "ҳарбий наср"га кучли таъсир кўрсатди. Толстойнинг эпик анъаналарини бошқа тарихий шароитларда ижод қилган рус адиблари К.Симонов, В.Гроссман, Г.Владимов, В. Карпов ва бошқа ёзувчиларда ҳам учратишимиз мумкин. Деярли ҳар доим классикларнинг таъсири фойдали бўлган ва ҳеч қачон вайронкор бўлмаган. Албатта, Толстойдан ҳеч ким ўзиб кетгани йўқ, бироқ насрнинг юксак намуналарига эътибор берсак унинг юксак таъсирини кўришимиз мумкин.

Ўзбек адабиётида ҳам ҳарбий мавзуда қатор асарлар яратилган. Умуман олганда, уруш мавзуси илдизини фольклордан излаш ўринли. Чунки инсон яратилибдики, доимо урушлар исканжасида яшаган. Ўзбек фольклоридаги жангномалар бунга яққол мисол бўла олади.

Адабиётимизда, хусусан, ўзбек насрида уруш мавзусининг пайдо бўлиши, бевосита, Иккинчи жаҳон уруши билан боғлиқ. Мамлакатимиз ҳам Собиқ Совет иттифоқи таркибидаги мамлакат сифатида урушга сафарбар этилди. Улар орасида ижодкорлар ҳам бор эдики, адабиётимизда яратилган ҳарбий мавзудаги асарларнинг аксарияти уларнинг қаламига тегишли. Албатта, ҳарбий мавзуда яратилган бадиий асарларнинг ҳаммаси ҳам бевосита урушда иштирок этган ижодкорлар томонидан яратилмаган. Шунинг учун бу асарларни уруш иштирокчиси бўлган ёки бўлмаган адиблар томонидан ёзилганлиги жиҳатидан таснифий ўрганиш мумкин.

Шуҳрат, Одил Ёқубов, Миркарим Осим, кейинчалик Афғон уруши иштирокчилари бўлган Наби Жалолиддин, Қўчқор Норқобил каби ижодкорларимиз бевосита уруш иштирокчиси бўлган. Уларнинг асарларида урушнинг бутун даҳшати-ю, фожиаси бор бўй-басти билан намоён бўлади. Масалан, Шуҳратнинг "Олтин зангламас" ва "Шинелли йиллар" романлари ўзбек адабиётида ҳарбий насрда яратилган ижод намуналарининг энг сараларидан саналади. Шуҳрат уруш мавзусида дастлаб "Шинелли йиллар" романини яратди. Романнинг бош қаҳрамони Элмуроднинг ҳаёти мисолида уруш воқеалари ва манзарасини ҳаққоний акс эттиради.

Адибнинг ўзи "Олтин зангламас" асари ҳақида гапирар экан, уни "Юрагимнинг очиқ яраси ва шукронаси" деб атайди. "Олтин зангламас"даги ҳаётни яхши биламан. Улар мен билан бирга бўлган, мен учратган кишиларнинг ҳаёти. Мен бу ҳаётнинг атрофида эмас, нақ ичида бўлганман" .

Ўтган асарнинг 80-йилларида Совет Иттифоқининг Афғонистонга оккупацияси натижасида уруш ҳаракатлари олиб борилди. Бунинг натижасида ўзбек йигитлари ҳам урушга жалб этилди. "Афғон уруши" иштирокчиси, кейинчалик таниқли шоир, ёзувчи, дараматург ва публицист бўлиб етишган Қўчқор Норқобил ижодининг асосий мавзуси уруш бўлди. Адибнинг "Дарё ортидаги йиғи", "Кулиб тур, азизим", "Қуёшни ким уйготади?..", "Кўзларингни кўргани келдим", "Афғон: 2 рота", "Бу ерларда ҳаёт бошқача", "Самодил" каби прозада битилган асарларида "афғон уруши" ва урушдан кейинги насрий асарлари нашр этилган. Бу асарларда адибнинг Афғонистонда ўзи кўрган уруш манзаралари ҳаққоний акс эттирилган.

"Она" ҳикоясида Афғон уруши воқеалари тасвирланган. Ҳикоя шундай бошланади: "Пушта бўйлаб ўсган токларни таг-томири билан қўпориб, ғарқ пишган узумларни мажақлаб келаётган танк ариққа тушиб тумшу0и бир пасайиб кўтарилди-да, таққа тўхтади. Занжири отилиб кетди" .

Совет танклари навбатдаги ҳужумдан кейин қишлоқни вайрон қилишади. Ҳозиргина вайрон қилинган кулбанинг ярми ўпирилиб тушган. Занжири узилиб кетган танк экипажи механик ёрдам кутяпти. Аммо ташқарига чиқишга ҳеч кимнинг юраги дов бермаяпти. Ташқарига чиқиш, кулбадан гугурт ва сув топиб келишга қуръа ташланади. Қуръага кўра ўзбек жангчиси бу ишни амалга оширилиши лозим. Кулба ичида ўз чанқоғини қондираётган жангчи унга милтиқ ўқталиб турган

аёлни кўради: "Лаҳзада аёлнинг даҳшат қотиб қолган кулранг юзи, зўриққандан косаси отилиб кетай деб турган нафрат ва қаҳр тўла чақчайган кўзларини кўрди" . Бу аёлнинг ҳолатини тасаввур қилиш мушкул. Балким у ҳозирги портлашдан энг яқинлари: турмуш ўртоғи, азиз фарздандларидан айрилгандир. Алам ва нафрат туфайли у ҳар қандай қасосга тайёр. Жангчи ҳам унинг ҳолатини лаҳзада англаб етгандир.

"- Сув... Сув, - деди аскар овози титраб, - Об... об...

Аёл челакка кўз қирини солди. Жангчининг хаёлига келган гап шу бўлди:

- Она... Она... отманг. Сиз менинг ... онамга ўхшайсиз, - деди чўк тушиб. Аскарнинг тим қора кўзларидан юзига гўёки сўнгги ёш томчилари шовиллаб оқа бошлади" .

Шу биргина "она" сўзи аскарни қутқариб қолади. Балким бу аёл фарзандидан айрилгандир. Аммо яна бир онанинг фарзанд доғини кўрмаслигини истаб, лаҳзада унинг ҳам ҳолатини тасаввур қилгандир.

Албатта, урушда энг азоб чекадиганлар фарзандини жанг оловига жўнатган ота ва оналардир.

Қўчқор Норқобил ижодида нафақат уруш манзаралари, оловли жанг тасвирлари, балки уруш ортида қолган ота-она изтироблари ҳам қаламга олинади.

Ўзбек адабиётшунослигида уруш мавзу ҳали ўрганилган эмас. Бу жиҳатларни тадқиқ этиш адабиётшунослигимиз олдида турган муҳим масалалардандир.

АДАБИЁТЛАР:

1. Норқобил Қўчқор. Самодил: ҳикоялар. - Т.: Янги аср авлоди, 2018. - 400 б.

2. Ли Ко. Концепция "войны" и "мира" в "Севастопольских рассказах" Л.Н.Толстого: Автореферат дис. . кандидата филологических наук. Воронеж, 2003. - С15.

3. http://uza.uz/oz/society/-ch-or-nor-obil-adabiyet-bu-zni-anglamo-degani--12-04-2018

TARJIMANING O'ZIGA XOS MURAKKABLIKLARI.

Egamberdiyeva Mastura Obidjonovna
Namangan viloyat Yangiqo'rg'on tuman 26-maktab
Telefon:+998990337136

Annotasiya : Tarjima san'ati tarjimondan o'girilayotgan asar muhitiga o'tishni talab etadi.
Kalit so'zlar: Tarjima murakkabliklari, tarjimada shevaning axamiyati.

Bir tilda boshqa tilga asar yoki so'z tarjima qilayotganda har qanday tarjimon ham turli hil qiyinchiliklarga duch keladi. Chunki bir asarni boshqa tilga tarjima qilish ham murakkab jarayondir. Buning uchun tarjimon har ikkala tilni ham mukammal bilishi zarur. Chinki asarda turli hil shevadagi so'zlar ham bo'lihsi mumkin. Tarjima murakkabliklari darajasini esa o'sha asarning qaysi tilga o'girilayotganligi ya'ni asliyat va tarjima tili o'rtasidagi o'zaro munosabatlar belgilaydi. Masalan, Viktor Gugoning "Si vous n'avez rien a me dire" nomli she'rining tarjimasi haqida to'xtaladigan bo'lsak, bu she'rni shoir aslida kimga atab yozgani ma'lum emas, lekin ushbu she'rda mehr-muhabbat va poklik tuyg'ulari yuksak darajada yoritilgan. Bu she'r Farxod Tursunov tomonidan tarjima qilingan. Bu tarjimani yuksak deb bo'lmaydi, lekin she'rning ma'no va mazmuni yaxshi yoritilgan. She'rni birinchi to'rtligini oladigan bo'lsak:

"Si vous n'avez rien a me dire
Pourquoi venir aupres de moi
Pourquoi me faire ce sourer
Qui tournerait la tete au roi"

O'zbekcha variant:

"Yurakda men uchun bir so'z bo'lmasa
Nechun huzurimga yana kelursiz,
Shoxni ham lol etib sarson etuvchi
Nechun menga nozu ishva qilursiz"

Aslida tarjimon o'zi tarjima qilayotgan she'rning muallifi o'sha she'rni qay ma'noda yozganini his etishi, butun vujudi ila she'rni ichiga kirishi, she'rdagi so'zlarni o'zi ichidan chiqayotgandek his qilishi zarur. Shundagina she'r o'z ma'nosiga ko'ra tarjima qilinadi va kitobxon qalbiga yetib boradi va ayni paytda uning yuragida nimadir jiz etadi. Yuqoridagi she'rning tarjimasida ham bir oz bo'lsada asliyatga mos tarzda ma'no ochib berilgan.

Xorijiy xalqlar adabiyotidan o'zbek tiliga qilinadigan o'ziga xos butun bir adabiyotni tashkil etuvchi sertarmoq tarjimalar olib qaralsa, bularda muammolarni turfa hil uslub jilolarini qayta ifodalash masalasida tarjimonlar oldida maxsus tahlil va tahsilni o'zgacha chora tadbirni talab etadigan muammolar ko'ndalang bo'lishi ko'zda tutiladi. Tarjima qilayotgan muallifning dunyoqarashi-yu , sinfiy mavqeidan tortib, maktab, mavzu, g'oya, material davr taqazosi bilan unung qanday va qay darajada qalam tebratganini inobatga olgan holda tarjimon turli-tuman jilvalarni aks ettirishga majbur bo'ladi. Chunki bir tildan boshqa tilga tarjima qilayotganda hech biri xijjaviy o'girilmaydi. Masalan, fransuz tilidagi "exiter la curiosite" iborasining tarjimasi"qiziqish uyg'otmoq" bo'lsa uni kontekstda "qiziqtirib qolmoq" deb tarjima qilinadi. Shuning uchun o'zbekcha birikma mantiqan tabiiy shaklda berilishi darkor. Bunday hollarda shakl jihatdan asliyatda bo'lmagan ayrim so'zlar tarjimada qo'shiladi. Aslida esa qo'shilganda narsaning o'rni shaklan asliy matnda bo'lmasa ham, mazmunan bor deb bilamiz. Fransuz adibi Prosper Merimening "Karl 9 saltanatining yilnomasi" romanidagi "C'est une idole vous dis-je :on le voit bien a son air". Elle vous fixe avec ses grands yeux blances□". Agarda ushbu gapni so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak,"Bu sanam deyapmanku sizga, uni qiyofasidan ko'rinib turibdi" deb tarjima qilinadi. Lekin bu jumlani Ozod Sharafiddinov o'z iqtidorini ishga solib ushbu gapning ma'nosiga mos so'zni topib ishlatgan, ya'ni u quyidagicha tarjima qilgan "Sanam deyapmanku sizga: sanamligi shundoqqina aftidan ko'rinib turibdi. Kattakon oq ko'zlarini lo'q qilib sizga tikilib turishini ayting□". Ushbu asarni tarjimasi jarayonida Ozod Sharafiddinov gaplarni ma'nosiga qarab so'z tanlay olgan. Ya'ni u butunlay shu roman ichiga kirib ketgan. Ayni paytda u tarjima jarayonida uning asl mazmuniga putur yetkazmagan.

U tarjima jarayonida shevaga oid yoki boshqa tildan kirib kelgan so'zlarga alohida izoh berib ta'riflab ketgan.

Asliyatning tabiati tarjimonni sinchkovlikka undagan ekan, tarjimaning tabiati ham bizdan jiddiy munosabatda bo'lishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'rayev K. , Jo'rayev E. , Mullajonov M. , Xolbekov B. "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" Andijon 2006.
2. Prosper Merime "Karl 9 saltanatining yilnomasi"1986.
3. V.G. Gak, Yu. I.Lvin, " Курс перевода Французкий язык".

БУЙРУҚ ГАПЛАРНИНГ ГРАММАТИК ВА УСЛУБИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Мадаминова Мухаббат Сотволдиевна
АДУ таянч докторанти (PhD)
Телефон: +99894-3884448
muhabbat_madaminova@mail.ru

Аннотация. Ушбу мақолада буйруқ гаплар синтактик тузилиши жиҳатидан бир-биридан фарқ қилиши,уларни умумлаштирувчи белгилари хақида фикр юритилган.

Аннотация.В данной статье предложения отличаются друг от друга в плане синтаксической структуры,обобщая их, думается о знаках.

Annotation. In this article the sentence sentences differ from each other in terms of the syntactic structure,summarizing them is thought about the signs.

Калитсўзлар: Прагмалингвистика, гап, нутқ, синтактика, семантика, прагматика, буйруқ гап,истак гап.

Ключевыеслова: Прагмалингвистика, предложение, речь, синтаксис, семантика, прагматика, командное ,предложение, ,предложение желания.

Keywords: Pragmalingvictika, sentence, speech, syntax, semantics ,pragmatics, command sentence, desire sentence.

Ҳар қандай гапда нутқ эгасининг коммуникатив мақсади акс этар экан, нутқий фаолият маҳсули бўлган гап турларининг ҳар бири прагматик таҳлилга муҳтож бўлади. Буйруқ гаплар ҳам нутқ эгасининг прагматик мақсадини ифодалашига кўра прагмалингвистиканинг ўрганиш объекти бўла олади. Маълумки, буйруқ гаплар буйруқ, дўқ, ялиниш, илтимос, маслаҳат, насиҳат каби маъноларни ифодаловчи алоҳида гап туридир. Р.Сайфуллаева ва бошқалар ҳаммуаллифлигидаги қўлланмада буйруқ гапларнинг 6 хил, Ғ.Абдураҳмонов[1,18] да ўнга яқин маъно турлари ажратилади. Шуни айтиб ўтиш керакки, анъанавий тилшуносликда истак гаплар ҳам буйруқ гап таркибида ўрганилган, ҳар икки таснифлаш ҳам мана шу асосда шакллантирилган. А.Нурмонов истак гапларни тўртинчи тур сифатида ажратиб кўрсатади.[3,55] О.Дадажонова истак гаплар ўз даврида Абдурауф Фитрат томонидан тилак гаплар сифатида ажратилиб, изоҳланганини таъкидлайди[2].Буйруқ гапларнинг грамматик ва услубий хусусиятлари таҳлил этилган бўлса-да, уларнинг семантик-синтактик стукрураси, прагматик жиҳатлари махсус ўрганилмаган.

"Биринчи жиҳат гапнинг моддий қобиғи, бу уни ташкил этувчи сўз ва грамматик шакллар. Масалан, аксарият гапда кесимлик кўрсаткичлари билан шаклланган атов бирлиги (кесим) нинг бўлиши шарт. Иккинчи жиҳат ана шу моддий қобиққа сингдирилган ақлий маҳсул - фикр - ахборот. Учинчи жиҳат эса сўзловчининг воқеликка муносабати, нутқ вазияти. Бу уч жиҳат нутқда учликни - синтактика, семантика ва прагматика бирлигини ташкил этади"[5,306].

Буйруқ гапнинг адресатга етказмоқчи бўлган ахборотининг моҳиятига кўра жумланинг семантик мазмуни ўзгаради. Одатда, дуо ибораларида феълнинг буйруқ майли қўлланади, лекин мазмунан сўралади, илтижо қилинади: Жойнамоз устида юзига фотиҳа тортаётиб, баралла тавалло қилади: - Эй поки парвардигор!.. Яккаю ягона болам ҳаққи, илтижо қиламан. Отасининг гуноҳидан ўт. Маҳшар кунида дўзах азобидан ўзинг халос эт! [Ў.Хошимов "Тушда кечган умрлар", 17-бет]

Гапларни қисқартириш ҳодисаси, кўпинча жонли сўзлашувда, диалогларда учрайди. Диалоглар сўроқ-жавобдан иборат бўлганда, жавоб тўлиқсиз гапдан иборат бўлиб, унда шу сўроққа жавоб бўлувчи - фикрий жиҳатдан биринчи ўринда турувчи сўзгина айтилади. Мавжудлик билдирувчи кесимлар, кесими буйруқ феълдан бўлган гапдаги эгалар кўпинча яширинади[6,87].Кузатишларимиз шуни кўрсатадики, бадиий услубда сўзлашув услубига хос ана шу усулдан персонажлар нутқида кенг фойдаланилади. Хусусан, иккинчи шахсга қаратилган буйруқ майлидаги феъл-кесимдан иборат тўлиқсиз гаплар, кўпинча, такрор ҳолда қўлланиб, ифодадаги эмоционалликни кучайтиришга хизмат қилади.

- Зарарсизлантир! - БТР панасида ётган капитан бўйнини ичига тортиб буюрди: - Зарарсизлантир! [Ў.Хошимов "Тушда кечган умрлар", 50-бет]

Торини ғилофга тиқа бошлаган созанданинг олдига югуриб борди.

- Чал! - деди ғайритабиий тантана билан. - Чал дейман! "Лазги"ни чал! [Ў.Хошимов "Тушда кечган умрлар", 11-бет]

Биринчи вазиятда феъл-кесим ёлғиз такрорланган бўлса, иккинчи вазиятда кесим ўз

кенгайтирувчилари билан бирга такрорланган.

Инверсия, яъни гап бўлакларининг ўзгарган тартиби, одатда, шеърий нутқда қофия ва оҳангдорликни юзага келтирувчи восита сифатида энг кўп қўлланадиган усуллардан биридир. Лекин насрий асарларда нутқий вазиятнинг ҳолати, сўзловчининг кайфиятига боғлиқ экспрессивликни ифодалашга хизмат қилади. Бу ҳолат буйруқ гапларда кўпроқ кузатилишига гувоҳ бўлдик. Айтиш мумкинки, прагматик изланишлар юзага келишидан илгари инверсиянинг насрий асардаги аҳамиятига деярли эътибор қаратилмаган. А.Нурмонов трансформациянинг бир усули сифатида тавсифлайди: "ўрин алмаштириш ёки пермутация трансформацияси. Бунда ядро гап таркибидаги синтактик бирликларнинг ўрни алмаштирилади. Лекин бу қоида амалга оширилганда, синтактик бирликнинг моҳияти ўзгармаслиги керак"[4,134].Демак, тартиб ўзгариши маълум услубий фарқланишларни кўрсатса-да, грамматик ўзгариш содир бўлмайди.

- Илтимос, Шаҳнозани чақиринг.
- Ким ўзи бу-у?

Аввалари қизалоқнинг эркалигига кулиб қўя қолардим. Бу гал ғашим келди. Ҳали Пискентга ҳам бориб келишим керак.

- Чақир Шаҳнозани! - дедим зарда билан. [Ў.Хошимов "Тушда кечган умрлар", 40-бет]

Дастлабки жумлада одатий шаклда тўлдирувчи-кесим варианти қўлланган бўлса, вазиятнинг бироз кескинлашиши, персонажнинг жаҳли чиққан и унинг нутқида акс этади ва у иккинчи сафар кесим-тўлдирувчи шаклини қўллайди: Шахнозани чақиринг - чақир Шахнозани.

Кўринадики, буйруқ гаплар синтактик тузилиши жиҳатидан бир-биридан фарқ қилади. Уларни умумлаштирувчи белги - семантик хусусияти ҳамда нутқ эгасининг ифода мақсади - прагматик мақсаддир. Нутқ эгалари айни шу коммуникатив мақсад асосида буйруқ гапларнинг турли кўринишдаги моделларидан фойдаланишади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абдураҳмонов F. Ўзбек тили грамматикаси (Синтаксис), Т. "Ўқитувчи" 1996 й. 18 -бет.
2. Дадажонова О. Истак гапларнинг прагматик хусусиятлари.//Ўзбек тили ва адабиёти, 6/2017.
3. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Т., Ўқитувчи, 1995 й. 55-бет.
4. Нурмонов А. Танланган асарлар, 2-жилд, 134-бет.
5. Сайфуллаева Р. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 2009 й. 306-бет.
6. Fуломов А.F. Содда гап (ҳозирги замон ўзбек тили курсидан материаллар). ЎзФА нашриёти, Т. 1955 й 87-бет.

TILLARARO TARJIMADA MUALLIF USLUBINI SAQLASH MASALALARI

Xurramova Dildora Rahkmonkulovna
(SamDCHTI, Yaqin sharq tillari kafedra o'qituvchisi)
Tel:90 270 31 34
dildorakhuramova1987@gmail.com

Anotasiya: "Muallif idiolekti va tarjima muammosi" bo'lib, ishning dolzarbligi idiolektni tarjimada to'la-to'kis yetkazib muammosidir. Muallif idiolektining badiiy matnda aks etish yo'llari ochib berishga qaratilgan.
Kalit so'zlar: idiolekt, tarjima muammosi, uslub, muallif.

Idiolekt keng ma'noda, odatda, ma'lum bir tilni shaxsga nisbatan, ya'ni til tizimini o'rganish uchun gapiruchi shaxslar tomonidan ishlab chiqilgan va tilshunos tomonidan o'rganilgan matnlarning jamlanganligi; Idiolekt har doim muayyan bir ibtidoning "adabiy" vakili (adabiy til, hududiy yoki ijtimoiy dialekt), uning strukturasining umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini, me'yor va ishlatilishini birlashtiradi.

Idiolekt bevosita til bilan bog'liqdir, chunki yozuvchi o'z til uslubini o'zi tanlaydi va tilning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

"Har bir muallifning "o'z tili", ya'ni uslubini qayta yaratish badiiy tarjimaning asosiy muhim shartlaridan biridir" deb yozgan ustoz olim G'aybulla Salomov. Bu haqiqatni inkor etib bo'lmaydi. Jahon adabiyotida yozuvchi va shoirlar qancha bo'lsa, uslublar ham shunchadir.

Badiiy tarjimada adib uslubini qayta yaratish uchun so'zlarning lug'aviy mazmuni-yu tilning grammatik qoidalarini bilishning o'zi kifoya emas. Buning uchun muallif tilini his qilish lozim.Chunki har bir adib o'z milliy tilidan faqat o'z uslubiga mos unsurlarni olib, ularni yozayotgan asrining mazmuniga singdiradi.Bu esa, tarjimon oldiga yozuvchi uslubini qayta yaratishdek mushkul vazifani qo'yadi. Quyida bolalarning sevimli yozuvchisi Joanna Ketlin Roulingning "Garri Potter va Hikmatlar toshi" asarining rus tilidagi tajimalarini asliyat bilan solishtirish orqali muallif uslubini saqlash muammosiga e'tibor qaratmoqchimiz. Ushbu romanni rus tiliga Oranskiy va urdu tiliga Javed Buxoriy tarjima qilishgan.

"Mrs Dursley had had a nice, normal day."

"Для миссис Дурсль этот день был, как всегда, весьма приятным."

Yuqorida keltirilgan ushbu misoldagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tiborimizni qaratamiz." Nice, normal day" ni agar so'zma-so'z o'zbek tiliga tarjima qilsak, "yaxshi, oddiy (me'yordagidek) k un" degan ma'noni beradi. Lekin uni rus tiliga "день был, как всегда, весьма приятным" deb tarjima qilib ma'noni kuchaytirib yuborgan. Birgina "весьма" so'zining o'zi "juda juda ham, g'oyat, nihoyatda" degan ma'nolarni ifodalagani uchun konteksga ijobiy ta'sir qilgan.

Quyidagi misolda esa muallif ishlatgan so'zni tarjimonlar umuman boshqa so'z bilan tarjima qilishgan:

"She told him over dinner all about Mrs. Next Door's problems with her daughter and how Dudley had learnt a new word (Shan 't!'). "

"За ужином она охотно рассказала мистеру Дурслю о том, что у их соседки серьезные проблемы с дочерью, и напоследок сообщила, что Дадли выучилновое слово "хаччу!"."

Avval "shan't " so'zini tahlil qiladigan bo'lsak, "Shant " bu badiiy adabiyotdagi "want " so'zining ekvivalenti bo'lib "istamoq, xohlamoq" degan ma'noni beradi va bu yerda apostirf (') ishlatish bilan unga bo'lishsizlik ma'nosini yuklagan. Muallif bolakayning "istamayman" degan so'zni o'rgandi deb, uning qaysar, gapga quloq solmaydigan zumrasha ekanligiga urg'u bergan. Biroq rus tilida nima uchundir tarjimon "хочу" deya tarjima qilgan. Nahot, Oranskiy ingliz tilidagi apostirf belgisini bilmasa? Biroq "karna" so'zi "qilmoq " degan ma'noni beradi va "xohlamoq" so'zining urdu tilidagi ekvivalenti esa "chahna" bo'lib nima uchundir tarjimon ushbu gapda "qilmayman " deya tarjima qilgan. Bundan tashqari asliyatdagi "and" bog'lovchisini rus tiliga "и на последок сообщила" deya tarjima qilishgan. Rus tilidagi tarjimaga e'tibor bersak, qo'shni haqida gapira-gapira o'z farzandi haqidagi yangilikni oxirida aytgandek bo'lib qolgan. Go'yo onaga ham, otaga ham farzandining yangi so'z o'rgangani qiziqmas emasdek tuyuladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir muallifning o'z uslubi bo'ladi, tarjimada esa uni saqlash lozim. Chunki, muallif uslubi asar g'oyasiga singgan bo'ladi. Yuqorida ko'rib chiqilgan misollar orqali tarjimonlar muallif uslubini ko'p hollarda saqlay olishmaganligi ma'lum bo'ladi. Mazkur tarjima asarlari bolalar uchun emas, balki kattalarga mos bo'lib qolgan. Holbuki, "Garri Potter va hikmatlar toshi asar" dunyo bolalarining sevimli asaridir.To'g'ri, har qanday tarjimon muallif uslubini yaratishda o'z bilimi va saviyasiga suyanadi. Biroq tarjimada aks etgan birgina xatolikni minglab kitobxonlar o'qiydi, shu bois bu holatga yo'l qo'yib

bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. И. Оранский. Гарри Поттер и Философский Камень. Москва,2000.
2. Salomov G'. Tarjima tashvishlari.Toshkent, 1983.
3. Isaqov.U. Inglizcha-o'zbekcha lug'at.T., 2013.
4. Xolmirzayev.T. Urducha-o'zbekcha lug'at.Islomobod, 2003.

ОСОБЕННОСТИ СТАТИЧЕСКОГО АСПЕКТА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ НОМИНАЦИИ

Музаффарова Зарина Зафаровна
СамГИИЯ, учитель Ближне-восточной кафедры
Тел:97 577 27 26
muzaffarova.zarina@bk.ru

Анотация: Фразеология - как интереснейшая область науки, изучающая и рассматривающая устойчивые сочетания языка основной языка основной своей целью имеет исследование социального контекста, определяющего направления и круг интересов отечественной и зарубежной лингвистики в плане их отношения к природе языка как социального явления, место ФЕ и их роли в общественном развитии.

Ключевые слова: фразеология, фразеологические единицы, номинация.

Фразеологизмы, как и все языковые единицы, обладают определенными существенными признаками. По мнению Ш. Балли отличительными особенностями фразеологизма являются: - фиксированность лексического состава, но в разных фразеологических оборотах степень устойчивости может отличаться - фразеологическая единица воспроизводится в речи в готовом виде, в отличие от обычного словосочетания - особая семантическая структура, присущая только данной фразеологической единице, как раздельнооформленной единице языка - устойчивость употребления в языке - сложное, раздельнооформленное языковое формирование, состоящее из двух или более компонентов. - содержит в своем составе не меньше одного важного, значительного слова Наиболее основными и последовательными характеристиками фразеологизма являются: - воспроизводимость - устойчивость - раздельно оформленность - принадлежность к номинативному инвентарю языка По мнению Н.М. Шанского, фразеологические единицы обладают следующими признаками:

- Воспроизводимость в готовом виде: фразеологизмы не создаются в свободном потоке речи и не образуются в процессе общения. Они воспроизводятся в речи в виде готовых языковых единиц.
- Устойчивость состава и структуры. Компоненты фразеологизмов связаны друг с другом и следуют в определенном порядке, их состав 15 постоянный. Положение и порядок слов, составляющих фразеологический оборот, не меняются.
- Целостность значения.
- Фразеологизмы выступают в качестве делимых сочетаний, компоненты которых понимаются говорящими как слова.
- Наличие в составе двух или более ударных слов. Так же, по мнению Н.М. Шанского, фразеологические единицы следует отличать от отдельных слов и от их свободных сочетаний. Основными отличительными качествами, которые позволяют разграничить фразеологизмы, слова и свободные сочетания слов - это воспроизводимость в речи в качестве единых, неделимых оборотов и устойчивость структуры и состава данного фразеологизма. Российский языковед Т.И. Вендина тоже считает, что фразеологизм следует отличать от слова. В качестве отличительных особенностей Т.И. Вендина выделяет такие признаки фразеологической единицы как:

Структурная оформленность, под которой понимается то, что компоненты фразеологизма, то есть слова, могут употребляться вне фразеологического оборота в отличие от компонентов слова - морфем, которые, в свою очередь, за пределами слова не употребляются.

- Грамматическая оформленность говорит о том, что фразеологизм представляет собой разно оформленную единицу.
- Акцентологическая оформленность, под которой Т.И. Вендина понимает способность фразеологических оборотов иметь в своем составе два или более ударных слов. Лингвист А.Г. Назарян пишет, что "фразеологическая единица никогда полностью не совпадает со словом". Фразеологизм можно понимать как качественное языковое новообразование. Исследуя 16 фразеологические единицы, А.Г. Назарян выделяет их основные характерные структурные признаки: Раздельно оформленность, которая по мнению А.Г. Назаряна, помогает отличить фразеологическую единицу от слова, но не может отграничить её от свободных сочетаний слов.

- Устойчивость структуры т.е. фиксированность лексико- грамматического состава.
- Устойчивость употребления. Фразеологическая единица должна быть "апробирована временем".

Фразеологизму требуется немало времени, чтобы установиться в речи.

- Воспроизводимость В.П. Жуков подчеркивает познавательную ценность фразеологизмов, так как фразеологическая единица нередко выступает средством познания объективной действительности мира. Косвенная номинация.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1.Алёхина А.И. Идиоматика современного английского языка. - Минск: Высш.шк., 1992. - 279 с.

2.Андромонова Н.А. Системность и не системность в синтаксисе // Лингвистика на исходе XX века: итоги и перспективы. - Т. 1. - М., 1995. - 23-24.с.

3.Алпатова Р.С., Корчажкина О.М. Языковой и коммуникативный аспекты овладения английским глаголом в обобщающем курсе // Иностранные языки в школе. - М., 1997. - № 1.- С. 7-14.с.

МАЛАКА ОШИРИШ ТИЗИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

КулдашеваГулбаҳор Давлятовна
ТВХТХҚТМОХМ, "Педагогика, психология ва таълим технологиялари" кафедрасининг доценти, психология фанлари номзоди
Тел.: +998903285858
gulya.kuldasheva@mail.ru
Самигова Умида Хамидуллаевна
ТВХТХҚТМОХМ "Илғор тажриба ва халқаро хамкорлик илмий ахборот тадқиқотлар" бўлими етакчи мутахасиси
Тел.: +998977434083

Аннотация: Мақолада малака ошириш марказлари фаолиятини модернизациялашга интегратив ёндошув асосида такомиллаштириш ҳамда малакали кадрларни шакллантиришнинг ўзига хос педагогик-психологик хусусиятлари ҳақида фиклар ёритилади.

Калит сўзлар: шахс, жамият, инновация, модернизация, пассив, фаол иштирокчи, тингловчи, адаптация.

Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги қонунида "Кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш касб билимларини ва кўникмаларини чуқурлаштириш ҳамда янгилашни таъминлайди", деб белгилаб қўйилган.

"Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури"да қайта тайёрлаш ва малака ошириш тизимини ривожлантиришнинг умумий йуналишлари: унинг меъёрий-ҳуқуқий ва моддий техника базасини, таълим муассасаларининг ўқув-методик, ахборот таъминотини такомиллаштириш; кадрларни изчил равишда ўз касбий билим, кўникма ва малакаларини, маънавиятини, маданиятини, ахлоқини, шунингдек, иқтисодий, ҳуқуқий саводхонлигини доимий ошириб боришга руҳлантирадиган малака оширишнинг ижтимоий-психологик жиҳатларини ривожлантиришдан иборат эканлиги таъкидланган.

Малака ошириш марказлари фаолиятини модернизациялашга интегратив ёндошув асосида такомиллаштиришда: дидактик бирликларни йириклаштириш, таълим самарадорлигини олдиндан ташхислаш, режалаштириш, психологик-педагогик ёндошувларни инсонпарварлашуви, ахборот-коммуникацион технологияларнинг назарий, илмий-методик йўналишларини мақсадли яхлитлаштириш каби талаблар асосида амалга оширилмоқда.

Хусусан, модернизациялаштирилган ўқув-тарбия жараёнини педагогик инновациялар ёрдамида бошқаришнинг асосий йўналишлари, принциплари, талабларини ҳисобга олган ҳолда, ўқитиш қонуниятлари ва тамойилларини белгилаб бериш, ўқув-тарбия жараёнида кафолатланган натижа олишга эришиш мақсадида педагогик инновациялардан фойдаланишнинг назарий-методологик асослари, ўқитувчи методологик маданиятини шакллантириш йўллари, инновацияларни ўзлаштириш даражалари ва уларнинг таркибий қисмлари аниқ ишлаб чиқилиши талаб этилади.

Бунинг учун узлуксиз малака ошириш тизими самарадорлигини таъминлашга ижобий таъсир кўрсатадиган педагогик омилларни белгилаш, ўқитувчиларнинг педагогик инновацияларни ўзлаштириш жараёни мазмуни, шакллари, воситалари, методларини ишлаб чиқиш ҳамда амалиётга татбиқ этиш йўлларини кўрсатиш орқали ўқитувчиларни шахсий-касбий шакллантириш ва ривожлантириш тизимини вужудга келтириш мумкин.

Бундай талабларнинг қўйилиши, сифат жиҳатидан баҳоланиши мумкин бўлган ҳодиса бўлиб - жараён сифатида, яъни малака ошириш таълимида тингловчи шахсига йўналтирилган даврий, мақсадли таъсирлар йиғиндиси, мажмуаси сифатида қаралади; уларнинг маъноси, мазмуни, мақсад ва вазифалари жамиятнинг объектив эҳтиёжлари билан белгиланади ва у таълим муассасаларининг фаолияти мақсадларидан келиб чиқади.

Халқ таълими тизими кадрларининг малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш марказларида юқорида қўйилган талаблар асосида шахс - малакали мутахассиснинг шаклланиши, рақобатбардош кадрларни тайёрлаш бўйича тегишли қонун ва қарорлардаги талабларга мувофиқ марказ фаолиятида янгича таркиб, мазмун ҳамда бу тизимни бошқариш бўйича рақобатга асосланган муҳит ва самарали фаолият олиб боришни таъминловчи техник ва меъёрий база яратилиб, давлат талаблари, ишчи дастурларга тегишли ва танлов фанларни малака ошириш жараёнига демократик ёндошув асосида жорий этилди.

Малака ошириш таълимида ижтимоий ривожланиш, илмий-техник тараққиёт талаблари, ишлаб чиқариш, меҳнат бозоридаги ўзгаришларга биноан, шунингдек, тингловчиларнинг касбий, педагогик фаолияти бўйича эҳтиёжларига демократик, ижтимоий, инсонпарвар ва креатив ёндошган ҳолда касбий билим ва кўникмаларни ривожлантириш, янгилаш устувор вазифадир. Узлуксиз таълим тизимини ривожлантириш тамойилларидан айримларини малака ошириш таълими жараёнига татбиқ этилишнинг мақсад ва вазифалари: таълимнинг демократлашуви - таълим ва тарбия услубларини танлашда ўқув юртлари мустақиллигининг кенгайиши, таълимни бошқаришнинг давлат - жамият тизимига ўтилишидир.

Таълимнинг инсонпарварлашуви - инсон қобилиятларининг очилиши ва унинг таълимга нисбатан бўлган турли-туман миллий ва умумбашарий қадриятлар устуворлигинин таъминланиши, инсон, жамият ва атроф-муҳит ўзаро муносабатларининг уйғунлашуви; таълимнинг ижтимоийлашуви- таълим олувчиларда эстетик бой дунёқарашни ҳосил қилиш, уларда юксак маънавият, маданият ва ижодий фикрлашни шакллантириш;

Таълимнинг миллий йўналтирилганлиги - таълимнинг миллий тарих, халқ анъаналари ва урф-одатлари билан узвий уйғунлиги, Ўзбекистон халқларининг маданиятини сақлаб қолиш ва бойитиш, таълимни миллий тараққиётнинг ўта муҳим омили сифатида эътироф этиш, бошқа халқларнинг тарихи ва маданиятини ҳурмат қилишкабилардан иборатдир.

"Таълимнинг демократлашуви" тамойили талаблари асосан:

- ишчи дастурларга тингловчиларнинг талаб эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда тегишли ўзгартиришлар киритиш;

- тингловчиларнинг кириш тести бўйича баллари кўрсаткичи асосида реквалификациявий билим, малакасини аниқлаш ва чиқиш тести бўйича баллари кўрсаткичи асосида малака ошириш курси самарадорлигини аниқлаш;

- профессионал тренингда виртуал, ахборот-коммуникацион технология имитаторларидан фойдаланиш;

- инновацион, педагогик ва ахборот-коммуникатив, интерфаол технологияларнинг малака ошириш таълимида қўлланилиш жараёнида тингловчи пассив эшитувчи эмас, фаол иштирокчи бўлиши; тингловчининг замон талабларига адаптациясини, реквалификациявий, кенгайтирувчи, ихтисослаштирувчи фаолиятларини ривожлантириш.

Малака ошириш таълимнинг инновацион ва ривожлантириш функциялари -профессор-ўқитувчи ва тингловчининг ижодий, илмий, педагогик, методик салоҳияти узлуксизлигини таъминлаш.

Реквалификациявий - малака ошириш курсига келгунча бўлган билим, кўникма ва малакалари ҳамда янги талаблар орасидаги бўшлиқни бартараф этиш.

Кенгайтирувчи, ихтисослаштирувчи - малака ошириш ва қайта тайёрлашнинг самарали шакллари (уйғунлаштирилган, масофадан ўқитиш ўқитишнинг якка тартибдаги таълим муассасасида ўқиши, мустақил ўқиб таълим олиши, хорижда малака ошириш, курсларда таълим олиш орқали қўшимча билим ва малакага эга бўлиш).

Малака ошириш тизимида таълим мазмунининг сифат ва самарадорлигини таъминлашда, унинг компонентлари ва профессионал тренингларнинг илгор технологиялари, шунингдек, мураккаб, фан ютуқларини талаб қилувчи технология жараёнларини танлаш ва улардан мақсадли фойдаланиш ишлари ҳам назарда тутилади. Малака ошириш жараёнида инновацион, педагогик, ахборот-коммуникатив технологияларни ўрганиш ва амалиётда фойдаланишнинг асосий йўналишлари ушбу тартибда жорий қилинмокда:

- педагогик, ахборот-коммуникатив технологиялар бўйича тегишли маълумотлар жамғармаси яратилди;

- тўпланган маълумотлар профессор-ўқитувчилар, тингловчилар томонидан ўрганилиб хорижий давлатлардаги таълим соҳасидаги тажрибалар билан таққосланади, амалиётга жорий қилиш учун тегишли мутахассислар мақсадли курсларда малакасини оширади, ишлаб чиқилган методик қўлланма ва тавсиялар нашр эттириш учун педагогик матбуотга узатилади;

- таълим соҳасидаги олимлар, илмий изланувчилар, услубчилар билан ҳамкорлик ишлари олиб борилади, илмий-амалий кенгашлар, конференциялар ўтказилиши замонавий технологияларнинг қўлланилишининг динамик равишда ривожланиши ва самарадорлиги мониторинги олиб борилади.

Хулоса қилиб айтганда, малака ошириш таълим мазмуни ва унинг таркибини такомиллаштириш тингловчида нафақат билим, кўникма ва малака, миллий ғоя, мафкура ҳамда умуминсоний маданиятни ташкил этувчи - ижодий фаолият тажрибаси, жамият ва атроф - муҳит ўзаро муносабатларнинг интегратив уйғунлашуви давр талаби бўлиб қолмокда.

Малака ошириш тизимини модернизациялаш тингловчиларнинг касбий, педагогик, илмий -

методик маҳоратларини оширишда самарали бўлиб, малака ошириш курси жараёнида тингловчи мақсадига эриша олади, ҳамкорликда таълим олиш, ўзаро тажриба алмашиш, ўз интеллектуал салоҳият имкониятларини тўла намоён қила олади, турли ҳаётий вазиятларда жавобгарликни ҳис эта оладиган, янги илгор тажрибаларни ижодкор педагог, малакали мутахассис сифатида меҳнат фаолиятларида фойдалана оладиган салоҳиятли кадрларни тайёрлашга хизмат қилади.

Адабиётлар:
Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонуни. -Т., 1997.
Ўзбекистон Республикасининг Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. -Т., 1997 .

HOW TO MOTIVATE YOUNG LEARNERS ?

Abdullaeva Kimmatkhon Alijonovna
English teacher, CEFR B2,Namangan region Norin district school 17
Telephone:+998(99) 435 72 82
qimmathonabdullayeva@gmail.com

Annotation: Motivation is a type of reward to encourage youngsters' activeness. Here you can find usefull explanations how to improve their interests for the lesson. And also there are many key elements which will help to keep young learners interested in the classroom.

Key words: motivation, youngsters, classroom activities, learners, reward.

Motivation is an important topic and it is also one of the most challenging areas when we are teaching young learners. There is nothing worse than going into a class full of pupils who don't really want to be there. One of the skills that we as teachers can bring into the classroom is that of successfully motivating students to learn. So it is important for us to take an active role in trying to improve the motivation levels of our younger learners groups. Think about it for a moment - a highly motivated group of students is usually going to be easier to teach. So we are the ones responsible for creating the right "motivational environment" for our learners to grow and develop their knowledge of the language.

In my experience as a teacher of young learners, they need stimulation from the start of the lesson to the final minute. From the moment they enter the classroom, to the minute they leave, something needs to the happening. This is partly because at this age our students tend not to be goal oriented. There is no ability to see the future or to understand whether their English is or is not improving. At this age level, young learners are generally unable to see past the activity they are engaged in, so as teachers we need to encourage immediate motivation. This motivation must come from the task we as a class are doing at the present time.

So it is crucial that we incorporate a fun element into our lessons, so that learners at this level enjoy what they are doing . As said in our analysis of young learners earlier, young learners will enjoy being challenged within their ability range, but they will learn more if they are enjoying what they are doing.So remember do not let your student get bored.They need to be engaged and active.A tip here is to have lots of activities prepared and not make them too long-long enough for them to be interesting but not so long that students lose interest. Vary your tasks too. For example, don't make them all "drawing" activities. Students who don't like drawing will soon latch on to the fact that in Ms. X's lesson 'all we do is drawing'. The dislike of the method of learning will quickly develop into dislike of the subject itself.

But it is not all about having fun in the classroom. Having lots of activities up our sleeves is not going to work all by itself. Yes, we can reward our students when they do well, and indeed we should. But there are more effective motivational strategies that we can employ to be successful at this level as well. So here we look at five key elements that will help to keep our young learners interested in the classroom.

1. The Importance of Planning

Planning is crucial to successful motivation. When you are planning, think about what your young learners will be interested in doing. Where possible, use a young learner course book at a targeted age level for your class. Build your lesson around part of the book, but remember to think about what we have said regarding attention span. We need to understand and accept how quickly your young learners will lose interest in what they are doing and how easily they may become distracted.

2. Giving Praise

Young learners really respond well to praise when they have done something well, or made an effort to try something new or something that they find particularly challenging. If you can reward this than you will see motivation levels increase. One way to achieve this is through a Star chart. It is really simple and easy to set up.

3. Reinforce and Repeat with Fun Activities

Young learners like familiarity, so if you find a popular game or activity that your youngsters enjoy, don't be afraid to use it frequently. For example, you can use a game format to revise new vocabulary and/ or grammar from the previous lesson. This will help to ensure that there is some continuation from lesson to lesson, and you will be able to see if students have learnt the work.

4. Vary your material

Even though students do like familiar activities, it is still important to vary your material. After all,

students will get bored with doing the same type of activity day in day out. So use a variety of different materials: TV/video programmes for visual stimulation , games for active participation, an overhead projector to display something or tape recorder to tape your younger learners speaking English.

5. Be consistent in your Approach

At this age, students like secure surrounding -and routines can help the learning process. As with the idea in number 2 , think about ending your lessons with something which is familiar to them. This will let them know that the lesson is coming to an end -indeed it may give them that final push and lead to you leaving on a positive note.

Praise is a wonderful stimulator and can really help to encourage your young learners. These are just a few ideas and I think they will help you to improve your students' interests for your subject.

Using literature

1. MOTIVATION OF TEENEGERS. Carl Rogers
2. HOW TO MOTIVATE YOUNG LEARNERS TO READ. Billy Adams
www.english org.

ОЙБЕК ИЖОДИ ИБРОҲИМ ҲАҚҚУЛОВ ТАЛҚИНИДА

Насима Саидбурхоновна Қодирова,
Бухоро давлат университети
Ўзбек адабиёти кафедраси таянч докторанти,
nasimasaidzoda@mail.ru +998914097769

Аннотация: Мақолада мунаққид И.Ҳаққуловнинг ойбекшуносликка қўшган ҳиссаси, тадқиқотларидаги ўзига хос хусусиятлар ёритилган. Мунаққид услубининг бошқа ойбекшунослардан фарқли жиҳатларига эътибор қаратилган. Олим ижодининг тил хусусиятлари таҳлил этилган.

Калит сўзлар: мунаққид, услуб, ойбекшунослик, таҳлил, лирика, маҳорат.

Ўзбек адабиётининг забардаст вакили Мусо Тошмуҳаммад ўғли Ойбек ижоди борасида адабиётшунослигимизда кўплаб тадқиқотлар яратилган бўлсада, бу масаланинг ҳали очилмаган қирралари бисёр. Ҳам назмда ҳам насрда, ҳам илмий тафаккурда юксак маҳоратга эга бўлган Ойбек ижодини ҳар томонлама чуқур ўрганиш, унинг ижоди билан халқимизни кенгроқ танитишга интилиш адабиётшунослигимизнинг долзарб вазифаларидан биридир. Мунаққид Иброҳим Ҳаққул ҳам ушбу вазифанинг бажарилишига муносиб ҳисса қўшган олимлардан биридир. Унинг ижодида ойбекшунослик алоҳида саҳифани ташкил этади. И.Ҳаққулнинг ойбекшунослик фаолияти асосан икки йўналишда олиб борилган: 1-Илмий мақолалар яратиш, 2-адабий-марифий суҳбатлар орқали адиб ижодини таҳлил ва талқин этиш. Олимнинг Ойбек ҳақидаги мақола ва суҳбатлари асосан унинг шеърияти таҳлили ва шоир шахсиятини англашга қаратилган. Олимнинг "Тақдир ва тафаккур" китобидан ўрин олган "Ойбек шахсияти ва шеъриятига доир" мақоласи шоир ижодига берилган янгича баҳолиги, турли мафкурадан холилиги билан аҳамиятли. Ойбек лирикаси борасида Ҳомил Ёқубов, Наим Каримов, Озод Шарафиддинов, Улуғбек Ҳамдам кабилар бир қатор илмий тадқиқотлар олиб борганлар, шоир ижодига турли томонлардан баҳо берганлар. Иброҳим Ҳаққулов ҳам ушбу мақолада Ойбек лирикасининг янги қирраларини очиб бера олган. Шоир у яшаган давр ҳақида билмай туриб унинг қалбига яқинлашиш ҳам шеъриятини тушуниб, таҳлил этиш ҳам мумкин эмас. Шу сабаб, мақоланинг кириш қисмида мунаққид Ойбек яшаган даврга назар солади, шундай оғир даврда яшаб туриб шахсиятини, моҳиятини ўзгартирмаган шоирни ибрат намунаси этиб таништиради. Мақолада мунаққид шоир қалбига кириб боради, унинг ички оламини ёритишга интилади. Бу Иброҳим Ҳаққулов таҳллиларидаги ўзига хос хусусиятлардан бири бўлиб, унингча ижодкор шахсиятини унинг ижодидан ажратиб бўлмайди, шоир шахсияти бевосита унинг ижодида акс этади. Шу сабаб мунаққид таҳлилларида қуйидаги икки жиҳатни кузатиш мумкин: 1- шахсиятдан келиб чиққан ҳолда шеърият таҳлили. Олим наздида Ойбек шахсияти ва моҳияти гавҳардай тоза ва ёрқин. Бу фазилат уни бошқалардан ажратиб туради. "Унинг нур, ой, қуёш, юлдузларга ошиқлигининг сирларини ҳам, энг аввало, шундан ахтариш керак. Ойбек характерига яқин ижодкорлар бошга бало-ю қазо, туҳмату иғво дўл бўлиб ёғилганда ҳам ҳақиқатга хиёнат нари турсин, қарши бўлишни хаёлга ҳам келтиролмайдилар"[1,274] Шу сабаб замон зайли билан "умумий ёлғон ва мадҳиябозликларга мажбурн аралашиш Ойбек қалбини ғам-ғуссага чулгаган"[1,274]. Шоир ички дунёси борасидаги мунаққиднинг ушбу фикрлари

Ҳақиқат соқовдир, заифдир инсон,
Тошлар ҳам йиглайди - сир тўла осмон.
Ҳақиқий олам не? Жавоб йўқ, ҳайҳот!

Файласуф тўқийди ҳисобсиз ёлғон мисраларини китобхонга осон тушуниш ва Ойбек қалбини янада теранроқ англашга кўмаклашади.

2- шеърлар таҳлили орқали шоир шахсиятининг очиб берилиши. Масалан, мунаққид шоирнинг

Кулфатдир ҳаётнинг ҳамроҳи,
Соядек йўлингда ҳамқадам... мисраларини келтиради ва шоир шахсиятидаги ҳаётга дақиқ ва рост назар ила қараш фазилатларини кўрсатиб беради.

Иброҳим Ҳаққулов қайси ижодкор борасида фикр билдирмасин, аввало, унинг сўз қўллаш маҳоратини назардан ўтказади. Унингча, бадиий ижодда кўп нарсани сўз ҳал қилади. Юқоридаги мақолада ҳам мунаққид шоирнинг сўз қўллаш маҳоратига алоҳида аҳамият берган. "Кеча туйғуси" шеъри таҳлил этилиб, ундаги туйғу, туйғудан ёришган манзара, манзарага мувофиқ ҳолат, ҳолат бағридаги ҳасрат ва фарёд фақатгина ойбекона услубда маҳорат билан сўзнинг кучи билан ёрқин тарзда ифодаланганлигини теран очиб берган. Шунингдек, И.Ҳаққулов Ойбек лирикасида сўзнинг

ниҳоятда эркинлиги ва шоир сўзга зуғум ўтказмаслигини эътироф этадики, шоир ижодида сўз қўллаш билан боғлиқ бўлган бу каби жиҳатлар бошқа ойбекшунослар ишларида учрамайди. Сўзларнинг эркинлиги эса ойбек шеъриятининг табиийлиги, жозибаси, туйғу ва манзараларнинг ёрқинлигини таъминловчи асосий воситалардан биридир.

Мунаққид Ойбекнинг доимий илҳомчиси табиат деб ҳисоблайди. У шоирнинг символизм оқими тажрибаларига таянган ҳолда қуёш, ой, юлдуз, тоғу дарахтлар, тун кабиларга мурожаат қилиб, улар воситасида борлиққа муносабатини рангин бўёқларда тасвирлаб берганлигини бир неча шеърлар таҳлилида аниқ кўрсатиб берган. И.Ҳаққуловнинг Ойбек ижодига ёндашиши бошқа ойбекшунослардан яна бир жиҳати билан фарқ қилади. Мунаққид шоир шеъриятини Шарқ мумтоз шеърияти мезонлари асосида текширади. Наим Каримов Ойбек лирикасини таҳлил этар экан уни Блокга эргашганини эътироф этади ва Александр Блок ва Ойбек шеъриятини бирлаштирувчи жиҳатларга аҳамият қаратади. Улуғбек Ҳамдам эса "Ойбекнинг туйғулар соҳасини сентиментал ва символик усулда фаҳмлашида ўзбек адабиётида реакцион романтизмнинг намояндаси Чўлпон ва ХХ асрнинг 10-20-йилларида ижод этган усмонли-турк символистларидан - Холид Фаҳрий, Ўрхон Сайфий, Юсуф Зиё, Умар Сайфиддин каби шоирларнинг маълум даражада адабий таъсири бўлган"[4,61] лигини айтади. Иброҳим Ҳаққулов эса ушбу қарашларни инкор этмаган ҳолда, Ойбек лирикасининг аксарият қисми Шарқ классик шеърияти билан боғлангани, у илк сабоқларни Навоий ва Фузулийдан ўрганганини, унинг шоир ва адиб бўлиб етишишида ўтмиш меросимизнинг таъсири фавқулотда кучлилигини таъкидлайди [2,217] шу сабаб мунаққид таҳлилларда Ойбекнинг моҳиятига кириб боришга интилади, ундаги қалб гўзаллигидан ҳайратланади, унинг улуғ шахсиятига таъзим қилади.

Мақоланинг тили ҳам ўзига хос бўлиб, олим турли ташбеҳлардан фойдаланади: "Оламни мунаввар қилган нур ва ёлқин офтобдан таралгани билан унинг айни ўзи эмас-да" [1,275]. Бу ўхшатиш Ойбек кўнглига тегишли, ушбу жумла орқали мунаққид шоир кўнглининг чексиз уммонлигига, уни ҳар қанча таърифлаган билан бутунлигича, тўла ифодалаб бўлмаслигини таъкидлайди. Бундан ташқари, Ойбекка берилган "кашф этилмаган сир", "сўз сеҳргари", "сир шоири" каби таърифларда мунаққиднинг шоирга чексиз муҳаббати, ихлоси, шунингдек, Ойбек ижодининг билимдони эканлиги яққол сезилади.

Мақолада мавзуни янада кенгроқ ёритиш, китобхонни Ойбек руҳиятига чуқурроқ олиб кириш мақсадида бир неча ҳикоят ва ривоятлар келтирилган. Бу ҳикоят ва ривоятлар халқ оғзани ижоди, Шарқ мумтоз адабиёти, жаҳон адабиёти намуналаридан саралаб олинганки, бу Ойбек ижодининг абадиятга дахлдорлигини кўрсатишга ҳам хизмат қилган.

Олимнинг "Эътиқод ва ижод" деб номланган китоби суҳбатлардан ташкил топган бўлиб, ундан Ойбекка бағишланган бешта суҳбат ўрин олган. Суҳбатларда Ойбек ижодининг турли қирралари, жумладан, лирикаси, навоийшунослик фаолияти ҳамда "Қутлуғ қон" романи хусусида янги фикрлар акс этган. Уларда олимнинг катта билим ва маҳоратга эга эканлиги яққол намоён бўлади. Суҳбатлардаги таҳлиллар сермазмунлиги, масала моҳиятига чуқур кириб бориши, ўзига хос қарашлар ва мушоҳадаларга бойлиги билан ўқувчи эътиборини тортади.

Умуман, И.Ҳаққулов бирор бир бадиий асар ҳақида фикр юритишдан олдин, уни ниҳоятда чуқур ўрганади ва ўз даъволарининг илмий жиҳатдан бақувват бўлишига эришиш учун изчил далилли фикрлар билдиради.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ҳаққул И. Тақдир ва тафаккур.Тошкент-2007
2. Ҳаққул И. Эътиқод ва ижод. Тошкент -2007
3. Наим Каримов.Ойбек.Тошкент-1985
4. Улуғбек Ҳамдам. Бадиий тафаккур тадрижи. Тошкент -2002

"ҲАСРАТ" (А.ЧЕХОВ) ВА "ҚАЙТИШ" (У.ҲАМДАМ) ХИКОЯЛАРИ ЁЛҒИЗЛИК ТУЙҒУСИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАЛКИНИ

Робия Бўриева,
ТермДУ Рус филологияси 2-босқич талабаси
(Илмий раҳбар: PhD Обид Шофиев)
Тель:+998996702771
robiyaburiyeva1997@gmail.com

Аннотация. Ушбу мақолада А.Чеховнинг "Ҳасрат" ва У.Ҳамдамнинг "Қайтиш" ҳикоялари қиёсий аспектда ўрганилган. Иккала ҳикоядаги типологик ўхшашликлар таҳлил этилган.

Калит сўзлар. Ҳикоя, типология, қиёс, макон, талқин, ёлғизлик.

Аннотация. В данной статье рассматривается сравнительный аспект в рассказах "Тоска" А.П. Чехова и "Возвращение" У.Хамдама. В двух рассказах анализируются типологические сходства.

Ключевые слова. Рассказ, типология, сравнение, пространство, интерпритация, одиночество.

Қиёсий адабиётшунослик 19-асрнинг иккинчи ярмида мустақил фан сифатида ривожлана бошлади. Қиёсий адабиётшуносликнинг объекти бир нечта таққосланадиган адабиёт бўлса, предмети эса миллатлараро адабий алоқалар ҳисобланади. Кўпгина ғарб, шунингдек рус олимлари қиёсий адабиётшунослик тараққиётида ўз ҳиссаларини қўшганлар. Ф.Балданспердж, П.Азар, П.Ван Тигем, Р.Уеллек, А.Веселовский, В.Жирмунский, Н.Конрад ва бошқалар . Ўзбек адабиётшунослигида С.Мели , Ф.Жураева , А.Қосимов , М.Шарафутдинова , Ш.Тўйчиева , М.Қўчқорова ва бошқаларнинг тадқиқотларини алоҳида тилга олиб ўтиш жоиз.

Ушбу тадқиқотимизга объект сифатида А.П.Чеховнинг "Ҳасрат" ҳамда У.Ҳамдамнинг "Қайтиш" ҳикояларини олдик. А.П.Чехов жаҳон адабиёти ҳикоячилигида муҳим ўрин тутган адиб. Ўзбек адабиётида унинг етук вакиллари Абдулла Қодирий, Чўлпон, Абдулла Қаҳҳор кабиларнинг ҳикоянавислик маҳоратининг шаклланишида Чехов анъаналари ҳам муайян омил бўлиб хизмат қилган. Ҳозирги замонавий ҳикоячиликда ҳам Чехов ижодий мактаби анъаналарини сезиш мумкин.

"Ҳасрат" ва "Қайтиш" ҳикоялари ёзилиш услуби, вақт ва макон, композицияси жиҳатидан фарқ қилсада, лекин улар ўртасида муайян муштаракликлар бор. Иккала асардаги қаҳрамонлар ҳам ёлғиз, кекса ва ташландиқ. Иккаласини ҳам боғлаб турган умумийлик бу - ёлғизликдир. А.П.Чеховнинг "Ҳасрат" ҳикоясидаги мана бу тасвирга қулоқ тутсак: "Шом пайти. Ёғаётган лайлак қор янги ёқилган фонарлар атрофида айланар, эринибгина отларнинг устига, одамларнинг елкаларига ва телпакларига қўниб оқартирар эди. Извошнинг курсисида букчайиб қимир этмай ўтирган Иона Потаповнинг ҳамма ёғи оппоқ, худди арвоҳга ўҳшайди. Агар устига катта қор уюми босиб тушганида ҳам қоқиб ташлолмайдигандек кўринади.... Унинг оти ҳам қордан оппоқ оқариб тек турар эди." . Иона Потапов бир хафта бурун ўзининг ягона ўғлидан айрилади. У ўзининг ёлғизлигини енгиш мақсадида совуқ бўлса ҳам кўчага чиқиб извошчилик қилишга мажбур бўлади. Дардини кимгадир тўккиси келади ва шундай совуқ об-ҳавода инсонлар қалбидан ўзига нисбатан илиқлик қидира бошлайди: "Орадан бир икки соат чамаси вақт ўтди... Қаттиқ-қаттиқ қадам ташлаб, сўкишиб тротуардан учта ёш йигит келмоқда, уларнинг икктаси ориқ ва новча, учинчиси букри ва пакана эди.

- Извошчи, бизни полицейский кўпригига элтиб қўй!- деди букри хиррилаган товуш билан,- уч киши...

Биттангага!

Иона чуҳ деб тизгинини силкитди. Биттанга , албатта, арзийдиган нарх емас, лекин унга ҳозир нархнинг ахамияти йўқ эди. Бир сўмми , беш тийинми- барибир, иш қилиб одам бўлса бас..."8 Иона хеч бўлмаганда шу инсонлар орқали юрагига малҳам топмоқчи бўлганида, юраги ёғаётган қордан ҳам совиб кетган бу ёш йигитлар унга илиқлик бера олишмасди. Сабаби у давирда "тана бошқа оғриқ сезмас" йўсинидаги ибора ушбу ҳолатга мос эди. Катта кўчада уриниб-туртиниб, шовқин солиб, ўз мақсади томон кетаётган одамлар учун Иона каби "кичик", аммо дарди катта одамлар қизиқ эмасди. Шундай бўлсада қаҳрамонимиз "дардкаш" қидиришдан тўхтамас. Йўлидан учраган тирик жон борки, баридан "нажот" кутар эди. Ёлғизлик Ионани ҳар сонияда таъқиб этарди: "Яна у танҳо қолди , яна сукунат ...Салгина кўнглидан кўтарилган ёлғизлик алами қайта бошидан куч олиб унинг юрагини сиқа бошлоди. Иона ҳаяжонли ва ва аламли кўзлари билан кўчанинг икки томонидан оқаётган халойиққа боқди. У ёқ бу ёққа ўтиб турган шу мингларча одамдан унинг дард

ҳасратига қулоқ соладиган бирон киши топилмасмикин? Лекин ўткинчилар на унинг ўзини, на кўнглидаги аламини пайқамай ўтиб кетмоқдалар"8. Иона охир оқибат ўзининг даҳшатли қалб оғриғидан чарчади, одамларнинг бефарқлигидан чарчади. Ахир, нима ҳам қилсин у? Бу дунёда якка-ю ёлғиз. Унинг ҳеч кими йўқ - на дардини эшитадиган, на ҳасратлашадиган. Унинг бирдан-бир яқини бу "тулпорчасидир". Инсон зоти эшитишга қодир бўлмаган бир пайтда бу дўсти уни мунгли нигоҳлари ила эшитади, гўёки дардкаш бўлади : " - Шунақа экан, ука!... Кузьма Ионичдан ҳам айрилиб қолдик... Бизларни ташлаб ... ўлди кетди, чакки қилди... Мана, чунончи сенинг қулунинг бор, сен унинг туққан онасисан... Чунончи, ўша қулунинг бирданига сени доғу ҳасратга қўйиб ўлса-ю, кетса.... киши ачинади, а? "

От қулоқ солгандай унинг қўлларини ҳидлаб, қурт-қурт хашак чайнайди...

Иона берилиб кетиб, кўнглидаги ҳамма ҳасратини унга айтиб беради...."8 .

Юқорида айтиб ўтганимиздек, иккала ҳикояни ҳам умумий ёлғизлик туйғуси бирлаштириб туради. У.Ҳамдамнинг "Қайтиш" ҳикояси қаҳрамони ҳам ёлғиз. Ёши бир жойга етиб келганидан сўнг уни қирқ йил ишлаган жонажон маконидан ишдан бўшатишади. У бу ҳолатга бардош бера олмайдигандек эди. Чунки уни уйда на кутувчиси бор ва на ғамхўри:

"Шундай қилиб у ишдан кетди... Ишхонадан кенг ва катта кўчага чиқаркан, ўзини ғариб, афтодаҳол сезди. Уйига бормасдан қаровсиз итдек шаҳар кезди. Шунда у ўзини ҳақиқатдан кераксиз ва ташландиқ ҳис қилди. Улкан кўчалар бўйлаб қад кўтарган осмонўпар бетон уйлар худди унга қараб бостириб келаётгандек даҳшатли туюларди"9. Инсон ҳаётда яшашнинг мазмунини йўқотганидан сўнг атрофдаги барча нарсалар даҳшатли бўлиб кўринади. Қаҳрамонимиз ҳам яшаш мазмунини йўқотганидан сўнг ўзини қўярга жой топа олмай кўчаларни тентирайди. Ҳар бир бурчакдан гўёки нажот излайди. Уйга қайтайин деса у ерда ҳеч кими йўқ: "Уйга эса унинг асло қайтгиси келмаётганди. Юраги дов бермаётганди., тўғриси. Ахир, ўғли ва қизининг бири чет элда , бошқаси қўшни шаҳарда яшашади. Улар оила қуриб, ўзидан тиниб тинчиб кетишганига анча бўлган. Хотини ҳаётлик пайтида бир келишса келишарди, бўлмаса телефон биланоқ қариндошчилик бурчидан осонгина қутилиб қўйишарди. Узоқ йили аёли қазо қилди. Шундан бери ёлғиз эди"9. У.Ҳамдам қаҳрамонининг ички кечинмаларини нозиклик билан тасвирлайди. Бош қаҳрамон бу вазиятдан чиқиши учун ўзини тинимсиз саволларга кўмади. Ва қаерда хато қилганини тафтиш эта бошлайди. Анча вақт ўз ёғига ўзи қовурилиб ахири уйқуга кетади, тонгда эса ажойиб бир ҳолатга дуч келади: "Бир маҳал қулоғига қушларнинг шодон чуғур-чуғури кирди, шу ҳамоно юзига тушиб турган қуёшнинг ёқимли тафтини туйди. Ҳа, ажиб бир фароғат уни уйғотган эди "9. Ёзувчи ушбу ҳолатда бош қаҳрамонимизнинг секин асталик билан "тузалишини" курсатиб ўтган. Янгиланиш фасли бахор ҳам бекорга танланмаган. Бу фаслда табиат қишги оғир уйқудан уйғонгани каби инсон қалбида ҳам янгиланиш рўй беради. Хаётга бўлган умид учқунлари аланга олади. Ҳикоя қаҳрамони шу пайтгача нима учун яшаган, ким учун яшаганини ҳам унутаёзди. У нима учун яшаганини ва мақсадини билар эди. Аммо булар ёшликда бўлган. Мана қарийб қириқ йил бўлдики, у ушбу туйғуларни яна ҳис эта бошлади. Шу тобда юрагида ва қалбида катта ўзгариш рўй берди: "Шунда кимдир унга "Сен ёлғиз эмассан!..." деяётгандек бўлди... бир сесканди-да, қўзғалиб юрди. Димоғига сув сепилган тупроқнинг баҳор аралаш ҳиди урилди . Кўнгли бир кўтарилиб тушди. Лекин ўзини тутди. Дарахитга яқинлашиб, унга худди одамга қарагандек қаради. Бирдан ботинида нимадир кўчди... кўчди-ю, ўзини дарахитга ташлаб , уни маҳкам қучганича аввалига унсиз , кейин негадир пиқирлаб йиглаб юборди. Узок, жуда узоқ вақтдан бери кўзларидан бир томчи ёш чиқмаган бу қария енди елкалари силкиниб силкиниб йиглар, йиглаган сари бутун умр йиғилаган қатлам-қатлам ситамлари кўчиб чиқаётгандек бўларди...

У ўзига ҳамроҳ ва суянчиқдек туюлган дараҳит гавдасидан қўлларини олганда кўнгли чарағон эди. Ҳолбуки, атроф туннинг сиёхига чўмилганди, бироқ зулмат йўқ эди бу кечада"9.

Ўзаро таққослаш жараёнида маълум бўлдики, иккала қаҳрамон ҳам қалбан ўхшаш. Атрофдаги барча яқин кишилари ташлаб кетган бўлишига қарамай, четдан нажот излашади. Уларни бир қайғу - ёлғизлик бирлаштиради.

Айтиш мумкинки, "Ҳасрат" билан "Қайтиш" асарлари ёзилиш вақти ва макондан бир-биридан фарқ қилсада, улар ўртасидаги ўхшашликлар қуйидаги ҳолатларда янада яққол сезилади:

- Иккала асарда ҳам инсонлар, ўз ташвишлари оғирлиги остидаги оддий инсоний илиқликка муҳтож бўлганларни унутадилар;

- Икки асарда ҳам ижтимоий тузумнинг адолатсизлиги кўрсатилган: ("Ҳасрат"да, эҳтимол, агарда извошчи бой бўлганида, ўглининг даволанишига имкон бўларди ва фожеали оқибатга юз тутмасди. Бошқа томондан, агарда йўловчилар извошчининг дардини ешитганида еди , унинг кўнгли бироз бўлса ҳам таскин топарди. "Қайтиш"да , қаҳрамонимизга яна озироқ ишлашга фурсат

берилганида, у бундай ёлғизликка дучор бўлмасди. Ишдан бўшаган тақдирида ҳам, фарзандлари отаси билан бир жойда яшашганида у на ёлғизликни ҳис этарди, ва на ташландиқликни;

- Бу икки асарда ҳам инсоннинг табиат билан уйғунлиги яққол кўрсатилган: ("Ҳасрат"да Иона Потапов ўз отига кўнглини тўкади, от еса ундан юз ўгирмайди, таъна қилмайди ва қийин пайтда "дардга малҳам бўлади". Бунинг оқибатида қаҳрамонимиз оз бўлсада таскин топади.

"Қайтиш"да бош қаҳрамон табиат билан уйғунликда бўлади, дараҳитлар, гуллар, қушлар дардига малҳам бўлади, шу туфайли қаҳрамонимиз бор дардини тўкиб йиғлайди ва натижада қалб нурафшонлигига эришади);

- Ижодкорлар қаҳрамонларининг руҳиятини, характерини яққолроқ, табиийроқ очиш мақсадида ички монолог, диологлар ва пейзаждан фойдаланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. В.Р.Аминева "Қиёсий ва қиёсий адабиётшунослик назарияси асослари" Қозон. 2014-й. 105-б.
2. Мели С. Юксак фазоларда учрашув ёхуд зукко мезбон/ М.Қўшжонов., С.Мели. Абдулла Орипов.- Маънавият , 2000.-Б.89-106.
3. Жўраева Ф. Типологик образларнинг қиёсий таҳлили (Л.Н.Толстойнинг "Хожимурод" ва Х.Тўхтабоевнинг "Қасоскорнинг олтин боши" романлари мисолида.) НДА.-Т.,2000.
4. Қосимов А, Типологик ўхшашликлар ва ўзаро таъсирининг назарий муаммолари (А.де Сент-Экзюпери ва А.Камю ижоди мисолида).ДДА.-Т., 2007.
5. Шарафутдинова М. Особенности повествовательной структуры узбекского романа XX века в контексте мировой литературы. АДД.-., 2010.
6. Тўйчиева Ш. Чўлпон ва Камю // Жаҳон адабиёти. 2001.№6.-Б.146-151.
7. Қўчқорова М. "Озодлик" ва "Фиеста" асарларида пейзаж рамзи / Бадииё сўз ва рухият манзаралари.-Т.: Муҳаррир , 2013-Б. 139-149; Шу муаллиф . Ҳозирги ўзбек насрида ассоциатив тафаккур усули // ўзбек тили ва адабиёти .-2015.-№4-Б. 65-69.
8. Чехов А. Танланган асарлар . Уч томлик. 1883-1890. Ўзбекистон ССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти . Тошкент-1957.-Б.107,109,110,112.
9. http://www.ziyouz.com/index.php?option=com_content&id=5728&ltemid=99999999.

OTLARDAGI KO'PLIK SHAKLINING NUTQDAGI AHAMIYATI

Ne'matjonova Feruza
Norin tumanidagi 35-maktab
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
+998973724969
fnematjonova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko'plik qo'shimchasining o'zbek tilida ifodalanishi va uning turli xil variantlari haqida ma'lumot berilgan. Unda bildirilgan fikr-mulohazalar ilmiy manbalar orqali asoslangan. Shuningdek, maqoladan ona tili fani o'qituvchilari va oliy ta'limga tayyorlanayotgan o'quvchilar foydalanishlari mumkin.

Kalit so'zlar: ko'plik shakli, grammatik ko'plik, affiks, uslubiy ma'no, grammatik shakl.

O'zbek tilida ko'plik shaklining ifodalanishi , asosan, -lar affiksi yordamida hosil bo'ladi. Bu otlarning morfologik yo'l bilan hosil qilingan ko'plik shakli hisoblanadi va grammatik ko'plik deyiladi. Masalan: Ishq daftari sig'mas do'stlar dargohig'a, Jumla oshiq yig'lab borg'ay borgohig'a (Ahmad Yassaviy). Dahr bog'i gullari husnin vafosiz erkanin, Yuzi gul, jismi suman, ko'yi gulistonimg'a ayt (Navoiy).

Yuqorida keltirilgan misollarda -lar affiksi grammatik ko'plik ma'nosini ifodalagan. Bundan tashqari -lar affiksi holatni, mavhum tushunchalarni bildiruvchi so'zlarga qo'shilib grammatik ko'plikni emas, balki kuchaytirish, ta'kid kabi uslubiy ma'nolarni ham ifodalaydi. Agar qo'shimcha o'z vazifasidan boshqa vazifalarni ham bajarsa, bu uning uslubiy vazifasi hisoblanadi. Masalan: Ko'ngluma bir gul g'amidin sanchilibdur xorlar, Ohkim, har xoridin jonimdadur ozorlar

Munis ijodidan olingan yuqoridagi misralarda xor va ozor so'zlariga -lar affiksi qo'shilib ma'noni kuchaytirish vazifasini bajargan.

-lar affiksi payt bildiruvchi so;zlarga qo'shilganda harakat yoki holatning davomiyligini takrorlanib turishini ifodalab keladi: Iting Atoyig'a tunlar achchig'lanib aytur (Atoyi). Dard bila kechalar yig'lar zor (Shayboniynoma). Ushbu misralarda tun va kun ravishlariga qo'shilib qahramon ichki holatining davomiyligini bildirib kelgan.

-lar affiksi ko'plik, kuchaytirish, ta'kid, davomiylik kabi ma'nolardan tashqari hurmat ma'nosini ham bildiradi: Vasiyat qildikim, hazrati Mahdumiy Nuran tugatib oz devonlarida bitsunlar (,, Majolis un-nafois"). Ustodim aydilar: ey qozi, qo'rqmag'il, o'lmassan bu xastalikdan, turarsan (,, Miftoh ul-adl").

Otlardagi ko'plik qo'shimchasi eski o'zbek tili davrida ham qo'llangan bo'lib, o'sha davrda ham bu shakl -lar qo'shimchasi orqali ifodalangan. Bundan tashqari turkiy til taraqqiyotining oldingi davrlarida ko'plik -lar ko'rsatkichi bilan chegaralanib qolmasdan, -(a)t, -(a)n affikslari orqali ham hosil qilingan.

Ko'plikning -(a)t affiksi bilan hosil bo'luvchi shakli turkiy tillar taraqqiyotining oldingi davrlaridayoq iste'moldan chiqib ketgan. Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklarida bu affiks bilan ayrim so'zlardangina ko'plik shakli yasalishi uchraydi. Masalan, " Devoni lug'otit turk" asarida tagit tagin, tarqat tarqan, aret ar so'zining ko'plik shakli ekanligi qayd etib o'tilgan.

“Boburnoma" asarida ham -(a)t affiksi bilan yasalgan so'zlarga misollar uchraydi, ammo bu so'zlar grammatik ko'plik ma'nosida emas jamlik ma'nosida qo'llangan: tumanat (birligi "tuman"-o'n ming), mahallat (birligi mahalla), bag'at (birligi bog'), begat (birligi beg) kabi. Misollar :

Temurbekning va Ulug'bek mirzonong imoroti va bog'oti Samarqand mahallotida ko'ptur ("Boburnoma").

Samarqand mahallalarida Temurbek va Mirzo Ulug'bek qurdirgan binolar va bog'lar ko'pdir.

Hozir bu affiks ayrim joy nomlari, qabila-urug' nomlari tarkibida saqlangan: Tevat - qishloq nomi, Bag'at - qishloq nomi, tapag'at - urug'-aymoq nomi.

Ko'plik shaklini hosil qiluvchi -an affiksi ham yozma yodgorliklardan ma'lum bo'lishicha, kammahsul bo'lib, uning qo'llanishi ayrim so'zlar bilangina chegaralangan. Masalan, " Devoni lug'otit turk" materiallariga ko'ra, XI asr tilida bu affiks o'g'ul va ar so'zlaridangina ko'plik yasagan:

Ulishib eran bo'rlayu,
Jirtin jaqa urlayu .
("Devoni lug'otit turk")

Odamlar bo'riga o'xshab uvlab yig'ladilar, yoqalarini yirtib tashladilar.

Yuqorida keltirilgan ko'plik ko'rsatkichlaridan tashqari yana -z va -q affikslari ham borki, ular qisman ko'plik va juftlikni ifodalaydi.

-z ko'rsatkichi egiz, muguz, ko'z, tizza kabi so'zlarda juftlikni, biz, siz kabiolmoshlar, o'g'uz, qirg'iz kabi etnonimlarda esa ko'plikni ifodalab kelgan:

Zulfing cheriki jamol mulkin
Oldi ko'zung ittifoqi birla
(Atoiy)

-q ko'rsatkichi ayaq, qulaq kabi so'zlarda juftlik ma'nosini bildirgan:

Ayoqingg'a tushar har lahza gisu,
Masaldurkim: "Charog' tubi qarong'u".
(Lutfiy)

-k ko'rsatkichi I shaxs ko'plik ma'nosini ifodalaydi.

Ko'plik ma'nosi yuqorida ko'rsatib o'tilgan grammatik ko'rsatkichlardan tashqari bisyor, ortiq, ko'p kabi leksik birliklar orqali ham ifodalanadi.

Ko'plik shakllarining ayrimlari yuqorida ta'kidlab o'tilgan bugungi kundagi ayrim joy nomlari, qabila nomlari va boshqa so'zlar tarkibida yaxlitlanib saqlanib qolgan. Masalan, tumonot so'zini olaylik. Bu so'z dastlabki davrlarda o'n minglab kishilar yashaydigan joyga nisbatan qo'llangan. Bugungi kunda ham bir yerga yig'ilgan insonlar jamoasiga nisbatan tumonot so'zi qo'llaniladi: Uchrashuvga tumonot odam yig'ildi.

Eski o'zbek tilida ko'plik hosil qiluvchi yana bir ko'rsatkich mavjudki, bu affiks etimologiyasi jihatidan sof turkiycha emas, balki turkey tilga arab tilidan o'zlashgan affiks hisoblanadi: adabiyot, g'azaliyot, falakiyot, tibbiyot so'zlari tarkibidagi -iyot affiksi.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan shuni aytish mumkinki, hozirgi o'zbek tilida -lar qo'shimchasi grammatik va bir qator uslubiy ma'nolarni ifodalaydi. Shu bilan birga bu qo'shimcha hozirgidan farq qilmagan holda eski o'zbek tilida ham -lar qo'shimchasi xuddi shunday ma'nolarni bildiradi, lekin shakl jihatidan -lar qo'shimchasi bir qator grammatik shakllarga ega.Nutqimizda esa bu qo'shimcha turli ma'no nozikliklarini, uslubiy ma'nolarni ham ifodalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek tili. -T., Universitet, 2006.
2. A.Navoiy . Majolis un-nafois. Mukammal asarlar to'plami (20 jild). -T., Fan, 1987.
3. Nosirov O. O`zbek adabiyotida g`azal. -Toshkent-1972.
4. Z.M.Bobur. Boburnoma. -T., Yulduzcha, 1989.
5. Ма?муд Кош?арий. Девони лу?отит турк. -Т., ЁАК, 1961.
6.N.M. Mahmudov, A.Sh.Sobirov, Y.R.Odilov, G.SH. Ziyodullayeva-10-sinf ona tili darsligi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2017.

TADQIQOT.UZ
ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 15-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

(4-қисм)

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Эълон қилиш муддати: 30.04.2020

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амир Темур пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000